

SAPAYEVA FERUZA DAVLATOVNA

MATNSHUNOSLIK

FANIDAN MA'RUZA
MASHG'ULOTLARNI
TASHKIL ETISH



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

SAPAYEVA FERUZA DAVLATOVNA

**MATNSHUNOSLIK FANIDAN
MA‘RUZA MASHG‘ULOTLARNI
TASHKIL ETISH**

(O‘quv-uslubiy qo‘llanma)

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim
yo‘nalishi uchun

**Toshkent
«Tafakkur-bo‘stoni»
2020**

UO‘K: 821.51.1.11.

KBK: 83.3 (Suzb)

S 21

Sapayeva Feruza.

Matnshunoslik fanidan ma’ruza mashg’ulotlarni tashkil etish / (O‘quv-uslubiy qo‘llanma). – T.: «Tafakkur-bo‘stoni», 2020. – 232 b.

Ushbu qo‘llanmada – muayyan malakaga ega mutaxassislar tayyorlash, “Matnshunoslik” fani bo‘yicha ma’ruzalarni dars jarayoniga tatbiq etish, xususan, talabalarda yetarli bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish, ularni qadimiy merosimizga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun zamin hozirlash asosiy maqsad qilib belgilangan.

Qo‘llanma orqali talaba ma’ruza darslarini o‘zlashtirish jarayonida mukammal ma’lumotga ega bo‘lishi, ta’limning zamonaviy metodlarini faol qo‘llash haqida yalpi tasavvur hosil qilishi, uning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida muxtasar ma’lumot olishi, fanga doir eng muhim nazariy qoida va talablari bilan tanishishi jihatidan, undan filologiya sohasidagi barcha mutaxassislar, o‘qituvchi va magistrilar ham foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

Karimboy Quramboyev – NukusDPI filologiya fanlari doktori, professor. Xalqaro “Maxtumquli Firog‘iy” nomidagi davlat mukofoti sovrindori

Taqrizchilar:

Mariya Bekbergenova – NukusDPI professori, filologiya fanlari nomzodi

Sa’dulla Matyakupov – NukusDPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Ziyada Bekbergenova – O‘zR FA QQB dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

Nukus davlat pedagogika instituti Ilmiy Kengashining 2019-yil 1-noyabr sanasidagi majlisida nashrga tavsiya qilingan (№3 sonli majlis bayonnomasi)

UDK: 821.51.1.11.

BBK: 83.3 (Suzb)

ISBN 978-9943-993-80-8

© F. D. Sapayeva

© «Tafakkur-bo‘stoni», 2020

KIRISH

Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi lozimki, uning har bir harakati tarbiyalasin.

(A.S.Makarenko)

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, mamlakatimizning istiqlol davri taraqqiyoti, milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi ilm-fanimizning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Vatanimiz qadimdan jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo'lgan. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi mahsuli – qadimiy yozma manbalar xalqimizning buyuk ma'naviy boyligidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori bu yozma manbalarni tadqiq etuvchi sharqshunos va manbashunos olimlar uchun yanada keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Davlatimiz rahbarining yetakchi olimlar bilan uchrashuvi, qator ilmiy-tadqiqot muassasalarini Fanlar akademiyasi tizimida qaytadan shakllantirish, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, chet ellarda malaka oshirish, xorijlik olimlar bilan hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan farmonlari fan taraqqiyoti, xususan, ma'naviy merosimiz manbalari bo'lgan qo'lyozma asarlarni tadqiq etishni yangi bosqichga olib chiqdi. Dunyodagi har bir xalq o'zining yozma tarixiga ega. Bu tarixni o'rganishda hech bir manba yozma yodgorliklardek batafsillikka da'vo qilolmaydi.

Oliy o'quv yurtlarida filologik ta'limni yo'lga qo'yishda Matnshunoslik fani muhim ahamiyat kasb etadi. Qadimgi adabiy manbalarni qo'lyozma va toshbosma nusxalar asosida nashr etish, ularning mukammal ilmiy izohlar, ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan tanqidiy matnlarini tayyorlash, fondlarda mavjud qo'lyozma va toshbosma matnlarni tadqiq etish bilan bevosita filolog mutaxassislar shug'ullanadi. Shu sababli, ushbu fan ixtisoslik fanlaridan biri hisoblanib, filologiya va tillarni o'qitish, xususan, o'zbek tili va adabiyot ta'lim yo'nalishi talabalari uchun shakllanish va rivojlanish omili hisoblanadi.

Qo‘lingizdagi kitob-qo‘llanma Matnshunoslik fani namunaviy o‘quv dasturi asosida tuzilib, unda asosan mazkur fanni o‘qitishda ma’ruza mashg‘ulotlarni tashkil qilish, nazariy bilimlar bilan qurollantirish, shu bilimlarga tayangan holda matnshunoslikning mazmuniy va vazifaviy xususiyatlari, sohaga oid adabiyotlar ustida ishlash hamda asosiy tushunchalar, atamalar va nazariy umumlashmalar bilan tanishishga qaratilganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shu ma’noda, qo‘llanmada – muayyan malakaga ega mutaxassislar tayyorlash, “Matnshunoslik” fani bo‘yicha ma’ruzalar tashkil etishni zamonaviy usullarini dars jarayoniga tatbiq etish, xususan, talabalarda yetarli bilim, malaka va ko‘nikma hosil qilish, ularni qadimiy merosimizga hurmat va muhabbat ruhida tarbiyalash hamda kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishlari uchun zamin hozirlash asosiy mezon qilib belgilangan. Va, yana maqsadimiz – talabalarda shu fanning asosiy masalalari, mavzulari, xulosalari, umumlashmalari haqida tasavvur tugdirish, eski o‘zbek yozuvidagi manbalarni o‘qish, uqish, qadimiy matn adabiy-badiiy asarlarni tahlil va talqin qilishga o‘rgatishdan iborat.

Qo‘llanmada jamlangan tasviriy obyekt orqali talaba – ajdodlarimiz hayotini butun tafsilotlarigacha bag‘riga joylagan qo‘lyozma manbalarning o‘tmish bilan bugunni bog‘lovchi ko‘prik ekanligini his qilishi, tabiiy.

Insoniy tamaddun tarixida qadimiy qo‘lyozmalarning ahamiyati shu darajada ekan, bu bebaho ma’naviy merosga chinakam voris bo‘lish uchun ularni chuqur o‘rganish, o‘rganilganda hosil bo‘lgan bilimni ommalashtirish talab qilinadi.

Ayni paytda mamlakatimizda ma’naviy merosni o‘rganish, milliy qadriyatlarni tiklash ishlariga e’tibor kuchaydi. Natijada millat ruhiyatida o‘z-o‘zini anglash tuygusi yanada jonlandi, ajdodlar qoldirgan ma’naviy merosga voris bo‘lish ishtiyoqi uygondi. Shu bois, qadim adabiy manbalarni qo‘lyozma nusxalar asosida nashr etish, ularning mukammal ilmiy izohlar, ko‘rsatkichlar bilan ta’minlangan tanqidiy matnini tayyorlash, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish har qachongidan ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Fondlarda mavjud qo‘lyozma va toshbosma matnlarni o‘qish va tadqiq etish malakasiga ega bo‘lish bo‘ljak filologlar uchun muhim vazifadir.

“Matnshunoslik” fani ixtisoslik fanlardan biri hisoblanib, Turkiy tillarni o‘qitish, o‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 3-semestrda o‘qitiladi. Darslarni ta’limning 2-bosqichida (36 soat nazariy va 36 soat amaliy) jami 72 soat auditoriya mashg‘ulotlari tarzida o‘tkazish belgilangan bo‘lib, qo‘llanmada ma’ruza mashg‘ulotlari mavzulari qamrab olinadi, ular amaliy mashg‘ulotlar jarayonida mustahkamlanadi. Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini faol qo‘llash nazarda tutilgan.

Qo‘llanmada qayd qilinganidek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalar, tarqatma materiallar, adabiy albomlar, badiiy asarlar, mavzuga doir maxsus bukletlar, tarqatma materiallar va boshqa ko‘rgazmali qurollar keng joriy etiladi.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma davlat ta’lim standartlari talablariga mos ravishda ishlanib, undan o‘quv (dars) reja, asosiy tushuncha va atamalar, mavzuga oid muammolar, nazorat test savollari, mustaqil o‘qish uchun tavsiya qilingan topshiriqlar (adabiyotlar), glossariy va fan bo‘yicha nazorat savollar o‘rin olgan. Ma’ruza mavzularini tayyorlashda ta’limning ilmiylik tamoyiliga amal qilinib, internet materiallardan ham unumli foydalanildi. Har bir mavzu-moduldan so‘ng nazorat testlari berilgan bo‘lib, talabalar ko‘rsatilgan, tavsiya qilingan adabiyotlardan o‘zlarini qiziqtiradigan savollarga javob olishi mumkin.

1-MAVZU

O‘ZBEK MATNSHUNOSLIGI TARIXI VA UNING XORIJIY MATNSHUNOSLIKDAN FARQLI JIHALARI

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad – o‘zbek matnshunosligi tarixi va uning xorijiy

matnshunoslikdan farqli jihatlari, oldda turgan muammolar, jahon matnshunoslik tajribalari, mohiyati va talqini o‘rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni kitobsevarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – mantiqiy fikrlash, izlanish, o‘qish qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: “O‘zbek matnshunosligi tarixi” ga oid vatman qog‘oz (banner), kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti, bukletlar va tarqatma materiallar.

Dars turi: ma’ruza

Darsning rejasi:

1. O‘zbek matnlari tarixi va uning o‘ziga xos jihatlari
2. Jahon matnshunoslik tajribalari
3. Rus matnshunos olimlari qarashlari

Tayanch so‘z va asosiy tushunchalar: *matnshunoslik, tekstologiya, uyg‘onish davrida antik adabiyot yodgorliklari, yozuvchi ijodiy laboratoriyasi, antik, o‘rta asr va yangi adabiyot, qo‘lyozma asarlar, muallif tahrirlari, variantlar.*

Matnshunoslik, “tekstologiya” – yordamchi tarixiy-filologik fan sohasi, adabiyot va folklorga oid qo‘lyozma asarlarni, tarixiy hujjatlarni, ularning aniq matnlarini aniqlash va tanqidiy o‘rganish, sharhlab e’lon qilish maqsadida ular ustida tadqiqotlar olib boradi. Matnshunoslikning vazifasi matnni har tomonlama tadrijiy tanqidiy (matn tarixiga chuqur kirib borish, matnni yaratishda foydalanilgan manbalarni, muallif tahrirlari, variantlari va boshqalar) o‘rganib, nashrga tayyorlashdan iborat. *Matnshunoslikning quyidagi asosiy xillari farqlanadi: antik, o‘rta asr va yangi adabiyot.* Mas., qad. yunon olimi Aristarx (miloddan avvalgi II asr) Gomer asarlari matnini tanqidiy o‘rgangan. Sharq islom olamida VII asrdan

hozirgacha bir harfi o'zgarmay, mashhur xattotlar tomonidan minglab nodir nusxalarda ko'chirilgan qo'lyozmalardan biri muqaddas Qur'oni Karim matnidir. Ular dunyoning turli joylaridagi kutubxonalarda saqlanadi. Uyg'onish davrida antik adabiyot yodgorliklarining dastlabki ko'rinishlarini, asliy matnlarini tiklashga qiziqish kuchaygan.

O'zbekistonda matnshunoslik o'z tarixiga ega. 1400 yil davomida O'zbekiston olimlarining arab, fors va o'zbek tilida yaratgan ko'plab yirik durdona asarlari o'z davrida, undan keyingi davrlarda o'rganilib, xattotlar tomonidan ko'chirilib, xato-nuqsonlari boshqa nusxalar orqali to'g'rilanib, hozirgi kunimizga qadar yetkazib kelingan. Bu ishga rus olimlari V.V.Bartold, I.Yu.Krachkovskiy, A.K.Borovkov, A.N.Kononov va boshqalar ham munosib hissa qo'shishdi. Respublikamizda matnshunoslik bo'yicha ishlar O'zbekiston FA Til va adabiyot, Sharqshunoslik institutlarida olib borilmoqda. Alisher Navoiy asarlarining ilmiy tanqidiy matnlarini tayyorlash va nashr ettirishni S.Ayniy ("Hamsa"ning qisqartirilgan nashri), O.Sharafiddinov, I.Sultonov ("Mezon ul avzon"), A.N.Kononov ("Mahbub ul qulub") va boshqalar amalga oshirdilar. Matnshunos olim P.Shamsiyev Navoiy "Hamsa"sining to'la va yaxlit bir kitob holida nashrga tayyorlash borasida murakkab matnchilik yuzasidan tadqiqiy ishlar olib bordi. Natijada, "Hamsa"ga kirgan besh doston: "Hayrat ul abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy"larning barcha nashrlarini Sultonali Mashhadiy, Abdujamil Kotib va boshqa kotiblar tomonidan ko'chirilgan nusxalari bilan qiyoslab, "Hamsa" ning asl matniga yaqin keladigan ilmiy tanqidiy matnini tayyorladi va 1960-yil nashr ettirdi. Hamid Sulaymonov Navoiyning "Xazoyin ulmaoniy" asari tanqidiy matnini tayyorlab nashr ettirdi (1958–1961). S.G'aniyeva "Majolis un nafois" asari tanqidiy matnini tayyorladi. O'zbek olimlardan S.Mirzayev, G.Karimov, S.Mutallibov, S.Dolimov, R.Majidiylarning matnchilikdagi xizmatlari natijasida bir qator o'zbek mumtoz shoirlarining asarlari nashr etildi.

Adabiyotshunoslikning muayyan amaliy vazifalarni bajarish bilan shug'ullanuvchi matnshunoslik, manbashunoslik, kitobiyot (bibliografiya) kabi qator yordamchi sohalari mavjud.

Matnshunoslik. Matnshunoslik bobidagi ilmiy izlanishlarning oxir natijasi adabiyot tarixi va nazariyasi uchun manbaviy asos yaratib berish bo‘lganligidan unga adabiyotshunoslikning yordamchi sohalaridan biri sifatida qarab kelinadi. Shunga qaramay, matnshunoslikni filologik fanlarning alohida tarmog‘i, mustaqil bir sohasi sifatida tushunish to‘g‘riroq bo‘ladi. Negaki, birinchidan, matnshunoslik faoliyati adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarix fanlari kesishgan nuqtada kechadi; ikkinchidan, matnshunoslikning o‘zi ilmiy izlanishlarida qator yordamchi sohalarni (paleografiya, uslubshunoslik, arxeografiya va h.) o‘ziga xizmat qildiradi. Adabiy matnlarni o‘rganish va nashrga tayyorlash matnshunoslikning vazifasidir. **Matnshunoslikning vazifasini juda qisqa ifodalagan bo‘lsak-da, uning amalga oshirilishi juda katta mehnatni, chuqur bilim va tajribani talab qiladi. Ma’lumki, xalqimiz boshidan necha-necha istiloyu qatag‘onlar kechganiga qaramay, ajdodlarimizdan bizga boy adabiy meros qolgan: minglab jildlardan iborat qo‘lyozmalar xazinasiga egamiz. Biroq bu qo‘lyozmalarning aksariyati hali o‘rganilgan emas, ro‘yxatga olib qo‘yilgani bo‘yi o‘z tadqiqotchilarini kutadi. Shuning o‘zi ham matnshunoslikning og‘ir, ilmning “qora mehnati” ekanligini, uni rivojlantirish ham ilmiy, ham ma’naviy-ma’rifiy jihatlardan zarurligini ko‘rsatadi.**

Adabiy matnni o‘rganayotgan matnshunos oldida turli-tuman ilmiy muammolar ko‘ndalang bo‘ladi. Deylik, matnshunos muallifi noma’lum asar (matn)ga duch keldi. Bu holda u matn muallifini, yoshini (yozilgan, ko‘chirilgan vaqti) aniqlashi zarur bo‘ladi. Buning uchun esa u, tabiiyki, adabiyot tarixi, til tarixi, manbashunoslik, uslubshunoslik kabi sohalardan yaxshi xabardor bo‘lishi va ularga tayangan holda matnni tadqiq etishi lozim bo‘ladi. Yoki matnshunoslikning boshqa bir vazifasi – asarning ilmiy-tanqidiy nashrini tayyorlashni olaylik. Masalan, Alisher Navoiy asarlarining turli davrlarda, turli kotiblar tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmalari mavjud. Matnshunos qarshisida ularni qiyosiy o‘rganish, birining kamchiliklarini boshqalari bilan to‘ldirish va shu asosda eng mukammal – ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash vazifasi turadi. Tayyor bo‘lgan ilmiy-tanqidiy matnni nashr ettirish uchun matnshunos uni izohlar, sharhlar, lug‘atlar bilan ta’minlashi kerak. Unutmangki, biz foydalanadigan “Mukammal asarlar” ortidagi har

bir izoh, har bir sharh yoki lug‘at birligi juda katta mehnat orqasida dunyoga keladi. Zero, matnda uchragan so‘z ma’nosini topish, undagi biror shaxs, joy nomi va sh.k.larga izoh berish uchun matnshunos juda ko‘p izlanishi, ko‘plab manbalarni ko‘rib, o‘rganib chiqishi zarur bo‘ladi. Yuqoridagicha mustaqil tadqiqotlardan tashqari, matnshunoslik adabiyotshunoslikning ayrim muammolarini hal qilishda muhim yordamchi soha, tadqiqot usuli bo‘lib ham xizmat qiladi. Masalan, uning tadqiq usullaridan, tajribalaridan yozuvchi ijodiy laboratoriyasini, muayyan asarning ijodiy tarixini o‘rganish yo‘lidagi izlanishlarda keng foydalaniladi.

Matnshunoslik sohasi filologiya fanining asosiy va muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, yozma yodgorliklarning asl matnini tiklash hamda ularni nashr ettirishning nazariy va amaliy jihatlari bilan shug‘ullanadi. Matnshunoslikning asosiy vazifasi qo‘lyozma yoki toshbosma nusxadagi muayyan asarning matnini muallif qalamidan chiqqan asl holatini tiklash va nashr ettirishdir.

Izohli lug‘atda “matnshunoslik” istilohiga shunday ta’rif beriladi: “Matnshunoslik – adabiyot va folklorga oid qo‘lyozma asarlarni, tarixiy hujjatlarni, ularning haqiqiy, asl matnlarini aniqlash va tanqidiy o‘rganish, sharhlab e’lon qilish maqsadida ular ustida tadqiqotlar olib boruvchi yordamchi-filologik fan sohasi; tekstologiya”.

O‘zbek tilida bu istiloh arabcha “matn” lug‘aviy ma’nosi – mustahkam, pishiq, qattiq degani bo‘lib, qo‘shma so‘zning ikkinchi qismi “shunos” (“tanimoq”, “bilmoq” ma’nolarini ifodalovchi forscha “shenoxtan” fe’lidan olingan) va turkiy “-lik” ot yasovchi qo‘shimcha tarkibidan yasalgan.

Rus filologiyasida “matnshunoslik” so‘zi bilan birdek “matn tanqidi” so‘z birikmasi ham qo‘llangan. Yevropada hozir ham matnshunoslik “Textkritik”, ya’ni “matn tanqidi” deb yuritiladi. Bu o‘rinda “tanqid” so‘zining qo‘llanishiga e’tibor qaratish lozim. “Matn tanqidi” jumlasini orqali matnni manbashunoslik va matnshunoslik yo‘nalishida qiyosiy-tarixiy o‘rganish nazarda tutiladi.

XX asr boshlarida Turkistonda ham matnni tanqidiy o‘rganishga munosabat shakllana bordi. Turli matbaa yoki kutubxonalarning tashkil etilishi muayyan ma’noda matnshunoslik tarixini yangicha yo‘nalishda o‘rganishga sabab bo‘ldi. 1920-yili martda Turkiston

MIK Turkiston davlat nashriyoti ta'sis etish haqida qaror qabul qilinadi. Bu O'rta Osiyodagi ilk kitob nashriyoti bo'lib, unga o'lkadagi barcha nashr ishlarini birlashtirish, qog'oz taqsimoti va bosmaxona jihozlarini nazorat etib, rahbarlik qilish ishlari yuklandi.

B.V.Tomashevskiyning e'tiroficha matnshunoslik maxsus fan emas; aniqrog'i, fanga zarur ma'lumotlarni qo'lga kiritadigan qandaydir ilmiy vositadir. Lekin matnshunoslik material bilan bevosita bog'liq boshqa ilmiy metodlardek, faqat nazariy emas, balki amaliy maqsadni ham ko'zlaydi. Bu – amaliy fan, ko'proq amaliy filologiyada namoyon bo'ladigan alohida tur.

Matnshunoslikning nazariy asoslari va metodikasini umumlashtirgan D.S.Lixachev ushbu masalada quyidagicha fikr bildiradi: “Matnshunoslik – bu fandir, uning mustaqil o'rganish predmeti asarning matni tarixidir. Agar “yordamchi fan” istilohiga eski deb qaralmasa, u holda bu sohani yordamchi filologik fan deb yuritish mumkin bo'ladi”.

“Matnshunoslik” istilohining fanda qachondan qo'llana boshlangani borasida rus paleografiyasi tarixi va zamonaviy matnshunoslik ishlari, xususan, XVIII – XX asrlarda amalga oshirilgan nashrlarni o'rgangan S.A.Reyser shularni yozadi: “Tekstologiya so'zi nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. Bu so'z 1930-yillar o'rtalarida birinchi marta B.V.Tomashevskiy tomonidan 1926–1927-o'quv yili Leningrad san'at tarixi instituti kurslarida qo'llangan. 1957–1967-yillar oralig'ida birin-ketin SSSR Fanlar akademiyasining Jahon adabiyoti institutida “Tekstologiya masalalari” nomi bilan to'rt to'plam: “Tekstologiya asoslari”, “X–XVII asrlar rus adabiyoti materiallarida tekstologiya”, “Tekstologiya. Qisqacha ocherk” kabi ahamiyatli kitoblar bosiladi. “Tekstologiya” garchi yangi istiloh hisoblansa-da, lekin tushunchaning o'zi qadimiydir. *Adabiy tanqid, matn tanqidi, arxeografiya, germenevtika, ekezetika* so'zlari tarix, qadimgi adabiyot, manbashunoslik kabi fanning turli tarmoqlarida qo'llansa ham aslida bitta tushunchani anglatadi”¹.

Bu haqda mashhur rus tekstologi B.V.Tomashevskiyning yozganlari quyidagicha edi: “...zamonaviy filologiyada matn tanqidi

¹ С. А. Рейсер. Палеография и текстология нового времени. – М.: Просвещение, 1970. – Б.85.

bo'yicha ba'zi usullar sistemasi ishlab chiqildi. Ulardan bir qismi qadimiy yodgorliklarni o'rganish tajribasidan ko'chirildi, bir qismi yangi materialning o'ziga xosligi bilan belgilanadi. Bu filologik usullar sistemasini "matnshunoslik" so'zi bilan belgilash qabul qilindi"².

O'tgan asr 20-yillaridan ilmiylik bosh mezon bo'lgan o'zbek adabiyotshunosligi alohida soha sifatida shakllana boshladi. Adabiyot tarixi tadqiqotchilari muntazam ravishda klassiklarimiz hayoti, ijodiga bag'ishlangan maqolalar e'lon qilish bilan birga ularning asarlarini chop ettirish, ommalashtirishga ham jiddiy kirishdilar. Olib borilgan amaliy ishlar bevosita matnshunoslikning ilmiy shakllanishiga olib keldi.

A.S.Reyser ta'kidlaganidek, bir qancha yordamchi sohalar – editsiya, arxeografiya, germenevtika, ekzegetika kabilar bilan bog'liq holda matn tadqiq etiladi.

Xususan, *editsiya* – hujjatli va mumtoz matnlarning ilmiy nashrini amalga oshirishdir.

Matnshunoslik nashr ishlarining olib borilishi bilan rivoj topdi. O'zbek matnshunosligining shakllanishi, rivojlanish usullari va metodlari mumtoz adabiyot namunalari nashr etilishi bilan bog'liq.

Arxeografiya yozma manbalarni qidirib topish, ilk tavsifga olish, ilmiy muomalaga kiritishni nazarda tutadi. Kutubxona, turli fondlardagi qo'lyozmalarning turkumlashtirilgan tavsifi, arxeografik qiyosiy tahlili manba matnini tuzishda muhim hisoblanadi. Bunday ishlar natijalari matn ustida ishlashning ravon borishini ta'minlaydi.

Germenevtika qadimgi yozma matnlar mazmunini izohlash bilan shug'ullanadi, matnshunoslik uchun germenevtika asarning qadimda tutgan o'rni, asar umumiy mazmuni kabi ma'lumotlarni beradi.

Ekzegetika esa diniy matnlarni filologik jihatdan tahlil etishda matnshunoslik ishlari bilan bevosita bog'lanadi.

Matnshunoslik, eng avvalo, ikki asosiy qismga bo'linadi: amaliy va nazariy matnshunoslik. Nazariy matnshunoslik – sohaning umumiy masalalari, matnshunoslik tarixi, matn tuzish tadqiqot usullari hamda asosiy tamoyillari kabi masalalarning jamlanmasidir.

² Б. В. Томашевский. Писатель и книга. Очерк текстологии. Издание второе. – М.: Искусство, 1959. – Б. 30.

Hozirgi kunda matnshunoslik nazariy yoʻnalishini ham rivojlantirish asosiy masalalardan biri boʻlib qolmoqda.

Amaliy matnshunoslik – muayyan asarning muallif qalamiga yaqin eng asl matnini tuzish, sharhlar bilan nashrga tayyorlashni bajaradi. Umuman, matnshunoslikning nazariy va amaliy ishlaridan maqsad, asarning muallif nusxasiga eng yaqin matnini yaratishdan iborat.

Matnshunoslik fan yoki soha ekanligini aniqlashda turli xil qarashlar mavjudligi kuzatiladi. Baʼzi olimlar matnshunoslik filologiyaning yordamchi tarmogʻi deb hisoblasalar, boshqalari matnshunoslikni mustaqil fan sifatida eʼtirof etishadi. Matnshunoslik fan yoki soha ekanligini aniqlash matnshunoslikning tarixi, amaliy va nazariy yoʻnalishlari rivojlanishi, shu kungacha erishgan natijalari va kelajagiga boʻlgan ilmiy doiraning mulohaza yoki fikrlarini ham koʻrsatadi.

S.A.Reyserning bu xususda xulosasi shunday: “Astronomiya dengizda sayohat qiluvchilarning amaliy qoʻllanmasidan, geometriya yer oʻlchash amaliyotidan fanga aylandi. Xuddi shunday – matnshunoslik ham koʻz oʻngimizda nashriyot xodimlari amaliy ishlaridan oʻz tadqiqot predmetiga ega boʻlgan filologiyaning maxsus fani sifatida shakllanib bormoqda”³.

Oʻz tadqiqotlarini asosan qoʻlyozmalar bilan bogʻliq holda olib borgan adabiyotshunos A.Hayitmetov matnshunoslikni “adabiyotshunoslikning uzviy qismlaridan biri” deb yozadi.⁴

A.Habibullayev esa matnshunoslikni “filologiya fanining adabiy, tarixiy, ilmiy asarlar hamda tarixiy hujjatlar matnini ilmiy-tanqidiy oʻrganish va nashr qilish bilan shugʻullanuvchi sohasidir”⁵, – deb hisoblaydi.

Adabiy manbalar ustidagi tadqiqotlarda matnshunoslikning nazariy asoslari ham boʻlishi kerakligini qayd etarkan, N.Shodmonov matnshunoslik masalalariga eʼtibor qaratadi va matnshunoslik butun

³ Рейсер С. А. Палеография и текстология нового времени. – М.: Просвещение, 1970. – Б.98.

⁴ Каранг: Хайитметов А. Матншунослик муаммолари//Шарқ юлдузи, 1982, № 3. – Б.167.

⁵Хабидуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. – Тошкент: Тошкент Давлат Шарқшунослик институти, 2000. – Б. 86.

dunyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham alohida mustaqil fan sifatida e’tirof qilinganligini ta’kidlaydi.⁶

Bunday turli xulosalarning yuzaga kelishiga sabab *soha, dissiplina, fan* so‘zlarining asosiy ma’nosiga e’tibor bermaslik yoki aralashdirib qo‘llashdan kelib chiqadi. Rus olimlari ko‘proq matnshunoslikni “filologik dissiplina” deb yuritishlari kuzatiladi. Aslida *dissiplina* so‘zi lotincha “*o‘qish, tarbiya, maktab*” ma’nolarini berib, faoliyatning bir qismi, qaysidir fanning mustaqil sohasi hisoblanadi.

Umuman olganda, matnshunoslikning fan yoki sohaga oid bo‘lishi haqida aniq xulosaga kelishning o‘zi munozaralidir. Ravshanki, matnshunoslik XIX asr o‘rtalarigacha to‘liq soha yoki fan sifatida shakllanmagan, u XX asr boshlariga qadar adabiy, tarixiy asarlar nashrida zaruriy bo‘lib, vazifasi ham asosan amaliyot talablari bilan cheklangan. Matnshunoslik keyingi davrlarda nazariy ishlanmasi, metodikasi va vazifalarining aniq belgilanishiga erishdi. Bu kabi ilmiy-tadqiq natijalari uning inson bilim tizimida fan sifatida tavsiflanishiga olib keldi. Lekin matnshunoslikni filologiyaning tarixiy-adabiy dissiplinasi yoki maxsus sohasi deb ta’riflash ko‘proq uning imkoniyatlarini aniq va to‘la namoyon etadi. Matnshunoslikka fan deb yondashilganda esa, boshqa sohalar bilan bog‘liq aralashuvi yuzaga keladi va matnshunoslikning o‘ziga xos xususiyatlari yaqqol ko‘rinmaydi. D.S.Lixachev ta’kidlaganidek, matnshunoslik filologiyaning sohasi bo‘lib qoladi, hatto tarixiy manbalar matnini o‘rgangan holda ham tarix fanining bir tarmog‘i sifatida talqin etilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.⁷ Yana bir jihati, mustaqil bo‘lgan holda matnshunoslik adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi bilan uzviy bog‘lanadi va ular aslida matnshunoslik bazasini tashkil etadi.

Quyidagi jadval orqali (guruh yoki yakka tartibda) o‘qituvchi talabalarni mustaqil fikrlashga, o‘tilayotgan va o‘zlashtirgan mavzularni esga olib, mustahkamlashga va fikrlarni umumlashtirishga o‘rgatadi. 1-Ilova.

⁶Қаранг: Шодмонов Н. “Шоҳиду-л-иқбол” – адабий манба. – Т.: Фан, 2009. – Б.168.

⁷ Қаранг: Лихачев Д.С. Текстология. Краткий очерк. –М. – Л.: Наука, 1964. – Б. 7.

T/r	Mavzu	Maqsad
1	O‘zbek matnlari tarixi va uning o‘ziga xos jihatlari	
2	Jahon matnshunoslik tajribalari	
3	Rus matnshunos olimlari qarashlari	

Darhaqiqat, matnshunoslik sohasining fanlar tizimida tutgan o‘rnini aniq chegaralash biroz mushkil. Ammo mutaxassis olimlarning mazkur masalaga yondashuvlari umumlashtirilsa, yaxlit xulosaga kelishga asos yetarli ekani ko‘rinadi:

“matnshunoslik– maxsus fan emas, ilmiy vosita” (B.V.Tomashevskiy);

“matnshunoslik – yordamchi filologik fan” (S.Lixachev);

“matnshunoslik filologiyaning maxsus fani sifatida shakllanib bormoqda” (S.A.Reyser);

“matnshunoslik – adabiyotshunoslikning uzviy qismi” (A.Hayitmetov);

“matnshunoslik – filologiya fanining adabiy, tarixiy, ilmiy asarlar hamda tarixiy hujjatlar matnini ilmiy-tanqidiy o‘rganish va nashr qilish bilan shug‘ullanuvchi sohasi” (A.Habibullayev).

Demak, mutaxassis olimlarning yuqorida keltirilgan fikrlariga suyanib aytish mumkinki, matnshunoslik maxsus fan darajasiga yetmagan, ammo shu yo‘nalishda shakllanayotgan soha. Bu sohaning nazariy-amaliy maqsadi – muayyan asar biografiyasini ilmiy asosda izchil o‘rganib, matn tarixini to‘la tiklash, jarayondagi umumiy va xos qonuniyatlarni aniqlash va ularni keng tatbiq uchun joriy qilish tizimini ishlab chiqishdan iborat.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot-materiallar to‘plash, 10 ta nazorat savollari tuzish, “Matnshunoslik”ka, bugungi mavzuga doir ilmiy maqolani tahlillash va amaliy mashg‘ulotda taqdimot qilishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. “Tekstalogiya” so‘zi Tomashevskiy tomonidan birinchi marta 1926–1927- yillarda qo‘llanganligi haqida kim ma‘lumot beradi?

- A) Reyser
- B) Mutallibov
- C) Shamsiyev
- D) I.Haqqulov

2. Rus filologiyasida “matnshunoslik” so‘zi bilan qaysi so‘z birikmasi keng qo‘llaniladi?

- A) matn tahlili
- B) matn tanqidi
- C) tekstalogiya
- D) matn xusni

3. Turkistonda qachondan matnni tanqidiy o‘rganishga munosabat shakllana bordi?

- A) XIX asrda
- B) XVII asrda
- C) XIX asr oxirida
- D) XX asr boshida

4. O‘zbek matnshunosligining shakllanishi, rivoj topish usullari va metodlari nimalar bilan bog‘liq?

- A) Mumtoz adabiyot namunalari bilan
- B) Ilmiy nashrlar bilan
- C) Arxeologiya va editsiya bilan
- D) Zamonaviy adabiyot bilan

5. Qadimgi yozma matnlar mazmunini izohlash bilan shug‘ullanuvchi soha qaysi?

- A) Editsiya
- B) Ekzegetika
- C) Germenevtika
- D) Arxeografiya

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Komilov N. O‘zbek kitobatchilik terminologiyasi. –T.: Fan va ta’lim, 2004.

2. Alisher Navoiy.Hayratul abror.Ilmiy tanqidiy matn. (Tuzuvchi Porso Shamsiyev), – T.: Fan, 1970.

3. Navoiy asarlari lugʻati (tuzuvchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). –T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʻat nashriyoti.
4. Lixachev D.S. Tekstologiya. –M. – L.: ANS. 1962.
5. Sh. Sirojiddinov, S.Umarova. Oʻzbek matnshunosligi qirralari. –T.: “Akademnashr”. 2015.
6. Zufarov T. Xat taʼlimi. –T.: Meros, 2010.
7. Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. T.: Choʻlpon., –2016.
8. Rahmonov V. Oʻzbekistonda matnshunoslikning ahvoli gʻarib. T.: Hurriyat, 2006.

2- MAVZU

O‘ZBEK MATNSHUNOSLIGINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad – o‘zbek matnshunosligining shakllanish bosqichlari mavzu talqini nazariy o‘rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni ijod qilish, kitobga muhabbat, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – mantiqiy fikrlash, izlanish, o‘qish qobiliyatini rivojlantirish.

Dars turi: ma’ruza

Darsning jihozi: “o‘zbek matnshunosligi tarixi” ga oid (o‘tgan dars bilan bog‘lanib) diqqatni jalb qiluvchi savollar – tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti, dars uchun zarur tavsiya qilinadigan adabiyotlar.

Darsning rejasi:

1. Turkistonda matbaachilik tarixi
2. Jadidlarning matnshunoslik faoliyati
3. Matnshunoslikda ilk nashriy yozuv va kitoblar.

Tayanch so‘z vaasosiy tushunchalar: *Shoir va tarixchi Bayoniy, shoh va shoir Feruz, Tarjimonlar – Ogahiy, Komil, Bayoniy, Tabibiy kabi ma’lum va mashhur nomlar bilan bir qatorda Muhammadrasul Mirzo, B.Sanoiy, Rojiy, Tolibxo‘ja, M.Rafe, Habibiy, Mag‘furxo‘ja, Mavlono Darvesh Ahmad, tipo-litografiya, Turkiston gubernatorligining rasmiy xatlari, buyruqlari, telegramma va boshqa hujjatlar.*

Bugungi kunda matnshunoslik, ayniqsa, O‘zbekiston uchun dolzarb ahamiyatga ega. Chunki o‘lkamiz tarixi va madaniyatiga oid yuzlab bebaho asarlar hali nashr etilmasdan qo‘lyozma xolida saqlanmoqda. Shularni hisobga olib, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida matnshunoslik yetakchi ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Qo‘lyozmalar xazinasida saqlanayotgan qimmatli asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlarini nashrga tayyorlashga jiddiy e’tibor qaratildi. Sir emas, bir necha

nusxada yetib kelgan asar qo‘lyozmalari orasida ancha-muncha tafovutlar bo‘lishi tabiiydir. Asarning turli nusxalari muqoyasa qilinib yaratilgan ilmiy matnigina tarjima va tadqiqotlar uchun ancha ishonchli bo‘ladi. Qolaversa, turli mavzuda izlanishlar olib borayotgan mutaxassislar tarjima emas, balki asl matnga tayanishsa, ularning tadqiqotlari ko‘proq tosh bosadigan bo‘ladi. Asl matnda muhim atama va unvonlar asar yozilgan davrda qanday ishlatilgan bo‘lsa, shunday yoziladi. Tarjimada ular o‘zgarishga uchrashi va boshqa ba’zi kamchiliklarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Milliy fanimizning xalqaro obro‘si bilan bog‘liq yana bir jihat borki, bizning tariximiz va madaniyatimizga oid asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlari Arab mamlakatlari (movarounnahrlik ulamolar kitoblari), Eron (fors tilidagi bir qancha tarixiy va adabiy manbalar), Amerika (Munis va Ogahiyning “Firdavs ul iqbol” asarining Yuriy Bregel tarafidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni), Yaponiya (Muhammad Hakimxonning “Muntaxab ut-tavorix” asarining Yayoi Kavaxara, “Boburnoma”ning Eyji Mano tarafidan nashr etilgan ilmiy-tanqidiy matnlari) va boshqa mamlakatlar olimlari tomonidan nashr etilayotganida o‘zbek manbashunos-matnshunoslari bu ishda nainki ishtirok etish, balki faol kirishib, bu sohada yetakchilikni o‘z qo‘llariga olishga burchlidirlar.

Turkiy tildagi asarlarni kirill yoki lotin alifbosiga tabdil qilishdan oldin ham ularning muallif tomonidan ilk bor yaratilgan yozuvdagi ilmiy-tanqidiy matnlarini hozirlash katta ahamiyatga ega.

Adabiy harakat ko‘proq ma’rifatparvar podshoh, “Feruz” taxallusi bilan she’rlar yozgan Muhammad Rahimxon II atrofida rivoj topdi. Muhammad Rahimxon Soniy – Feruz (1844–1910) saroyda adabiy muhit maydonga keltirdi. 1864-yili 20-yoshida taxtga chiqib, salkam 47 yil hukmronlik qilgan bu xon, uni yaqindan bilgan ko‘pchilik tadqiqotchilar fikricha, O‘rta Osiyo xonlari orasida eng aqllisi, eng ziyolisi edi. U “usuli jaded”ga yo‘l berdi, ruslar kelmasdan ancha ilgari Xivaga toshbosma olib keldi. Uning topshirig‘i bilan Ahmad Tabibiy (1869–1911) “Majmuatush-shuaroyi Feruzshohiy” (“Feruzshoh shoirlari antologiyasi”) ni tuzadi. 30 shoirning she’ridan namuna beradi. Ular orasida Komil Xorazmiy (1825–1899), Muhammadrasul Mirzo (1840–1922), Avaz O‘tar (1884–1919) kabi xilma-xil ko‘lam va qudratdagi shoirlar bor edi.

Shoir va tarixchi Bayoniy shoh va shoir Feruz zamonida ko‘plab madrasalar qurilganini, matbaachilik yo‘lga qo‘yilganini, kitobxonlik avj olganini, xonning o‘zi bularning barchasiga bosh-qosh bo‘lganini yozadi.

Xivada Komil Xorazmiy (1825–1899), Muhammadrasul Mirzo (1840–1922), Muhammad Rahimxon Feruz (1844–1910), Ahmad Tabibiy (1869–1911), Muhammad Yusuf Bayoniy (1840–1923), Ilyos Mulla Muhammad o‘g‘li So‘fi (1860–1916), Mutrib Xonaxarobiy (1870–1925), Muhammad Yusuf Chokar (1872–1951), Avaz O‘tar o‘g‘li (1884–1919), Abdurazzoq Faqiriy (1884–1925), Safo Mug‘anniy (1882–1938), Komiljon Devoniy (1887–1938), Muhammad Rahim Rog‘ib (1918-y.vafot etgan) kabi ko‘plab shoirlar yashab ijod etdilar.

Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy” sidan: “Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bilan suhbat tuzub, kitobxonliq etdurur erdilar. Andog‘kim, Yusufhoji oxund va Ismoilxo‘ja oxund va Xudoybergan oxund va olimu ulum ma‘qul va manqulda Mullo Muhammadrasul va faqiri haqir majlisi humoyunlarig‘a haftada ikki martaba hozir bo‘lub, kitobxonliq etar erduk. Goho domla Muhammadrasul bila ikkovimiz kirib, suhbat humoyunlarida kitobxonliq bo‘lur erdi va sipohiyar va to‘ralarni ham kitobxonliq etarga targ‘ib etar erdilar. Bas, hamma kitobxon bo‘ldilar”.Shoirlikning havosi ham, maqomi ham baland edi. Xonning atrofidagi amaldorlaridan, aka-uka qarindoshlarigacha she‘r yozar edilar. Bayoniy ularni nomma-nom keltirgan. Masalan, Otajon to‘raning “Komron”, tug‘ishgan ukasi To‘ramurod to‘ra (1855–1908)ning “Murodiy” taxallusi bilan she‘rlar yozganini ma‘lum qiladi.

Feruz tashabbusi bilan Xorazm tarjima maktabi maydonga keldi. Mutaxassislarning aniqlashicha, XIX asrning o‘rtalarida Xivada saksondan ko‘proq kishi tarjimonlik bilan muntazam shug‘ullangan. 120 asar tarjima qilingan. Ayrimlari 2-5 marta o‘zbekchaga ag‘darilgan. Aksariyati fors-tojik tilidan o‘girilgan. Bu asarlar janrlariga ko‘ra ham xilma-xil edi. Ular orasida badiiy-didaktik asarlar, ishqiy-sarguzasht qissalar katta o‘rin egallagan edi. Tarjimonlar orasida esa Ogahiy, Komil, Bayoniy, Tabibiy kabi ma‘lum va mashhur nomlar bilan bir qatorda Muhammadrasul Mirzo, B.Sanoiy, Rojii, Tolibxo‘ja, M.Rafe‘, Habibiy, Mag‘furxo‘ja

kabi ko‘pchilikka uncha tanish bo‘lmaganlari ham bor edi. Tabiiyki, ularning mehnat va san‘at darajalari ham turlicha edi.

Ogahiy yigirmadan ortiq asarni fors tilidan o‘zbekchaga o‘girdi. XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshlarida esa bu an’anani Tabibiy va Bayoniy davom ettirdilar. Bayoniy “Tarixi Tabariy” kabi nasriy asarlar qatorida Kamolildin Binoiyning “Shayboniynoma” singari masnaviyda yozilgan tarixiy-badiiy asarlariga ham qo‘l urdi. Mavlono Darvesh Ahmadning arab tilidagi “Sahoyiful-axbor” (“Xabarlardan sahifalar”, 1-2-jildlari) nomli tarix kitobini mahorat bilan tarjima qildi. Atoullloh ibn Fazlulloh Husayniyning “Ravzatul-ahbob”i (“Do‘stlar bog‘i”) o‘zbekcha tarjimasini tahrir etdi. Komil Xorazmiy XVIII asrda yashagan Barxurdor Mumtozning “Mahbubulqulub” (“Ko‘ngullarning sevgani”), Faxriddin Ali Safiyning “Latoyifut tavoyif” (“Turli toifalarning latifalari”) singari ixcham nasriy hikoya va latifalar to‘plamlarini o‘zbekchalashtirdi.

Boy an’anaga ega musiqa rivoj topdi. Tanbur notasi kashf qilindi (Komil). She‘r va musiqa hamkorligi kuchaydi. Feruz Xorazm shashmaqomini taraqqiy toptirishda katta xizmat qildi.

Xonning amri bilan shoir Ahmad Tabibiy tomonidan 1908-yili yaratilgan “Majmuatush shuaro” (“Shoirlar to‘plami”) she‘riy (masnaviy yo‘lida) bo‘lib, 1638 sahifadan iborat edi. Qo‘qon xoni Amir Umarxonning 1821-yilda tuzdirgan “Majmuai shoiron”ini esga tushiruvchi bu kitob “Majmuatushshuaro”y Feruzshohiy” nomi bilan tanildi. Undagi matnlarning aksariyati o‘zbek tilida edi.

Xivadagi ikkinchi tazkira XX asrning 20-yillarida tuzildi. Uning muallifi Hojimurod Laffasiy (1880-1945) bo‘lib, “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari” asarida xorazmlik 51 shoir haqida ma‘lumot beradi.

Muhammad Yusuf Bayoniy (1840-1923) Xorazm adabiy muhitining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan, Xivaning 1804–1806-yillardagi xoni Eltuzarxonning chevarasi. Otasi Bobojonbek zamonasining taniqli ziyolilaridan bo‘lgan. Muhammad Yusuf yoshligidan yuksak tarbiya topdi, she‘rga, ilmga, musiqaga ko‘ngil qo‘ydi. Iste‘dodli shoir, muarrix, mutarjim, mug‘anniy va musiqa bilimdoni bo‘lib yetishdi. Zamondoshlari Ahmad Tabibiy, Laffasiy o‘z tazkiralarda uning hayoti va faoliyati haqida atroflicha ma‘lumot beradilar. Uning shaxsini ham, iste‘dodini ham yuksak baholaydilar. Bayoniydan bir she‘riy devon, “Shajarayi

Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” kitoblari hamda yuqorida nomlari zikr etilgan 4 tarjima asari qolgan. Devoni XIX asrning 60-yillaridan 1905-yilgacha bo‘lgan she’rlarini qamrab oladi. Tarix asarlarining katta qismini Bayoniyning o‘zi guvoh bo‘lgan voqealar tashkil qiladi. Xususan, “Shajarayi Xorazmshohiy”dagi rus bosqini voqealari tasviri yuksak vatanparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan. Shoirning 1905–1923-yillarda yozgan she’riy asarlari namunalari o‘sha davr vaqtli matbuotida uchraydi. Bayoniy haqida XX asrning 60-yillaridan tadqiqotlar paydo bo‘la boshladi. 1962-yili S.G‘aniyeva va H.Muxtorova “G‘azallar” nomi bilan bir dasta she’rlarini e‘lon qildilar. I.Adizova 1990-yili uning hayoti va ijodiy faoliyati haqida nomzodlik dissertatsiyasi yoqladi va u 1995-yili risola holda bosilib chiqdi. Bir yil oldin esa ushbu mualliflarning tashabbusi bilan “Shajarayi Xorazmshohiy”ning qisqartirilgan ixcham nashri amalga oshirilgan edi.

Tarixchi E.Oxunjonovning qayd etishicha, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrning dastlabki yigirma yilida shaxsiy kutubxonalarning katta qismini osori atiqaga aylanib borayotgan o‘rta asrlar qo‘lyozma kitoblari tashkil etardi⁸. Shaxsiy kutubxonalar nodir asarlarning bizgacha yetib kelishida katta xizmat ko‘rsatdi. Jumladan, Turkiston jadidchilik harakati yetakchilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy fan, san‘at, madaniyat bilan birga, kutubxonachilik, noshirlik rivojiga hamda oddiy xalq o‘rtasida ilmiy bilimlarni tarqatish ishiga ulkan hissa qo‘shdi. U 1913-yili o‘z xususiy nashriyoti – “Nashriyoti Behbudiya”ni tashkil etadi. Ayni vaqtda Behbudiy kitob do‘konlari tarmog‘ini tashkil etish bo‘yicha katta ish olib bordi. U Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Qo‘qon va Namanganda kitob do‘konlari ochadi⁹. Ma‘rifatparvar Behbudiy nashrga tayyorlanayotgan asar matniga nisbatan juda mas‘uliyatli bo‘lgan. Hatto u “Nashriyoti Behbudiya” uchun ba‘zi asarlarning matnini tekshirgan, kerakli joylarini tahrir etgan.

Adabiyotshunos olim A.Hayitmetov o‘zbek matnshunosligi rivojlanishi xususida so‘z yuritarkan, shularni yozadi: “Bizda matnshunoslikning taraqqiyoti matnshunos olimlar nomi bilangina

⁸ Қаранг: Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. 2-қисм. Дарслик. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б.23.

⁹ Қаранг: Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи. 2-қисм. Дарслик. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б.23.

bog‘liq emas. Birinchi manbalar ustida ilmiy-tadqiqot olib boruvchi ko‘pgina adabiyotshunoslar ham, asosiy kasbiga ko‘ra matnshunos bo‘lmasa ham, tekstologik tekshirish ishlari olib borishga majbur bo‘lgan va bu sohada muhim vazifalarni amalga oshirib, tekstologiya rivojiga o‘z hissalarini qo‘shganlar”¹⁰.

Adabiyotshunos Vadud Mahmud, Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurahmon Sa‘diy, Sadridin Ayniy, Hodi Zarif kabilar mumtoz adabiyot vakillari ijodini ilmiy muomalaga olib chiqish va xalqni madaniy meros bilan tanishtirishda qator vazifalarni bajarishdi. Masalan, adabiyotshunos, shoir, publitsist Vadud Mahmudni to‘la ma’noda matnshunos deya olmaymiz. Lekin u ilmiy maqolalari, jumladan, “Navoiygacha turk adabiyoti”, “Alisher Navoiy”, “Fuzuliy Bag‘dodiy” kabi ishlarida qo‘lyozma va toshbosma nusxalardan “misqollab yiqqan faktlari bilan Alisher Navoiy va Fuzuliy hayoti va ijodini muxtasar yoritib beradi”¹¹.

Abdurauf Fitrat o‘zbek adabiy tanqidchilik, manbashunoslik va matnshunoslik sohasi tarixida o‘ziga xos mavqeyga ega bo‘lgan shaxsdir. Uning ilmiy-tanqidiy maqolalari, nashr ettirgan kitoblari matnshunoslik ishlari bilan daxldor hisoblanadi. Xususan, Fitrat yozma yodgorliklarning nashrga tayyorlanishiga prinsipial yondashadi. U bugungi kungacha o‘z ahamiyatni yo‘qotmay kelayotgan “Adabiyot qoidalari” (1926), “Eng eski turk adabiyoti namunalari” (1927),¹² “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1928)¹³ kitoblari materiallarini aynan qo‘lyozma manbalar asosida tayyorlagan. Fitrat Navoiyning asarlari manbalarni o‘rganishga alohida e’tibor bilan qaratgan. Qo‘lyozma manbalarni nashrga tayyorlash, xususan, mumtoz shoirlar ijodidan namunalar jamlab, chop ettirish matnshunoslikka oid izlanishlar olib borilganligini ko‘rsatadi.

O‘tgan asrning 50 – 60-yillarida qo‘lyozma manbalarni o‘rganish va nashrga tayyorlash davr siyosiy talabi ham edi. 1957-yili

¹⁰Хайитметов А. Матншунослик муаммолари// Шарк юлдузи, 1982, № 3. – Б.168.

¹¹ Баходир Карим. Жадид мунаққиди Вадуд Махмуд. – Т.: Университет, 2000. – Б. 65.

¹²Энг эски турк адабиёти намуналари. Тузувчи Фитрат. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти, тошбосма, инв. № 16507.

¹³Ўзбек адабиёти намуналари. I жилд. Тузувчи Фитрат. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти, тошбосма, инв. № 15146, 12639.

Toshkentda o‘tkazilgan sharqshunoslarning Butunittifoq birinchi konferensiyasi o‘tkaziladi. Shu konferensiyada ishtirok etgan davlat rahbari N.A.Muhiddinovning nutqida shunday so‘zlarni o‘qiydiz: “Afsuski, biz o‘rta asr Sharqining ko‘zga ko‘ringan fan va madaniyat arboblari asarlarini juda sekin nashr etmoqdamiz. Respublika hukumatining Alisher Navoiy asarlarining to‘la to‘plamini nashr etish to‘g‘risidagi qarori sust bajarilmoqda”¹⁴. Bu davrda nafaqat Navoiy asarlari, balki ko‘plab mumtoz adabiyot vakillari asarlarini nashr ettirishga e‘tibor kuchayadi. Shuning uchun ham ba‘zi asarlar mukammal o‘rganildi, ba‘zilari esa to‘la tadqiq etilmasa-da, ilmiy-omnabop shaklda xalqimizga yetkazildi.

Xiva xonligidagi kutubxonalar. Ma‘lumki, kutubxonalar qadim-qadimdan insonlar uchun ma‘naviyat va ma‘rifat o‘chog‘i bo‘lib, inson zoti doim kitoblarga intilib yashab kelgan. Har doim kutubxonalar jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan. Faqat kutubxonalar tufayligina qadimgi qo‘lyozmalar, bosma kitoblar, tarixiy shaxslar haqidagi manbalar bizgacha yetib kelgani hech kimga sir emas.

Yozuvning paydo bo‘lishi va hujjatli manbalar, qo‘lyozma va keyinchalik bosma kitoblarning ko‘payishi kutubxonalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Kutubxonalar miloddan avvalgi 2 ming yillikda vujudga kelib, yozuvlar sopol bitiklarda yozilgan edi. Miloddan avvalgi VII asr o‘rtalarida Sharqdagi ko‘p saroylarda qadimgi Misr va Rim ibodat xonalari qoshida kutubxonalar bo‘lgan. Qadimgi davrdagi kutubxonalardan eng mashhuri Aleksandriya kutubxonasidir.

G‘arbiy Yevropada ilk o‘rta asrlarda monastir va ibodatxonalar qoshida kutubxonalar tashkil etilgan. O‘zbekiston hududida miloddan avvalgi 1 ming yillikning so‘nggi asrlarida dastlabki kutubxonalar paydo bo‘lgan. Bular ilk kutubxonalar bo‘lib, *kutub* – arabcha “*kitoblar*”, *xona* – forscha “*uy*”, ya‘ni kitob va hujjatlar saqlanadigan joy demakdir.

Kutubxona – bosma va ayrim qo‘lyozma asrlardan ommaviy foydalanishni ta‘minlovchi madaniy-ma‘rifiy va ilmiy muassasa

¹⁴ Мухиддинов Н. А. Совет шарқшунослигининг янги мувоффақиятлари сари. Тошкент шаҳрида шарқшуносларнинг Бутуниттифок биринчи конференциясида сўзлаган нутқи. – Т.: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока” ва “Ўзбекистони сурх” бирлашган нашриёти, 1957. – Б. 35.

hisoblanib, unda muntazam ravishda bosma asarlarni to'plash, saqlash, targ'ib qilish va kitobxonlarga yetkazish, shuningdek, axborot bibliografik ishlar olib boriladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish kutubxonaning asosiy faoliyati bo'lib, qolgan barcha faoliyatlar (kitob fondini butlash, uni tashkil etish, to'ldirish va h.k) asosiy faoliyat uchun xizmat qiladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning asosiy maqsadi ularni axborot va adabiyotga bo'lgan talablarini imkoni boricha to'liq qondirishdan iborat. Markaziy Osiyo hududida yirik sulolaviy kutubxonalar, masjid-madrasalar qoshida kutubxonalar bo'lganligi haqida aniq tarixiy manbalar mavjud.

IX – X asrlarda arab xalifaligi tarqoqlashib, XI asrning oxiriga kelib O'rta Osiyo hududida Somoniylar davlati yuzaga kelgan. Somoniylar davrida Movarounnahr, Samarqand, Buxoroda fan va madaniyat rivojlana borgan. Bu davrda ushbu davlatda juda ko'p mashhur qomusiy olimlar yashab ijod etgan.

Buxoroning mahobatli markazi, keng maydonning kunchiqar tarafida muhtasham ark turadi. Ark darvozasidan kirganda to'g'ridagi yo'l bir ko'hna binoga eltadi. Uning qalin devorlari boy xazinani qo'riqlaydi. Bu bebaho boyliklar jam bo'lgan xazina Buxoro kutubxonasi, bu kutubxona X asrdagi mashhur kutubxonalardan biridir. O'sha davrda Buxoro kutubxonasi juda boy fondga ega bo'lib, u O'rta Osiyoning siyosiy va madaniyat markazi hisoblanardi. Buxorodagi ushbu kutubxona amir saroyida joylashgan bo'lib, kitoblar fan sohalari bo'yicha sandiqlarda saqlangan. Unga faqat amir Nuh ibn Mansurning ruxsati bilanгина kitobxon kirardi. Kutubxona ichida qator terilgan sandiqlarda kitoblar taxlab qo'yilgan, har bir sandiqda bor kitoblarning ro'yxati mavjud bo'lib, u sandiq ichida turardi.

Insoniyat tarixida ixtiro qilingan har bir kashfiyot, avvalo, ijtimoiy hayot ta'sirida yuzaga keladi va ko'p asrlik an'analar doirasida shakllanib boradi. Ma'lum bo'lishicha, dastlab piktografik yozuv kashf qilingan. Bu yozuvda chizilgan rasmlar muvofiqligiga qarab, insonning o'zi bir-biri bilan bog'liq shakllar asosida mantiqiy fikr yuritib, gap tuzgan. *Piktografik yozuv taraqqiyoti asosida logografik yoki ideografik yozuv paydo bo'ldi. Bunda tildagi har bir so'z o'z ramziy timsoliga ega bo'ladi. Piktogramma to'g'ridan-to'g'ri predmetni rasm orqali ko'rsatsa, logogramma so'zning*

ma'nosini tushuncha orqali ifodalaydi. Ieroglifik yozuv logografik yozuvning rivojlangan, mukammal ko'rinishidir.

Miloddan avvalgi VI–IV asrlardayoq Turonzamining turli o'лка mahalliy tillari tovush sistemasiga mustaqil holda moslashgan. Xorazmiy-sug'diy, pahlaviy, baxtariy kabi yozuvlar shakllanganligi yozma madaniyatimiz ildizlari naqadar uzoq davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi. Mana shu yozuvlar ichida sug'd yozuvi yodgorliklari keng miqyosda va uzoq vaqt iste'molda bo'lganligi bilan alohida ajralib turadi. Qog'ozga bitilgan va bizgacha yetib kelgan sug'dcha matnlarning eng qadimiysi IV asr boshlariga mansub bo'lib, fanda “Eski maktublar” deb nom olgandır. Bu maktublar 1906-yili ingliz olimi A.Steyn boshliq ekspeditsiyatomonidan Mo'g'ulistonning Dunxuan degan joyidan topilgan. Sug'd yozma yodgorliklarining eng so'nggisi Talas daryosi vodiysidagi qoyatoshlar sirtiga bitilgan tashrifnomalardir. Bu yozuv oromiy yozuvi asosida paydo bo'lganligi bois, oromiy yozuviga o'xshaydi. II asrning oxiri – III asrning boshlarida Xorazm yozuvi xo'jalik hisobot hujjatlari, tangalardagi yozuvlar, qabrlarga o'rnatilgan haykallar va boshqa joylarda uchraydi.

V–VIII asrlar davomida turkiy xalqlar O'rxun-Enasoy yozuvidan keng foydalangan. O'rxun-Enasoy yozuvi bilan birga uyg'ur alifbosidan ham foydalanilgan va bu yozuv turkiy xalqlar orasida XVI asrgacha ancha keng ishlatilgan. Yozuv turlarining keng qo'llanishi bilan birga kitobchilik san'ati ham rivoj topdi. O'rta Osiyoda miloddan avvalgi asrlardayoq kitobchilik ishlari bilan shug'ullanganlar.

Qadim Sharqiy turk madaniy muhitida qo'lyozmalar bilan yonma-yon ksilografiya usuli joriy etilgan. Q.Sodiqovning yozishicha, “turk buddaviylari orasida ancha keng tarqalgan kitob turi potxidir. Bunday usul bilan kitob tayyorlash uchun, dastavval, kitobga mo'ljallanayotgan varaqlar o'rtasiga bir o'lchamda doirachalar chizib chiqilgan. Matnni yozayotgan paytda esa satr doiraga kelib tutashganda to'xtatilib, doirachaning ikkinchi yog'idan davom ettirilavergan. Shunday qilib, doiracha ichi bo'sh qolgan. Qo'lyozma to'liq qo'ldan chiqqach, haligi doirachalar o'rtasidan teshib chiqilgan. Varaqlarni dastalab turib, ularning teshigidan ipga tizilgan. So'ngra qog'oz bichimiga teng ikki payraxa olib, taxlog'liq qog'ozning ikki yog'idan qoplangan va tizimchasi mahkamlab

qo'yilgan. O'z navbatida, payraxalar muqova vazifasini o'tagan hamda kitobni yaxshi saqlash imkonini bergan. Kitobni o'qish zarur bo'lgan taqdirda tizimchasi bo'shatilib, foydalanib bo'lgach, yana joylab qo'yilavergan"¹⁵. Litografiya usulida kitob tayyorlashni ba'zi olimlar yassi chop etish deb yozishadi. Jumladan, Sh.Ziyodovning yozishicha, harf terilmaydigan, poligrafiya terminologiyasi bo'yicha yassi chop etish usuli litografiya bo'lib, ya'ni yassi chop etish – matn oldindan qog'oz varag'iga bitilgan va tosh shaklga teskarisi tushirilgan aksdan nusxa ko'chirish usuli hisoblanadi.¹⁶

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston xalqlari hayotida ro'y bergan yangiliklardan biri tipo-litografik korxonalarining ochilishi bo'ldi. Toshkentda birin-ketin matbaalar ish yurita boshlashdi. Markaziy Osiyoda ilk tipografiya rasman Toshkentda 1868-yili harbiy shtabda tashkil etilgan. Toshkentdagi bu bosmaxona xizmat doirasi uchungina tashkil etilgan bo'lib, tipo-litografiyada asosan Turkiston gubernatorligining rasmiy xatlari, buyruqlari, telegramma va boshqa hujjatlarini chop etish mo'ljallangan edi.

M.Hakimov qayd etganidek, Turkistonda kitob bosishning ikki xil usuli qo'llandi. *Birinchi tipografik (mixbosma)* usul bo'lib, unda mix shaklidagi metall harflarni qo'lda terish orqali kitob bosilgan. Bunda *arab yozuvining nasx yozuvidan* keng foydalanilgan. *Ikkinchi esa litografiya (toshbosma)* usul, unda dastlabki, asosiy ishni xattot bajargan. Xattot bosiladigan kitobning matnini maxsus qog'ozga ko'chirgan. Bu qog'ozdagi matn tosh qolip sirtiga o'tkazilgan va unga kimyoviy ishlov berilgan. So'ngra ana shu tosh qoliplardan nusxalar olingan. Xattot *toshbosmaga matn ko'chirganda asosan nasta'liq xatidan* foydalangan. Lito-tipografikga nisbatan litografik usul keng qo'llangan. Bunga faqat Alisher Navoiy asarlarining 1879–1917-yillar davomida Turkiston shaharlaridagi ko'p matbaalarda bosilgan 70ga yaqin nashri faqat toshbosma usulida amalga oshirilganligi misol bo'la oladi.¹⁷ O'rta Osiyoda toshbosma usulidagi dastlabki matbaa Xivada Muhammad

¹⁵Содиқов Қ. Туркий матннавислик тарихидан. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Т.: Ёзувчи, 2000. – Б.126.

¹⁶ Қаранг: Зиёдов Ш. Марказий Осиёда илк тошбосма китоблар нашри тарихидан//Шарқшунослик. 2009, № 14. – Б.136.

¹⁷Қаранг: Ҳақимов М. Алишер Навоий асарларини кўчирган хаттотлар. –Т.: Фан, 1991. – Б.39.

Rahimxon II saroyida yuzaga keladi. “Sharqda birinchi matbaa 1832-yili Eronda paydo bo‘lgan edi. Shuning uchun Erondan Ibrohim Sulton nomli matbaachi Xiva saroyiga taklif etiladi. Ibrohim Sulton mahalliy yoshlardan Otajon Abdalovga matbaachilik sirlarini o‘rgatadi, 1874-yildan boshlab ba’zi hujjatlar toshbosma usulida chop etila boshlaydi”¹⁸.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Xiva xonligi madaniy va ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynagan Muhammad Rahimxon II kutubxonalar tashkil etgan hamda qo‘lyozma manbalarni asrash va ko‘paytirishga katta ahamiyat qaratgan. Q.Munirov qayd etganidek, boshqa Xiva hukmdorlaridan farqli o‘laroq Muhammad Rahimxon II o‘z zamonining shoiri bo‘lgan. U tarixiy, adabiy asarlarni sevgan va ularni ko‘plab ko‘chirtirgan hamda saroyga to‘plagan. Muhammad Rahimxonning ikkita kutubxonasi bo‘lib, biri qishki qarorgoh– Ark ichkarisida, yana biri yozgi qarorgoh – shahar tashqarisida Tozabog‘ saroyida joylashgan edi. Bu kutubxonalarda ixcham kataloglar tuzilgan, kitoblarning muqovalariga ularning nomlari bitilgan yorliqlar yopishtirilgan. Xiva xoni Feruzning asosiy maqsadi nodir asarlar nusxalarini ko‘paytirish orqali qo‘lyozmalarni asrash edi. Manbashunos H.Aminovning yozishicha, Xiva xoni Feruz kutubxonasi fehris-katalogida qo‘lyozma va litografik asarlardan jami 914 jild kitob bayoni keltirilgan. Ular 893 asarni tashkil etib, bularning 604 jildi qo‘lyozma bo‘lib, 310 jildi toshbosma nusxalardir.¹⁹

Adabiyotshunos R.Mahmudova bergan ma’lumotlariga qaraganda, Toshkentda birinchi xususiy litografik matbaa S. I.Laxtin matbaasi bo‘lib, u 1877-yili ochilgan. Bu bosmaxona rus tilidagi kitoblar bilan birga mahalliy tillardagi kitoblarni ham nashr qilgan. Toshkentdagi yirik matbaalardan yana biri – O.A.Portsev matbaasi 1888-yili tashkil topgan. Uning chiqargan kitoblari ancha sifatli bo‘lib, qog‘ozi va muqovalariga alohida e’tibor berilgan. V.M.Ilyin

¹⁸Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Х. Мухаммад Рахимхон II – Феруз кутубхонаси феҳрести. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2010. – Б.9–10.

¹⁹Қаранг: Эркинов А., Полвонов Н., Аминов Х. Мухаммад Рахимхон II – Феруз кутубхонаси феҳрести. – Т.: “Янги аср авлоди”, 2010. – Б.38.

matbaasi esa 1893-yili tashkil topgan, unda o‘zbek adabiyoti tarixiga oid ko‘pgina kitoblar bosilib chiqarilgan.²⁰

Darsni xulosalash. Ko‘rsatma

*Dastur asosida
o‘rganish*

Ta'limiy maqsad

*Fan sohasida berilayotgan savollarga o‘zi
mustaqil javob topa olishi, yodlash emas,
fan mazmunini o‘zi tushunib yetishi*

Uyga vazifa. Mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot-materiallar to‘plash, 10 ta nazorat savollari tuzish, “Matnshunoslik”ka, o‘zbek matnshunosligining shakllanish bosqichlari mavzu talqiniga doir ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg‘ulotda joriy etishga hozirlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. Diniy matnlarni filologik jihatdan tahlil etishda matnshunoslik ishlari bilan bog‘lanuvchi soha qaysi?

- A) Arxeografiya
- B) Germenevtika
- C) Ekzegetika
- D) Editsiya

2. Matnshunoslik nechta asosiy qismga bo‘linadi?

- A) 2 B) 3
- C) 6 D) 4

3. Matnshunoslik asosiy 2 ta qismga bo‘linib, ular qaysi javobda berilgan?

- A) Ilmiy, amaliy
- B) Nazariy, amaliy
- C) Amaliy, publitsistik
- D) Nazariy, ilmiy

²⁰ Каранг: Махмудова Р. Ўзбекистондаги тошбосма матбааларда Навоий асарларининг нашр этилиши тарихидан//Адабий мерос, 1968, № 1. – Б.99.

4. Muayyan asarning muallif qalamiga yaqin eng asl matnini tuzish, sharhlar bilan nashrga tayyorlash bilan shug'ullanuvchi soha qaysi?

- A) Amaliy matnshunoslik
- B) Nazariy matnshunoslik
- C) Ilmiy matnshunoslik
- D) Nazariy va amaliy matnshunoslik

5. Kimning e'tiroficha “matnshunoslik maxsus fan emas, aniqrog'i, fanga zarur ma'lumotlarni qo'lga kiritadigan qandaydir ilmiy vositadir” – deya ta'kidlaydi?

- A) Reyser
- B) Mutallibov
- C) Tomashevskiy
- D) Lixachev.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat-ul-abror. Ilmiy tanqidiy matn. (Tuzuvchi: Porso Shamsiyev), –T.: Fan, 1970.

2. Zohidov R. Sabotul ojizin – ilmiy-adabiy manba. –T.: Muharrir, 2012.

3. Ismoilov M. Hujjatshunoslik va Markaziy Osiyo diplomatikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Akademnashr, 2010.

4. Ishoqov F. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. T.: “Fan”, 1976.

5. Yo'ldoshev Ibrohim. O'zbek kitobatchilik terminologiyasi. – T.: Fan, 2004.

6. Komilov N. Bu qadimiy san'at... T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

7. Munirov Q. Bebaho xazina. –T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2002.

8. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.

9. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'atarixidan. – T.: Fan, 1971.

10. Navoiy asarlari lug'ati (tuzuvchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.

3- MAVZU

MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIKDAGI MUSHTARAK QONUNIYATLAR

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad – matnshunoslik va manbashunoslikdagi mushtarak qonuniyatlar, matnshunoslik va manbashunoslik faoliyatining o'zaro uzviyligi talqini o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad –kitobsevarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mavzu yuzasidan esse yozishga, tadqiqot ishlarini olib borishga undash, manbalarni o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: diqqatni jalb qiluvchi savollar – tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma'ruza

Darsning rejasi:

- 1.Matn tarixini tiklashda manbalarning o'rni
- 2.Matniy tadqiqda manbalar ta'siri
- 3.Matnshunoslik va manbashunoslik faoliyatining o'zaro uzviyligi

***Tayanch so'z va asosiy tushunchalar:** o'zbek matnshunosligi rivojlanishining muhim bosqichlari, turkiy tillar genezisi bilan bog'liq qadim manbalarning har tomonlama o'rganilish davri, turonzamin yerlarining Islom olami tomonidan fath qilinishi, manbashunoslik tadqiqotlari va qo'lyozmalar tavsiflari, adabiy manbashunoslik, tarixiy manbashunoslik, ilmiy manbashunoslik, folklor manbashunoslik.*

Manbashunosning muayyan asar manbalari haqidagi izlanishlari, asarning qayerdagi fondlarda saqlanib qolganligi, bu manba nusxalarining saqlanganlik darajasi, to'liq yoki nuqsonli ekanligi, mo'tabar qo'lyozmasining qayerda saqlanishi va hokozolar haqidagi ma'lumotlari matnshunosning oxirgi maqsadga erishish yo'lini ancha qisqartiradi.

Manbashunoslik tadqiqotlari va qo'lyozmalar tavsiflarining hali talab darajasida emasligidan bunday ma'lumotlar tanqisligini doimo

his qilib turamiz. Shu bois, matnshunos ularni o‘z izlanishlarining birinchi bosqichi sifatida o‘zi izlab topishi, ya’ni, manbashunoslik izlanishlarini amalga oshirishni chetlab o‘ta olmasligiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun juda ko‘p adabiy yodgorliklarning matnini nashrga tayyorlashda uning tadqiqot qismidagi izlanishlarni kuzatsak, olimlar avvalo, muayyan asarning manbalarini izlab topish, ularni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilishdan iborat bir talay ishlarni amalga oshirganliklarining guvohi bo‘lamiz. Matnshunoslik tahlili uchun eng avvalo, asarning mavjud nusxalari haqidagi ma’lumotlar to‘planadi. Bu ma’lumotlarni ma’lum darajada manbashunoslik manbalaridan olishimiz mumkin. Manbashunoslikning manbalari bo‘lib turli mamlakatlarda chop etilgan qo‘l yozma fondlarining kataloglari, xattotlar haqida ma’lumot beruvchi tadqiqotlar, arxiv tavsiflari, katalog to‘plamlari, ayrim shoir va adiblarning turli fondlardagi qo‘lyozmalari haqida tadqiqotlar, xattotlar faoliyati xususidagi ilmiy kuzatishlar xizmat qilishi mumkin. Ulardagi ma’lumotlar matnshunosning aniq maqsad sari harakat qila olishi imkonini beradi.

Shuning uchun turli fondlardagi muayyan muallif qo‘lyozmalari muayyan mavzudagi qo‘lyozmalarni turkumlashtirib tavsif qilish, muayyan asar qo‘lyozmalarini arxeografik jihatdan qiyoslash kabi manbashunoslik izlanishlarining matnshunoslik tadqiqotlaridagi o‘rni beqiyosdir.

Manbashunoslik – manbalarniyig‘ish, qidirib topish, tartibga solish va ulardan ilmiy foydalanish yo‘llarini o‘rgatuvchi fanidir.

Manbashunoslik fanlar sohasi bo‘yicha quyidagi tarmoqlarga bo‘linadi:

1. Adabiy manbashunoslik;
2. Tarixiy manbashunoslik;
3. Ilmiy manbashunoslik;
4. Folklor manbashunoslik.

Umuman olganda, manbashunoslik ilmda tarix fanining bir sohasi sifatida qabul qilingan. Sobiq sho‘rolar davrida ko‘pgina fanlar qatori manbashunoslikka ham fanning Oktabr inqilobigacha taraqqiy etmagan bir sohasi deb qarash hukmron edi. Biroq har bir davrni o‘z mezonlari bilan olib qarash manbashunoslik madaniyatimiz tarixida o‘zining chuqur ildizlariga ega ekaniga amin

bo‘lamiz. U o‘zining muayyan mezon va meyorlari bilan rivojlanib taraqqiy etib kelgan.

To‘g‘ri, XX asrgacha manbashunoslikka fanning alohida tarmog‘i sifatida qarash dunyo miqiyosida yo‘q edi. Ammo bu sohadagi amaliy ishlar tinimsiz rivojlanishda bo‘lgani bilan kuzatiladi.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Markaziy Osiyo xalqlari orasida kitob yig‘ish, ularni ma‘lum sohalar bo‘yicha turkumlash, kitob xazinalarini tarixning suronli voqealaridan omon saqlab qolish ishlariga qadimdan katta e‘tibor berib kelishgan. Bu ishda, albatta, yirik madaniy markazlardagi kitob xazinadorlari, yirik olim va ijodkorlar jonbozlik ko‘rsatishgan.

Tarixiy yodgorliklar juda qadim zamonlardan podshohlar va kohinlarning xazinalarida diniy, tarixiy va adabiy mazmundagi qo‘lyozmalar to‘planganligini va saqlanganligini aniqlashga imkon beradi. Quldorlik davlatlari mavjud davrda bu xazinalarda bu qo‘lyozmalar majmualari, madaniy boyliklar saqlanadigan maxsus omborxonalar vujudga kelishi uchun shart-sharoit vujudga kela boshlaydi. Biroq Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi yozma yodgorliklari deyarli saqlanib qolmagan. Ulardan ko‘plari arablar bosib olgan davrda VII asrlarda nobud bo‘lgan. Sug‘d va Xorazmning arab xalifaligi tamonidan qo‘yilgan noibi kitoblarni va ularni saqlovchilarni yo‘q qilib tashlaganligi haqida birinchi bo‘lib Beruniy ma‘lumot beradi.

Matn tarixini o‘rganishda manbalarga ehtiyoj seziladi. O‘zbek matnshunosligi rivojida bu davrning o‘ziga xos yana bir ahamiyati, ilmiy-tanqidiy matn yaratishning nazariy ilmiy-metodlariga oid fikr-mulohazalar, ko‘rsatmalar, qoidalar aks etgan ilmiy-tadqiqotlarning yaratilishi hisoblanadi. Jumladan, S.Mutallibov 1944-yili “Hayrat ul abror” ning tanqidiy matni” mavzusida nomzodlik, 1952-yili P.Shamsiyev “Alisher Navoiyning “Sabbayi sayyor” dostonining ilmiy-tanqidiy matni va uni tuzish prinsiplari” nomli nomzodlik, 1970-yili “Alisher Navoiy “Xamsa”sining ilmiy-tanqidiy teksti va uni tayyorlash prinsiplari” nomli doktorlik, H. Sulaymonov 1961-yili “Alisher Navoiy lirikasining tekstologik o‘rganilishi” nomli doktorlik, S.G‘aniyeva 1956-yili “Majolis un nafa’is”ning III va IV majlislari ilmiy-tanqidiy matni va adabiy tahlili” mavzusida nomzodlik, L.Xalilov 1975-yili “Alisher Navoiyning “Tarixi mulki

Ajam” asarining tekstologik tadqiqi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Matnshunoslikning ushbu rivojlanish bosqichida ilmiy-tanqidiy matn tayyorlashning nazariy jihatlari ham ishlab chiqildi. Agar oʻtgan asrning 40-yillari Alisher Navoiy asarlarining yigʻma matni tayanch nusxa asosida toʻgʻridan-toʻgʻri koʻchirib, qiyos uchun tanlangan asos nusxalar farqi ilmiy apparatda koʻrsatilib borilgan boʻlsa, keyingi davr matnshunosi ilmiy-tanqidiy matn tuzishda boshqacharoq prinsipni tanladi. Yaʼni, keyingi davr matnshunoslari ilmiy-tanqidiy matni tuzishda tayanch nusxa matnini qiyosiy oʻrgandi, tanqidiy mulohaza bilan matn tuzdi. Navoiy asarlari nashri oʻzbek matnshunosligi ilmiy-nazariy taraqqiyotining eng yuqori bosqichini boshlab berdi. Oʻzbek matnshunoslik maktabi yaratgan anʼanaviy prinsiplar keyingi tadqiqotlarning takomillashuviga zamin yaratadi.

Umuman, oʻzbek matnshunosligi rivojlanishining muhim bosqichlarini shunday sanash mumkin: Turkiy tillar genezisi bilan bogʻliq qadim manbalarning har tomonlama oʻrganilish davri; Turonzamin yerlarining Islom olami tomonidan fath qilinishi.

Har qanday atamaning yasashida soʻzning lugʻaviy maʼnolari negiz vazifasini oʻtaydi. Shu negiz atrofida muayyan tushuncha barqarorlashadi va yangi nom bilan atala boshlaydi. Fikr, qarash, yondashuvlarning oʻzaro kelishuvi, shartlashuvi ostida sodir boʻladigan bu jarayon ixtiyoriy tarzda kechadi. Misol uchun *manba* va *matn* soʻzlarining istilohga aylanguncha davom etgan tadrijini kuzataylik. Arabcha “oqib chiqmoq”, “boshlanmoq”, “otilib chiqmoq”, “kelib chiqmoq” maʼnolarini anglatuvchi *nabaa* (نَبَأ) feʼlidan “oqib chiqish joyi”, “boshlanish nuqtasi” “buloq” maʼnosidagi *manba* (مَنْبَع) soʻzi yasalgan. Har qanday harakat, voqea-hodisaning boshlangʻich nuqtasi, avvali, boshiga nisbatan qoʻllangan bu soʻz maʼlum soha kishilarining ixtiyoriga binoan ijod mahsuli tushunchasida qarorlashdi va “manba” deyilganida muayyan *asar* (kitob) tushunila boshladi.

Mutolaa qilingan kitob oʻz oʻquvchilarida turli xil oʻxshash va farqli fikrlarni uygʻotadi. Fikrlarning oʻxshashligi *qarashlarni*, farqliligi *yondashuvlarni* yuzaga keltiradi. Bu jarayon bamisoli kitobdan kitoblar otilib chiqayotgan, asardan asarlar tarmoqlanib, toshib oqayotgan oqimga oʻxshaydi.

Endi *matn* soʻzi xususida toʻxtaladigan boʻlsak, arabcha izohli lugʻatlarda bu soʻz “narsaning ustki, yuza qismi” deb taʼriflangan. Masalan, yerning ustki qattiq qismi (متن الارض), yoʻlning oʻrtasi (متن الطريق), kitob sahifasidagi yozuvlarning hoshiya va sharhlardan xoli asosiy qismi²¹ (متن الكتاب) *matn* soʻzi bilan ifodalangan. Shuningdek, bu soʻzning “mustahkam; pishiq” kabi sifat maʼnosida kelgan turi ham mavjud. Tilimizga oʻzlashgan *matonat*, *metin* soʻzlari ham *matn* bilan oʻzakdoshdir.

“Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati”da tekst soʻzi “avtorning asl soʻzi, asarning qoʻlyozmasi yoki nashr etilgan nusxasi”²², “Slovar-spravochnik lingvisticseskix terminov” kitobida “yozuv yoki nashrda aks ettirilgan nutqiy asar (bayon qilish)”²³, “Hozirgi oʻzbek tili faol soʻzlarining izohli lugʻati”da “*matn* – mazmunan va mantiqan oʻzaro aloqador boʻlgan gaplar yoki alohida olingan gap”²⁴, “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati”da “*matn* – yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst”²⁵ tarzida turlicha ifodalangan. *Matn* bilan teng maʼnoda qoʻllanadigan *tekst* soʻzi lotincha *textus* soʻzidan olingan boʻlib, “toʻqima mato; toʻqish; oʻrish; chirmash; qoʻshish” kabi maʼnolarni anglatadi. Bu soʻzning nisbatan kengroq va qamrovli izohini 2010-yil “Akademnashr” nashriyotida chop etilgan “Adabiyotshunoslik lugʻati”da koʻrish mumkin:

1) “*Tekst* – yozuvda qayd etib qoʻyilgan nutq. Termin bu maʼnosida ogʻzaki nutqqa qarshi qoʻyiladi;

2) nutqiy asar, jumladan, adabiy asarning yozma (harflar) yoki ogʻzaki (tovushlar) belgilar vositasida qayd etilgan konkret-hissiy (koʻrish yo eshitish) qabul qilinadigan tomoni. Bu maʼnodagi *tekst* matnshunoslikning obyekti sanaladi;

3) nutqiy kommunikatsiyaning nisbiy butunlik, yaxlitlik kasb etgan va nisbiy avtonomlik, alohidalik xususiyatiga ega eng kichik birligi, yaʼni adabiy-badiiy asar. Bu maʼnodagi *tekst*ning mazmuni

²¹ Қадимий (қўлёзма ва баъзан тошбосма) китобларда асл матн ҳошия билан ажратилган. Матн шарҳлари ҳошияда гир айланасига битилган. Бу ўринда шу ҳолат назарда тутиляпти.

²²Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. “Ўқитувчи”, Т. 1970, 222-бет.

²³Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. М.: “Просвещение”, 1976, 483-стр.

²⁴Ҳожиёв А., Нурмонов А. ва бошқа. Т.: “Шарқ”, 2001, 130-бет.

²⁵ Ҳожиёв А. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2002, 61-бет.

uni tashkil qilayotgan nutq birliklari, ularning o‘zaro aloqalari bilangina cheklanib qolmaydi. Butun sifatida u muallif tomonidan muayyan nutqiy situatsiyada tug‘ilgan, uning butun sifatidagi mazmun-mohiyati o‘zidan tashqaridagi reallik bilan bog‘liq holda voqe bo‘ladi²⁶.

E’tibor berilsa, *matn* so‘zining lug‘aviy ma’nolari qaysidir darajada o‘zak tushunchada qarorlashgan: “narsaning ustki, yuza qismi”, “aks ettirilgan nutq”, “yozuv orqali aks ettirilgan nutq”, “yozuvda qayd etib qo‘yilgan nutq”. Bu ma’nolar asarning yozma yoki og‘zaki belgilar vositasida qayd etilgan tashqi, ya’ni konkret-hissiy qabul qilinadigan tomonini aks ettirsa, *tekst* so‘zining “pishiqlik, mustahkamlik, butunlik”ka dalolat qiluvchi lug‘aviy ma’nolari esa *matn* tushunchasining ichki xususiyatlarini anglatadi.

Atama tushunchasini izohlashda gapni *manba* va *matn* so‘zlari misolida boshlashimizga sabab, avvalo, mavzuimiz adabiy manbashunoslik va matnshunoslik muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Qolaversa, butunni anglash uchun uning tarkibiy qismlari haqida to‘laroq tasavvurga ega bo‘lish anglash jarayonini faollashtiradi. Hodisa anglangani sayin maqsad oydinlasha boradi, muammo yechimiga yo‘l ochiladi.

Ma’lum adabiy asar bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan manbashunos o‘zi o‘rganayotgan obyektning yaxlit butunlik sifatida yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan *ta’sirlar zanjirini* tiklaydi, tadqiq etilayotgan asarning bu silsiladagi o‘rnini belgilaydi, xalqalar orasidagi munosabatlarning umumiy qonuniyatlarini aniqlaydi. Manbashunoslik tadqiqi mana shu uzluksiz jarayon ichida kechadi.

Yuqorida matnning tashqi, ya’ni yozuvda ifodalanishi haqida so‘z borib, asarning bu jabhadagi tadqiqi matnshunoslik obyektida kechishi aytilgan edi.

Shu jihatdan matnshunoslik ilmida o‘rganiladigan matn tilshunoslikdagi matn tushunchasidan farqlanadi.²⁷ Matnshunoslikda

²⁶ Д.Курунов ва бошқа. Т.: “Akademnashr”, 2010, 329-бет.

²⁷Тилшуносликда матннинг кўриниши эмас, тузилиши кўпроқ эътиборга олинади. Шунинг учун бу соҳада “*матн нима?*”, “*матннинг энг кичик бирлиги нимадан иборат?*” каби саволларга жавоб топиш бирламчи аҳамиятдаги масаладир. Қаранг: М.М.Бахтин. Эстетика словесного творчества. М.: Искусство, 1979; Ролан Барт. Избранные работы: Семиотика.Поэтика. –М., 1989; М.Йўлдошев. Бадий матн лингвопоэтикаси. Т.: “Фан”,

har qanday yozuv matn sanaladi. Muayyan matnning paydo bo'lishidan to oxirigi holatigacha davom etgan jarayon *matn tarixini* tashkil qiladi. Aksar matnlar ma'lum vaqt mobaynida subyektiv (muallif, kotib, nashrga tayyorlovchi, muharrir) va obyektiv (ijtimoiy) omillar ta'sirida o'zgarishga uchraydi. Matnshunosning vazifasi mana shu o'zgarishlarni aniqlash, ularni tarixiy, ilmiy dalillar bilan asoslash va shu yo'l bilan asl matni tiklashdir.

Darsni xulosalash. SWOT – TAHLIL

S – strength – KUCH

W – weariness – OJIZLIK

O – opportunity – IMKONIYAT

T – threat – TAHDID

(Kuchli tomonlari – hal etilayotgan vazifaning afzalliklari;

Kuchsiz tomonlari – maqsadga erishishda ichki muhit omillarining ta'siri;

Imkoniyat – belgilangan vazifalarni hal etishdagi eng ma'qul holat;

Tahdid – faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi tashqi muhit omillari;)

Uyga vazifa. Mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumot-materiallar to'plash. 5 ta nazorat savollari tuzish, mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg'ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. Matnshunoslikning nazariy asoslari va metodikasini kim umumlashtirgan?

- A) Reyser
- B) Mutallibov
- C) Tomashevskiy
- D) Lixachev

2. Lixachevning fikricha matnshunoslikka nisbatan “yordamchi fan” istilohini eski deb qaramasak, u holda bu sohani qanday atash mumkin?

- A) Yordamchi filologik fan
- B) Amaliy matnshunoslik
- C) Ilmiy filologik fan
- D) Yordamchi lingvistik fan

3. Kim matnshunoslikni “filologiya fanining adabiy, tarixiy, ilmiy asarlar hamda tarixiy hujjatlar matnini ilmiy-tanqidiy o‘rganish va nashr qilish bilan shug‘ullanuvchi sohasidir” deb aytgan?

- A) Habibullayev
- B) Mutallibov
- C) Tomashevskiy
- D) Reyser

4. Mantshunoslikni kimlar “filologik dissiplina” deb yuritadilar?

- A) Arablar
- B) Ruslar
- C) Hindlar
- D) Fransuzlar

5. “Dissiplina” so‘zi lotinchada qanday ma’noni anglatadi?

- A) o‘qish, tarbiya, maktab
- B) tarbiya, ta’lim
- C) o‘qish, maqsad
- D) maktab, intilish

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Navoiy dastxati. (Navodirun-nihoya). Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi muallifi S.G‘aniyeva. – T.: Fan, 1991.

2. Правила подготовки к изданию памятников литературе. Востока.–М.: ИВЛ, 1959.

3. Rahmonqulova M. O‘zMU kutubxonasidagi Sharq qo‘lyozmalari katalogi. – T.: IPTD O‘zbekiston, – 2007.

4. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. –T.: Ma’naviyat, 2003.

5. Sirojiddinov Sh. XV–XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini. – Samarqand: Zarafshon, 1997.

6. Sulstonov I. Navoiyning “Mezon ul–avzoni” va uning kritik teksti: filol.fan.nom.diss. – T.: Asosiy kutubxona. RD/1, 1997.

7. Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. T.: Cho‘lpon., – 2016.

4- MAVZU

MATNSHUNOSLIKNING NAZARIY ASOSLARI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad – matnshunoslikning nazariy asoslari mavzusi nazariy

ma'lumotlar asosida o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – kitobsevarlik, millatga hurmat ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mavzu yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borishga undash, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: Xattaxta, vatman qog'oz, marker, diqqatni jalb qiluvchi savollar – krassvord materiallar, adabiy albom, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma'ruza (binar ma'ruza)

Darsning rejasi:

1. Matn tarixi tushunchasi
2. Qo'lyozma matnlarni xillash, tasniflash va saralash qoidalari
3. Qo'lyozma va toshbosma nusxalarning saralanishi.

***Tayanch so'z va asosiy tushunchalar:** adabiyotshunoslik, arxeografiya, dialektologiya va tarixiy tilshunoslik, xorijiy matnshunoslik, paleografiya, germenetika, mumtoz poetika va stilistika, Alisher Navoiyning 20 jildli "Mukammal asarlar to'plami", mumtoz adabiyot namunalarining joriy imloga tabdilidagi xatolar, adabiy merosga yangicha nuqtayi nazar.*


Erkin ilmiy-ijodiy muhit barqarorlashgan Mustaqillik davri o'zbek adabiyotshunosligida badiiy asar tahlilining zamonaviy, ilg'or tendensiyalari bo'y ko'rsata boshladi. Adabiy merosga yangicha nuqtayi nazardan yondashish, mumtoz adabiyotimiz namunalarini ma'naviy-axloqiy tarbiyaning eng ta'sirchan asosi sifati har jihatdan o'rganish istiqloq yillarida faol tus oldi. Yaqin o'tmishda "diniy-mistik", "g'ayrisha'roviy", "saroy adabiyoti" degan siyosiy yorliqlar bilan o'qish-o'rganish man etilgan asarlar ilmiy o'rganilib, ko'p nusxalarda chop etildi. Bu borada matnshunoslar, tadqiqotchilar xizmati e'tirofga loyiq.

Biroq adabiy merosimiz namunalarini bugungi talab darajasida mukammal tadqiq etish va nashrga tayyorlash matnshunoslik sohasi oldiga jiddiy vazifalarni qo‘yayotgani sir emas.

Ayni paytda matnshunoslik muammolari nimalardan iborat, ularning yechimi qanday, degan savollar dolzarb bo‘lib turibdi. Matnshunoslik oldida yechimini kutayotgan dolzarb muammolar nimalarda ko‘rinadi?

(Qator tadqiqotlarda ma‘ruza mashg‘ulotlarda slayd (taqdimot) lar ko‘zni charchatmaydigan ochiq ranglarda berilishi, mavzuga xos rasm va chizmalardan jamlansa talaba diqqat markazini tortishi ta’kidlangan)


1-rasm (slayd taqdimoti uchun maxsus)



*Birinchi*dan, dunyoda fanning bu jabhasi zamon talablari darajasida rivojlangan bugungi kunda biz hanuz matnshunoslikning sistemali yaxlit nazariyasini ishlab chiqa olganimiz yo‘q. To‘g‘ri, bu borada muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin bu ishlar talab darajasida emas. Vaholanki, jahonning bir qancha mamlakatlari fan va ta‘lim markazlarida matnshunoslik nazariyasiga oid yirik hajmli tadqiqotlar yaratilgan. Matnshunoslikning barcha ijtimoiy fanlar, jumladan, adabiyotshunoslik, arxeografiya, dialektologiya va tarixiy


tilshunoslik singari sohalar bilan munosabati masalasi ancha chuqur o'rganilgan. Bu fanga oid muammolarni hal etishda dunyo olimlari paleografiya, germenevtika, mumtoz poetika va stilistikada erishilgan yutuqlardan samarali foydalanmoqda.

2-rasm (slyayd taqdimoti uchun maxsus)



Matnshunoslik sohasi filologiya fanining asosiy va muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, yozma yodgorliklarining asl matnini tiklash hamda ularni nashr ettirishning nazariy va amaliy jihatlari bilan shug'ullanadi. Matnshunoslikning quyidagi asosiy xillari farqlanadi:

1. Antik
2. O'rta
3. Yangi adabiyot



Modomiki sohani rivojlantirmoqchi ekanmiz, bu tajribalarni tanqidiy o'rganishimiz zarur. Biroq bu xorijiy matnshunoslik qoliplarini ko'r-ko'rona amaliyotga tatbiq etaveramiz degani emas. O'zbek matnshunosligi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Matnshunoslik nazariyasini ishlashda ana shu o'ziga xoslik e'tiborga olinishi shart.

Ikkinchidan, matnshunoslik ancha taraqqiy etgan ayrim mamlakatlarda muayyan milliy adabiyot tarixida o'ziga xos maqomga ega har bir ijodkor asarlari yuzasidan keng qamrovli tekstologik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bizda esa, navoiyshunoslikni istisno qilganda (vaholanki, bu borada ham hal etilishi zarur bo'lgan muammolar yetarli), ahvol maqtanarli emas. Ko'proq bahslarimiz mumtoz adabiyot namunalarining joriy imloga tabdilidagi xatolarga oid ekani, matnshunoslikning fundamental masalalari e'tibordan chetda qolayotgani ham buning isbotidir. Hamon mumtoz adabiy merosimiz namunalarini tabdil qilishning

ilmiy prinsiplarini ishlab chiqa olganimiz yo‘q. Turfa xilliklar, xatoliklar negizi shunga ham borib taqaladi. Eski o‘zbek yozuvini o‘zlashtirgan ba’zi mutaxassislarimiz arab, fors tillaridan bexabar. Bularning barchasini bilganlarda esa, adabiy idrok yetishmaydi. Bunga layoqatli bo‘lsa, mumtoz ijodkorlarimiz e’tiqodining asosi bo‘lgan islom arkonlari va tasavvuf bo‘yicha tasavvuri chala. Xullas, muammo ko‘p. Ularni hal etish uchun ta’lim standartlarini, o‘quv dasturlarini ana shu talablarga muvofiqlashtirish zarur.

Uchinchidan, bugungi kunda jahon olimlari matnshunoslikni o‘qitishda ancha ilgari ketdi. Sohaga oid elektron darslik va o‘quv qo‘llanmalari, ensiklopediyalar, onlayn kutubxonalar, matn tadqiqining yangicha metodlari yaratilayotgani buning dalilidir. Biz esa bu borada ancha orqada ekanimizni tan olishimiz kerak.

Matnshunoslikning markaziy tashkiliy masalalari to‘g‘risida muhokama yuritib, qat’iy bir to‘xtanga kelib olish zarur. Bular – maxsus matnshunoslik hay’atini tuzish, matnshunoslik jarayonlariga yagona andozaviy mexanizm sifatida xizmat qiladigan matn imlosi qoidalarini tuzish, matnlarni tayyorlaydigan va chop etadigan mutaxassis hamda nashriyotlarning vakolatlilik darajasini belgilash, mamlakat miqyosidagi matnshunoslik ishlarini muvofiqlashtirishdan iboratdir.

Hozir mumtoz asarlar matnshunosligi bo‘yicha yetuk malakali mutaxassislar barmoq bilan sanarli darajada oz. Agar ular sarhisob qilinadigan bo‘lsa, bir-ikki kishidan nariga o‘tish ham qiyin. Chunki qolganlari sezilarli darajada faol emas. Ehtimol, bu mavjud matnshunos mutaxassislarga e’tibor va rag‘bat kamligidandir.

Aksariyat mumtoz matn nashrlarida sohaning qilni qirq yoradigan zahmatkash mutaxassislaridan foydalanmaslik, aksincha, ularni chetlab o‘tishga intilish achinarlidir. Matnshunoslik amaliyotiga mana shunday yondashuv oqibatida bugungacha birona adibimizning merosini matn sifati va saviyasi jihatidan mukammal darajada chop etilgan, deya olmaymiz. Alisher Navoiyning 20 jildli “Mukammal asarlar to‘plami” ham bundan mustasno emas. Uni buyuk mutafakkir merosining hajmi jihatidan mukammal nashri deyish mumkin. “MAT” tuzuvchi, taqrizchi va mas’ul muharrirlari doirasi, asosan, noshir muassasa mutaxassislaridan tarkib topgan. Ayrim matnshunos mutaxassislar umuman jalb etilmagan. Matn sifati va saviyasi yaxshi bo‘lishi uchun, aksincha, ko‘proq xolis

mutaxassislarni jalb etish maqsadga muvofiq bo'lardi. Gap shundaki, Alisher Navoiy merosi bir-ikki muassasaning mulki emas, balki umumxalq mulkidir. Nazarimizda, mumtoz matnlar nashrini doimiy nazorat qiladigan, muvofiqlashtiradigan xolis bir hay'at zarur. Uning nomi Respublika matnshunoslik hay'atimi, komissiyasimi, kengashimi, qanday atalishidan qat'i nazar, shunchaki ma'muriy bir tuzilma emas, balki matnshunoslikning markaziy amaliy boshqaruv mexanizmi bo'lishi lozim. Chop etiladigan har bir yodgorlik matni mana shu hay'at tasdig'idan o'tmog'i muhimdir. Aks holda, milliy meros namunalarini chop etishda boshboshdoqlik, o'zboshimchalik, monopolizm, chalasavodlik xollari kuchayib ketishi mumkin.

Bu yerda ilmiy-tanqidiy matnlarni tuzish, umuman, matnshunoslik prinsiplarini ishlab chiqish masalasi ham muhimligi to'g'ri ta'kidlandi. Bunda adabiyotimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyoti asarlari eski yozuvda (arab yozuvida) yaratilgan. Ilmiy-tanqidiy matn, odatda, asar qaysi yozuvda yaratilgan bo'lsa, o'sha yozuvda tuziladi. Hozirgi paytda bizdagi barcha nashrlar, xoh ommaviy, xoh ilmiy bo'lsin, joriy yozuvda amalga oshiriladi. *Bunday sharoitda ilmiy-tanqidiy matn hozirgi nashrlar uchun asos bo'lib xizmat qilishdan iborat o'z funksiyasini bajara olmaydi, zero, u, hozir aytib o'tganimizdek, eski arab yozuvida tuziladi. Bu yozuvda esa bitta so'zni turlicha o'qish mumkin. Oqibatda joriy yozuvdagi nashrlarda xatolar, xilma-xilliklar kelib chiqadi. Mumtoz adabiyotimiz asarlari nashrlarida uchraydigan xatolarning eng katta qismi aynan shu omil bilan, ya'ni arab yozuvidagi so'zlarni noto'g'ri o'qish bilan bog'liqdir. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, o'zbek mumtoz adabiyoti asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratishda asliyat yozuvidagi asosiy matn bilan parallel ravishda joriy yozuvdagi matnning ham tuzilishi shart qilib qo'yilishi lozim. Ana shu tarzda tuzilgan tanqidiy matngina hozirgi barcha nashrlar uchun asos bo'lib xizmat qila oladi.*

Bu sohada ba'zan yuksak bilim, aql, ilmiy nazariya ham ish bermasligi, chigal muammoni hal etishda tajribali matnshunosning birgina nazari, savqitabiiysi (intuitsiyasi) asqotishi mumkin. Savqitabiiy Olloh tomonidan ato etilgan iste'dod, biroq u ko'pyillik amaliy mehnat bilan yanada takomillashgan bo'ladi. Ming-ming sahifalab qo'lyozma o'qigan matnshunosda nodir ko'z xotirasi

shakllanadi. Ilmda: “Intuitsiya – bekor, qo‘lyozmaga qarash kerak”, deya bepisand gapirishlar ham bo‘lgan. Aslida, matnning piriga aylangan matnshunos qo‘lyozmani ko‘rmasdan ham so‘zni aslidagidek isloh etish salohiyatiga ega bo‘ladi. Zero, uning ko‘z xotirasida so‘zlarning turli, farqli shakl va mohiyatlari muhrlanib qolgan. U matnni hozirgi yozuvda ko‘rib turgan taqdirda ham, asliyatdagi shakli ko‘z o‘ngida yaqqol gavdalanadi. Yosh tadqiqotchilar nashr ishlarini loaqal ana shunday ustozlar bilan birgalikda amalga oshirishlari lozim. Zikr etilgan kitobning mas‘ul muharrirlari ham ustoz olimlar. “Biroq hozir nashr ishlarida bir xastalik paydo bo‘lgan – o‘qimaslik kasalligi. Ba’zi kitoblarni, surishtirsangiz, na mas‘ul, na maxsus muharrir, na taqrizchi, na nashriyot mutasaddilari o‘qigan bo‘lib chiqadi. O‘qimasdan imzo chekib yuboraverishni bag‘rikenglik va yaxshilik deb bo‘ladimi?!”

Ko‘p sa’y-harakatlarni chippakka chiqaradigan, mumtoz matn nashrlari sifatiga uzluksiz rahna solib kelayotgan eng og‘riqli muammo matnshunoslik jarayonlariga yagona andozaviy mexanizm sifatida xizmat qiladigan maxsus imlo qoidalarining mavjud emasligidir. Ushbu dolzarb muammo oldin ham ko‘p marta ko‘tarilgan. Mumtoz adabiy-tarixiy matnlarni nashrga tayyorlash jarayonida qoidalashtirilishi zarur bo‘lgan hodisa-holatlar haddu hisobsiz. Tarixiy shaxslar va so‘zlarni turli shakllarda yozish, forsiy-arabiy izofa, izofa zanjirlarini to‘g‘ri qo‘llay olmaslik, o‘ndan ortiq forsiy “yo”larning qo‘llanish xususiyatlarini ma‘nan farqlamaslik, mumtoz matnlardagi nozik ma‘no tovlanishlarini hozirgi yozuvda ifodalash usullarining ishlab chiqilmaganligi – bari-barisi mana shu yagona andozaviy mexanizm muammosi hanuz o‘z yechimini topmayotganligining oqibatidir. Bu muammoning yechimini topish bilan, shak-shubhasiz, taklif etilayotgan matnshunoslik hay‘ati shug‘ullanishi lozim. Mazkur hay‘at Vazirlar Mahkamasi huzurida ta‘sis etilmog‘i va u mamlakatdagi yetuk matnshunoslarni jiplashtirmog‘i, jarayonni muvofiqlashtirmog‘i hamda boshqarmog‘i maqsadga muvofiqdir.

Bugun respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan fondlarning deyarli barchasida mavjud qo‘lyozma va toshbosma manbalarning ichki katalogini tuzish ishi nihoyasiga yetgan, har bir manba haqidagi dastlabki ma‘lumotlar elektron shaklda yig‘ilgan. Navbatdagi bosqichda mazkur manbalar bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy

tadqiqotlarga e'tiborni yanada kuchaytirish, matnshunosligimizning Porso Shamsiyev kabi darg'alari boshlagan ishlarni to'xtatmasdan davom ettirishimiz lozim.

2006-yili "Zarqalam" nashriyotida adabiyotshunos olim Yoqubjon Ishaqovning "So'z san'ati so'zligi" nomli hamma ma'noda chiroyli ilmiy risolasi chop qilindi. Kitobga yozilgan "Mumtoz badiiy san'atlar talqini" so'zboshisida "Zuxruf" surasining 4-oyati misol sifatida keltirilgan. E'tiborsizlik oqibatida bitta oyatda uchta jiddiy xatoga yo'l qo'yilgan va ma'noga futur yetgan. Avvalo, Qur'ondan keltirilayotgan iqtibos, albatta, mutaxassis nazaridan o'tishi kerak. Qolaversa, oyatlarni kirill harfida yoki originaldan boshqa harfda ifodalash shu paytgacha yaxshi natija bermagan. Shuning uchun tarjimaning o'zini bergan ma'qul va shu bilan maqsad hosil bo'ladi. Eng xunugi, bu o'rinda negadir mazkur oyat tarjimasi ham buzib berilgan. Bir emas, bir necha olimlarimizning ona tilimizdagi, qonuniy tavsiya etilgan tafsirlari turib, oyat tarjimalarini o'sha tafsirlarning birortasidan olmasdan o'zboshimchalik qilishning nima keragi bor edi?!

Matn tabiatidan uzoqlashish bilan bog'liq xatolarni ommaviy nashrlarning aksariyatida uchratish mumkin. Alisher Navoiyning "Nazmul javohir" (Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to'plami, 15-tom, T., "Fan", 1999, 136-bet) asarida shunday ruboiy bor:

*Iymoni aningki kufrig'a sotir erur,
Chin nukta demakka ul kishi qodir erur,
Har kimsaki iymon ishida mohir erur,
Iymonini bilki, otidin zohir erur.*

Ruboiyning to'rtinchi misrasidagi "otidin" so'zi "ontidin" bo'lishi kerak edi. Shunda ma'no hadisga muvofiq bo'ladi. Aslida bunga asos ruboiyning sarlavha qismida berilgan arabiy hikmatda aks etgan *ایمان المرء يعرف بإيمانه*. Arabiy matndagi "aymon" (ایمان) so'zi "yamin" ya'ni *qasam* so'zining ko'plik shakli. Alisher Navoiy ruboiyda arabcha "*qasam*" so'zining turkiydagi sinonimi "*ont*" shaklini qo'llagan. Sarlavhadagi matnga diqqat qilmaslik yoki til va insho qoidalaridan oddiy bexabarlik oqibatida ruboiyning asl ma'nosi buzilgan.

Adabiy meros tadqiqi va targ'ibi yo'lida bilib-bilmasdan sodir etilayotgan bunday nuqsonlarning sababi ko'p. Asosiy sabab, ajdodlarimiz qoldirgan ilm xazinasiga haqiqiy vorislik salohiyatidagi

mutaxassislarning kamligidir. Shuning uchun ham bugun mumtoz adabiyotimiz tadqiqi ilmiy-fundamental va metodologik sistemada sezilarli siljmayapti. To'g'ri, filologiya fanining yetakchi tarmoqlaridan bo'lgan adabiyotshunoslik va tilshunoslik nazariy-amaliy jihatdan boy tajribaga ega. Ammo bu ikki tarmoqni o'zaro bog'lashga xizmat qilishi mumkin bo'lgan matnshunoslik esa ayni jihatdan oqsayapti. Albatta, bu holga ma'lum vaqt davom etgan ijtimoiy-siyosiy sharoit, eski o'zbek tilini, yozuvini biladigan, arab-fors tilidan xabardor mutaxassislarning kamligi bosh sabab.

Adabiyot tarixini matnlarsiz, manbalarsiz o'rganib bo'lmaydi. Binobarin, mumtoz adabiyot asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzish, adabiyotimiz tarixi uchun muhim bo'lgan manbalarni tadqiq qilish, nashrga tayyorlash va ilmiy iste'molga kiritish o'ta dolzarb vazifa deb e'tirof etilishi lozim. Buni faqat ilmiy jamoatchilik emas, balki fanni boshqaruvchi tashkilotlar, ular huzuridagi ekspert hay'atlari ham e'tirof etishlari va ilmiy loyihalarni baholashda hisobga olishlari zarur. Xususan, uzoq muddatga mo'ljallanmagan amaliy tadqiqotlar uchun e'lon qilingan grantlarni olish uchun taqdim etilgan loyihalarda yuqoridagi maqsadlar ko'zda tutilgan bo'lsa, ularni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

* * *

(Ikkinchi ma'ruzachi (talaba) davom ettiradi. Ma'ruza mashg'ulotini o'qituvchi tomonidan oldindan topshiriq asosida tayyorlanib kelgan talaba davom ettirib o'qiydi. Bu usul auditoriya iqlimini muvozanatda ushlashga yanada samarali yordam beradi. Sababi, boshqa talabalarda ham ma'ruza o'qish, o'z bilimini namoyish etish hissi uyg'onadi, ijobiy raqobatni yuzaga kelishiga zamin yaratadi)

O'zbek matnshunosligining asosiy yo'nalishlaridan biri ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlari matnini tayyorlashdir. Bu sohada muayyan ishlar qilingan. Shoirning bir qancha asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilgan. Lekin hali qilinadigan ishlar ko'p. Jumladan, Navoiyning nasriy merosi orasida hali ilmiy-tanqidiy matnlari tuzilmagan asarlar bor. Mana shu yo'nalishda tadqiqotlar olib borish mazkur asarlarning barcha ilmiy talablarga javob beradigan yuqori saviyadagi ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlash navoiyshunos olimlar oldida turgan muhim

vazifalardan sanaladi. Mazkur ishlarni amalga oshirishda bizga ibrat, namuna, ayni paytda, tajriba maktabi bo‘lib xizmat qiladigan tadqiqotlar bor. Bu o‘rinda biz “Mahbub ul-qulub”ning atoqli olim Kononov tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni yoki “Majolis un-nafois”ning taniqli adabiyotshunos olimi Suyima G‘aniyeva tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni singari ishlarni nazarda tutmoqdamiz. Matnshunoslikning mumtoz namunalari bo‘lib qolgan bunday ishlar hech qachon o‘z qimmatini yo‘qotmaydi.

Aslida matnshunoslik juda qadimiy soha. Uzoq tarixiy asoslarga ega bo‘lsa-da, matnshunoslikning butun dunyoda sistemali suratda shakllanganiga hali bir asr ham bo‘lmadi. Lekin shu qisqa vaqt ichida filologik fanlari rivojlangan mamlakatlarda matnshunoslikning nazariy prinsiplari ishlab chiqildi. O‘tgan asrga nazar tashlasak, matnshunoslarning bizdan oldingi avlodi o‘z zimmalaridagi vazifani sharaf bilan bajardilar. Ularning muhim vazifasi ajdodlarimizning eng sara asarlarini joriy yozuvda kitobxonlarga taqdim qilishdan iborat edi. Shuning uchun ham, bu sohada fidoyilik ko‘rsatgan olimlarga har qancha ehtirom ko‘rsatilsa arziydi.

Mustaqillik davrida imkoniyatlar yanada kengaydi. Muhtaram Yurtboshimiz ko‘hna yozma bitiklarni ma‘naviy tarbiyada muhim asos sifatida o‘rganishni siyosat darajasida belgilab berdi. Matnshunoslar buni ham sharaf, ham mas‘uliyat deb qabul qildilar. “Feodal-klerikal” tamg‘asini olgan, “xalq dushmani” sifatida qoralangan Milliy Uyg‘onish davri adabiyoti vakillari asarlari ilmiy o‘rganila boshlandi, juda katta hajmda nashr qilindi. Bunda ham matnshunosligimizning xizmatini e‘tirof etmaslik mumkin emas. Lekin bugunning ko‘zi bilan qarab, tan oladigan bo‘lsak, o‘zbek matnshunosligi qanchalik katta hajmdagi va ahamiyatli faoliyatni amalga oshirgan bo‘lmasin, faqat amaliy jarayondan iborat bo‘lib qoldi. Uning o‘ziga xos ilmiy-nazariy prinsiplari ishlab chiqilmagani bois tom ma‘noda professionallasha olmadi. Buning bosh sababi hammaga yaxshi ma‘lum: milliy ma‘naviy qadriyatlar bilan fan taraqqiyoti o‘rtasiga katta to‘siq qo‘yilgan edi. Haqiqiy matnshunoslar juda kam edi. Ular ham, hozir aytilganidek, kechiktirib bo‘lmas amaliy faoliyat bilan band bo‘ldilar. O‘zbek filologiyasi mutaxassisleri orasida matnshunoslar yetishtirish ko‘zda

tutilmagandi. Sharqshunoslarga esa, milliy til va adabiyot sirlari o'rgatilmagandi. Oqibatda chala matnshunoslar ko'proq ish bajargan...

“Oyina”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona”, “Hurriyat” singari mashhur matbuot nashrlarida chop etilgan adabiyot materiallari anchagina o'rganildi. Biroq “Al-Izoh”, “Al-Isloh”, “Izhor ul-Haq” jurnallari haqida bunday deb bo'lmaydi. Bu jurnallardagi adabiyot materiallari adabiy manbashunoslik va matnshunoslik aspektida tadqiq qilinishi, ularning XX asr adabiyotida tutgan o'rni, maqomi belgilanishi dolzarb ilmiy muammolardandir. Birgina “Al-Isloh” jurnalini olaylik. Undagi adabiy-estetik munozaralar yangi adabiyotning shakllanishida, taraqqiy etishida alohida ahamiyat kasb etgani sir emas. Bu manbaning o'rganilishi adabiy-tanqidiy qarashlar tadrijini tadqiq qilishda ham alohida o'rin tutadi.

Yana bir muammo: Milliy Uyg'onish davri matbuotidagi adabiyot materiallarini nashr etishda ham aksar hollarda professionalikdan yiroqlik illati ko'zga tashlanadi. Bu hol matnlarning noto'g'ri tabdil qilinishida, ba'zan mohiyatga zid talqinlarda, ayniqsa, yaqqol seziladi. Salohiyatli matnshunos kadrlarni tayyorlash bu singari muammolarni hal etishning asosiy omilidir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, matnshunoslik faqat yozuvni bilish bilangina bajarilishi mumkin bo'lgan ish emas. Matnshunos, *birinchidan*, davrning falsafiy estetik prinsiplarini yaxshi o'zlashtirgan; *ikkinchidan*, milliy taraqqiyot ehtiyojlarini anglagan; *uchinchidan*, ona tilining tarixi, buguniga tegishli bilimlarni, jumladan, yozuvlar tarixini, boshqa tillar ta'siri va matnlardagi ishtirokini to'la egallagan; *to'rtinchidan*, adabiyotshunoslik qoidalaridan mukammal xabardor mutaxassis bo'lishi kerak. Aks holda, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumot-materiallar to'plash. Mavzuga doir ita ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg'ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Dars yuzasidan dialogik savol-javob.

Nazorat uchun test savollari:

1. Muayyan matnning paydo bo'lishidan to oxirgi holatigacha davom etgan jarayonni o'rganuvchi soha?

- A) Matn tarixi
- B) Matn tanqidi
- C) Matnshunoslik
- D) Nazariy matnshunoslik.

2. Mutallibov nechanchi yilda A.Navoiyning "Sabbayi sayyor" dostonining ilmiy-tanqidiy matni va uni tuzish prinsiplari" nomli nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi?

- A) 1946-yilda
- B) 1945-yilda
- C) 1944-yilda
- D) 1947-yilda.

3. L.Xalilov 1975-yilda A.Navoiyning qaysi asari doirasida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi?

- A) "Tarixi mulki Ajam" asarining tekstalogik tadqiqi
- B) "Xamsa"ning ilmiy-tanqidiy matni
- C) "Sabbayi sayyor" asarining tekstalogik tadqiqi
- D) "Majolis-un nafois" ning 3- va 4- majlisleri ilmiy-tanqidiy matni.

4. S.G'aniyeva nechanchi yilda Navoiy asari bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan?

- A) 1944-yilda
- B) 1956-yilda
- C) 1952-yilda
- D) 1961-yilda.

5. Kimning asarlari nashri o'zbek matnshunosligining ilmiy-nazariy taraqqiyotining eng yuqori boshqichini boshlab beradi?

- A) Ogahiy asarlari
- B) Navoiy asarlari
- C) Lutfiy asarlari
- D) Bobur asarlari

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

2. Yoʻldoshev B. Frazologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999.
3. Abdurahmanov X., Mahmudov N. Soʻz estetikasi.– Toshkent: Oʻqituvchi, 2002.
4. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy sanʼatlar. – Toshkent: TDPU, 2001.
5. Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
6. Yoʻldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashgʻulotlarni tashkil etish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.
7. Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. T.: Choʻlpon., – 2016.

5- MAVZU

MUMTOZ ADABIY MANBALARGA EDITSION NUQTAYI NAZARDAN YONDASHUV TAMOYILLARI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad – mumtoz adabiy manbalarga editsion nuqtayi nazaran yondashuv tamoyillari mavzusi nazariy ma'lumotlar asosida o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni millatimizga, mumtoz adabiyotimizga hurmat, ilmga muhabbat, faxr iftihar ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mavzu yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borishga undash, mumtoz adabiy asarlarni o'qishga jalb etish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: Xattaxta, bo'r, dars uchun maxsus bukletlar, vatman qog'oz, marker, diqqatni jalb qiluvchi savollar – skanvord materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma'ruza

Darsning rejasi:

1. Asliyat va tabdil masalasi. Yig'ma va ilmiy-tanqidiy matn
2. Ilmiy-tanqidiy matn dastxat nusxaning shartli taqdimi sifatida
3. Matnga havola qilingan ilmiy ko'rsatkichlar tarkibi.


Tayanch so'z va asosiy tushunchalar: *mumtoz adabiyot asarlari matnini yaratish muammosi, adabiyotshunoslik, matnshunoslik, tuzuvchi didi, arxeografiya, dialektologiya va tarixiy tilshunoslik, ilmiy-tanqidiy matn dastxat nusxaning shartli taqdimi, adabiy merosga yangicha nuqtayi nazar, ilmiy ko'rsatkichlar tarkibi, davr adabiy yodgorligining mazmun-mohiyati.*

Matnshunoslik va mumtoz adabiyot o'zaro biri ikkinchisini taqozo qiladigan, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydigan sohalaridir. Matnshunoslik ayni paytda to'g'ri matn yaratish uchun ham asos bo'ladigan soha. Bu sohada maktab yaratgan olimlarning mehnatlari, tajribalari bugungi kunda qo'l kelmoqda. Ularning maktablari nasihatgo'ylik yoki matndan faqat xato izlashdan iborat emas, balki ustozlarning tayyorlagan matnlari, tayangan prinsiplari matnshunoslikni shakllantirdi. Maktab katta qalb, chuqur bilim,

ilmga muhabbat, qolaversa, ilmiy madaniyat orqali yaratiladi. Bir misol. Rus adabiyoti tarixida rus yilnomalari matnlari bo'yicha S.Shambinago, I.Tixomirov kabi olimlar tadqiqotlar yaratgan. Ammo bu matnlar yuzasidan ish shu bilan to'xtamagan. Bu yo'nalishda mashhur matnshunos A.Shaxmatov ham ish olib bordi. U matndagi xatolarga e'tibor qaratarkan, ustozlar bilan ziddiyatga kirishmadi, balki tadqiqot usulini o'zgartirdi: avval matnni tadqiq etib, keyin nashr qildi. Nihoyatda ibratli usul! Muayyan bir davr adabiy yodgorligining mazmun-mohiyati uning kim tomonidan nashrga tayyorlangani bilan o'lchanmaydi, balki adabiyot tarixida tutgan o'rni bilan o'lchanadi, qolaversa, matnning yashashi, avlodlardan avlodlarga o'tishi ham matnshunos yaratgan matnning saviyasi bilan belgilanadi. Adabiy yodgorliklar bilan avlodlarni bog'lab turadigan, matnning qanday saviyada bajarilganini ko'rsatadigan bir omil – majmualardir. Majmua badiiy asarlardan muhim parchalarni olib, bir kitobga jamlashdangina iborat emas, ayni paytda u tuzuvchining didi, asarga munosabati va matnning qanchalik qimmatli ekaniga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Majmualar ana shunday puxta nashrlardan parchalar tanlab, yaratiladi.

Biz mumtoz adabiyot asarlari matnini yaratish muammosi to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, matnshunoslikda shu kungacha davom etib kelayotgan majmualar va ularning yaratilish prinsiplariga e'tiborni qaratmoqchimiz. O'zbek adabiyotida majmua yaratishning o'ziga xos an'analari bor. Abdurauf Fitrat, Olim Sharafiddinov, Hodi Zarif va boshqa olimlar tuzgan majmualar bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Matn tanlashda did, izchillik va mantiqiylik ular yaratgan majmualarning umrboqiyiligini ta'minladi. Birgina Fitrat domlaning "Eng eski turk adabiyoti namunalari" (Toshkent, "Mumtoz so'z", 2008; nashrga tayyorlovchi: Orzigul Hamroyeva) majmuasiga nazar tashlash kifoya. Fitrat "Devonu lug'otit turk"dagi to'rtliklarga muayyan mantiqiy izchillikda tartib berib, Alp Er To'nga marsiyasini tikladi, to'rtliklarni lug'at va izohlar bilan ta'minladi. Majmua XI asr va undan oldingi davr adabiyoti to'g'risida tasavvur hosil qilishda o'z vazifasini bajardi. Bu va bu singari majmualar adabiyot tarixi uchun ishonchli manba vazifasini o'tashi shubhasizdir.

3-rasm (slayd taqdimoti uchun maxsus)



Mumtoz adabiyot tarixi majmualari yangilanib borishni taqozo etadi. Yangi manbalar kitobxon ixtiyoriga havola qilingandagina mumtoz adabiyot o'z vazifasini bajargan bo'ladi. Majmualar qanday prinsiplarga ko'ra tuziladi, qanday matnlar olinadiyu, qaysi biri olinmaydi, degan savollar tug'ilishi tabiiy. Majmua tuzishning o'ziga xos prinsiplari bor. Birinchidan, matnlarni qiyoslash va saralash talab etiladi. Bu prinsipga Fitratning yuqorida biz aytib o'tgan majmuasi eng yaxshi misol bo'la oladi. Turk olimi Ko'prulizodaning "Devonu lug'otit turk" yuzasidan olib borgan kuzatishlariga Fitrat har bir to'rtlik yuzasidan munosabatini bildirib, puxta majmua yaratganini aytishimiz darkor. Biz ham matnlarni tanlashda shu prinsipga asoslanishga, ayniqsa, nomalar va Sayfi Saroyi ijodidan namunalarni tanlashda harakat qildik.

Sayfi Saroyi XIV asr o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi. U Oltin O'rda adabiyoti va Misrda turkiy qavmlar barpo qilgan Mamluklar davlatidagi adabiy muhitning yorqin vakili. Shayx Sa'diyning "Guliston" asarini "Gulistoni bit-turkiy" nomi bilan ilk bor turkiychalashtirdi, o'z davrining malik ush-shuarosi sifatida shuhrat qozondi. Sayfi Saroyi ijodi, xususan, uning tarjimonlik mahorati haqida hali ko'p gaplar aytilishi kerak. Biz bu ulug' shoir bilan bog'liq boshqa muhim masala – uning asarlari nashri ustida

qisqacha to'xtalmoqchimiz. Sayfi Saroyining "Gulistoni bit-turkiy" asarini Turkiyada o'tgan asr o'rtalarida Faridun Nafiz O'zluq chop ettirgan; Qozonda, Qozog'istonda bu shoir ijodi bo'yicha o'sha davrda bir qancha ishlar amalga oshirilgan. O'zbekistonda bu asarning ikki nashri – E.Fozilov va N.Davron amalga oshirgan nashrlari bor. Matnni kim tayyorlagani emas, badiiy saviyasi majmuada asosiy mezon bo'lgani uchun Sayfi Saroyining zamondosh shoirlarga javob g'azallarini Amir Najip nashridan, "Gulistoni bit-turkiy"dan namunalarni Nasrullo Davron nashridan ayrim tuzatishlar bilan olishga to'g'ri keldi. E.Fozilov tayyorlagan nashr o'z-o'zidan chetga surilib qoldi. Bunga sabab – E.Fozilov nashrining saviyasi yuksak emasligi bo'ldi. So'zimizning isboti uchun Amir Najip va E.Fozilov nashrlaridan Mavlono Qozi Muhsin g'azaliga e'tibor beraylik. To'rtinchi baytning birinchi misrasi Amir Najipda:

Yanag'i mehrlarga olma sotar.

Misraning mazmuni tushunarli: *Yorning yonoqlari shunchalik qizilki, xuddi quyoshga qizil olmani sotmoqchi bo'layotgandek, quyosh bilan bahslashayotgandek.*

Endi yuqoridagi misrani E.Fozilov qanday ag'darganiga e'tibor beraylik:

Yangog'i sayrularga olma sotar.

Mazmun mubham, "mehr"ni "sayr" gaalmashtirgan E.Fozilov nimani nazarda tutgan – o'ziga ma'lumdir-u, ammo kitobxonga qorong'u.

Yana shu g'azalning beshinchi bayti Amir Najipda:

Ne yangoqkim mot etar toza gulni.

Misra mazmunini tushunishda hech qanday muammo yo'qligi uchun sharhlaymaymiz-da, shu baytni E.Fozilov qanday tushunganini ko'ramiz:

Ne yangoqkim, mot otar (?) toza guli (?)

Na mantiq, na mazmun bor, balki "otar"ning birinchi harfi *alifni* E.Fozilov *kaltak* deb tushungan bo'lsa kerak? Bo'lmasa, motni otib bo'ladimi?! Kimdir kimnidir mot qiladi!

Yana shu she'rning oxirgi bayti Amir Najipda:

Qosha ko'za aldanursa dag'iylar.

Ya'ni "dag'iylar" – boshqalar demoqchi ekani ma'lum. E.Fozilovda:

Qosha, ko‘za aldanursa doiylar.

Shu she‘r muallifi Qozi Muhsinga nisbatan ishlatilgan *Mavlon*o so‘zini matnchi chala-yarim qilib *Mavlo*deb o‘qiganini ham tushunish qiyin. Biz shu g‘azaldagi unchalik ahamiyatsiz, she‘r mazmuniga xalal bermaydigan qusurlarga e‘tibor bermadik.

Sa‘diy “Guliston”ining forscha asl nusxasi uchinchi bobi 22-hikoyasi oxirida “Men aytdim” iborasi bor. Sayfi Saroyi tarjimasida “Xayolga Xoja Ishoq Xorazmiyning quyidagi hikmati kelur” degan jumladan keyin quyidagi to‘rtlik keltirilgan:

Tushib bir kun otindin, bu masalni

Badiha nazm etti Xoja Ishoq:

“Jahon sevgan kishining ko‘zlarini

Qanoat to‘ldirur yo o‘lsa tuproq”.

“Gulistoni bit-turkiy”ni sinchiklab o‘rgangan Amir Najip shu shoirning g‘azaliga Sayfi Saroyi javoban yozgan g‘azalning birinchi baytini quyidagicha chop ettirgan:

Taolalloh zih surat, ***zih mahbubi ruhoni***y,

Kim oning husni shavqidinko‘ngullar bo‘ldi nuroniy.

Baytning birinchi misrasidagi *ruhoni*yni E.Fozilov *ravhonide*b o‘qiganini hech ham anglab bo‘lmadi.

Agar Sayfi Saroyining E.Fozilov nashrga tayyorlagan kitobini shu tarzda tahlil qilishni davom ettirsak, bugungi avlodda 60-yillardagi matnshunoslar shu darajada nochor bo‘lgan ekan-da, degan fikr paydo bo‘lishi mumkin. Aslida, eng layoqatli matnshunoslarni o‘sha davr yetishtirgan. Faqat yuqoridagidek nashrlar mumtoz adabiyotning qimmatini bir oz tushiradi, xolos.

Matnshunoslik bir yozuvdan boshqasiga harf ag‘darishdan iborat emas. Yoki duch kelgan matnni olib, majmua yasashdan ham hech kim naf ko‘rmaydi. Matnshunos, birinchi navbatda, matnni did va savodxonlik bilan tayyorlash malakasiga ega bo‘lsa, majmua tuzuvchilar uchun ham, kelgusi avlodlar uchun ham katta ish qilgan bo‘ladi. Matndagi xato majmuada ham davom etaversa, bora-bora mumtoz adabiyotning qiyofasiga dog‘ tushadi. Ikkinchidan, matn talabaga yoki keng ommaga mo‘ljallanganda, albatta, lug‘at va izohlar bilan ta‘minlanishi kerak. Umuman, matn tayyorlash va shu asosda majmualar tuzish bir-biriga bog‘liq jarayon ekanini har doim e‘tiborda tutishimiz lozim.

Bugungi kunda matnshunosligimiz oldida jiddiy vazifalar turibdi. Jumladan, ko‘plab asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlash zarur. Shu kungacha Lutfiy, Sakkokiy singari shoirlar asarlari bosilib chiqqan. Biroq ular devonlarining mukammal nashrlarini tayyorlash lozim. Mana, yaqinda Lutfiyning avvalgi nashrlariga kirmay qolgan she‘rlarini Anqara nashri asosida chop etildi. “Majolis un-nafois” izohlari bilan nashr qilinmoqda. Kelgusida Lutfiy devonining mukammal nashrini tayyorlashimiz lozim. Sakkokiy va yana boshqa ko‘p shoirlarning mukammal nashrlarini tayyorlashni yo‘lga qo‘yish zarur. Alisher Navoiy asarlari nashrlari ustida ham amalga oshiriladigan ishlar talaygina. Masalan, shoir asarlarining akademik (ilmiy), ilmiy-ommabop nashrlarini tayyorlash kerak. Ularni tayyorlashda, albatta, shu kungacha chiqqan nashrlardan foydalanish bilan birga qo‘lyozmalarga ham qayta murojaat etish lozim. Matnshunoslikdagi ilmiy-tanqidiy matn, chog‘ishtirma matn, ilmiy nashr, ilmiy-ommabop nashr kabi tushunchalarni, ular o‘rtasidagi farqlarni tushunib yetishimiz kerak. Chop etilayotgan asarga ilova qilinadigan sharh va izohlar, lug‘atlar ham shunga qarab belgilanishi lozim. Shu paytgacha bizda “Xazoyin ul-maoniy”ning ilmiy matni mavjud emas. Bizning nazarimizda, keyingi yillardagi dastlabki mukammal nashr hisoblangan “Xazoyin ul-maoniy” (1959 – 1960), keyingi 20 jildlikka kirgan devonlar ham ilmiy-tanqidiy matn asosida chop etilmagan. Albatta, ularni tayyorlash uchun ko‘p mehnat sarflangan, katta-katta olimlarimiz jiddiy izlanishlar olib borganlar. Shunday bo‘lsa-da, “Xazoin ul-maoniy”ning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish bugungi kunning dolzarb muammolaridan. Yana, “Xamsa” dostonlarini izohlari bilan qayta nashr etishga ehtiyoj bor. Nashrlardagi kichik xatolarni izlab vaqt sarflash o‘rniga, kattaroq – xalq uchun foydaliroq ishlar bilan shug‘ullanish kerak. Tarjima asarlarning tabdilini tayyorlayotganda asliyatga solishtirishdan erinmaslik kerak. Matnshunoslik, manbashunoslik sohalari shoshma-shosharliqni yoqtirmaydi...

* * *

(Ma’ruza mashg‘ulotini o‘qituvchi tomonidan oldindan topshiriq asosida tayyorlanib kelgan talaba davom ettirib o‘qiydi. Bu usul auditoriya iqlimini muvozanatda ushlashga yanada samarali yordam beradi. Sababi, boshqa talabalarda ham ma’ruza

o‘qish, o‘z bilimni namoyish etish hissi uyg‘onadi, ijobiy raqobatni yuzaga kelishiga zamin yaratadi

O‘zbek matnshunosligi shu paytgacha, shubhasiz, salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Bu yutuqlar, ayniqsa, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy asarlarini o‘rganishda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Porso Shamsiyev, G‘ulom Karimov, Hamid Sulaymon, Aziz Qayumov, Suyima G‘aniyeva singari ustoz olimlarning bu boradagi faoliyati tahsinga loyiq. “Xamsa”, “Mezon ul-avzon”, “Majolis un-nafois” kabi benazir asarlarning ilmiy-tanqidiy matni yaratilgani navoiyshunoslikni yangi bosqichga yuksaltirgani bugun hech kimga sir emas. Matnshunoslikda erishilgan bu yutuqlar keyingi davrda Bobur, Ogahiy, Furqat va boshqa mumtoz shoirlar, ijodkorlar merosi misolida davom ettirilayotgani quvonarli hol. Biz bunga ikkita misol keltirish bilan cheklanamiz. Birinchisi, Muhammad Rizo Ogahiyning dunyoda yagona qo‘lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda saqlanayotgan “Shohid ul-iqbol” asarining matnshunoslik aspektida tadqiq qilingani, asar matnining ilmiy izohlar, ko‘rsatkichlar bilan nashr etilgani bu sohada so‘nggi yillarda qo‘lga kiritilgan salmoqli yutuqlardandir. Ikkinchisi, Mutribiyning “Tazkirat ush-shuaro” hamda “Nusxayi zeboyi Jahongir” asarlari tadqiqi asosida yaratilgan monografiya. Salohiyatli olimlar Nafas Shodmonov va Ismoil Bekjonovning bu ishlari faqat muayyan asarlarning teran o‘rganilgani bilangina emas, matnshunoslikning bir qancha nazariy-metodologik masalalari hal etilgani bilan ham ahamiyatlidir. O‘zbek matnshunosligining asosiy yo‘nalishlaridan biri ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy asarlari matnini tayyorlashdir. Bu sohada muayyan ishlar qilingan. Shoirning bir qancha asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilgan. Lekin hali qilinadigan ishlar ko‘p. Jumladan, Navoiyning nasriy merosi orasida hali ilmiy-tanqidiy matnlari tuzilmagan asarlar bor. Mana shu yo‘nalishda tadqiqotlar olib borish mazkur asarlarning barcha ilmiy talablarga javob beradigan yuqori saviyadagi ilmiy-tanqidiy matnlarini tayyorlash navoiyshunos olimlar oldida turgan muhim vazifalardan sanaladi. Mazkur ishlarni amalga oshirishda bizga ibrat, namuna, ayni paytda, tajriba maktabi bo‘lib xizmat qiladigan tadqiqotlar bor. Bu o‘rinda biz “Mahbub ul-qulub”ning atoqli olim Kononov tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni yoki “Majolis un-nafois”ning

taniqli adabiyotshunos olimi Suyima G'aniyeva tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni singari ishlarni nazarda tutmoqdamiz. Matnshunoslikning klassik (mumtoz) namunalari bo'lib qolgan bunday ishlar hech qachon o'z qimmatini yo'qotmaydi.

Bugun respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan fondlarning deyarli barchasida mavjud qo'lyozma va toshbosma manbalarning ichki katalogini tuzish ishi nihoyasiga yetgan, har bir manba haqidagi dastlabki ma'lumotlar elektron shaklda yig'ilgan. Navbatdagi bosqichda mazkur manbalar bo'yicha qilinayotgan turli sathdagi ilmiy tadqiqotlarni monografik planda chuqurlashtirish, matnshunosligimizning ilmiy-tanqidiy matn tuzish yo'lida orttirilgan boy tajribalaridan foydalanib, o'tgan avlod shiddat bilan boshlagan ishini himmat va shijoat bilan davom ettirishimiz lozim. Ana shundagina ota-bobolarimizdan meros qolgan bu bebaho ilm xazinasining haqiqiy vorisiga aylanamiz.

Ba'zan mumtoz adabiyot matnlarining eski o'zbek yozuvidan joriy alifboga tabdilida, mazkur matnlarning talqinida yoppasiga savodsizlikni kuzatamiz. "Yoppasiga" deyishimizdan maqsad, tabdil qilingan ayrim matnlardagi xatolar nafaqat shaklda, balki ma'noda ham, talqinda ham bir yo ikki o'rinda emas, ketma-ket, qatorasiga sodir etiladi. Ayniqsa, arabiy so'z, jumla, matnlarni o'zbekchalashtirishda o'ta e'tiborsiz va mas'uliyatsiz yondashuvlar, tarjimada o'zbek tilini dominant sifatida bilmaslik va natijada o'zbek tilining talaffuz tabiatini hisobga olmasdan boshqa tillarga sun'iy tarzda moslashtirishlar, maxsus tushuncha va istilohlarni izohsiz, bilib-bilmasdan qo'llash tufayli qo'pol xatolarga yo'l qo'yilyapti. Masalan, yozma va og'zaki nutqda joriy bo'lgan, tilimizga allaqachon o'zlashib ketgan "Olloyor" so'zini yozuvda "Ollohyor", "Allohyor" deb yozish va zo'rma-zo'raki talaffuz qilishga o'zni majburlashning sababi nimada?²⁸ Agar buni e'tiqodga daxldor masala deb qaralayotgan bo'lsa, kamida kaltabinlik qilinayotgan bo'ladi. Sog'lom aqida ko'r-ko'rona taqlid bilan emas, xolis ilm bilan barpo bo'ladi. Dunyodagi barcha xalqlar, qabila-elatlar o'ziga xos tili bilan yaratilgan. Ona tili, uning tabiati, barcha qonun-

²⁸ Мисоллар: Сувоноккулов И. Сўфи Оллохёр ва унинг адабий аънаналари: фил.фан.док.дисс.Т.: 1997; Баратова Н. Сўфи Оллохёрнинг бадий-маънавий қарашлари.С.: 2002; Сўфи Аллохёр. Халқаро илмий анжуман материаллари. «Ал-Худо»-«Мовароуннахр», Техрон –Тошкент. 2005.)

qoidalari har bir xalqning belgilab qo'yilgan daxlsiz huquqi. Bu haqqa tajovuz qilish haqiqatga qarshi borishdan boshqa narsa emas.

Arabcha izofali birikmalar imlosida ham tilimizda xilma-xilliklar kuzatilyapti.²⁹ Masalan, **“Mahbubul qulub” birikmasini olib ko'raylik: “Mahbub ul-qulub”, “Mahbub ul qulub”, “Mahbubul qulub”, “Mahbubu-l-qulub”.**Xo'sh, bu shakllarning qaysi biri o'zbek tilining lisoniy qonun-qoidalariga nisbatan muvofiqroq?

Savolga javob topish uchun avvalo, arab tilidagi izofa tushunchasining lisoniy sathda nimani anglatishini bilishimiz lozim. Izofa qaratqich-qaralmish munosabati vositasida tarkib topgan birikmadir. Yuqoridagi birikma misolida olib qaraladigan bo'lsa, bosh kelishikdagi sifatdash “mahbubun” (محبوب—sevilgan, suyukli) va bosh kelishikdagi ot “qulubun” (قلوب—qalblar) shakllari aniqlik artikli *al* vositasida birikkan. Natijada har ikkala so'zdagi bosh kelishiklik belgisi *un* (ؤ) o'zgarishga uchragan: *mahbubun* so'zidagi oxirgi *n* tushib qolgan va qulubun so'zidagi *un* “i” (qaratqich qo'shimchasiga)ga aylangan. Natijada, “suyukli” va “qalblar” so'zlaridan qaratqich-qaralmish munosabatidagi “Qalblarning suyuklisi” (محبوب القلوب) birikmasi yasalgan.

Bir guruh olimlar bu masalada “izofali birikmalarning arab tilidagi yasaliş holati imkon qadar o'zbek tilida ham aks etishi mantiqqa yaqinroq” degan qarashni ilgari suryaptilar va amalda quyidagi shaklni qo'llayaptilar: “Mahbubu-l-qulub”. Bu muqobil bir necha jihatdan tilimiz tabiatiga muvofiq emas.

*Birinchi*dan, mazkur birikma orfografik jihatdan noqulay. Asliyat yozuvida tabiiy ravishda bitta tushunchani ifodalagan butun birikma (محبوب القلوب) o'zbek tilining kirill yozuviga muvofiqlashtirilgan alifbosida ajratuvchi ikkita kichik chiziqcha vositasida uch mustaqil bo'lakka bo'lib tashlangan: (mahbubu); (l); (qulub).

*Ikkinchi*dan, tavsiya qilinayotgan bu shakl fonetik jihatdan tilga og'ir. Asliyat talaffuzida ikki nafasda o'qiladigan birikma tavsiya qilinayotgan mazkur shakl natijasida uch nafasda (uchta pauza bilan) o'qilishi lozim bo'lib qoldi. Bu esa o'zbek tilining talaffuz tabiatini buzishga olib kelgan.

²⁹ Бу фикрнинг тасдиғи учун қўлланма охирида келтирилган адабиётлар рўйхатидаги изофали бирикмалар имлосига назар солиш кифоя.

Uchinchidan, o‘zlashayotgan so‘z o‘z qatlam leksikasiga moslashish uchun mezbon til qonuniyatlarini to‘la qabul qilishi, balki to‘la ravishda uning qoidalariga bo‘ysundirilishi shart. O‘zlashma so‘zning imlo va talaffuzi o‘z leksika tarkibida noqulayliklar tug‘diradigan murakkabliklardan xoli, imkon qadar sodda va ixcham bo‘lishi lozim. To‘g‘ri, balki tor doirada, muayyan ixtisoslikka oid ilmiy matnlarda nisbiy bir transkripsiyani ifodalash uchun bu shaklni qo‘llasa bo‘lar. Ammo ommaviy tartibda bunday shaklning joriy etilishi tilimizning talaffuz tabiatini buzadi, har tomonlama qiyinchilik tug‘diradi.

Shuningdek, *“Mahbub ul-qulub”* va *“Mahbub ul qulub”* shakllarida ham ayni jihatdan noqulayliklar mavjud. Bizningcha, chetdan kirib kelayotgan so‘z imlosini qabul qilishda chet tilning grammatik xususiyatlari emas, balki o‘sha so‘zning o‘qilishi va uni o‘zbek tili talaffuziga moslashtirish e‘tiborga olinishi lozim. Aks holda, chet so‘z o‘zlashayotgan tilning emas, o‘zining lisoniy qonuniyatlariga qanchalik muvofiqlashtirilsa, uning muhojirligi shunchalik davom etadi. Bunday harakat tabiiy jarayonni sun‘iy qiyinlashtirishdan boshqa narsa emas. Shu jihatlarni hisobga olganda, yuqoridagi birikmaning imlosi *“Mahbubul qulub”* shaklida bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Ko‘pincha oyat va hadislarning joriy imlodagi ifodasida hatto ularning tarjimalarida shunday jiddiy xatolar ko‘zga tashlanadi. Avvalo, Qur‘ondan keltirilayotgan iqtibos mutaxassis nazaridan o‘tishi kerak. Qolaversa, oyatlarni kirill harfida yoki originaldan boshqa harfda ifodalash shu paytgacha yaxshi natija bermagan. Shuning uchun ilmiy nashrlarda Qur‘on oyatlarining asliy imlodagi shaklini, so‘ngra tarjimasini, ommaviy nashrlarda esa faqat tarjimaning o‘zini bergan maqul, aslida shu bilan maqsad hosil bo‘ladi.

So‘fi Olloyorning *“Sabotul ojizin”* asari matni tabdilida ham ko‘plab noaniqliklarni kuzatish mumkin. Bunga dalil sifatida *“Sabotul ojizin”*ning 1991-yilning yanvar oyida *“Cho‘lpon”*³⁰ va shu yili mart oyida *“Mehnat”*³¹ nashriyotlarida chop etilgan matnlardan

³⁰ Сўфи Оллоёр. Саботул ожизин (Нашрга тайёрловчи Рашид Зоҳид), Т.: “Чўлпон” 1991

³¹ Сўфи Оллоёр. Сабот ул-ожизин (Нашрга тайёрловчилар Ҳожи Пўлатқори Муҳаммад Али, Махмуд Ҳасаний, Мирсолиҳ Қосим), Т.: “Мехнат” 1991

ayrim misollar keltiramiz. “Cho‘lpon” nashrida “Muhabbatsiz kishidan qochmoq bayoni” bo‘limida shunday bayt keltiriladi:

Na kim tuzganiga tushsa bo‘lur tuz

Ki andin o‘tsa necha kecha-kunduz.

Baytni izohlab ko‘raylik: *nimaiki, tuzgan yo‘liga tushib olsa, oradan qancha muddat o‘tsa ham, to‘g‘ri bo‘ladi*. Mazmun o‘ta jo‘n. Mayli, *tuzgan yo‘lga* birikmasini *tuzuk yo‘lga* deb ham ko‘raylik. Baribir, ma‘no ravshan emas. Sababi, birinchi misradagi *tuzganiga* so‘zi noto‘g‘ri o‘qilgan va xato nashrda aynan aks etgan. Aslida bu so‘z *tuz koniga* deb o‘qilishi kerak edi. Shunda ma‘no quyidagicha bo‘ladi: *nimaiki tuz koniga tushsa, bir necha muddat o‘tib tuzga aylanadi*. Endi mazmun oydinlashdi va u oldingi baytda keltirilgan “yaxshilarga ergashish, yaxshilar suhbatida bo‘lish, albatta o‘z ta‘sirini o‘tkazadi” degan ma‘noning mantiqiy davomi bo‘lib ulandi. Tabiiyki, mazkur so‘zlarning eski o‘zbek yozuvida bir xil shaklda ifodalanishi nashrga tayyorlovchini chalg‘itgan. Ammo matnshunos uchun bu holat uzr sanalmaydi.

“Mehnat” nashrida “Nafsi shum bayoni” bo‘limida keltirilgan ushbu bayt undan ham o‘tib tushadi:

Riyozat bandig‘a berkit oyog‘in,

Ko‘tarma boshidin taqvo tuyog‘in.

Taqvo tushunchasi o‘zining asos e‘tibori bilan yuksak maqomni ifodalaydi. Bu maqomni topgan inson qadriyati shu qadar ko‘tariladiki, oyog‘i zamindan uzilmasdan, nazari samolarga yetadi, yerda turib, Haqqa bog‘lanadi. Shuning uchun ham Qur‘oni karimning avvalgi suralari, avvalgi oyatlaridanoq taqvo haqida so‘z boradi, bu ulug‘ Kitobning faqat taqvo egalarini to‘g‘ri yo‘lga boshlashi eslatiladi. Tabiiyki, taqvo tushunchasi zamiridagi bu oliy mazmun mumtoz matnlarda butun badiiyati bilan baland pardalarda vasf etilgan. **Nahotki, bu oliy mazmuni hayotining dasturiga aylantirgan, umrini shu e‘tiqodda kechirgan So‘fi Olloyordek shaxs taqvoni hayvonga o‘xshatsa, uni tuyoqli qilib tasvirlasa?! Bu na e‘tiqodga, na badiiyat qonuniga to‘g‘ri keladi? Demak, bu yerda yo matnni ko‘chirgan kotiblardan yoki nashrga tayyorlovchilardan xato o‘tgan (!)** “Mehnat” nashriyoti chop etgan nashrga asos bo‘lgan matnni tekshirib, shunga amin bo‘ldikki, adashish kotibdan emas, nashrga tayyorlovchilardan sodir bo‘lgan. Bu o‘rinda ham ayrim so‘zlarning shaklan o‘xshab qolish hodisasi

nashrga tayyorlovchilarni chalg'itganini kuzatish mumkin. Arabiy imlodagi *تياغين* so'zidagi *ت* (t) harfidan so'nggi unli "a" emas, "u" qilib o'qilgan. Natijada, xunuk xato yuz bergan. Aslida "taqvo tayog'i" deb o'qilishi kerak edi. Shunda misradan misraga uzluksiz kuchayib borgan mazmun uyg'unligi to'la saqlanadi va badiiy mantiqqa rioya qilingan bo'ladi.

Arab alifbosidagi matnlarni, xususan, mumtoz adabiy matnlarni joriy imloga o'girish har tomonlama bilim va hamisha hushyorlik talab qiladigan o'ta mas'uliyatli ish. Bu mehnat qanchalik sermashaqqat bo'lmasin, bir so'z ustida soatlab zahmat chekayotgan matnshunosga kichik bir xato qilishga ham imtiyoz bermaydi. Chunki biz kichik deb e'tiborga olmayotgan xato tufayli butun bir matn ma'nosiga xalal etadi, muallif haqqiga, tarixiy omonatga xiyonat sodir bo'ladi.

"Sabotul o'jizin"ning riyo illati qoralangan "Mav'iza" deb nomlangan bo'limidagi bir bayt "Cho'lpon" nashrida shunday tabdil qilingan:

Agar bog'ingda bo'lsa gul zebosi

Qachon bo'lg'ay chirog'ingning ziyosi.

Ayni bayt "Mehnat" nashrida shunday keltiriladi:

Agar bog'ingda bo'lsa gul riyosi,

Qachon bo'lg'ay chirog'ingning ziyosi.

Keyingi keltirilgan baytda oldingi nashrdagi xato isloh qilingan: *zebo* so'zi *riyoga* o'zgartirilgan. Garchi matn kotiblar tomonidan buzilib, *zebo* so'zi *riyoga* aylantirilgan bo'lsa-da, nashrga tayyorlovchi shakl ketidan quvmay, ma'noga e'tibor qaratishi kerak edi. Har holda bu xato keyingi nashrda tuzatilgan. Ammo baribir misralar aro bog'lanish kuzatilmayapti. *Bog'dagi gul riyosi* bilan *chiroq ziyosi* o'rtasida qanday munosabat bor? Balki mazmunni bir amallab, izohlarni boshqa ma'nolardan qarzga olib, bu so'z birikmalari o'rtasida zo'rlab munosabat topish mumkindir. Lekin nima bo'lgandayam, baytning bu holatida badiiy mantiq buzilgan.

"Sabotul o'jizin"ning bir necha qo'lyozma va toshbosma nusxalarini sinchiklab o'rganish natijasida masala oydinlashdi. Birinchi misradagi "bog'ingda" (*باغينكده*) so'zi, aslida "yog'ingda" (*ياغينكده*), "gul" (*گل*) so'zi esa, aslida "gil" (*گل*) ekan. E'tibor berilsa, arab imlosidagi har ikkala shakl deyarli muvofiq. Balki shu o'xshashlik kotiblarni adashishga olib kelgan. Endi misralar aro

bogʻlanish tiklandi: agar yogʻingda gil, yaʼni chang riyosi boʻlsa (*ilm yoʻlidagi xolis niyatingga nopoklik aralasha*), ilming chirogʻining ziyosi ravshan boʻlurmi?

Oʻzbek matnshunosligi doirasidagi qizgʻin bahslar bugun mumtoz adabiyot namunalarining joriy imloga tabdilidagi xatolarga bagʻishlanishi tabiiy hol. Negaki, shu kungacha tabdil qilingan asarlarning birortasi (hatto ularning ilmiy-tanqidiy matni ham) har tomonlama, toʻla va qayta jiddiy matnshunoslik tekshiruvidan oʻtmagan. Aslida, oʻzbek matnshunosligining nazariy asoslari mana shu jarayonning ichida shakllanadi. Muayyan asar tabdili matn tarixining davomidir. Matn tarixining zamonlararo oʻzgarish darajasi qanchalik aniqlasha, tabdil variantining aslga muvofiqlik darajasi shunchalik yuqori boʻladi. Demak, mumtoz adabiy merosimiz namunalarining joriy imloga tabdilini tanqidiy oʻrganish matnshunoslikning fundamental masalasidir.

Adabiy meros tadqiqi va targʻibi yoʻlida bilib-bilmasdan sodir etilayotgan nuqsonlarning sababini faqatgina yetarli saviyada saboq beruvchi ustozlarning kamligi, shuning uchun ularni jon qulogʻi bilan tinglovchi talabalarning undan-da kamligi bilan izohlasak, muhim jihatni eʼtibordan soqit qilgan boʻlamiz.

Muhimi, qadimiy manbalarni oʻrganish va oʻrgatish ishiga munosabat oʻzgarishi kerak. Shundagina, olimlarimiz taʼkidlagan, matnshunoslikning sistemali yaxlit nazariyasi va ilmiy-metodologik mezonlarini ishlab chiqish, taʼlim standartlari, oʻquv rejalarida birinchi blok fanlar qatorida sanaladigan “Chet tillar” tarkibiga sharq tillarini ham kiritish, ilmiy-tanqidiy matn tayyorlashdek zahmatni har tomonlama moddiy va maʼnaviy ragʻbatlantirish, respublika miqyosida matnshunoslik hayʼatini tuzish, matnlarni tayyorlaydigan va chop etadigan mutaxassis hamda nashriyotlarning vakolatlilik darajasini belgilash kabi masalalar ³² ga qarash jiddiylashadi. Munosabat jiddiylashar ekan, sohaga bevosita va bilvosita aloqador kishilar endi yuqorida sanalgan masalalarning amaliy yechimini “ushalmas orzu” degan gumon bilan emas, balki ertaga aniq yuzaga chiqadigan real vaziyat taqozosi oʻlaroq qabul qiladi.

³²Қаранг: Матншунослик давр талаблари даражасидами? Давра суҳбати//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010, 2 июль, № 27.

Zero, avvalgi qadam o‘ziga, aytayotgan so‘ziga ishonchdan, demakki ishontirishdan boshlanadi. Ayni holatda bildirilayotgan fikr-mulohaza va takliflarni harakatlantiradigan birlamchi kuch ham ishonchdir.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Mumtoz adabiy manbalarga editson nuqtayi nazaran yondashuv tamoyillari mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot-materiallar to‘plash. Mavzuga doir 1 ta ilmiy maqola yoki tezisni tahlillash, amaliy mashg‘ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. “Matnshunoslik” degan termin muomilaga kirishdan oldin turkiy xalqlarning qaysi yozuvlari bilan ifodalangan matnlar yuzaga kelish davrlaridan boshlangan?

- A) O‘rxun-Enasoy, uyg‘ur
- B) Uyg‘ur, arab
- C) O‘rxun-Enasoy, so‘g‘d
- D) Uyg‘ur, so‘g‘d

2. Kitobatchilik san‘atining rivojlanishi nechanchi asrga borib taqaladi?

- A) VI-VII asrlarga
- B) VII-IX asrlarga
- C) VII-VIII asrga
- D) X asrga

3. Toshbosma nashrlarning vujudga kelish davri qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) XIX asrda
- B) XX asrda
- C) XVII asrda
- D) XVIII asrda

4. Navoiy asarlarining matnini o‘rganish davri qachon boshlangan?

- A) XIX asrning 40-yillari
- B) XX asrning 30-yillari
- C) XX asrning 40-yillari
- D) XX asrning 20-yillari

5. Nechanchi asrdan boshlab arab yozma adabiyoti shakllanadi?

- A) VII asrda
- B) VIII asrda
- C) IX asrda
- D) X asrda

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Munirov Q., Nosirov A. Alisher Navoiy qo‘lyozma asarlari katalogi. –T.: Fan, 1970.

2. Murodov A. O‘rta Osiyo xattotlik san’atitarixidan. – T.: Fan, 1971.

3. Navoiy asarlari lu‘gati (tuzuvchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.

4. Navoiy dastxati. (Navodirun-nihoya). Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi muallifi S.G‘aniyeva. – T.: Fan, 1991.

5. Правила подготовки к изданию памятников литературы Востока. – М.: ИВЛ, 1959.

6. Rahmonqulova M. O‘zMU kutubxonasidagi Sharq qo‘lyozmalari katalogi. – T.: IPTD O‘zbekiston, – 2007.

7. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. –T.: Ma‘naviyat, 2003.

8. Sirojiddinov Sh. XV–XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini. – Samarqand: Zarafshon, 1997.

9. Sultonov I. Navoiyning “Mezonul-avzoni” va uning kritik teksti: filol.fan.nom.diss. – T.: Asosiy kutubxona. RD/1, 1947

10. Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. T.: Cho‘lpon., –2016.

11. Rahmonov V. O‘zbekistonda matnshunoslikning ahvoli g‘arib. T.: Hurriyat, 2006.

6- MAVZU

KITOBATCHILIK TARIXI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad –kitobatchilik tariximavzusi nazariy ma'lumotlar asosida o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni millatimizga, mumtoz adabiyotimizga hurmat, ilmga muhabbat, faxr iftihor ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mavzu yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borishga undash, mumtoz adabiy asarlarni o'qishga jalb etish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: dars uchun maxsus adabiy albom, diqqatni jalb qiluvchi savollar – skanvord materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma'ruza

Darsning rejası:

1. Asliyat va tabdil masalasi. Yig'ma va ilmiy-tanqidiy matn.
2. Ilmiy-tanqidiy matn dastxat nusxaning shartli taqdimi sifatida.
3. Matnga havola qilingan ilmiy ko'rsatkichlar tarkibi.

Tayanch so'z va asosiy tushunchalar: asliyat va tabdil masalasi, Qur'on oyatlari, Qur'on hofizlari, kitobatchilik, qog'ozrez, xattot, lavvoh, muzahhib, musavvir, sahhoflar, yig'ma va ilmiy-tanqidiy matn, ilmiy-tanqidiy matn dastxat nusxaning shartli taqdimi, adabiy merosga yangicha nuqtayi nazar, ilmiy ko'rsatkichlar tarkibi, shams, lavha, sarlavha, zarvaraq, xotima.

Insoniyat rivojida aql-idrok va ruhiy barkamollik vositasi bo'lgan kitob buyuk mo'jiza. Darhaqiqat, kitob odamzodning yaqin sirdoshi, yo'ldoshi va uni asrlardan asrlarga olib o'tgan ziyo mash'alidir. Kitoblar faqat bilim manbasi bo'libgina qolmay, madaniy hayotimizning betakror san'ati sifatida yashab kelayotir. Xalqimiz azal-azaldan ilmga, kitobga chanqoq. Shu bois yurtimizda kitobatchilik qadimdan rivojlanib kelgan. Fikrimizga dalil sifatida kitobatchilikni aytsak bo'ladi.

4-rasm (slayd taqdimoti uchun maxsus)

Matnshunoslikning nazariy asoslari va metodikasini umumlashtirgan D.S.Lixachev bu fan borasida shunday deydi: “Matnshunoslik - bu fandır, uning mustaqil o‘rganish predmeti asarning matn tarixidir. Agar “yordamchi fan” istilohiga eski deb qaralmasa, u holda bu sohani yordamchi filologik fan deb yuritish mumkin bo‘ladi”.



Kitobat san‘ati bir qancha qo‘li gul hunarmandlar tomonidan bajariladigan murakkab jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, bular – qog‘ozrez, xattot (kitob va risolalarni ko‘chiruvchi kotib), lavvoh (lavh yasovchi usta), muzahhib (zarhal beruvchi mo‘yqalam sohibi), musavvir (rassom), sahhof (muqovasoz)lardan iborat jamoadir.

Qo‘lyozma kitoblarni tayyorlashda kitob uchun yaxshi, sifatli qog‘oz tanlash muhim bo‘lgan. Bu o‘rinda Samarqand qog‘ozi, ayniqsa, o‘zining bejirimligi va sifati bilan dong taratgan. Samarqand qog‘ozlari miloddan avvalgi davrda Buyuk Ipak yo‘li orqali Eron, Hindiston, Shom va Rungacha yetib borgan.

“Maroqand qog‘ozlari, – deb yozgan edi qadimgi yunon olimi Gerodot “Tarix” asarida, – o‘zining sifati, yozuvning tiniq ko‘rinishi, ixchamligi bilan Xitoy qog‘ozlaridan yuqori turadi”. Tarixchi Narshaxiyning VI–VII asrlardan hikoya qiluvchi mashhur “Buxoro tarixi” hamda Firdavsiyning “Shohnoma” asari ham Samarqand qog‘oziga bitilgani tufayli bugungi kungacha yetib kela olgan. Bobur o‘zining “Boburnoma” asarida Samarqand qog‘ozi

haqida quyidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan: “Dunyoda eng yaxshi qog‘oz Samarqanddin keltiriladur”. Aytish kerakki, Samarqand XIX asrning birinchi yarmigacha ko‘pgina mamlakatlarning qog‘ozga bo‘lgan ehtiyojini qondirib kelgan. Hatto Shosh, Tabriz shaharlarida Samarqand qog‘ozlari sotiladigan do‘konlar bo‘lgan.

Xattotlar matni qog‘ozga yozishda mistar (maxsus qog‘oz-karton) ustiga ip tortib uning izini matn yoziladigan qog‘ozga tushirib olganlaridan so‘ng matn yozishga kirishganlar. Matni qanday joylashtirish xattotning mahoratiga bog‘liq bo‘lgan. Yozilgan matni lavvoh hoshiyali qog‘ozga yelimgan, uning ustidan jadvalkash turli-tuman ranglarda chiziqlar tortib, matni jadvalga olgan. Keyin esa muzahhib oltin suvi va turli ranglar bilan qo‘lyozmani ziynatlagan. Bunda muzahhiblar “shams”, “lavha”, “sarlavha”, “zarvaraq”, “xotima” kabi naqshlardan foydalanganlar. Bo‘sh qoldirilgan joylarga musavvirlar miniatyura ishlaganlar. Ular rasmlarni turli ranglarda, oltin, kumush ishlatgan holda bo‘yaganlar. Nihoyat, muqovachilar qo‘lyozmaga naqsh va turli xil bo‘yoqlar bilan jilo berganlar, oltin suvlari yurgizilgan charm muqovaga birlashtirganlar. Muqovaning qopqog‘i ko‘pincha bosma, o‘yma, qadama naqshlar, yorqin rasmlar bilan bezatilgan kumush yoki yog‘ochdan bo‘lgan.

Temuriylar hukmronligi davrida kitobat san‘ati yuksak pog‘onaga ko‘tarildi. O‘sha davrlarda mashaqqatli mehnat bilan bunyodga kelgan nafis kitoblar oz nusxada, nihoyatda qimmat bo‘lar edi. Bunday kitoblar ko‘pincha podshohlar, amirlar va davlatmand kishilar buyurtmasi bilan ishlanar va maxsus kutubxonalarda saqlanardi. Kitobat va xattotlik san‘ati XIV–XV asrlarda yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Mashhur xattot Mirali Tabriziy nasta‘liq xatini kashf etadi. Mohir xattotlardan biri Sultonali Mashhadiy, Nizomiy Ganjaviy, Farididdin Attor, Hofiz Sheroziy, Sa‘diy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa ijodkorlarning asarlarini mahorat bilan ko‘chirgan. Sultonali Mashhadiy tomonidan ko‘chirilgan 50 dan ziyod kitob hozirgi kunga qadar yetib kelgan. U o‘ymakorlik san‘atida ham mohir bo‘lib, Husayn Boyqaroning “Bog‘i Jahonoro” bog‘idagi saroy va boshqa binolarning devorlariga o‘yib bitiklar yozgan.

Temuriy hukmdorlar devonxonalari qoshida, xususan, Samarqand va Hirotda saroy kutubxonalari tashkil etilib, ularning boshliqlari “kitobxona dorug’asi” yoki “kitobdor” deb atalgan. Ularning qo’l ostida ko’plab xushnavis xattotlar, qo’li gul naqqoshlar, musavvirilar, mohir lavvohlaru sahhoflar buyurtmalar bajarganlar. Masalan, XIV asrning birinchi yarmida Hirotda Ulug’bekning ukasi Boysung’ur Mirzo kutubxonasida qirq nafar xattot va bir qancha naqqoshlar qo’lyozma asarlardan nusxalar ko’chirish va ularni bezash bilan band bo’lgan. 1429-yilda A.Firdavsiyning “Shohnoma” asari ko’chirtirilib, asar 20 ta manzarali rangdor miniatyuralar bilan bezatilgan. XV asrning ikkinchi yarmida Hirotda kitobat san’ati yanada rivoj topadi. Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy saroy kutubxonasini nodir asarlar bilan boyitishga g’amxo’rlik qilganlar.

Keyinchalik Buxoro xonligida ham xattotlik, miniatyura, rassomlik san’ati, kitob ko’chirish, ularni naqsh va tasvirlar bilan bezatish san’ati davom ettirildi. 1624-yilda Samarqandda ko’chirilgan Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” kitobi o’sha davr kitobat san’atining yorqin namunasi. XVII–XVIII asrning birinchi yarmida Buxoroda xattotlik va miniatyura san’ati yaxshi rivojlangan edi. Rassomlar asosan qo’lyozmalarni naqshli bezash bilan shug’ullangan. Masalan, Buxoro xoni Amir Haydar davrida ijod qilgan Mir Mas’um Olamiyon “Axloqi Muhsiniy” va Sa’diy asarlarini rasmlar bilan bezaydi. Mirzo Sodiq Jondoriy amir Nasrulloxon davrida qo’lyozma kitoblarga lavhalar, qo’lyozma asarlardan nusxalar ko’chirish va bezash bilan band bo’lgan.

Ma’lumki, VIII asrdan boshlab arab yozma adabiyoti shakllanadi³³. Matn tuzish masalalarining eng asosiysi bevosita Qur’oni karim matni bilan bog’lanadi. Qur’oni jamlash uning turli sahifalardan iborat bo’laklarini to’plash, so’ngra suralarni tartib bilan joylashtirib, bitta mushaf (muqova) ostida yig’ish matn tuzish ishlarining aniq belgilangan prinsiplari asosida bajarilgan. Qur’oni bu tarzda jamlash Muhammad alayhissalom hayotligida amalga oshirilmadi. U paytda Qur’on to’laligicha sahobalarning qalblaridan joy olgan edi. Payg’ambar alayhissalom vafotidan keyin aksariyat

³³ Каранг: Фильштинский И. М. Арабская классическая литература. – М.: Наука, 1965. – Б.72.

arablar dindan qaytadilar. *Musaylimatul kazzob payg‘ambarlik da‘vo qilib chiqadi.* Bularga qarshi kurashda Abu Bakr Siddiq Yamomada jang olib boradi. Jangda juda ko‘p Qur‘on hofizlari shahid bo‘ladi. Bu voqeadan so‘ng **Umar ibn Xattob Qur‘onni yod bilgan qorilarning o‘limi tufayli Qur‘on oyatlari unutilishidan qo‘rqadi.** Abu Bakr Siddiq Umar ibn Xattobdan Qur‘onni jam qilishga buyurishini so‘raydi. Qur‘on matni unutilish, qo‘shilish yoki buzilishidan xavflanib, qayta ko‘chirildi. Bu ish Zayd ibn Sobitga topshiriladi. U xurmo po‘stloqlariga, toshlarga yozilgan oyatlarlarni yig‘ib, oyatlarni yod olgan odamlardan eshitib, Qur‘onni jamlay boshlaydi. Qur‘on sahifalari dastlab Abu Bakr Siddiqda, uning vafotidan so‘ng Umar ibn Xattobda, so‘ngra Umar ibn Xattobning qizi Hafsada saqlandi.

So‘ngra Usmon ibn Affon xalifaligi davriga kelib qiroatda ixtilof paydo bo‘lishi sababli sahobalar orasida xavfsirash kuchaydi. Shuning oqibatida Usmon ibn Affon Umar ibn Xattobning qizi Hafsadan Mushafni ko‘chirib olish uchun berib turishini so‘raydi. Umar ibn Xattob Zayd ibn Sobit, Abdulloh ibn Zubayr, Said ibn Os, Abdurahmon ibn Horis va Ibn Hishomga Mushafdan nusxalar olishni buyurdi. Ular Mushaf nusxalarini ko‘paytira boshladilar. Usmon ibn Affon ko‘chirilgan nusxalarni dunyoning to‘rt tarafiga jo‘natdi va Qur‘onning ushbu nusxalaridan boshqa barcha nusxalarini yoqib yuborishni buyurdi. Zayd ibn Sobit Qur‘onni jamlagan birinchi kotib hisoblanadi.³⁴

Mushaf matnini tayyorlashda eng yaxshi yozadigan, arab tilini yaxshi biladigan hamda Qur‘on quraysh tilida nozil bo‘lganligi sababli qurayshlik ilm kishilari tanlangan. Abdusattor Shayxning “Abdulloh ibn Mas‘ud” kitobida Qur‘on matnini jamlashdagi usmoniy usulning asosiylari quyidagilar deb ko‘rsatiladi:

1. Qur‘on matni uchun Hafsa onamizda saqlangan Qur‘on juz‘lariga suyanish asos bo‘ldi. Bu juz‘lar Payg‘ambar alayhissalom buyruqlari bilan yozilgan asliyatga to‘la muvofiq edi.

2. Har bir oyatning manbasi aniqlandi. Ixtilofli hollarda quraysh lug‘atiga murojaat etildi.

³⁴ Қаранг: Абдусаттор Шайх. Абдуллоҳ ибн Масъуд. Таржимон ва изоҳлар муаллифи Абдурашид Зоҳид. –Т.: Мовароуннахр, 2004. –Б.104 –105.

3. Qur'anni jamlash hay'ati Payg'ambar alayhissalomdan sobit bo'lgan muborak so'z yo jumlani yozishda uni bitta jihat bilan chegaralab, qusurli qilib qo'yadigan har qanday alomatdan saqlandi.

4. Bosh Mushafni kitobat qilish ishi tugagach, endi barcha mushaflar bosh Mushafdagi tartibda ko'chirilishi uqtirildi. Zayd ibn Sobit bosh Mushafni bir necha marta sinchkovlik bilan ko'zdan kechirdi. Keyin musulmonlar xalifasining o'zi ham bu Mushafni e'tibor bilan ko'chirib chiqdi va hech narsa unutib qoldirilmaganini ta'kidladi³⁵.

Bundan ko'rinadiki, Qur'on matnini tiklashda matn tarixi tanqidi masalasi asosiy bo'lib, manbaning tashqi va ichki jihatlari tekshiruv obyekti hisoblangan. Ilmiy-nazariy va amaliy metodlar bilan manba matniga mantiqan yondashilgan. Qur'on matnini tiklash ishlari filologik tekshiruvlar ham edi. Usmoniy Mushaf keng tarqalgach, so'zlardagi xilma-xillikka barham berildi, sahobalardan hech kim Qur'on qiroatida lafziy ixtilofga bormadi.

A.Habibullayev ilk islom davri madaniyatida matnni tiklash ishlari uch xil shaklda bajarilganligini qayd etadi. Olimning tekshiruvlari bo'yicha, bular: mavjud matnlarni aynan ko'chirish, asarning mazmunini o'z talqinida bayon etish va folklor matnshunoslikdir.³⁶ Yana qo'shimcha qilish mumkinki, islom dunyosida matniy ishlarning rivoji bevosita Qur'onning mushaf holiga keltirilishi bilan bog'lanar ekan, matn mazmuni, shaklining mukammal va tugal bo'lishi asosiy edi. Chunki Qur'on boshqa qayta tuzilmadi. Bu islom madaniyatidagi matn bilan bog'liq ishlarning eng kattasi, mas'uliyatlisi va e'tiborlisi bo'ldi.

Matnshunoslik tarixiy taraqqiyotini kuzatish uchun Qur'on matni ma'nosini yechish, sharhlash, tafsir etish yoki hadislar matnini yig'ish kabi jarayonlar tahlili muhim manba bo'la oladi.

Matnshunoslikning shakllanib borishi yana qomusiy olimlar Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Mahmud Qoshg'ariylarning manbalarni yig'ish, saqlash va, asosiysi, matn yaratishdagi ilmiy-nazariy xulosalari hamda olib borgan amaliy ishlari bilan bog'lanadi. Xususan, Forobiyning falsafa, arifmetika,

³⁵ Қаранг: Абдусаттор Шайх. Абдуллоҳ ибн Масъуд. Таржимон ва изоҳлар муаллифи Абдурашид Зоҳид. –Т.: Мовароуннахр, 2004. – Б.110–112.

³⁶Қаранг: Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик.–Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2000. – Б.97.

handasa, musiqa, tabiat, kimyo, tibbiyot kabi fanlar sohasidagi kashfiyotlari bilan birga tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, xattotlikka oid asarlari keng tarqalgan. U "Xattotlik haqida kitob" ("Kitob fi san'at at-kitobat") asarida aynan yozuv turlari va xattotlik mahorati masalalariga ahamiyat qaratgan.

XI asrning mashhur mutafakkir shoirlaridan Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida bitigchi, ya'ni kotib to'g'risida mulohaza qilib, uning jamiyatdagi mavqeidan shunday bahs yuritadi:

*Kotib bilimli, zakovatli bo'lishi kerak,
Xati chiroyli, so'zga usta, ezgu fol bo'lishi kerak.
Maktubda xat chiroyli bo'lsa, ko'ngil ochiladi,
Boqsa o'qigisi keladi, ko'ngil quvonadi.
Agar fasohat bilan (xush) xat tenglashsa,
Bu yozma nutq tili juda ezgu til bo'ladi.
Ilaning sirga yaqini nima deydi, eshitgin:
Yozma nutq usuli juda yaxshi usuldir.
Barcha ezgu so'zlar yozuvda bo'ladi,
Yozilgan bo'lganligi uchun so'z unutilmaydi, (abadiy) qoladi.³⁷*

Shu bilan birga, Yusuf Xos Hojib hamma el ishini xat izga solishi, yozuv tufayli barcha daromadlar qo'lga kiritilishi, davlat boshqarilishi ham qalam bilan bo'lishini ta'kidlaydi. Shoir kotib tilni, yozuvni buzsa, xo'jasining boshini yeydi yoki boshini olgudek bo'ladi, deb aytish orqali kotibning mas'uliyati qanchalik katta ekanligini ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojib bunday fikrlarini quyidagicha bayon etadi:

*Kotib ichimlik ichsa, bilimdan yanglishadi,
Bilimdan yanglishgan yozuvda xato qiladi.
Kotib kechasi ham kunduzi elda (bo'lishi) kerak,
Qachon talab qilinsa, o'sha paytda (bo'lishi) kerak.
Bu ikki kishini odamlar orasidan tanlab ol,
So'ng ularga bu ikki ishni bergin.
Biri – xati aniq kotib,
Biri – tili mavzun elchi.
Yaqin-yovuqda yoki yot, begona (ellar)orasida,
Alovat sodir bo'ladigan bo'lsa, bulardan ko'rgin.
Ish orqaga ketsa, shu ikki kishi tufayli ketadi,*

³⁷ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: Фан, 1971. – Б.431–433.

*Ishga rivoj bersa, shu ikki kishi beradi.
Biri – yozuvda so‘zdan yanglishganda,
Biri – tili bilan (shu) so‘zni tuzatsa.
Kotib bu yanglig‘ (bo‘lishi) kerak, ey elig,
Unga ishonsa, qo‘l bersa[ya‘ni ish topshirsa] bo‘ladi.*³⁸

Shoirning mulohazasi, bir tomondan, kotib xulq-atvori uning xatida ham namoyon bo‘lishini ta’kidlashi bilan diqqatga sazovor bo‘lsa, ikkinchi tomondan, xat matni aniq va ravshan yozilmasa, so‘zni anglashda yanglishlik paydo bo‘lib, ko‘ngilsiz voqealarga sabab bo‘lishiga ham ishoradir.

Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat bilan birga qo‘lyozma nusxalarga bo‘lgan munosabatlar ancha rivoj topdi. Shohrux zamonida Hirotda shahri davlatning siyosiy markaziga aylandi. Shohruxning o‘g‘li va ayni vaqtda vaziri Boysung‘ur mirzo nihoyatda nozikta‘b, adabiyot va san‘at muxlisi, hunar ahlining jonkuyar homiysi edi. “Mirzo Ulug‘bek astronomiya va handasada o‘z davrida yagona bo‘lgani kabi Boysung‘ur mirzo she‘r va xatda o‘z davrining eng mashhur kishisi edi”³⁹.

Boysung‘ur mirzo Hirotda ulkan kutubxona ta‘sis etadi. Kutubxonada 40 nafar yetuk hunar egalari to‘planadi. Bular: xushnavis xattotlar, kitob tuzish uchun qog‘oz tayyorlovchilar, muqovasoz, ya‘ni sahifalarni to‘plab kitob holiga keltiruvchilar, kitob ko‘chirilib, muqovalangach, sahifalarga surat chizuvchilar, oltinrang bilan naqshlovchilar, nodir kitoblarga charm yoki boshqa bir qimmatbaho matodan jild yasovchilar, to‘zigan kitoblarni qayta tiklovchilar, sahifalar hoshiyasi va yozuv oralariga oltin yoki kumush rang purkab bezatuvchilar kabi hunarmand kishilar edi. Boysung‘ur mirzoning o‘zi ham mohir xattot bo‘lib, u olti xil yozuvni mukammal bilgani, ayniqsa, suls yozuviga mohirligi haqida ma‘lumotlar bor. Boysung‘ur mirzo kutubxonasida kitob ko‘chirish bilan birga qo‘lyozma nusxaning yig‘ma matnini tiklash ishlari ham olib borilgan. Boysung‘ur mirzo boshliq hunar egalari Firdavsiy “Shohnoma”sining turli qo‘lyozma nusxalarini to‘plab birinchi bor to‘liq va mukammal nusxada ko‘chiradilar. Mazkur qo‘lyozma Ja‘far Tabriziy tomonidan 1425 –1430-yillari ko‘chirilib, musavvirlar uni

³⁸ Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: Фан, 1971. – Б.437.

³⁹ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: Фан, 1971. – Б.51.

yigirmata surat bilan tasvir etadilar. Boysung‘ur mirzo “Shohnoma”ning bu nusxasiga muqaddima yozadi va u adabiyot tarixida “Boysung‘ur muqaddimasi” nomi bilan mashhurdir. Mazkur “Shohnoma” va o‘sha davrda ko‘chirilgan “Kalila va Dimna”ning nodir nusxasi (unda 35 surat bor, 1460-yili ko‘chirilgan) ayni zamonada Tehrondagi Guliston saroyi muzeyida saqlanmoqda.⁴⁰

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Mavzu bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumot-materiallar to‘plash. 10 ta nazorat savollari tuzish, mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg‘ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazotat uchun test savollari:

1. Matn tuzish masalalarining eng asosiysi bevosita qaysi asar matni bilan bog‘liq?

- A) “Qobusnoma”
- B) Navoiy asarlari
- C) Qur‘oni Karim
- D) “Avesto”

2. Kim Umar ibn Xattobdan “Qur‘oni Karim”ni jam qilishga buyurishni so‘raydi?

- A) Usmon
- B) Abu Bakr Siddiq
- C) Abu Bakr Sodik
- D) Umar ibn Siddiq

3. Qur‘on matnini qayta ko‘chirish kimga topshiriladi?

- A) Zayd ibn Sobitga
- B) Abu Bakr Siddiqga
- C) Umar ibn Xattobga
- D) Usmon ibn Affonga

4. Qur‘on sahifalari dastlab kimda saqlanadi?

- A) Zayd ibn Sobitda
- B) Abu Bakr Siddiqda
- C) Umar ibn Xattobda
- D) Usmon ibn Affonda

⁴⁰ Каранг: Норкулов Н., Низомиддинов И. Миниатюра тарихидан лавҳалар.– Т.: Фағур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б.79.

5. Qur'anni jamlagan birinchi kotib kim?

- A) Zayd ibn Sobit
- B) Abu Bakr Siddiq
- C) Usmon ibn Xattob
- D) Usmon ibn Affon

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Ismoilov M. Hujjatshunoslik va Markaziy Osiyo diplomatikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Akademnashr, 2010.
2. Ishoqov F. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. – T.: Fan, 1976.
3. Yo'ldoshev Ibrohim. O'zbek kitobchilik terminologiyasi. – T.: Fan, 2004.
4. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –T.: Fan, 2008.
5. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. –T.: Muharrir, 2011.
6. Каталог фонда института рукописей. 1-том. – T.: Fan, 1989.
7. Komilov N. Bu qadimiy san'at... T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
8. Munirov Q. Amir Xusrav Dehlaviy qo'lyozma asarlari katalogi. –T.: Fan, 1975.
9. Munirov Q. Bebaho xazina. –T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamgarmasi, 2002.
10. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.
11. Munirov Q. Sharq qo'lyozmalari. – T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasini nashriyoti, 1962.

7- MAVZU XATTOTLIK

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad – “xattotlik” nazariy ma'lumotlar asosida o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni mumtoz adabiyotimizga hurmat, ilmga muhabbat ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mumtoz adabiy asarlarni o'qishga jalb etish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: Xattaxta, bo'r, dars uchun maxsus bukletlar, vatman qog'oz, marker, diqqatni jalb qiluvchi savollar – skanvord materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma'ruza

Darsning rejasi:

1. Markaziy Osiyo xattotlik san'ati tarixidan.
2. Xattotlik maktablari. Hirot, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Toshkent xattotlik maktablari.
3. Mashhur xattotlar.

Tayanch so'z va asosiy tushunchalar: *Markaziy Osiyo xattotlik san'ati tarixi, xattotlik maktablari, xattotlik nazariyasi, toshbosma nusxadagi kitoblar, badiiy matn lingvopoetikasi, O'rta Osiyo xattotlik san'ati, qo'lyozma asarlar, noyob nusxa, tazkira, Alisher Navoiy qo'lyozma asarlari katalogi, kitobatchilik, bosmaxonalar, Sulton Ali Mashhadiy, Mavlono Soyimiy, Mavlono Sayfiy, Mavlono Sher Ali, Shayxzoda Puroniy, Mavlono Voysiy, Mavlono Kotibiy va Abdujamil kotib Hirotiy, nasx, kufiy, muxakkak, nasta'lik, suls, tavqe, ta'liq, devoniy, riko, rik'iy.*


Xattotlik (arab. – husnixat yozuvchi), kalligrafiya – yozuv (xat) san'ati, kitob ko'chirish hamda me'moriy inshootlar, badiiy buyumlarning kitobatlarini yaratish kasbi. Yozuvning paydo bo'lishi natijasida yuzaga keldi. Ayniqsa, arab yozuvining keng tarqalishi tufayli xattotlikning rivojlanishi jadallashdi. Sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda kitob bosish vujudga kelguniga qadar qo'lyozma kitob tayyorlash, ularning nusxalarini ko'paytirish (matn ko'chirish) bilan xattotlar shug'ullangan. Xattotlar saroylarda, ayrim amaldorlar

huzurida guruh bo‘lib ishlagan. Jumladan, temuriy shahzoda Boysung‘ur Mirzo (1397–1433) Hirotda tashkil qilgan kutubxonada musavvir, naqqosh va boshqa ustalar bilan bir qatorda 40 dan ortiq xattotlar qo‘lyozma kitoblar tayyorlash, yaroqsiz holga kelganlarini ta‘mirlash bilan mashg‘ul bo‘lgan. Xattotlik san‘atiga bag‘ishlangan ko‘plab risolalar 10 xil asosiy xat uslublari (nasx, kufiy, muxakkak, nasta‘lik, suls, tavqe, ta‘liq, devoniy, riko, rik‘iy) mavjudligi haqida darak beradi.

O‘rta Osiyoda arab yozuvlari tarqalguniga qadar turli yozuv usullari bo‘lgan [mas., sug‘diy, O‘rxun-yenisey (qad. turkiy xoqon yozuvlar) va boshqa]. Qadimiy yozuvlardan bo‘lgan kufiy yozuvi ko‘pgina me‘moriy va boshqa yodgorlik obidalarining bezagida, saqlanib qolgan. Jumladan, O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasida saqlanayotgan Usmon Qur‘oni ham ana shu kufiy (qad. hijoz adabiy yozuvi)da ko‘chirilgan. Qur‘on ko‘chirishda nasx, buyruq va farmonlar yozishda tavqe, maktublar bitishda riqo ishlatilgan. Bulardan tashqari tumor, g‘ubor, shajariy, tug‘ro va boshqa yozuv usullari ham bo‘lgan.

5-rasm (slyad taqdimoti uchun maxsus)

O‘zbekistonda matnshunoslik o‘z ta‘siriga ega. 1400 yil davomida O‘zbekiston olimlarining arab, fors va o‘zbek tilida yaratgan ko‘plab yirik durdona asarlari o‘z davrida, undan keyingi davrlarda o‘rganilib, xattotlar tomonidan ko‘chirilib, xato nuqsonlari boshqa nusxalar orqali to‘g‘irlanib, hozirgi kunimizga qadar yetkazib kelingan.



XV asrdan kitob ko‘chirish (fors, eski o‘zbek tillari)da nasta’liq xati bo‘lgan. Xattotlik Markaziy Osiyoda Temuriylar, Shayboniylar va so‘nggi sulolalar (ashtarxoniylar, mang‘itlar) davrida yuksak darajada taraqqiy etgan. Amir Temur davrida MavlonoShamsuddin Munshiy, sangtarosh va xattot Oltun juda mashhur bo‘lgan. Alisher Navoiyning shaxsiy kutubxonasida 11 ta yirik san’atkorlar (Sultonali Mashhadiy, Abduljamil Kotib, Darvesh Muhammad Toqiy va boshqalar) xattotlikda samarali ijod qilgan. “Xattotlar sultoni” Sultonali Mashhadiy, Mir Ali Tabriziy va boshqa nasta’liq xatini san’at darajasiga ko‘targan. Temuriy shahzodalar (Ibrohim bin Shohruh, Boysung‘ur Mirzo, Badiuzzamon Mirzo va boshqalar) ham xattotlikka homiylik qilish bilan birga o‘zlari bu san’at turi bilan shug‘ullangan; Zahiriddin Muhammad Bobur esa yangi xat va alifbo “Xatti Boburiy” ixtirochisidir. Kitobat san’ati bilan bir qatorda binolarning kitobalari, qabrtoshlardagi bitiklar va buyumlarda xattotlik keng qo‘llanilgan. Shayboniylardan Muhammad Shayboniyxon va Ubaydullaxon xattotlik bilan shaxsan shug‘ullangan va nasx xatida yuksak mahorat bilan yozgan. XVI asr Movarounnahr Xattotlik maktabini yuzaga kelishida Mir Ali Hiraviynshox hayoti va ijodi alohida o‘rin tutadi. Bosmaxona paydo bo‘lguniga qadar kotib, xattotlar mehnati kitob tayyorlashda muhim o‘rin tutgan. Bu borada Boysung‘ur Mirzo, Alisher Navoiy, Muhammad Rahimxon II (Feruz) va boshqalarning faoliyatlari diqqatga sazovor. XX asrda yirik kutubxonalarda xattotlar qo‘lyozma kitoblar nusxasini ko‘paytirish bilan shug‘ullandilar. Masalan, Navoiy kutubxonasi (O‘zbekiston milliy kutubxonasi)da bir guruh xattotlar ishlagan. 1943-yilda O‘zbekiston FA Sharqshunoslik instituti tashkil topgach, malakali xattotlar (Ibodulla Odilov, Abduqodir Murodov, Abdulla Nosirov, Usmon Karimov va boshqalar) shu yerga to‘plandi: ular ko‘hna qo‘lyozmalarni tiklash, ko‘chirish, tavsif varaqalari tuzish bilan shug‘ullana boshladilar. XX asr 80-yillariga kelib kitobat san’ati bir guruh kishilar tomonidan qayta tiklandi. Bunda Habibulla Solih, Abdulla Mirsoatov, To‘xtamurod Zufarov, Alisher Shomammedov va boshqalarning xizmatlari katta. Jumladan, Habibulla Solih Mushafi Usmon Qur‘onining asl nusxasidan pergamentga 3 marta nusxa ko‘chirib tayyorlagan (bir nusxasi Malayziyaning Kuala-Lumpur shahrida; pergamentga ko‘chirib tayyorlagan yana bir nusxasi Toshkent islom

universitetida), Katta Langar Qur'onidan (Sankt-Peterburg va O'zbekistondagi nusxalari asosida) teriga ko'chirib nusxa tayyorlamoqda.

Habibulla Solih 1998-yilda Istanbulda o'tkazilgan Xalqaro xattotlar bellashuvida "Devoniy" xat uslubi bo'yicha kuchli o'nlikdan o'rin oldi; 1999-yilda xattotlikda yangi tarz (naqshin bezak yozuvining alifbosini kashf qilib bu sohada yangilik) yaratgani uchun Lohurdagi Xalqaro xattotlar bellashuvida "Parvin raqam" ("Sharq yulduzi") unvoniga sazovor bo'ldi. Abdulaziz Mansurov, Islom Mamatov, Salimjon Badalboyev, G'afurjon Haqberdiyev va boshqa bugungi kundagi eng mashhur xattotlardir. Xattotlik hozirgi kunda Toshkent sharqshunoslik instituti, Toshkent islom universiteti, Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn intstitutida o'rgatiladi.

Xattotlik qadim Sharq san'atining behad kamol topgan turlaridan biri hisoblanadi. O'rta Osiyo xattotlik san'atining esa boy tarixi bor. XIV–XV asrlarda o'lkamiz kitobatchiligining ravnaqi beqiyos bo'ldi. Bu davrlarda dunyoda kitob chop etadigan bosmaxonalar yo'q edi. Shuning uchun ham, ayniqsa, Sharqda xattotlik san'atiga qiziqish hamda xattotlarga ehtiyoj nihoyatda katta bo'lgan.

Adabiyot va ilm ahli yaratgan bebaho asarlar kotiblar mehnatining sharofati bilan bizgacha yetib keldi. Bu qo'lyozma asarlar o'zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligi uchun tadqiqot manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, bunday qo'lyozma asarlar Movarounnahr va Xurosonda, ilm-fan rivoj topgan deyarli hamma shaharlarda mashhur xattotlar tomonidan ko'p nusxada kitobat qilingan". Z.Hamidovning "Navoiy xattotlari" nomli maqolasida shunday deyilgan. Unda qayd etilishicha, qadim Sharq qo'lyozmalari orasida Mir Alisher Navoiy asarlari salmoqli o'rin egallaydi. Navoiy ijodini o'rganish, asarlarini oqqa ko'chirish uning o'z zamonasidayoq boshlangan. Uning asarlari o'zi yashab turgan yurtdagina emas, balki bir qancha xorijiy mamlakatlarda ham dastxat sifatida keng tarqalgan edi. Jumladan, shoir "Xamsa" ustida ishlaganda uning yozib tugatilgan qismini mashhur xattot Abdujamil kotib peshma-pesh oqqa ko'chirgandi. Shoir o'zining yirik tazkirasi "Majolis un nafois" asarida xattotlik san'atiga yuqori baho berib, uni puxta egallagan Sulton Ali Mashhadiy, Mavlono Soyimiy, Mavlono Sayfiy, Mavlono Sher Ali, Shayxzoda Puroniy, Mavlono Voysiy, Mavlono Kotibiy va

Abdujamil kotib Hirotiy kabi mashhur kotiblarni faxr bilan tilga oladi. Shunisi diqqatga sazovorki, bizgacha yetib kelgan Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozmalarining juda ko‘pchiligi qadimiy ilm-fan maskanlari Buxoro va Shahrisabzda kitobat qilingan. Qavomiddin Munirov va Abdulla Nosirov kabi sharqshunoslar tartib bergan “Alisher Navoiy qo‘lyozma asarlari katalogi” (Toshkent, 1970)dagi ro‘yxat ana shundan dalolat beradi.

XIV–XIX asrlar Buxoroda san‘atning barcha turlari keng rivoj topgan davr bo‘ldi. Bu yerda xattotlik san‘atining maktabi vujudga keldi. Pirmuhammad So‘fi Buxoriy (XV asr), Miraz Buxoriy (XV asr), Sulton Muhammad Buxoriy (XV asr), Abdurahmon Barqiy Munshiy (XV asr), Mirali Hiraviy (XVI asr), Said Abdullo Buxoriy (XVI asr), xattotlik nazariyasi to‘g‘risida kitob yozgan olim va xattot Darvish Muhammad ibn Do‘stmuhammad Buxoriy (XVI asr), Mavlono Inoyatillo kotib (XVII asr), Mirza Abdurahmon (XVIII asr), Fozil Devona (XIX asr), ma‘rifatparvar adib va olim Ahmad Donish va boshqalar Movarounnahrning mashhur xushxat xattotlari sifatida Buxoroda qalam surdilar.

Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharq qo‘lyozmalari markazida Alisher Navoiy asarlarining 500 dan ortiq qo‘lyozma nusxalari saqlanayotir. Shundan 120 nusxa buxorolik mashhur xattotlar dastxatiga mansub. Jumladan, “Xazoyin ul-maoniy” asarining qirqaqa yaqin nusxasi, “Xamsa”ning yigirma yetti nusxasi Buxoroda ko‘chirilgan. Bulardan tashqari, “Xamsa”dagi “Hayrat ul-abror” dostoni 1838–1839-yillarda Sayyid Nafas tomonidan ko‘chirilgan. “Layli va Majnun” dostoni 1829–1830-yili Muhammad Rajab ibn Abduvali tomonidan, “Sabbayi sayyor” dostoni Muhammad Latif ibn Muhammad Sharif tomonidan XIX asrda Buxoroda alohida kitobat qilingan.

Alisher Navoiy umrining so‘nggi yillarida yozgan “Lison ut-tayr” asarining o‘ndan ortiq nusxasi Buxoroda kitob holiga keltirilgan. U “Majolis un nafa’is”, “Mezon ul-avzon”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Xamsat ul-mutaxayyirin”, “Vaqfiya”, “Tarixi muluki Ajam”, “Arbain”, “Risolai muammo” kabi asarlari ko‘plab nusxada ko‘chirilgan.

Xususan, Shahrisabzda “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, “Lison ut-tayr”, “Tarixi muluki Ajam” kabi asarlari xushxat dastxat bilan oqqa ko‘chirilgan. Hozir Navoiyning Shahrisabzda ko‘chirilgan

o'ttizga yaqin noyob nusxalari saqlanmoqda. Masalan, 1874–1875-yillarda mullo Muhammad Sheralibek Shahrisabiziy tomonidan shoirning “Xazoyin ul-maoniy” asari nasta’liq xatida qora tushda ko‘chirilgan. “Xamsa” esa 1833–1834-yillarda Abdulqayum kotib va Muhammad Yunusxo‘ja ibn Boboxo‘ja Shahrisabiziy tomonidan oqqa ko‘chirilgan. Bu nusxa Alisher Navoiy “Xamsa”sining XIX asrda ko‘chirilgan nusxalaridan ancha to‘liq va mukammalligi bilan ajralib turadi. “Lison ut tayr” 1823–1824-yillarda Yormuhammad qori Shahrisabiziy tomonidan nasta’liq xatida qora siyohda ko‘chirilgan.

Toshbosma nusxadagi kitoblar O‘rta Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lishi bilan birga ba’zi bir yozma yodgorliklarning dastlab toshbosmada bosilishi kabi jihatlari matnshunoslik nuqtayi nazaridan muhim hodisa hisoblanadi.

O‘zbek matnshunosligi taraqqiyotida bu bosqich o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, toshbosma nusxa tayyorlash uchun aynan matnshunosning ishini bevosita o‘z vazifasi bilan aloqador holda kotib, noshir, muharrir kabilar amalga oshirgani e’tiborlidir.

O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixini o‘rgangan xattot A.Murodov ta’kidlaganidek, Sharqda kotiblik bilan nom chiqargan har bir shaxsni biz oddiy texnik vazifasini bajaruvchi kishi sifatida emas, balki o‘z zamonasining madaniy hayotida favqulodda katta rol o‘ynagan ilm-ma’rifat ahli va yirik madaniyat arbobi sifatida taniymiz.⁴¹

Qadimdan kotiblar yuksak mas’uliyatli vazifani bajaruvchi kishilar hisoblangan. Hatto qadimgi manbalarda ham ular ulug‘langan. “Uyg‘ur yozuvli manbalarda kotiblar *bitig‘çi, ilimya (alimya), baxşi, ka: tib* deb atalgan”⁴².

Kotiblar ko‘chirgan asarlariga xolis baho bera olishgan. Hatto ular ijodkor asarlarini sevib, ixlos bilan tartib berganlari bois o‘zlari ham ilhomlanib to‘plamlar tartib qilishgan. Masalan, Navoiyning xos kotibi Abduljamilning “Tuhfat us-salotin” kitobi ana shunday hayrat natijasida tuzilgani, shubhasiz. “Tuhfat us-salotin”ning

⁴¹Қаранг: Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: Фан, 1971. – Б.4.

⁴² Содиқов Қ. Туркий матннавислик тарихидан. Қадимги ёзма ёдгорликлар. – Т.: Ёзувчи, 2000. – Б.131.

muqaddimasidan ma'lum bo'ladiki, kotib Navoiy nazmidan bahra olib, hayratli hayajon dengiziga g'arq bo'lgan va taassuroti nihoyat darajada jo'shqinligidan ushbu majmuani jam qilmoqqa jazm etgan. Kotib shoir baytlari xususida shunday yozadi: "Har tuhfasi chandin latoyif va g'aroyibi marg'ub maknun va mavjud va har lafzi bir qissaga shomil va har bayti bir oyatga mutazzamin va misrai bir hadisg'a muvofiqdurur"⁴³. Abduljamil kotib buyuk mutaffakir ijodining o'z zamonidagi ilmiy tadqiqotchisi va o'tkir zehnlil olim hisoblanadi.

Adabiyotshunos A.Hayitmetovning yozishicha, kotiblar ko'chirilayotgan asarning ishonchli, qadimiy nusxasini tanlashga, yoki manbaning asos-matnini yaratishga intilgan. Asarning dastlabki qo'lyozma nusxalari yo'qolib ketishidan xavfsirab, savodli kotiblar buyutmachilarning talabi bilan yig'ma-matnlarni tuzishga kirishgan.⁴⁴

Toshbosma nusxa uchun asarni ko'chirayotgan xattot ham ishiga o'z davrining ma'rifatparvar kishisi sifatida yondashgan. Adabiyotshunos A.Erkinov ta'kilaganidek, toshbosma nashr uchun matn tayyorlashda xattot qo'lyozmalarni ma'lum darajada o'rganib, ularning ishonchlilari asosida toshbosma uchun matn tayyorlagan va muayyan matnshunoslik faoliyatini olib borgan.⁴⁵

O'zbek matnshunosligi rivojlanishning ilk bosqichidagi muhim tomonlardan biri, toshbosma nusxa uchun asarni ko'chirayotgan kotiblarning ko'pchiligi filologik bilimga ega savodli, ilmi kishilar edi. A.Murodov mashhur Shohmurod kotib shogirdlaridan Husniddinxon haqida so'z yuritarkan, uni "Sharq adabiyoti tarixi va nazariyasi bo'yicha olim hamda arab, fors tillariga tarjimon edi"⁴⁶, – deb yozadi. Filologik bilimga ega, savodli, ilmi kotiblargina asar matnining mukammal bo'lishiga harakat qilishgan.

Yana toshbosma nusxa kotiblarining ko'pchiligi shoir, tarjimon ham bo'lishgan. Masalan, Almaiy Qori Fazlulloh Mirjalol o'g'li XIX

⁴³ Абдулжамил котиб. Тухфат ус-салотин. – Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2007. – Б.7.

⁴⁴ Хайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. –Т.: Фанлар академияси нашриёти, 1959. – Б.25.

⁴⁵ Қаранг: Эркинов А. Матншуносликка кириш. –Т.: Республик таълим маркази, 1997. – Б.33.

⁴⁶ Мурошов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: Фан, 1971. – Б.152.

asrning ikkinchi yarmiga mansub bo‘lgan mashhur shoir va xushnavislardan hisoblanadi. O‘zbek tilidagi tarjimalar orasida eng mashhurlaridan biri “Kalila va Dimna”ning Almaiy tarjimasini bo‘lib, toshbosmada bir necha bor nashr etilgan va xalqimiz orasida mashhur bo‘lgan. “Kalila va Dimna”ning o‘zbek tiliga qilingan keyingi tarjimasida qahramonlar hamda personajlar, mamlakat, shahar va qushlar nomi ham turli tarjimalarda turlicha bo‘lganligidan ko‘proq Almaiy tarjimasiga tayanilgan.⁴⁷

Shu bilan birga, qo‘lyozmalarning har xil saviyadagi kotiblar tomonidan ko‘chirilishi, ayrim xattotlarning e‘tiborsizligi, ba‘zi kotiblarning baytlarni o‘qiy olmasligi yoki ba‘zi baytlarni ataylab tushirib yoki o‘zgartirib yozilishi natijasida asar muallif tahriridan uzoqlasha borgan. Bu hol qo‘lyozmalar qancha ko‘chirilsa shuncha ortib borgan.

Toshbosma nusxalar tayyorlanishida kotibning matn mazmunini qay daraja tushunishi, muallif g‘oyasini idrok etishi muhimdir. Jumladan, 1323–1905-yili Toshkentda Porsev matbaasida tayyorlangan “Xamsa” asari toshbosma nashri matni Abdummanof Hoji tomonidan ko‘chirilgan. A.Murodovning bergan ma‘lumotlariga ko‘ra bu kotibning asli to‘la ismi Abdumannof Abdulvahob o‘g‘li bo‘lib, xalq o‘rtasida Qori Abdumannof, Abdumannof Hoji nomlari bilan ham mashhur bo‘lgan. Toshbosma uchun ko‘chirib bergan qo‘lyozmalariga ham Qori Abdumannof yoki Abdumannof Hoji deb imzo qo‘ygan. Qori Abdumannof Toshkentning Hofiz Ko‘yki mahallasida yashagan. U Buxoroda ta‘lim olgan. So‘ngra Toshkentda mashhur xattot Abdulhaq Kotib Alim o‘g‘li (1808 – 1886)ga shogird tushib xattotlik san‘atini o‘rgangan va tez yozuvchi xattotlardan bo‘lib tanilgan. Qori Abdumannof 1945-yili 65 yoshida poyezd ostida qolib halok bo‘lgan. Kotibning arab va fors tillarida ko‘chirgan qo‘lyozmalari saqlanib qolgan.⁴⁸

AlisherNavoiy asarlarini kiritib olingan kotiblar xususida adabiyotshunos Sh.Sirojiddinov quyidagifikrlarni bildiradi: “Xattot va kotiblar Navoiy asarlarini ko‘chirishda, bir tomondan, xattotlik mahoratini orttirsalar, ikkinchi tomondan, ko‘chirish jarayonida Navoiy so‘zi

⁴⁷Қаранг: Калила ва Димна. – Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1977. – Б. 253.

⁴⁸Қаранг: Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: Фан, 1971. – Б.152.

qudratining naqadar kuchli ekanligiga imon keltira boshlaganlar va maftunkor she'riyat sehri ularni batamom o'z og'ushiga olgan. Ko'pchilik xattotlar Navoiyning biror-bir asarini ko'chirib bo'lishgach, o'sha asar ruhi ta'siridan chiqolmay, o'z taassurotlarini kitob oxirida qayd etib ketishgan"⁴⁹.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash kerakki, Sharqning buyuk shoiri Alisher Navoiy asarlarining jahoniy shuhratida buxorolik va shahrisabzlik adabiyot muxlislari – mashhur xattotlarning munosib hissasi bor. Bu qo'lyozmalar o'quvchiga rang-barang ma'lumotlar berish bilan birga Navoiy asarlarini mukammal o'rganishda ijobiy rol o'ynab kelmoqda. Aslida Alisher Navoiy xattotlari mahorati alohida tadqiqot mavzuidir.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumot-materiallar to'plash. Mavzuga doir lta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg'ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. Falsafa, handasa, musiqa, tabiat, kimyo, tibbiyot, tilshunoslik, she'riyat, notiqlik va xattotlikka oid eng mashhur asarlarni yaratgan buyuk ijodkor kim?

- A) Yusuf Xos Hojib
- B) Farobiy
- C) Beruniy
- D) Ibn sino

2. Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida bitikchi deb kimlarni nazarda tutgan?

- A) Kotiblarni
- B) O'qituvchilarni
- C) Notiqlarni
- D) Musavvirlarni

3. Shoxruh zamonida qaysi shahar davlatning siyosiy markaziga aylanadi?

- A) Samarqand
- B) Buxoro

⁴⁹ Сирожиддинов Ш. Навоий навосидан бахра олиб...– Самарқанд: Зарафшон, 1996. – Б.5–6.

- C) Hirot
- D) Movarounnahr

4. Shohruhning qaysi o'g'li nihoyatda noziktab, adabiyot va san'atning muxlisi bo'lgan?

- A) Boysung'ur mirzo
- B) Mahmud
- C) Ahmad
- D) Ali ibn Sodiq

5. Hirotda Boysung'ur davrida kutubxona barpo etigan bo'lib, unda nechta yetuk hunar egalari to'plangan?

- A) 35 ta
- B) 40 ta
- C) 50 ta
- D) 45 ta

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

2. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari.–Samarqand, 1999.

3. Abdurahmanov X., Mahmudov N. So'z estetikasi.–Toshkent: O'qituvchi, 2002.

4. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san'atlar. – Toshkent: TDPU, 2001.

5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

6. Yo'ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish.–Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.

7. Sirojiddinov Sh. Navoiy navosidan bahra olib... – Samarqand: Zarafshon, 1996.

8- MAVZU

QADIMIY TOSHBOSMA VA BOSMA KITOBLAR

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad – qadimiy toshbosma va bosma kitoblar mavzusi nazariy ma'lumotlar asosida o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni mumtoz adabiyotimizga hurmat, kitobga muhabbat ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mumtoz adabiy asarlarni o'qishga jalb etish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: Xattaxta, bo'r, dars uchun maxsus bukletlar, vatman qog'oz, marker, diqqatni jalb qiluvchi savollar – skanvord materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma'ruza

Darsning rejasi:

1. O'zbek matbaachilik tarixi.
2. Toshbosmada kotibning o'рни. Toshbosma va bosma kitoblarning afzalliklari.
3. Toshbosma matnlardagi tafovutlar.

Tayanch so'z va asosiy tushunchalar: toshbosma matnlardagi tafovutlar, risola, kotib, toshbosma va bosma kitoblar, gravyura, matn, o'zbek matbaachilik tarixi, yog'och taxtalar, muqovasozlar, naqqoshlar.

Qadimda risolalar qo'lyozma tarzida tayyorlangan. Qo'lyozmalarni xattotlar bejirim qilib oqqa ko'chirishgan, naqqoshlar bezak bilan bezashgan, muqovasozlar varaqlarni tikib va qolipga tortib kitob xoliga keltirishgan. Zardushtiylik dinining muqaddas yozuvlari to'plami sifatida bizgacha yetib kelgan kitob – "Avesto" teriga yozilgan. Hozir fanda ma'lum bo'lgan "Avesto" milodning IV asrlariga, ya'ni shox Xisrav I davriga oid. Unda O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjonga doir ma'lumotlar aks ettirilgan. Birinchi bosma kitoblar ksilografik (yunoncha "ksilo" – "daraxt" va "grafo" – "yozaman" so'zlaridan) kitoblar deb atalgan. Ularni quyidagicha tayyorla-ganlar: tekis yog'och taxta ustiga matnning teskari (aks) tasvirini yozganlar. Usta o'tkir pichoqda ehtiyotlik bilan yog'ochni o'yib yozgan. Natijada matnning qavariq tasviri hosil bo'lgan. Unga

bo‘yoq surkab, ustiga pergament (maxsus ishlov berilgan buzoq terisi) yoki qog‘oz bostirilgan va bo‘yoq yog‘ochdan varaqqa o‘tgan. Xuddi shu usulda gravyuralar ham tayyorlangan.

Bundaykitoblarnitayyorlashjudaqiyinbo‘lgan, chunki yog‘och taxtalarga bir necha o‘n ming harfni o‘yib ishlashga to‘g‘ri kelgan. Shuning uchun kishilar uzoq yillar davomida alohida harflardan iborat bosma shaklni yaratishga intilganlar. Shunday kitob bosishga doir dastlabki tajribalar Xitoyda 1041–48-yillarda amalga oshirilgan.

Yevropada bosma kitob ixtirochisi Iogann Gutenberg bo‘ldi. Uning hayoti to‘g‘risida ma’lumotlar juda oz. Biz ixtirochi Germaniyaning Mayns shahrida 1394-99-yillar orasida tug‘ilganligini, Strasburg shahrida usta bo‘lib ishlaganligini bilamiz, xolos. Gutenberg o‘z ixtirosini yashirincha tayyorlagan. Xo‘sh, Gutenberg nimani ixtiro qildi?

6-rasm (slyayd taqdimoti uchun maxsus)



Gutenberg yog‘siqib chiqarish uchun mo‘ljallangan oddiy pressni bosmaxona dastgohiga aylantirdi va uni kitob bosishga moslashtirdi. Ammo asosiy narsa bunda emas, balki matndan xohlagan miqdorda


nusxa ko‘chirishga imkon beruvchi bosma shaklni ixtiro etganligida. Bu ixtiro tezda butun dunyoga yoyildi. XV asr oxiriga kelib Yevropaning o‘nlab shaharlarida kitoblar bosilib chiqdi. Bu birinchi kitoblarning ko‘pi saqlanib qolmadi.

Kitob bosish jarayoni yildan-yilga asta-sekin takomillashib bordi. Turkistonda birinchi bosma kitob 1868-yil Turkiston harbiy okrugi shtabi (Toshkent) da chiqarildi. **O‘zbek tilida nashr etilgan birinchi kitob *Shohimardon Ibrohimovning “Kalendar” (“Taqvim”) kitobi (1871) bo‘ldi.*** 1874-yil Xiva shahrida *Muhammad Rahimxon (Feruz)* tomonidan toshbosma (litografiya) qurildi va u yerda 1880-yillardayoq ancha kitoblar bosildi. 1883-yilda Toshkentda ham birinchi marta toshbosma usulida kitob chiqarildi. Shundan so‘ng O‘zbekistonning ko‘p shaharlarida birin-ketin bosmaxonalar tashkil etildi. Hozir O‘zbekistonda 123 ta bosmaxona faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xo‘sh, kitob qanday qilib bosiladi? Kitob bosish uchun oldin qo‘lyozma tayyorlanadi, keyin harf teriladi. Harf (raqam) larni qo‘lda, harf terish mashinalarida, kompyuterda terish mumkin. Hozir harflarni kompyuterda terish keng tarqalgan. Bezaklar ham kompyuterda tayyorlanadi. Kompyuterda kitobning matn va bezaklari diskka yozib olinadi. Diski bosmaxonaga olib boriladi. U yerda diskdan maxsus mashina yordamida matn va bezaklarning fotosurati olinadi. Fotosuratlardan metallga nusxa olinib, bosma mashinalaridabu nusxalardan kitob sahifalarining nusxalari ko‘chiriladi. Mashinalar sahifalarni taxlaydi va tikib kitob holiga keltiradi. Qo‘lingizdagi kitob ham kompyuterda terilib, mashinalar yordamida tayyorlangan.

Kitob bosish. Kitob bosish – bo‘yoqni bosma formadan qog‘ozga o‘tkazib, kitob, jurnal, gazeta va boshqa bosma mahsulotlari tayyorlanadigan ishlab chiqarish jarayonlari. “Kitob bosish” iborasi bosma kitob tayyorlash tarixi haqida fikr yuritilganda ishlatiladi, zamonaviy Kitob bosishda esa poligrafiya termini ancha keng tarqalgan. Kitob bosishning o‘tmishdoshi *ksilografik bosma* bo‘lib, unda bosiladigan butun bir bet yozuv taxtaga o‘yib qo‘yilardi.

7-rasm (slayd taqdimoti uchun maxsus)



XI asrdan boshlab Xitoyda kitobni qoʻlda koʻchirishdan bosish usuliga oʻtilgan. Biroq, bu usul keng rivojlanmadi. Faqat taxminan 400 yil oʻtgandan soʻng Yevropada harf terish shrifti ixtiro qilindi. Oʻsha davrda bir vaqtning oʻzida bir necha mamlakatlar – Germaniya, Niderlandiya, Italiya, Fransiyada bir-biridan mustasno bir necha ustalar bitta muammo – bosma mashina yaratish ustida ish olib borishgan. Hozirgi vaqtda tarixchilar bu muammoni birinchi marta germaniyalik Iogann Gutenberg (1399– 1468) hal qilganligini aytishadi. Metall shriftlarni matrissalarga quyish qurilmasi ixtiro qilingandan soʻng Yevropaning koʻpgina shaharlarida kitob bosib chiqarila boshlandi. 1464-yilda Rimda birinchi Kitob bosish stanogi oʻrnatildi. 1470-yillarga kelib Fransiya, Niderlandiya, Shveysariya, Ispaniya va Angliyada kitoblar bosib chiqarila boshlandi, Venetsiya, Nyurnberg Kitob bosish ishlari boʻyicha yirik markazga aylandi. 1500-yillarga kelib Yevropaning 250 shahrida bosmaxona boʻlgan. Bosmaxona ishlarining rivojlanishi tufayli kitob umumiy siyosiy hayotda va madaniyatning rivojlanishida muhim rol oʻynadi. 1600-yillarda birinchi gazeta, 1650-yillarda birinchi varaqa bosilib chiqdi.

Kitob bosishning keyingi rivojlanishiga litografiya (toshbosma) (1798) va tekis bosma mashinasi (1811) ning ixtiro qilinishi sabab bo'ldi. XIX asr o'rtalari – XX asr boshlarida Kitob bosish korxonalarida linotip, keyinroq rotatsion, ofset bosma mashinalar ishlatila boshlandi.

Bosmaxona – matbaa mahsulotlari (kitob, jurnal, gazeta, plakat (vatman), blank ba boshqalar) tayyorlaydigan sanoat korxonasi. Qadimda risolalar asosan qo'lyozma tarzida tayyorlangan. Sharqda qo'lyozmalarni xattotlar bejirim qilib oqqa ko'chirib, naqqoshlar bezaklar bilan bezashgan, muqovasozlar varaqlarni tikib va qolibga tortib, kitob holida chiqarishgan, Kitob bosishga doir dastlabki tajribalar Xitoyda 1041–1048-yillarda amalga oshirilgan. Dastlabki bosmaxona Germaniyada I.Guttenberg tamonidan 1445-yilda tashkil qilingan. Turkistonda birinchi bosma kitob 1868-yili Turkiston harbiy okrugi shtabi bosmaxonasida chop qilindi.

Ayrim ma'lumotlarga qaraganda qog'ozli kitoblar 650-yillardayoq yuzaga kela boshlagan. Butun o'rta asrlar davomida kitoblar qo'lyozma shaklida ko'payib kelindi. 1798-yilda Germaniyada litografik bosma usuli ixtiro qilindi. Bu usul tezlik bilan Yevropaning boshqa mamlakatlariga yoyildi. 1816-yildan Peterburgda bosma kitoblar chiqa boshladi. Bu bosmaxonalarda Kavkaz, Fransiya, Germaniyadan keltirilgan maxsus yassi toshlar sirtiga maxsus bo'yoq litografiya qalami yoki qalin tush bilan matn va tasvirlar tushirilgan. Kimyoviy eritma yordamida ishlov berilgan. Keyin litografiya bo'yog'i bilan nusxa ko'paytirilgan. Shu tarzda Turkistonning bir qancha shaharlarida ham shu usul bilan kitob bosish yo'lga qo'yildi:

Otajon Abdalov – Xiva

Semyon Laxtin – Toshkent

X.Orifjonov – Toshkent

Ilin matbaasi – Toshkent

Matbaayi Isxoqiy – To'raqo'rg'on shahri

Poltoranova – Samarqand 1894-yil

Baranovskiy – Buxoro, Kogon 1901-yil

Bu bosmaxonalarda turli mavzudagi materiallar bilan bir qatorda o'zbek, fors, arab mumtoz adabiyoti namunalari va ularning tarjimalari ham nashr etila boshlandi.

Bu hol ma'naviy merosimizni keng xalq ommasi orasida ko'plab tarqalishi bilan bir qatorda ijod ahli zimmasiga ularning matnini sinchiklab saralash, matnshunoslik izlanishlari olib borish mas'uliyatini ham yukladi.


Toshbosma nashrlar aholining keng qatlamlari ehtiyojini qondirish uchun, birinchi navbatda zarur hisoblangan diniy kitoblarni, madrasa va maktablar uchun zarur hisoblangan asarlarni chop etdi. Chunonchi, "Bidon" degan kitobcha arab tili sarfiga oid arabcha misollar bilan tojik tilida yozilgan (boshlang'ich ma'lumot uchun mo'ljallangan). "Avvali ilm"– tojikcha kitobcha, diniy masalalar bo'yicha savol javob bo'yicha yozilgan. "Avomil"– arab tili navxiga oid, arab tilida yozilgan. Jumlama-jumla tojikcha tarjimasi bilan berilgan.

"Kofiya"– arab tilining naxvi kengroq bayon qilingan yetti bobga bo'lingan.

"Sharxi mullo"– qofiyaning sharxi, Jomiy asarlari.

"Hikmatul ayn"– hikmati tabiiy va ilohiyga oid kitob.

8-rasm (slyd taqdimoti uchun maxsus)



Mumtoz adabiyotimizning namoyondalari ijodidan dovrug' taratgan asarlar birma-bir bosma nashr sifatida tarqay boshladi. Ular orasida Navoiy "Xamsa"si (Xiva, 1879-yil), So'fi Olloyorning

“Sabotul ojjizin”, Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmati” (Qozon 1896-yil) va hokozolar.

Bosma nashr uchun nusxalarni tanlash, ularni saralash va nihoyat bosma nashrni yuzaga keltirish ishlari takomillasha borib, hozirgi zamon matnshunosligining yuzaga kelishiga zamin tayyorladi.

O‘zbekistonda bosma usuli bilan Kitob bosish XIX asr 2-yarmidan keng tarqaldi. Turkiston harbiy okrugi shtabida (1868), Xivada (1874) bosmaxonalar tashkil etilgandan so‘ng Turkistonda birinchi bosma kitoblar chop etila boshlandi. 1870-yilda “Turkestarskiye vedomosti” va “Turkiston viloyatining gazetasi”, XIX asr so‘nggi yillarida “Srednyaya Aziya”, “Sredneaziatskiy vestnik” jurnallari, 1906- yilda “Taraqiy” gazetasi, 1913-yillarda “Oyina” jurnali, 1914-yillarda “Sadoyi Turkiston”, “Sadoi Fargona” gazetalari chop etildi. Bulardan tashqari, “Najot”, “Turk eli”, “Turon”, “Ulug‘ Turkiston”, “Hurriyat” gazetalari, “Yurt”, “Chayon” jurnallari chiqq boshlagan.

* * *

Dunyodagi har bir xalq o‘zining yozma tarixiga ega. Bu tarixni o‘rganishda hech bir manba yozma yodgorliklardek batafsillikka da’vo qilolmaydi. Ajdodlarimiz hayotini butun tafsilotlarigacha bag‘riga joylagan qo‘lyozma manbalar o‘tmish bilan bugunni bog‘lovchi ko‘prik. Insoniy tamaddun tarixida qadimiy qo‘lyozmalarning ahamiyati shu darajada ekan, bu bebaho ma’naviy merosga chinakam voris bo‘lish uchun ularni chuqur o‘rganish, o‘rganilganda hosil bo‘lgan bilimni ommalashtirish talab qilinadi. Ajdodlardan qolgan ma’naviy mulkni o‘zlashtirish, ya’ni “o‘ziniki qilib olish” ayni jarayondan – bilimning ommalashuvidan boshlanadi.

Shu ma’noda, matbaa ixtirosi nafaqat kitobat tarixida, balki insoniy fikr, insoniy madaniyat tarixida ham yangi asrni boshlab berdi. Matbaa sohasi sanoatlashgach, ilgari bitta yoki bir necha nusxadagina ko‘chirish mumkin bo‘lgan kitob uchun yuzlab, minglab nusxada ko‘paytirish imkoni tug‘ildi, keng xalq orasida qo‘lyozma kitoblar asrida bo‘lmagan fikrlar ommalashuvi yuzaga keldi. Tabiiyki, matbaachilik faoliyati bilan bog‘liq bu holat qo‘lyozma manbalarni nashr qilish qonun-qoidalarini ishlab chiqishni kun tartibiga qo‘ydi.

Vazifaning og‘irligi shunda ediki, matnshunoslik ishi dastavval, har xil ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko‘ra, dunyoning turli kutubxonalariga tarqalib ketgan muayyan qo‘lyozma nusxalarini aniqlash, aniqlagandan so‘ng keyingi tadqiqot uchun ularni jamlashni taqozo qiladi. Matnshunos o‘zi o‘rganayotgan qo‘lyozma asarning turli nusxalarini qo‘lga kiritar ekan, endi uning oldida “qaysi nusxa nashr qilishga haqliroq” degan prinsipial savol tug‘iladi. Qadimiyrog‘imi yo zamonaviyrog‘i? To‘lig‘imi yoki noqisi? Xushxatimi yo badxatrog‘i? Ishonchlisimi yoki ishonchsizrog‘i? Bu savollarga javob topish nazariy jihatdan oson ko‘rinsa-da, ularning amaliy tatbiqi yengil kechmaydi. Har doim ham qadimiyrog‘ nusxa zamonaviyrog‘idan yoki to‘lig‘i noqisidan yetakchi bo‘lolmaydi, balki buning aksi ham bo‘lishi mumkin.

Nashr uchun muvofiq nusxa tanlandi ham deylik, eng serzahmat jarayon shundan so‘ng boshlanadi, bu – matn tahqiqi masalasidir. *Tahqiq* jarayoni matndagi har bir so‘z, har bir jumlaning muallif matniga muvofiqligini ilmiy dalillar bilan har tomonlama asoslashdan iborat. Bu faoliyat bilan shug‘ullanuvchi olim sharqda “*muhaqqiq*” atamasi bilan nomlangan.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Qadimiy toshbosma va bosma kitoblar mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumot-materiallar to‘plash. Mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg‘ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. Toshkentda Porsev matbaasida Abdummanof Xoji tomonidan tayyorlangan “Xamsa”ning toshbosma nashri nechanchi yilda ko‘chirilgan?

- A) 1323-1906-yillarda
- B) 1423-1905-yillarda
- C) 1425-1908-yillarda
- D) 1323-1905-yillarda

2. Qori Abdummanofning qaysi tillarda ko‘chirilgan qo‘lyozmalari saqlanib qolgan?

- A) arab, fors
- B) uyg‘ur, arab
- C) arab, turkiy
- D) fors, so‘g‘d

3. “Sharq” so‘zi lug‘atlarda qanday ma’noni anglatadi?

- A) ochmoq, bayon qilmoq
- B) tushuntirmoq, yoritmoq
- C) izohlamoq, bo‘laklab kesmoq
- D) A, B, C javoblar to‘g‘ri

4. Imom Buxoriy nechta hadis to‘plagan?

- A) 605 ming
- B) 660 ming
- C) 600 ming
- D) 667 ming

5. Imom Buxoriy 600ming hadisdan nechtasini kitobga kiritgan?

- A) 7 ming
- B) 6 ming
- C) 8 ming
- D) 5 ming

6. Qur‘on dastlab surama-sura, oyatma-oyat yig‘ib tartibga solingan, hatto harflar soni ham e‘tiborga olinib boriladi. Bu jarayonning o‘zida bir guruh olimlar fonetika ilmiga asos soladi. Bu Sharqda qanay ataladi?

- A)ilmi mavlud
- B) ilmi tavjid
- C) ilmi tajid
- D) ilmi tadib

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. Ilmiy tanqidiy matn. (Tuzuvchi: Porso Shamsiyev), –T.: Fan, 1970.

2. ZohidovR. Sabotulojizin – ilmiy-adabiymanba. –T.: Muharrir, 2012.

3. ZufarovT. Xatta’limi. –T.: Meros, 2010.

4. Ismoilov M. Hujjatshunoslik va Markaziy Osiyo diplomatikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademnashr, 2010.

5. Ishoqov F. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. T.: Fan, 1976.

6. Yo‘ldoshev Ibrohim. O‘zbek kitobatchilik terminologiyasi. – T.: Fan, 2004.

7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: Fan, 2008.

8. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. T.: Muharrir, 2011.

9- MAVZU

MATNIY TAFOVUTLARNI O‘RGANISH ASOSLARI

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad – matniy tafovutlarni o‘rganish asoslari mavzusi nazariy ma’lumotlar asosida o‘rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni mumtoz adabiyotimizga hurmat, kitobga muhabbat ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mumtoz adabiy asarlarni o‘qishga jalb etish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: dars uchun maxsus bukletlar, diqqatni jalb qiluvchi savollar – tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma’ruza

Darsning rejasi:

1. Matn tahriri masalasi.

2. Muallif tahriri.

3. Uslub bilan bog‘liq tahrir. G‘oyaviy tahrir. Nazariy xulosalar.

***Tayanch so‘z va asosiy tushunchalar:** Matn tahriri, muallif tahriri, toshbosma matnlar, kotib, toshbosma va bosma kitoblar, tabdil qilish, o‘zbek matbaachilik tarixi, muqovasozlar, naqqoshlar, matn uchun zarur ko‘rsatkichlar, kirill yoki lotin alifbosiga tabdil qilish, ilmiy-tanqidiy matn.*

Milliy fanimizning xalqaro obro‘si bilan bog‘liq yana bir jihat borki, bizning tariximiz va madaniyatimizga oid asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlari Arab mamlakatlari (movarounnahrlik ulamolar kitoblari), Eron (fors tilidagi bir qancha tarixiy va adabiy manbalar), Amerika (Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarining Yuriy Bregel tarafidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy matni), Yaponiya (Muhammad Hakimxonning “Muntaxab ut-tavorix” asarining Yayoi-Kavaxara, “Boburnoma”ning Eyji Mano tarafidan nashr etilgan ilmiy-tanqidiy matnlari) va boshqa mamlakatlar olimlari tomonidan nashr etilayotganida o‘zbek manbashunos-matnshunoslari bu ishda nainki ishtirok etish, balki faol kirishib, bu sohada yetakchilikni o‘z qo‘llariga olishga burchlidirlar.

Turkiy tildagi asarlarni kirill yoki lotin alifbosiga tabdil qilishdan oldin ham ularning muallif tomonidan ilk bor yaratilgan yozuvdagi ilmiy-tanqidiy matnlarini hozirlash katta ahamiyatga ega. Quyida biz Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ilmiy-tanqidiy matnlari tayyorlangach, O‘zbekiston va boshqa mamlakatlarda chop etilib, Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati bilan shug‘ullanuvchi jahondagi ko‘plab ilmiy markazlar mutaxassislari tomonidan iliq kutib olingan bir necha mo‘tabar manbalar nashriga to‘xtalib o‘tamiz.

Ma‘lumki, “Nasoyim ul-muhabbat min shamoyimil futuvvat” (“Ulug‘lik xushbo‘yliklarini taratuvchi sevikli shabadalar”) Alisher Navoiyning nasrdagi eng yirik asaridir. Undan 770 dan ortiq tasavvuf shayxlari haqida ma‘lumotlar o‘rin olgan bo‘lib, muallifning diniy-falsafiy qarashlari hamda Navoiygacha bunchalik keng ko‘lamda tasvirlanmagan turk mashoyixlari faoliyatiga oid behad qimmatli manbadir. Shuningdek, Navoiyning otasiga oid ba‘zi biografik qaydlar ham asarning qimmatini yanada oshiradi.

O‘zR FA Sharqshunoslik institutining katta ilmiy xodimi Hamidxon Islomiy “Nasoyim ul-muhabbat”ning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash ustida uzoq yillar izlanishlar olib bordi. Domla “Nasoyim”ning Turkiya, Rossiya, Fransiya va O‘zbekistondagi eng qadimgi, ba‘zilari Alisher Navoiy hayotligi davrida ko‘chirilgan mo‘tabar nusxalar asosidagi matnini tiklab, nusxalar orasidagi muhim tafovutlarni satrosti izohlarida qayd etdi. Matn uchun zarur ko‘rsatkichlar ham tuzilganki, bu tadqiqotchi va o‘quvchilarga asardan o‘zlari izlayotgan ma‘lumotlarni tezda topib olish imkonini yaratadi.

“Nasoyim ul-muhabbat”ning shu paytgacha Turkiya va O‘zbekistonda amalga oshirilgan nashrlari puxta ilmiy-tanqidiy matnga asoslanmagani uchun ko‘plab xatolarga yo‘l qo‘yilgan edi. Misol keltiradigan bo‘lsak, 2001-yilda “Fan” nashriyotida Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami”ning 17-jildi sifatida “Nasoyim ul-muhabbat” asari nasrdan chiqdi. Buyuk adibning eng yirik nasriy asari O‘zbekistonda ilk bor to‘liq hoida nashr etilishi quvonchli hodisa, albatta. Biroq bu nasrdagi matniy xatolar oddiy o‘quvchi tugul, mutaxassislar uchun ham qator jumboqlar paydo qiladi. Boz ustiga, Navoiy matnidagi yuzlab so‘z va jummlalar yo atayin, yo e‘tiborsizlik natijasida tushirib qoldirilgan. Ba‘zi so‘zlarning

to'g'risini va nashrdagi xato shakllarini quyida keltiramiz: "barxabarlar" – "bexabarlar", "ul kitobdag'i" – "ul kitobda dag'i", "siroti mustaqim" – "siyrati mustaqim", "aning man'in" – "ani mutaayyin", "anga rom" – "orom", "komlarim" – "g'amlarim", "suvab" – "savob", "muvofaqatingizdin" – "muvoaffaqiyatingizdin", "taxalluf" – "takalluf", "mahshur" (qo'shilgan ma'nosida) – "mashhur", "iflos" – "ixlos", "adab" – "abad", "afzun" – "afsun" va hokazo. Ular kitobxonga matn ma'nosini qiyinlashtirib, ba'zan mutlaqo tushunarsiz qilib qo'yadi. Masalan: "Ul it boshin ul harfqa solib, ul sutdin ichti" jumlasidan so'ng, "it boshini qanaqa harfqa tiqdi ekan?" deb bosh qotirish mumkin. Holbuki, bu so'z asliyatda "zarf", ya'ni idishdir. Xatolar tufayli ba'zi hollarda Navoiy ko'zda tutganiga zid ma'nolar chiqarish mumkin. Masalan, "tushunarli, ayon" ma'nosidagi "mafhum" so'zi barcha hollarda teskari ma'nodagi "mavhum" shaklida yozilgan.

Afsuski, "Nasoyim ul-muhabbat"ning Alisher Navoiy asarlarining so'nggi yillarda chop etilgan o'n jildlik asarlar to'plamidan o'rin olgan nashrlari ham xatolardan xoli emas. Institutimizda tayyorlanib chop etilgan ilmiy-tanqidiy matn, nihoyat, bu ulug' asarning kirill va lotin alifbolaridagi qoniqarli nashrini amalga oshirishga yordam bersa, ajab emas. Quvonarli jihati shundaki, istiqlol bergan imkoniyat tufayli, ayrim tadqiqotlar va ilmiy tanqidiy matnlar chet el olimlari bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Tabiiyki, bu o'zaro tajriba almashish hamda o'zbek olimlarining ilmiy yutuqlari xorijiy mamlakatlarda ham kengroq tanilishi va e'tirof etilishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Shunday hamkorlik ishlari natijalaridan biri Sadriddin Ayniyning (1878–1954) o'zbek tilida yozilgan "Buxoro inqilobi tarixi" asari ilmiy-tanqidiy matnining Yaponiyada nashr etilishi bo'lib, u O'zRFA Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi Sharifa Tosheva va Tokio universiteti tadqiqotchisi Shizuo Shimada tarafidan amalga oshirilgan. Sadriddin Ayniy ko'plab tarixiy, badiiy va ilmiy asarlar yaratgan. Ayniyning tarixiy asarlarida Buxoro tarixining eng murakkab davri – mamlakatda islohotchilik g'oyalari va jadidchilik harakatlarining keng yoyilishi, ko'p asrlar davomida amalda bo'lgan davlat tuzumining tubdan o'zgarishi voqealari uning o'z ko'rgan kechirganlari asosida qalamga olinganki, bu asarlarni chetlab o'tib, o'sha davr tarixini yoritish mushkul.

Ayniy tomonidan yaratilgan ilk yirik tarixiy asar – “Tarixi inqilobi fikri dar Buxoro” (“Buxoroda fikriy inqilob tarixi”) 1918-yilda tojik tilida yozilgan. Keyinchalik Ayniy bu asarning o‘zbek tilidagi qayta ishlangan variantini yaratib, yangi boblar qo‘shib, unga “Buxoro inqilobining tarixi” degan nom berdi. Asarning nomidan u 1920-yil kuzida amirlikning ag‘darib tashlanishiga bag‘ishlangan, deb tushunmaslik kerak. Ayniy inqilob deganda asosan Buxoroning ilg‘or kishilari ongidagi o‘zgarishlar, ularning islohotlar vositasida o‘z yurtlarini taraqqiy qildirishga intilganliklarini ko‘zda tutadi.

Maktab va madrasalarni isloh qilish masalasi Buxoro inqilobiga sabab bo‘lganiga ishonchi komil bo‘lgan Ayniy, 3-4 asr oldingi va o‘ziga zamondosh bo‘lgan Buxoro madrasalari, mudarrislarining bilim darajasini hamda ularning hukumat bilan munosabatlarini tekshirish muhimligi haqida gapiradi. Birinchi bo‘limning “Ulamoning buzulishi va bulardan xonlarning istifoda qilishi” deb nomlangan birinchi va undan keyingi boblarida Ayniy so‘zboshi va muqaddimada bildirgan fikrlarini kengaytiradi hamda dalillar va tarixiy ma’lumotlar bilan to‘ldiradi. Shu bo‘limda Ayniy Yosh buxoroliklar va jadidlar harakatining vujudga kelishiga zamin tayyorlagan ichki va tashqi omillar xususida ham fikr yuritadi. U Buxorodagi inqilobni dastlab ma’lum bir guruh kishilarining ongida paydo bo‘lgan inqilob, deb hisoblaydi. Jumladan, muallif birinchi bo‘limning “Ilmiy va ijtimoiy inqilobga hozirlanish” bobida Amir Abdulahad (1885–1910) davrining boshlarida amirlik tuzumiga tanqidiy ko‘z bilan qaragan kishilardan biri – buxorolik ma’rifatparvar Ahmad Donish va uning izdoshlari haqida keng ma’lumot beradi.

Asarning salmoqli qismini tashkil etuvchi ikkinchi bo‘limda 1908–1917-yillarda Buxoro jamiyati hayotida ro‘y bergan ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy voqealar qalamga olingan. Jumladan, Buxoroda ochilgan yangi usuldagi maktablar va bu maktablar atrofida mutaassib ulamo bilan taraqqiyparvarlar orasida yuzaga kelgan bahs-munozaralar, 1910-yil yanvardagi sunniy, shia nizolari, 1910-yilda tashkil etilgan Yosh buxoroliklarning yashirin jamiyati, bu jamiyatning ma’rifat va islohot yo‘lida amalga oshirgan ishlari to‘g‘risida mufassal ma’lumot beriladi.

Uchinchi va to‘rtinchi bo‘limlarda asosan siyosiy voqealar – 1917-yil Rossiyadagi fevral inqilobidan so‘ng Buxoro yoshlarining

islohot uchun kurashlari, amir tomonidan 1917-yil 7-aprelda e'lon qilingan islohot farmoni, 8-aprelda taraqqiyparvar kuchlar tashkil etgan tinch namoyishning hukumat tomonidan bostirilishi, 1918-yilgi Kolesov voqealari va Buxoroda jadidlarga nisbatan ko'rilgan jazo choralari tafsilotlari bayon qilingan.

Matnshunos olim V.M.Istrin "matn tahriri"ni ta'riflab aytadi: "Tahrir deb adabiy yodgorlikning shunday qayta ishlanishiga aytiladiki, bunda u qandaydir ijtimoiy voqelik talabiga ko'ra yoki ko'pincha adabiy ehtiyojdan va kitobsevarning tab'idan kelib chiqib yoxud til sofligiga erishish niyatida aniq maqsadga qaratilgan holda amalga oshiriladi".⁵⁰

Xo'sh, matn tahririning mazkur ta'rifidan kelib chiqilsa, bugungi nashrlarda uchraydigan "Ollohyor" yoki "Allohyor" shakli tahrirning qaysi turiga mansub? Garchi izohlash biroq qiyinchiliklar tug'dirsa ham, bu so'z shaklida g'oyaviy tahrirga yo'l qo'yilgan, degan bo'lardik. Negaki, joriy yozuvimizda va og'zaki nutqda allaqachon "Olloyor" shaklida o'zbek tilining lug'at fondiga aylangan bu so'zni faqat asliyatdagi soflikni saqlashga urinish deb baholasak, boshqa bir muhim jihatni e'tibordan soqit qilgan bo'lamiz. "Olloh" (الله) lafzidagi "h" (ه) harfi asliy, ya'ni o'zak harflaridan biridir. Arabcha matnda "Olloh"dagi "h" tushib qolsa, ه shakli harakat – qisqa unilarning joylashishiga ko'ra turlicha o'qilib, turlicha (masalan: "emasmi", "ogoh bo'l, ey...", "magar" kabi) ma'nolarni ifodalashi mumkin. Tabiiyki, arab tilida "Olloh" lafzidan "h" harfining tushib qolishi qo'pol xato hisoblanib, ma'noning butunlay o'zgarishiga sabab bo'ladi. O'zbek tilida ham bu so'zning o'zi yolg'iz kelganida "h" harfi hech qachon tushib qoldirilmaydi. Ammo o'zbek tili talaffuziga o'zlashgan Olloyor, Ollobergan, Olloquli kabi qo'shma so'zlarda va oxiriga "ollo" lafzi qo'shilgan – Abdullo, Nasrullo, Samadullo kabi ismlarda "h"ning borligi yoki yo'qligi ma'noga ta'sir qilmaydi. Qolaversa, tilimizda ayni holatda "he" tovushining qo'llanishi talaffuzni qiyinlashtiradi. Shuning uchun bu "h" harfi yozuvda ham aks ettirilmagan. Agar – asliyat yozuvida mavjud bo'lgani uchun bu harf o'zbek yozuvida ham, bu tovush o'zbek nutqida ham aks etishi kerak – deyilsa, ona tilimiz kamsitilgan

⁵⁰Жабборов Н. Адабий манбаларда матн тахрири масаласи.//Мақолалар тўплами. Қарши, "Насаф" нашриёти, 2013, 6-бет.

bo'ladi. Yoxud ba'zilarning: "Olloh" lafzidan "h" tushib qolsa, (ھ) shaklidagi (ه) inkor yuklamasi "Olloh yo'q" degan ma'noga dalolat qilib qolishi mumkin" degan mutloq asossiz gumonlariga kelsak, bu "ehtiyotkorlik" avvalo, savodsizlik oqibatidir. Qolaversa, muayyan tilning talaffuz qoidalaridan kelib chiqqan mazkur holatni boshqa tildagi lisoniy hodisalarga qorishtirib, uni e'tiqodga daxldor masala deb qarashda nafaqat savodsizlik, balki kaltabinlik ham bor. Sog'lom aqida ko'r-ko'rona qo'rquv, gumon bilan emas, xolis ilm bilan barpo bo'ladi. Dunyodagi barcha xalqlar, qabila-elatlar o'ziga xos tili bilan yaratilgan. Ona tili, uning tabiati, barcha qonun-qoidalari har bir xalqning belgilab qo'yilgan daxlsiz huquqi. Bu haqqa tajovuz qilish haqiqatga qarshi borishdan boshqa narsa emas.

Arabcha izofali birikmalar imlosida ham tilimizda xilma-xilliklar kuzatilyapti.⁵¹ Bu muammoni bundan yarim asrlar oldin H.Hikmatullayev "Yozma yodgorliklarni yozish qoidalariga doir"⁵² maqolasida ko'tarib chiqqan edi. Sharqshunos olim mazkur maqolasida akademik I.Yu.Krachkovskiy va professor A.A.Romaskevich ishlab chiqqan transliteratsiya sistemasi asosida ayrim arabcha ifodalar, shaxs va asarlar nomining yozilishi bo'yicha konkret tavsiyalar bergan. O'nta paragrafdan iborat tavsiyalar majmuida H.Hikmatullayev Sharq adabiyoti yodgorliklarini nashrga tayyorlashda rus sharqshunoslari qo'llagan transliteratsiya qoidalarini o'zbek tiliga xos ba'zi mustasnolarni kiritgan holda bayon etgan. Maqolada tavsiya etilgan takliflarga umuman qo'shilgan holda, ularning ba'zilariga mavzuimiz nuqtayi nazaridan munosabat bildiramiz.

"Forscha izofa **iiyi** o'zidan oldingi so'zdan chiziqcha bilan ajratiladi (qalam-i man; xona-yi nav)... Arabcha aniqlikni bildiruvchi old qo'shimcha vaslalik bo'lsa, oldi va ortidagi so'zlardan defis bilan ajratiladi (masalan: fī-l-Qonun; _Z̄y-l-Qarnayn; Ab̄y-l-Qosim kabi)".⁵³

Fors va arab tilidagi izofali birikmalarning yasalish qoidalari kiril yozuvidagi ushbu transliteratsiyada ideal shaklda aks ettirilgan.

⁵¹ Бу фикрининг тасдиғи учун қўлланма охирида келтирилган адабиётлар рўйхатидаги изофали бирикмалуар имлосига назар солиш кифоя.

⁵² Ҳикматуллаев Х. Ёзма ёдгорликларни ёзиш қоидаларига доир/Ўзбек тили ва адабиёти журнали, №6, 1966, 11-15-бетлар.

⁵³Қўрсатилган манба. 15-бет.

Muayyan mutaxassislar doirasida istifoda qilinadigan ilmiy tadqiqotlarda bu transliteratsiyadan foydalanish mumkin. Ammo maqolada adabiy yodgorliklarning keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan ommabop nashrida ham bu qoidaning saqlanib qolishi to'g'risida gapirilganki, muallifning bu fikriga qo'shilib bo'lmaydi. Negaki, tilimizga o'zlashib ketgan *ro'yi zamin, jumlayi jahon, poyi qadam* kabi birikmalardagi **ijiyi** forscha izofa ko'rsatkichini chiziqcha bilan ajratish fors tiliga nisbatan to'g'ri bo'lar, lekin o'zbekcha matnga nisbatan bir talay noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, arabcha izofali birikmaning tavsiya qilingan shaklini ham ommabop nashrlarda foydalanish noo'rin. H.Hikmatullayev "Devonu lug'otit turk" nomi transkripsiya asosida yozilgan bo'lsa ham kamchilikdan xoli emas, deb hisoblaydi va aytadiki, "turk" so'ziga taalluqli bo'lgan "it" (to'g'rirog'i old qo'shimcha "al" vaslaklik bo'lgani uchun bu shaklda assilyatsiyaga yuz tutgan va undan keyingi shamsiya harfi "t" ikkilangan) "lug'ot" so'ziga qo'shib yozilgan. Aslida "it" ("al") old qo'shimchasi har ikki tomondan defis (-) bilan ajratilishi kerak, deydi.

Arabcha izofali birikmalarning rus sharqshunoslari tomonidan qo'llangan,⁵⁴ so'ngra o'zbek olimlari tomonidan qabul qilinib,⁵⁵ ba'zi ilmiy tadqiqotlarga joriy qilingan va asta-sekin ommaviy nashrlarda ham qoidaga aylanib qolayotgan bu shaklning tilimiz tabiatiga nomuvofiq bo'lgan bir nechta jihatlari bor.

Birinchidan, mazkur shakl orfografik jihatdan noqulay. Asliyat yozuvida tabiiy ravishda bitta tushunchani ifodalagan butun birikma (masalan: **محبوب القلوب**) o'zbek tilining kirill yozuviga muvofiqlashtirilgan alifbosida ajratuvchi ikkita kichik chiziqcha vositasida uch mustaqil bo'lakka bo'lib tashlangan: (mabubu); (l); (qulub).

Ikkinchidan, tavsiya qilinayotgan bu shakl fonetik jihatdan tilga og'ir. Asliyat talaffuzida ikki zarb (*mabubul // qulub*) o'qiladigan birikma tavsiya qilinayotgan shaklda uchta pauza bilan o'qishni taqozo qilyapti. Chunki chiziqchalar arab tilidagi izofa qoidasini

⁵⁴Каранг: "Правила подготовки к изданию памятников литературы Востока", М.: "Восточной литературы", 1959.

⁵⁵Рустамов А. Изофалар имлоси.//Ўқитувчилар газетаси, 1977. 30 январь.

yoʻzuvda aks ettirishi jihatidan maʼnoga ega. Ammo oʻzbek tili qoidalariga nisbatan olinsa, mazkur holda bu chiziqchalarning qoʻllanishi “yengil pauza”dan boshqa maʼnoga dalolat qilmaydi. Oʻzbek tili uchun maqsadsiz har xil belgilar orqali qilinadigan bunday talaffuz tilimiz tabiatiga yot.

9-rasm (slyayd taqdimoti uchun maxsus)



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz yetakchi olimlari bilan uchrashuvi, qator ilmiy-tadqiqot muassasalarini Fanlar akademiyasi tizimida qaytadan shakllantirish, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, chet ellarda malaka oshirish, xorijlik olimlar bilan hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan farmonlari fan taraqqiyoti, xususan, maʼnaviy merosimiz manbalari boʻlgan qoʻlyozma asarlarni tadqiq etishni yangi bosqichga olib chiqdi. Ayni chogʻda mazkur uchrashuv va hujjatlar olimlarning ruhiyatini koʻtarib yubordi. Yangicha gʻayrat bilan qoʻlyozma merosimizni har tomonlama tadqiq va tashviq etish boʻyicha tadbirlar tizimi ishlab chiqilmoqda.

Uchinchidan, oʻzlashayotgan soʻz oʻz qatlam leksikasiga moslashish uchun mezbon til qonuniyatlarini toʻla qabul qilishi, balki toʻla ravishda uning qoidalariga boʻysundirilishi shart. Oʻzlashma soʻzning imlo va talaffuzi oʻz leksika tarkibida noqulayliklar tugʻdiradigan murakkabliklardan xoli, imkon qadar sodda va ixcham boʻlishi lozim. Taʼkidlab aytamizki, tor doirada, muayyan ixtisoslikka oid ilmiy matnlarda nisbiy bir transkripsiyani ifodalash uchun bu shaklni qoʻllasa boʻlar. Ammo ommaviy tartibda bunday shaklning joriy etilishi tilimizning talaffuz tabiatini buzadi, har tomonlama qiyinchilik tugʻdiradi.

Chetdan kirib kelayotgan soʻz imlosini qabul qilishda chet tilning grammatik xususiyatlari emas, balki oʻsha soʻzning oʻqilishi va uni

o‘zbek tili talaffuziga moslashtirish e‘tiborga olinishi lozim. Aks holda, chet so‘z o‘zlashayotgan tilning emas, o‘zining lisoniy qonuniyatlariga qanchalik muvofiqlashtirilsa, uning “muhojir”ligi shunchalik davom etadi. Bunday harakat tabiiy jarayonni sun‘iy qiyinlashtirishdan boshqa narsa emas. H.Hikmatullayev “ikkinchi qismi “-olloh”, “-din”, “abd-” (masalan: *Abdulloh*, *Nuriddin*, *Abdurahmon*) so‘zlaridan yasalgan qo‘shma otlar qadimdan o‘zbek tiliga singib ketganligi va o‘zbek tilining lug‘at fondidan joy olganligi uchun, istisno tarzida, qanday qabul qilingan bo‘lsa, shunday yozamiz” der ekan, chet so‘zlarni o‘zlashtirishning eng to‘g‘ri prinsipini tilga olgan. Haqiqatan ham tilimizga o‘zlashayotgan so‘z toki qanday o‘qilsa, shunday yozilmas ekan, bu so‘zning tilimizga singib, o‘zbek tilining lug‘at fondidan joy olishi amri mahol.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Mavzu bo‘yicha qo‘shimcha nazariy ma‘lumot-material to‘plash. Amaliy mashg‘ulotda taqdimot qilishga hozirlanish. Mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg‘ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollar:

1. Sahobalar davrida Qur‘on uchta manba asosida tafsir qilingan bo‘lib, ular qaysilar?

- A) Qur‘oni Karim, Qobusnoma, sunnati nabaviy
- B) Qur‘oni Karim, Sunnati nabaviy, Avesto
- C) Sunnati nabaviy, Qobusnoma, Avesto
- D) Qur‘oni Karim, Sunnati nabaviy, Sahobalar so‘zlari

2. Musulmonlar safi kengayib, Islom chekka o‘lkalargacha yoyilgach, nechta tafsir maktabi vujudga keldi?

- A) 2 ta
- B) 3 ta
- C) 4 ta
- D) 5 ta

3. Islom dini yoyilgach, 3ta tafsir maktabi vujudga kelgan bo‘lib ular qaysilar?

- A)Makkai mukarram, Madinai munavvara, Iroq maktabi
- B)Makkai mukarram, Madinai munavvara, Hirot maktabi
- C)Makkai mukarram, Hirot, Iroq maktabi

D) Madinai munavvara, Iroq, Bag‘dod maktabi

4. Iroq maktabining ustози kim bo‘lgan?

A) Muhojид

B) Abu Oliya

C) Abdulloh ibn Ma’sud

D) Ubay ibn Ka’b

5. Tafsirning qaysi yo‘nalishida oyatlarning til xususiyatlari, xususan, so‘zlarning sintaktik bog‘lanishlari o‘rganiladi?

A) Aqliy

B) Fiqhiy

C) Lug‘aviy

D) Tarixiy

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

2. Yo‘ldoshev B. Frazеologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999.

3. Abdurahmanov H., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

4. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san’atlar. – Toshkent: TDPU, 2001.

5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

6. Yo‘ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish.–Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.

7. Sodiqov Q. Turkiy matn navislik tarixidan. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000. – B.131.

8. Abduljamilkotib. Tuhfatus-salotin. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2007. – B.7.

9. Hayitmetov A. AlisherNavoiynin gadabiy-tanqidiy qarashlari. –T.: Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959. – B.25.

10. Sirojiddinov Sh. Navoiy navosidan bahra olib... – Samarqand: Zarafshon, 1996. – B. 5–6.

10- MAVZU SHARH ILMI ILDIZLARI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad – “sharh ilmi ildizlari” nazariy ma'lumotlar asosida o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni mumtoz adabiyotimizga, millatimizga hurmat, kitobgamuhabbat ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mumtoz adabiy asarlarni o'qishga jalb etish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: dars uchun maxsus bukletlar, diqqatni jalb qiluvchi savollar – tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma'ruza (binar ma'ruza)

Darsning rejasi:

1. Tafsirlar sharq ilmining ildizi sifatida.
2. Mufasssirlar maktablari. Tafsirlarning tarmoqlanishi.
3. Hadislarga yozilgan sharh kitoblari. Turli fan sohasidagi sharh kitoblari.

***Tayanch so'z va asosiy tushunchalar:** Tafsirlar, sharq ilmi, ilmiy-tanqidiy matn, hadislarga yozilgan sharh kitoblari, turli fan sohasidagi sharh kitoblari, antik davr mutafakkirlari, ilmiy haqiqat, Qur'on sharhi, bayon qilmoq, tushuntirmoq, yoritmoq, izohlamoq; bo'laklab kesmoq, germenevtika.*

“Sharh” so'zi mashhur lug'atlarda – ochmoq; bayon qilmoq, tushuntirmoq, yoritmoq, izohlamoq; bo'laklab kesmoqma'nolarida qo'llanishi aytilgan.⁵⁶ تاج العروس (“Kelinning toji”) lug'atida “sharh” so'zining kengaytirmoq ma'nosi ham borligi shunday misol yordamida izohlangan: “Olloh – شرح الله صدره لقبول الخير... اى "وسعه" uning qalbini yaxshilikni qabul qilishi uchun ochdi.., ya'ni kengaytirdi”.⁵⁷

Demak mazkur ma'nolarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, *sharh ilmining* reallashuvi abstrakt zaminda kechib,

لسان العرب لمحمد بن مكرم بن منظور الاقرقى المصرى؛ مختار الصحاح لزين الدين الراضى؛ فقه اللغة للثعالبي⁵⁶
تاج العروس من جواهر القاموس للزبيدي. الجزء 1، الصفحة 645⁵⁷

atama sifatida bu birikma ma'noning yopiq tomonlarini ochish, qorong'i jihatlarini yoritish, qisqa ifodalarning ma'nolarini kengaytirib, yoyib izohlash kabi maqsadlar uchun xizmat qiladi.

Sharh ilmining paydo bo'lish makoni va zamoni, uning vujudga kelish sabablari, rivojlanish bosqichlari haqida so'z yuritir ekanmiz, bu jarayon tadqiqida asos vazifasini o'tagan ilmiy mezonni ta'kidlashimiz joiz.


Insoniyat tarixi turli soha olimlarining tadqiqotlari, kashfiyotlaridagi ma'lumotlar asosida davrlashtirilgan. Har bir fan sohasi o'zining muayyan xususiyatlaridan kelib chiqib, bu davrlarni har xil nomlar bilan atagan. Albatta, qo'yilgan nomlar fanning muammolari bilan bog'liqlikda, inson aqlining mahsuli bo'lgan mantiq asosida dalillangan. Gap, bu o'rinda, davrlashtirishning to'g'ri yoki noto'g'riligida emas. Har bir fan sohasi, u ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, aniq fan bo'ladimi, o'zining mavjudligini insoniyat tamadduni tarixiga qandaydir shaklda konkret munosabati bilan namoyon qiladi. Muhimi, mana shu konkret munosabatning aniqlik chegarasi qay darajada ekanligida.

Ilm tabiatan aniqlikni taqozo etadi. "Ilmiy haqiqat" deb taqdim etilayotgan xulosalar taxmindan qanchalik xoli bo'lsa, ilmiylik sifati shunchalik yuqori bo'ladi. Ya'ni, ilmiy haqiqat taxmin tugagan joydan boshlanadi. Shunday ekan, Sharh ilmi ildizini "antik davr mutafakkirlari" deb atalmish Suqrot, Aflotun, Arastu, Hiraqlid yoki Xitoy faylasuflari Konfutsiy, Lao Tszilarga nisbat berilgan so'zlar yoxud "Avesto", Vedalar, Upanshidalar, shuningdek, Rim notiqlik san'ati namoyondalari Sitseron, Mark Avreliy, Tatsit, Tit Liviylarning faoliyati bilangina bog'lab qo'yilsa, yuqorida ta'kidlangan ilmiylik mezoni buziladi.

Sharh ilmining fundamental asosi ilohiy kalom – Qur'oni karim nuzuli jarayonida shakllandi. Bu muqaddas Kitob qanday nozil bo'lgan bo'lsa, shundayligicha bitta harfi ham o'zgarmasdan saqlanib kelayotgani Payg'ambar zamonidan to bugungacha uzluksiz silsila bilan bog'langan tarixiy hujjatlarda to'la aks etgan. Tarixiy hujjatlarning ishonchliligi rad qilib bo'lmas ilmiy dalillar bilan isbotlangan. Har bir oyatning nozil bo'lish o'rni, vaqti, sababi insoniyat tarixida hayotining barcha jihatlarini eng kichik nuqtalarigacha to'la qayd etib borilgan yagona shaxs Muhammad

alayhissalomning hadislari orqali o‘ta aniqlik va butun tafsilotlari bilan o‘rganilgan.

10-rasm (slyad taqdimoti uchun maxsus)



Buyuk vatandoshimiz, muhaddislar imomi Muhammad ibn Ismoil Buxoriy 600 ming hadis to‘plagan. Hadislarni jamlashda to‘qson ming kishi huzurida bo‘lgan. Ushbu hadislar ichidan saralangan 7 mingdan ortiq sahih hadisini o‘n olti yilda yozib tugatgan mashhur الجامع الصحيح (“Sahih hadislar to‘plami”) kitobiga kiritgan. Savol tug‘iladi: nima uchun shuncha yillik mehnat bilan to‘plangan 600 ming hadis ichidan faqat 7 ming hadisgina kitobga kirdi?

Sababi, qonuniy ravishda Qur‘onning sharhi maqomida e’tirof etilgan manba – hadislar har qanday shubhadan, taxminlardan batamom xoli bo‘lsin. Zero, har bir fan sohasida qo‘yilgan bosh masalaning yechimlari Qur‘onda va hadislarda bevosita yoki bilvosita mavjud ekan, tafsir, hadis, aqida, fiqh, usuli fiqh, siyrat ilmi bilan shug‘ullanuvchi olimlar o‘rganilayotgan mavzularga nihoyatda mas’uliyat bilan yondashishga majburdir. Olimlar bu majburiyatni

muvaffaqiyat bilan uddalaganiga tarix guvoh. Jahon fani olamida erishilgan yutuqlarga nazar solib, 1400 yillik tarixga ega islomiy ilmlar ko'plab cho'qqilarni zabt etganini ko'rish mumkin. Tibbiyot, falakiyot, matematika, geometriya, fizika, kimyo qator fan sohaslarida Yevropa uchun inqilobiy taraqqiyot yo'llarini Sharq tafakkuri ochib bergani bugun ayon haqiqat. Ammo filologiya sohasida ham yutuqlar uchun sharoit Sharqdan boshlangani tor doiradagi mutaxassislar uchun ham ma'lum emas. Sharqda ijtimoiy-gumanitar fanlarning kelib chiqishi Qur'oni karim va uni o'rganish bilan bog'liq. Statistika sohasida qo'yilgan birinchi qadamlar ham ulug' Kitob matnini yig'ib, mushaf holiga keltirish jarayonida amalga oshdi. Qur'on avval surama-sura, oyatma-oyat yig'ib tartibga solingach, so'zlar soni, hatto harflar miqdorigacha aniq hisobga olingan. Yig'ilgan suralar matnlari va tartibini o'rganish hozirgi kunda matnshunoslik deb atalmish ilmning mukammal tamoyilini, dastavval, islom kelgan davrdayoq yuzaga chiqargan edi. Shu jarayonning o'zida bir guruh olimlar fonetika ilmiga asos solishdi. Sharqda bu ilm hanuzgacha *ilmi tajvid* nomi bilan atalmoqda. Ilmi tajvid olimlari Qur'oni karim matni asosida arab tili fonetikasini batafsil bayon qilib berganlar. Natijada, bu ilmni o'zlashtirgan yevropalik olimlar uchun ilmi tajvidda mavjud fonetik hodisalarni tushuntiruvchi qonuniyatlarni o'z tillariga tatbiq qilish va ularni o'zlariga tushunarli atamalar bilan nomlashdan iborat vazifagina qolgan. Leksikografiya va leksikologiyaning yevropadagi ravnaqi ham Qur'onni o'rganishdan orttirilgan bilim va tajribalarni o'zlashtirishdan boshlangan. Holbuki, lug'atlarga hozirgi kun nuqtayi nazaridan qo'yiladigan talablar arab leksikografiyasida bundan ming yil ilgari ham bor edi. Ya'ni, Qur'on uchun tuzilgan lug'atlar X asrdan boshlab izohli va ikki tilli lug'atlar uchun zamin yaratish bilan birga, hozirgi kunda, deyarli barcha tillarning lug'atlarini tuzish uchun zarur bo'lgan leksikografik usullarga asos bo'ldi.

Bu dalillarni keltirishimizdan maqsad, Qur'oni karimni ko'klarga ko'tarish va shu yo'l bilan uning qadrini oshirish emas. Zero, u insonning bunday yordamiga muhtoj ham emas. Balki aytmoqchimizki, barcha fanlar sohasidagi izlanishlar har qanday taxminu gipotezalardan mutloq xoli ekani ilm ahli tomonidan to'la tan olingan mustahkam ilmiy asosga qurilsagina, tom ma'noda haq qaror topadi. Ilohiy Kalom shunday ishonchli manba bo'lgani

uchun ham uning haqiqatidan ilhomlangan olimlar natijalar ketidan natijalarga erishdilar. Olamga, odamga munosabatda paydo bo'lgan sog'lom ilmiy mezon tufayli to bugungacha ulkan kashfiyotlar davri davom etmoqda.

11-rasm (slyayd taqdimoti uchun maxsus)



Xullas, mana shu ilmiy mezonga ko'ra sharh ilmining vujudga kelishi, shakllanishi, mustaqil ilm sifatida barqarorlashuvi hodisalarini Islomdan keyingi davr bazasida o'rganish maqsad qilindi.

Sh.Jabborov o'zining "Germenevtika – tushuntirish ilmi"⁵⁸ kitobida aytadi: "XVIII-XIX asrlarda nemis olimlari tomonidan fan sifatida tafakkur maydoniga tashlangan falsafiy germenevtika boshqa ko'rinishda azaldan Sharqda ham mavjud bo'lgan bilish, tushunish, sharhlash va izohlash bilan bog'liq ta'limotdir. Germenevtika metodi bilan G'arbda Injil matnlarini izohlaganlaridek, bizda ham Qur'oni karim oyatlarini tafsir va ta'vil qiladigan, hadisi sharif ma'nolarini izohlaydigan, mutafakkir ajdodlarimizning asarlarini sharhlaydigan

⁵⁸Жабборов Ш. Герменевтика – тушунтириш илми. Т.: Akademiya, 2010, - Б. -154.

mufasssirlar, muhaddislar, faqihlar ilmi azaldan shakllanib, rivojlanib kelgan”.⁵⁹

Haqiqatan ham sharh ilmining ildizlari qadim tafsirlarga borib taqaladi. “Tafsir” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi – *izohlash, sharhlash, bayon va tafsil*. القاموس المحيط (“Qamrovchi qomus”) lug‘ati muallifi Feruz Obodiyning aytishicha, *tafsir* – so‘zdagi chigallikni yechishdan ko‘zlangan maqsadni ochish. Abu Hibbon Naxviy *tafsir*ning istilohiy ma‘nosini shunday ta‘riflaydi: “*Tafsir* Qur‘on lafzlari, lafzlarning yolg‘iz va jumla tarkibidagi hukmlari va ma‘nolari orqali nutqning kayfiyati haqida bahs yurituvchi ilmdir”.⁶⁰

Manbalarda tafsir so‘zining ma‘nodoshi sifatida *ta‘vil* (تأويل) so‘zi ham qo‘llangan. *Ta‘vil* so‘zining lug‘aviy ma‘nosi – *qaytish*, istilohiy ma‘nosi – gapni sharhlash, ma‘nolarini bayon qilish. Muavvil – gapni ehtimol qilingan ma‘nolardan biriga qaytaruvchi.

Qur‘oni karim arab tilida nozil bo‘lgani uchun Payg‘ambar alayhissalomning zamondosh izdoshlari – sahobalar oyatlarning umumiy jihatlari va hukmlarni to‘la anglar, ammo Qur‘onning xos va nozik tomonlarini fahmlashda farqlanardilar. Chunki, so‘zlarning ma‘nosi, oyatlarning nozil bo‘lish sabablarini barcha sahobalar bir xil bilmas edi. Shuning uchun ham fahmlari yetmagan o‘rinlarda Payg‘ambar alayhissalomga murojaat qilishar, Rasuli akram ularga bu oyatlarni tafsir qilib berardi.

Muhammad alayhissalom vafotidan so‘ng ayrim sahobalar Rasuli akramdan eshitganlariga muvofiq oyatlarni sharhladilar, hatto tafsirlari bilan tanildilar. Suyutiy o‘zining "الاتقان" (“Mukammallik”) kitobida ulardan bir nechtasini sanaydi: Abu Bakr, Umar, Usmon, Aliy, Ibn Mas‘ud, Ubay ibn Ka‘b, Zayd ibn Sobit, Abu Muso Ash‘ariy, Abdulloh ibn Zubayr roziyallohu anhum.

Sahobalar davrida Qur‘on uchta manba asosida tafsir qilindi:

- 1) Qur‘oni karim;
- 2) sunnati nabaviy;
- 3) sahobalar so‘zlari.

Dastlabki tafsirlarda Qur‘on Qur‘on bilan sharhlandi. Ya‘ni, Qur‘onda bir oyatda qisqaroq ifodalangan mavzu boshqa o‘rinda kengroq izohlangan holatlar mavjud. Mufasssirlar bir oyatda lo‘nda

⁵⁹ Кўрсатилган манба. 4-бет.

⁶⁰ البحر المحيط ص.15 ابو حيان النحوى (ت754هجري)

berilgan mavzu yoki hukmni boshqa oyatda kelgan ayni mavzu yoki hukmning kengroq tafsiloti orqali tafsir qilishgan. Mufasssirlkda bunday tafsir yo‘lining qimmati baland sanalgan.

Payg‘ambar alayhissalom Qur‘on oyatlarini lozim o‘rinlarda sahobalarga izohlab tushuntirgan. Bu holat ba‘zan sahobalarning savollari, ba‘zan Payg‘ambarning ixtiyori bilan amalga oshgan. Qur‘on mana shunday hadislar orqali ham tafsir qilingan va tafsirning bu turi – التفسير بالمأثور – “Payg‘ambar alayhissalomdan qolgan izlar, ya‘ni hadislar bilan tafsir qilish” deb atalgan.

Sahobalar ba‘zi oyatlar tafsirini Qur‘ondan ham, hadislardan ham topolmaganlarida o‘z ijtiudlari, qarashlaridan kelib chiqib tafsir qilishgan. Bunday qilishlariga sabab, ular Qur‘onning nozil bo‘lish sabablariga guvoh, shuningdek, arablarning odatlaridan, arab tilining nozik jihatlaridan xabardor bo‘lishgan.

Musulmonlar safi kengayib, Islom chekka o‘lkalargacha yoyilgach, uchta tafsir maktabi shakllangan:

1. Makkayi mukarrama maktabi. Ustozi – ulug‘ sahobiy Abdulloh ibn Abbos va shogirdlari Sayid ibn Jubayr, Mujohid, Ikrima...

2. Madinayi munavvara maktabi. Ustozi – sahobiy Ubay ibn Ka‘b va shogirdlari Zayd ibn Aslam, Abu Oliya, Muhammad ibn Ka‘b Quroziy...

3. Iroq maktabi. Ustozi – sahobiy Abdulloh ibn Mas‘ud va shogirdlari Alqama, Masruq, Asvad, Murra, Omir, Hasan, Qatoda...

Bu davrda sahobalardan keyingi avlod – tobe‘inlarning so‘zlari ham tafsirlarga qo‘shildi. Hijratning ikkinchi yuz yilligi (IX asr) boshidan musulmonlar o‘z ilmlarini yozib, qayd qilib borishga kirishishdi. Avvalida tafsirlar hadislarining bir bobi sifatida kitoblarga kirdi. Keyinchalik ular hadislardan ajratilib, tafsirlar alohida ta‘lif qilina boshladi. Sura va oyatlar sharhini o‘z ichiga olgan avvalgi tafsirlardan Kisoiy (vaf. 189/805), Al-Farro (vaf.207/823), Ibn Moja (vaf. 273/887), Ibn Jarir Tabariy (vaf.310/923), Ibn Munzir Naysaburiy (vaf. 318/930), Hotim (vaf.327/939) tafsirlarini misol keltirish mumkin. Bu tafsirlar oyatlarda uchrovchi nodir so‘zlar izohi, oyatlar bilan bog‘liq hadislar, sahoba va tobeinlarning ba‘zi oyatlar xususidagi so‘zlarini o‘z ichiga olgan.

Keyinchalik ilmlar turlarga bo‘lina boshlagach, turli xil qarashlar, farqli aqidalar yuzaga keldi. Har ilm sohasi tafsirga o‘z mavqifidan yondashar ekan, natijada Qur’oni karim iboralari bo‘yicha ilmiy istilohlar, mazhabiy aqidalar, tafsir madaniyati va falsafasi paydo bo‘ldi. Muayyan fanning mohir ustalari fan mohiyati va mahoratidan kelib chiqib, Qur’on tafsiriga mashg‘ul bo‘lishdi. Pirovardida, tafsir yo‘llari yo‘nalishiga ko‘ra bir necha navlarga ajraldi:

- lug‘aviy tafsirlar;
- aqliy tafsirlar;
- fiqhiy tafsirlar;
- tarixiy tafsirlar;
- firqalar tafsiri;
- mutasavviflar tafsirlari.

Lug‘aviy tafsirlarda oyatlarning til xususiyatlari, xususan, so‘zlarning sintaktik bog‘lanishlari o‘rganilgan. Bunga Vohidiyning “البسيط” (“Sodda sharh”), Abu Hayyanning “البحر المحيط” (“Qamrovli ummon”) tafsirlarini misol qilish mumkin.

Aqliy tafsirlarda donishmandlar va faylasuflarning so‘zlariga e‘tibor qaratilgan, ularning shubhalariga raddiyalar berilgan. Faxr Roziyning “مفاتيح الغيب” (“G‘ayb ochqichlari”) asari shunday tafsirlar jumlasidandir.

Fiqhiy tafsir turida fiqhiy hukmlarning dalillari keltirilgan. Mufassir o‘z mazhabiga muvofiq ravishda fiqhiy masalalarni hal qilgan, dalillarining kuchliligi boshqa mazhab dalillariga qiyosan isbotlangan. Hanafiy mazhabidagi Al-Jassosning “احكام القرآن” (“Qur’on hukmlari”), Molikiy mazhabidagi Qurtubiyning “الجامع الاحكام القرآن” (“Qur’on hukmlarini jamlovchi”) asarlari fiqhiy tafsirga misol bo‘ladi.

Tarixiy tafsirlarda qissalar, qadimda o‘tgan qavmlarning tarixi kengroq sharhlangan. Saolibiyning “الخازن” (“Saqlovchi”) asarini tarixiy tafsir deyish mumkin.

Turli firqa va aqida egalariga oid tafsirlarda har bir firqa o‘z aqidasi ga ko‘ra Ollahning kalomini tafsir qilishgan. Rummoniy, Jabboiy, Qozi Abdujabbor, Zamaxshariy tafsirlari bunga misol bo‘ladi.

Tasavvufga oid tafsirlarda *targ‘ib* (jannatga rag‘batlantirish) va *tarhib* (do‘zaxdan qo‘rqitish, ogohlantirish) masalalariga, oyatlardan

botiniy sirlar, ramziy ishoralar chiqarishga diqqat qilingan. Bu navga Ibn Arabiy va Abu Abdurahmon Sullamiy tafsirlarini kiritish mumkin.

Vaqt o'tishi bilan ilohiy Kalomni tushunish yo'lida orttirilgan boy tajriba inson aqliy mehnati mahsuli bo'lgan manbalarga nisbatan ham qo'llana bordi. Ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, aniq fanlarga oid ayrim asarlarga sharhlar yozila boshladi. Sharh ilmi shu darajada rivojlandiki, bitta kitob matniga o'nlab jildli sharhlar bitildi, sharhlarga sharhlar yozildi.

Masalan, mo'tabarlikda Qur'ondan keyin turuvchi manba – "عمدة القارى" ("Sahih hadislar to'plami") asariga "شرح صحيح" ("Qur'on tayanchi") va "فتح البارى" ("Yaratuvchi kashfi"), "شرح صحيح البخارى" ("Buxoriyning "Sahih'i sharhi") nomli mashhur sharhlar dunyoga keldi. "سنن نسائى" ("Muslim sahihi"), "صحیح المسلم" ("Nasoiy sunanlari"), "سنن ابن ماجة" ("Ibn Moja sunanlari") kabi hadislar to'plamlariga ham ishonchli sharhlar bitildi.

Alouddin Samarqandiyning uch juzli "تحفة الفقهاء" ("Faqihlarga tuhfa") asariga Alouddin Abu Bakr ibn Mas'ud ibn Ahmad al-Kosoniyning o'n juzdan iborat "بدائع الصنائع فى ترتيب الشرائع" ("Shariat qonunini tartiblashda go'zal san'atlar") sharhi, Hafizuddin Nasafiyning "البحر الرائق شرح كنز الدقائق" ("Inja xazinalar" sharhining tiniq dengizi") asari, Imom Burhoniddin Marg'oniyning "الهداية" ("To'g'ri yo'lga yo'llanma") kitobiga Mahmud ibn Ubaydullohning "وقاية الرواية فى مسائل الهداية" ("Hidoya" masalalaridagi qarashlar muhofazasi") sharhi va ayni sharhga sharh Ubaydulloh ibn Mas'udning "وقاية الرواية" ("Qarashlar muhofazasi") asari ham hanafiy mazhabi bo'yicha yozilgan mashhur sharhlar jumlasiga kiradi. "وقاية" ("Qarashlar muhofazasi") sharhi diyorimizda "مختصر الوقاية" nomi bilan tanilgan bo'lib, madrasalarda asosiy fihiy darsliklardan biri sifatida o'qitilgan.

Najmuddin Umar ibn Ali Qazviniyning "الشمسية" ("Shamsiya") asariga Qutbiddin Roziy Tahtoniyning "تحرير القواعد المنطقية فى شرح" ("Shamsiya" sharhidagi mantiqiy qoidalar tahriri") sharhi, Sa'duddin Taftazoniyning "السعدية" ("Sa'diya") sharhi, "مزان المنطق" ("Mantiq o'lchovi") asariga Abdulloh ibn Haddod Usmoniyning "بديع" ("Go'zal mezon") kitoblari VIII-XIV asrlarda mantiq ilmi bo'yicha qilingan sharhlarga misol bo'ladi.

Tilshunoslik sohasida Ibn Hojibning "الكافية" ("Kifoya qilguvchi") asariga Abdurahmon Jomiyning "فوائد الضيائية" ("Ziyovuddinning foydalari"⁶¹), Roziyuddin Astrobodyning "شرح الراضى على الكافية" ("Kofiya" kitobiga Roziy sharhi") sharhlari, Ibn Hishomning "شرح" "شذور الذهب" ("Sochilgan zar" kitobiga sharh"), Hasan Hifziyning "شرح الاجرومية" ("Ujrumiyya sharhi") Bahouddin Abdulloh ibn Uqayliyning "شرح ابن عقيل" ("Ibn Uqayl sharhi") asarlari, fashohat va balog'at ilmi bo'yicha Sakokiyning "مفتاح العلوم" ("Imlar kaliti") asariga "معاهد التلخيص على شواهد التلخيص" ("Talxis" dalillariga iqtibos o'rirlari), Jaloliddin Qazviniyning "الايضاح فى علوم البلاغة" ("Balog'at ilmlariga izoh"), "تلخيص المفتاح" ("Imlar kaliti" asarining qisqa sharhi), "مختصر المعانى" ("Ma'nolarning muxtasar bayoni") nomli sharhlar ham mustaqil asar sifatidagi manbalardan hisoblanadi.

Shuningdek, Jaloliddin Rumiyning mashhur "Masnaviy ma'naviy" kitobi Sulton Valad, Ahmad Aflokiy, Faridun Sipahsolor, Sham'iy, Sarvariy, Shibliy No'moniylar tomonidan sharhlangan. Hofiz Sheroziy devoniga ham bir necha sharhlar yozilgan. Bular ichida eng e'tiborli sharh XVI asrda yashab o'tgan turk olimi Sudiy Basnaviy qalamiga mansubdir. Adabiyotshunos olim N.Komilovning xabar berishicha, Sudiy Hofiz devonidan tashqari, Shayx Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston" asarlarini hamda Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy ma'naviy" sini turk tilida sharhlagan. Sudiy sharhlari butun Sharq mamlakatlariga tarqalgan. O'zbek ziyolilari ham lug'atlar tuzish, tarjima jarayonida Sudiy sharhlaridan foydalanganlar. Chunonchi, Sa'diy asarini "Shavqi Guliston"⁶² nomi bilan o'zbek tiliga o'g'irgan Murodxo'ja ibn Solihxo'ja hoshiya sharhida Sudiya suyanadi va unga havolalar qiladi.⁶³

Sharqda sharh ilmi mana shunday tadrjijiylikda tarmoqlanib shakllangan. Har tarmoq o'zi o'rganayotgan matnga spetsifik yondashgan bo'lsa-da, barcha turdagi sharhlar uchun umumiy,

⁶¹ Arab tili grammatikasiga baqishlangan bu sharhni Abdurahmon Jomiy ugli Ziyovuddinga kulldanma sifati da e'zgan. Markaziy Osiyda bu sharh "Sharhi Mulllo Jomiy" nomi bilan mashhur.

⁶² Bu asar 2005 yil "Fan" nashriyeta da chop qilindi. (Nashrga tay'irlovchi: Sayfidin Sayfullloh)

⁶³ Komilov N. Bu kadimiy san'at... T.: Fa'fur Fulom nomi da gi adabiyet va san'at nashriyati, 1987, 182-bet.

tarmoqlararo barqaror qonuniyatlar mavjud edi. Ularni shunday tasnif qilish mumkin:

1) *matn qismlarga ajratilgan* (masalan, tafsirda – bitta oyat yoki bir nechta oyatlar; hadis sharhida – farqlanuvchi rivoyatlar; nazmda – baytlar, misralar; nasriy asarlarda – umumiy mazmun silsilasidagi mikromatn yoki propozitsiya xalqasi; ilmiy manbalarda – tushunchalarning tizimli tasnifi);

2) *qismning butunga munosabati aniqlangan* (turli suralarga sochilgan, bitta voqelikka aloqador oyatlarni yolgʻiz oyat tafsirida jamlash; hadisning har xil rivoyatlarini bitta hukmda markazlashtirish; baytlar aro bogʻlanishlarni umumiy yaxlitlikda tadqiq etish; propozitsiyalardan makropropozitsiya hosil qilish);

matnga til tizimidagi hodisa sifatida qaralgan (matndagi ayrim soʻzlarning fonetik tuzilishidan tortib, gapdagi morfologik, sintaktik vazifalarigacha, lugʻaviy, istilohiy, majoziy maʼnolari-yu, etimologiyasigacha, hatto matnning psixolingvistik xususiyatlarigacha izohlangan).

Mashgʻulot davomida reja asosida yangi mavzuga tayyorlanib kelgan talaba quyidagi maʼlumotlarni taqdim qiladi

* * *

Mavlono Jaloliddin Rumiyning ulugʻvor asari – “Masnaviyi maʼnaviy”sidan olingan shohbaytlarga taniqli shoir va tarjimon Sayyid Neʼmatulloh Ibrohim tomonidan bitilgan nazmiy sharhlarini mutolaa qilishingiz mumkin.

RUMIYONA

**“Masnaviyi maʼnaviy”dan olingan shohbaytlarga Sayyid
Neʼmatulloh Ibrohimning nazmiy sharhlari**

“Har kiro joma zi ishqe chok shud,
Oʻzi hirsu jumla aybe pok shud.”
Ishq bandi ichra qulmen, bastamen,
Ishqdin sohibnazar, barjastamen.
Jomim ichra toʻldiribdir bodani,
Shoh qilmish men kabi aftodani.
Qoʻl choʻzur nur arshidin mahfil menga,
Ikki olam xushhavo manzil menga.

Ko‘kragimda undi dilxun lolalar,
Orzuga do‘ndi dilso‘z nolalar.
Hajrida, mayliga, ming bor dod etay,
Dod ila ishq xayli ko‘nglin shod etay.
Ikki olam ichra Sen – ey bor Xudo,
Bandani bu baxtidin qilma judo!
Tiyra xokimni *saropo*⁶⁴ nur qil,
O‘z tajalling bahrida mastur qil!
“Kimni gar Ishqdin yaqosi bo‘lsa chok,
Barcha hirsu, barcha aybdin bo‘ldi pok.”

1993 – 2001-yy.

Mavlono Soniy Yormuhammad ibn Pirmuhammad Toshkandiy o‘z davrining mashhur shoiri edi. Manbalarga ko‘ra, u she‘r yozishdagi murakkab janr hisoblangan “muammo” vaznida yetuk bo‘lgan. Fors tilida bu vaznda ijod qilganlar ichida Abdurahmon Jomiy yetakchi hisoblangan bo‘lsa, undan so‘ng Yormuhammad Toshkandiy tan olingan. Unga “Soniy” nisbati berilishi ham ayni shu boisdandir. Alisher Navoiyning iltimosiga binoan, Yormuhammad Toshkandiy Mirhusayn ibn Muhammad Sheroziyning muammosiga sharh yozgan. U o‘z ijodining dastlabki davrlarida Hirotda yashab, keyinchalik Toshkentda qo‘nim topgan. Shuningdek Yormuhammad Toshkandiy tomonidan “Abdurahmon Jomiy muammosiga sharh”, “Mavlono Shahob muammosiga sharh”, “Qirq hadisga sharhlar” va boshqa asarlari yozilgan.

XVI asrning mashhur shoiri, xattoti va tabibi Boqiy Toshkandiy faoliyatini alohida ta’kidlash joiz. U ilm-fan homiysi sifatida ham mashhur bo‘lgan. Boqiy Toshkandiy mohir xattot sifatida bir qancha kitoblarni ko‘chirgan. Shoir va adabiyotshunos Xoja Hasan Nisoriy “Muzakkir al-ahbob” (“Do‘stlar qaydnomasi”) kitobida shunday yozadi: “Mavlono Boqiy turkiy tilda ijod qiluvchi shoirlardan sanaladi. U o‘z ijodining ayni shu jihati bilan shuhrat qozongan”. O‘z davrining olimi va ziyolisi sifatida Jamil Mirak Toshkandiy (XVI–XVII) ham taniqli bo‘lgan. Zamondoshlari uni iste’dodli shoir va hattot deb bilishgan. Uning she‘rlari Mutribiyning “Tazkirat ash-

⁶⁴ *Saropo – boshdan-oyoq.*

shuaro” asariga kiritilgan. Uning gʻazallari uslubi va shakli jihatidan aniq, ravon va mukammal boʻlgan.

XVII–XVIII asr shoirlari ichida asli ismi Shohakim boʻlgan Xolis Toshkandiy oʻzining dostonlari bilan ajralib turadi. Uning ijodkorlik salohiyati “Yusuf va Zulayho”, “Iskandarnoma”, “Vafotnoma”, “Ayyub paygʻambar qissasi” va boshqa asarlarida oʻz aksini topgan. Uning dostonlari keng kitobxonlar ommasi uchun tushunarli va ravon sodda xalq tilida yozilgan. Xolis Toshkandiy nafaqat shoir, balki yetuk tarjimon sifatida ham shuhrat qozongan boʻlib, Mirza Sodiq Munshiy Jondorning “Shahanshohlar dahmasi” asarini hamda xalq dostoni hisoblangan “Zevarshoh haqida qissa”ni fors tilidan turkiyga oʻgʻirgan. Toshkentda tugʻilib, umrining koʻp qismini shu yerda oʻtkazgan shoirlardan yana biri Badriddin Chochiydir. Uning gʻazallari, qasidaları va ruboiylari koʻplab sharq mamlakatlarida maʼlum va mashhur boʻlgan. U umrining soʻnggi yillarini Hindistonda oʻtkazgan. Ijtimoiy hayotdagi ahamiyati uning “Faxr az-Zamon” nomini olishiga sabab boʻldi.

Taniqli muarrix, 1810-yilda Shayxontahur dahasining “Qoryogʻdi” mahallasida tugʻilgan Muhammad Solihhoʻja Toshkandiy ham shu davrda yashab ijod etgan. Uning “Tarixi jadidai Toshkand” asari Toshkent tarixi boʻyicha muhim manba hisoblanadi. Toshkent adabiy muhiti vakillaridan yana biri Shoxoja Hakim ibn Sharifxoja – Shohiy Toshkandiydir. Toshkentning “Oqmachit” mahallasida tugʻilgan bu kishi xalq orasida shoir, olim, tabib va ilgʻor qarashlarga ega ziyoli sifatida tanilgan. Shohiy Toshkandiy Yunusxon madrasasida mudarrislik qilgan. Shu bilan birga Sharqning qator mamlakatlari, jumladan, Turkiya, Suriya, Misr, Iroq, Saudiya Arabistoni va boshqa joylarni kezib chiqqan.

Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyatning barcha sohalarida rivojlanish jarayonlari yuz bergan. Oʻz navbatida, Toshkent ham ilm-fan, madaniyat, maʼrifat va adabiyotning umumiy yuksalishiga oʻz hissasini qoʻshgan. XV–XIX asrlarda faoliyat koʻrsatgan olimlar, muarrixlar, tabiblar, xattotlar, shoirlar va boshqa ziyoli maʼrifatparvarlar hayoti, faoliyati, ilmiy merosiga doir maʼlumotlarni tarixiy izchillik asosida oʻrganib chiqilganda Shosh zamini barcha davrlarda jahon ilm-fani va madaniyati xazinasiga juda koʻplab olimu fozil zotlarni yetkazib berganing guvohi boʻlamiz. Toshkent madaniyati tarixida oʻchmas iz qoldirgan

siymolar – Toshkent xattotlaridir. Chunonchi, buyuk mutafakkir Alloma Taftazoniy (1322–1390) ning shogirdi Jamshid Shoshiy (XIV asr) 1358-yilda Mahmud Zamaxshariyning “Kashshof” asarini nasx xati bilan ko‘chirgan. Hozir bu nodir qo‘lyozma O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Abduvadud Kotib nomi bilan mashhur Abduvadud ibn Xoja Abdulvasi’ Shoshiy (XIV–XV asrlar) taniqli olim Abdulloh Xatib Tabriziyning “Mushkot al-masobih” asarini nasx xati bilan ko‘chirgan.

Sharh ilmining fundamental asosi ilohiy kalom – Qur’oni karim nuzuli jarayonida shakllandi. Qur’on (arab. القرآن o‘qimoq qiroat qilmoq) –musulmonlarning asosiy muqaddas kitobi. Islom e’tiqodiga ko‘ra, Qur’on vahiy orqali Muhammad payg‘ambarga 610–632-yillar davomida nozil qilingan Allohning kalomi (Kalomulloh). Qur’on “Kitob“ (yozuv), “Furqon” (haq bilan botilning orasini ayiruvchi), “Zikr” (eslatma), “Tanzil” (nozil qilingan) kabi nomlar bilan atalib, “Nur” (yorug‘lik), “Hudo” (hidoyat), “Muborak” (barakatli), “Mubin” (ochiq-ravshan), “Bushro” (xushxabar), “Aziz” (e‘zozlanuvchi), “Majid” (ulug‘), “Bashir” (bashorat beruvchi), “Nazir” (ogohlantiruvchi) kabi so‘zlar bilan sifatlangan. Islom olamida Qur’on mus’haf nomi bilan ham mashhur. Islom ulamolari Qur’onning 30 xil nom va sifatlarini sanab o‘tganlar.

Islom tarixiga oid manbalarda keltirilishicha, Qur’on nozil bo‘lishi milodiy 610-yil boshlangan. Muhammad payg‘ambar 40 yoshda Makka shahri yaqinidagi Hiro g‘orida chuqur tafakkurga berilib o‘tirgan bir paytda Jabroil farishta “Iqro” (“O‘qi”) deb boshlanuvchi “Alaq” surasining avvalgi 5 oyatini keltirdi. Bu jarayon Makkada 13 yil, Madinada 10 yil, hammasi bo‘lib 23 yil davom etgan. Qur’onning nozil qilinishi islom aqidasi bo‘yicha ramazon oyining 27-kuniga o‘tar kechasi yuz bergan. Shuning uchun ham bu oy muqaddas hisoblanib, ro‘za tutilgan kunning 27-kechasi laylatul-qadr, ya’ni qadrli, ilohiy qudrat namoyon bo‘ladigan, bandalarning bir yillik taqdiri hal qilinadigan (qadr – taqdir, o‘lchov) tabarruk kecha deb ulug‘lanadi.

Qur’on sura va oyatlarining nozil bo‘lish tartibi voqealarning rivojiga qarab davom etgan. Ilk islom davrida nozil bo‘lgan suralar,

asosan, Allohning yagonaligi, borliqning mutlaq ilohi, dunyodagi barcha narsalar uning borligidan darak beruvchi dalil ekani, islom ta'limotida belgilangan aqidaviy tushunchalar – farishtalar, payg'ambarlar, muqaddas kitoblar, oxirat, jannat va do'zaxning haqligi to'g'risida edi. Payg'ambar va musulmonlarga og'ir kelgan Makka davrida sabr-bardoshga chaqiruvchi, din yo'lida chekilgan mashaqqatlar uchun ulug' ajru mukofotlar borligi haqidagi oyatlar nozil etilgan bo'lsa, musulmonlar jamoasi shakl-langani Madinadavriga diniy marosim va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga bag'ishlangan oyatlar to'g'ri keladi. Payg'ambarga diniy masalalar bo'yicha berilgan savollarga u vahiy orqali nozil qilingan oyatlar bilan javob berar edi.

Qur'onning bo'limlari sura deyiladi, uni shartli ravishda bob bilan taqqoslash mumkin. Har sura oyatlarga bo'lingan. Qur'on 114 sura, 6236 oyatdan iborat. Har bir suraning o'z nomi bor. Oyatlar esa tartib raqami bilan berilgan. Suralarning nomlari uning boshida kelgan so'zdan olingan yoki zikri ko'proq kelgan narsalar, voqealar yohud asosiy qahramon nomi bilan atalgan. Keyinchalik o'qish va yodlash oson bo'lishi uchun Iroq hokimi Hajjoj ibn Yusuf (hukmronlik yillari 694–714) ko'rsatmasiga binoan Qur'on 30 qism (arab.juz, fors. pora)ga bo'lingan. Qur'onda birinchi kelgan "Fotiha" surasidan keyingi suralar katta, o'rtacha va kichik suralar tartibida joylashgan. 2-Baqara surasi 286 oyatdan, eng qisqa Kavsar surasi 3 oyatdan iborat. Eng qisqa oyatlar "Toho" va "Yosin", eng uzun oyat "Baqara" surasining 282-oyatidir. Suralar nozil bo'lish vaqti va joyiga ko'ra 2 ga: hijradan oldin nozil bo'lgan suralar – "Makka suralari" (610–622 yillar, 90 sura) va hijradan keyin nozil bo'lgan suralar – "Madina suralari" (622-yildan, 24 sura) ga ajratiladi. Qur'on matnining ko'p qismi Alloh bilan so'zlashish, islom dushmanlari yoki undan ikkilanuvchilar bilan munozara qilish shaklida berilgan.

Jaloliddin Rumiyning "Ma'naviy Masnaviy" asari yetti asr mobaynida g'arbu-sharq olimlari o'rtasida turli bahsu munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Jahon mutafakkirlari tomonidan Rumiya bashariyat shoiri deb tasnif berilishi, uning "Masnaviy" asari esa Qur'ondan keyin turuvchi kitob, tasavvuf qomusi, ma'naviyat dengizi yoki dunyo kitobi deb

baholanishiyiq bu asarning qadri va nufuzi nechog'ligidan dalolatdir.

Sobiq Sovet davrida mistik shoir deb qoralangan va o'rganilmagan Jaloliddin Rumiylarning ijodiga, xususan uning "Ma'naviy masnaviy" asariga bugun O'zbekistonda jiddiy munosabat shakllanmoqda. Masnaviyning she'riy va sharhiy tarjimasi ham nashrdan chiqqan.

Rumiylarning she'riyati sharq she'riyatining eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Rumiylarga o'xshab inson qalbini tadqiq qilgan, inson ruhiyati, insonning ma'naviy kuchini she'riyatda ifodalagan shoir g'arbu-sharqda kam topilishini aytishadi mutaxassislar. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul: *"Rumiylarning she'riyatining o'ziga xos bir jihati shundan iboratki, siz birinchi navbatda o'zingizda insonga ishonchni mustahkamlaysiz. Va insonning ilohiyligini Rumiylarning judayam teran tarzda ochib beradi. Rumiylarning she'riyatining quyoshi – Ishq. Insonni bir haqiqat, yoki insonni bir Ishq atrofida birlashtirish bo'lsa agar, Rumiylarning she'riyati shu ishqni amalga oshira oladi. Biz aytamiz, komil inson bo'lish uchun tasavvufni bilish kerak, dinni bilish kerak, falsafani bilish kerak, tarixni va hokazo. Shularni hammasini Rumiylarning o'z ijodida sintezlashtirgan. Insonni Rumiylarning she'riyati adashishlardan, yuzakiliklardan, sayozliklardan, har turli mahdudliklardan xalos qiladi. Shu uchun bu qancha tarixiy she'riyat bo'sa, xuddi shuncha zamonaviy she'riyat."*

Jahon madaniyatidagi eng buyuk yodgorliklardan biri hisoblangan Jaloliddin Rumiylarning "Ma'naviy masnaviy" kulliyoti to'liq 6 daftardan, aniqrog'i 54 ming misradan iborat bo'lib, u mavlono tomonidan 10 yil mobaynida yozib tugatilgan.


Xo'sh, Rumiylarning "Masnaviy"ida nima ifodalanganki, yetti asrdan ortiq vaqt o'tsa ham, u haqdagi mulohazayu munozaralar hamon tugallanmay davom etmoqda?

*"Man bandayi Qur'onam agar jon doram,
Man xoki rahi Muhammadi muxtoram.
Gar naql kunad juz in kas az guftoram,
Bezoram a'zo, va zin suxan bezoram"*

U kishi aytadilarki: "Masnaviyi mo do'koni vahdat ast, g'ayri vohid har chi bini on bat ast" degan. Masalan, "Bizning Masnaviyimiz bu vahdat do'koni, agar sen shu do'konda vahdatdan

boshqa narsani ko'rsang, bilginki u butparastlikdir. Demak, bu do'konda vahdatdan boshqa hech narsa yo'q.

12-rasm (slyad taqdimoti uchun maxsus)



Ya'ni, “*Masnaviy*” boshdan-oyoq xudoning yagonaligi va iymon masalalarini atroflicha inkishof etadi, kashf etadi. U qaysi rivoyatga murojaat qilmasin, vahdat g'oyasiga kelib taqaladi. Uning nazarida “*Masnaviy*”ning o'zak masalasi – iymon masalasi”, – deydi shoir Asqar Mahkam.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida, jumladan, Eron, Turkiya, Pokistonu Hindistonda masnaviyshunoslik maktablari mavjud. Sho'ro inqilobigacha bo'lgan O'zbekiston hududida ham masnaviyshunoslik keng rivojlangani, *Rumiyning bu kitobi har bir ilmi xonadonda Qur'ondan keyingi muqaddas kitob singari asralgani aytiladi. Masnaviyni hech kim o'zbek shoiri Boborahim Mashrabchalik sharhlagan emas*, deb hisoblaydi shoir va tarjimon Asqar Mahkam.

Eslyaylik, Mashrabning “Mabdayi nur” kitobini. Biz juda ko'p buyuk shoirlarni bilamiz, masalan, turkiyalik Abdulboqi Gulpunarli, Eronda Badiuzzamon Furuzonfar, Said Ja'fari Shahidiy va hokazo juda ko'p masnaviyshunoslar bor. Lekin hech kim “Masnaviy”ni Mashrabchalik sharhlagan. Chunki Mashrab o'zi valiyulloh shoir bo'lganligi uchun, o'sha “Mabdayi nur”da “Masnaviy”ni she'riy yo'l bilan sharhlaydi. Va bevosita ikkinchi Masnaviyni yaratadi-ki, uning nomini Nurning ibtidosi, yoki nurning asosi, boshlanishi, mabdasi deb ataydi. Mashrabning xizmati shundan iboratki, u Masnaviyni shunchaki turli xil falsafiy maktablar, oqimlar, turli mas'hablar

nuqtayi nazaridan emas, balki chin valiy sifatida, yoki komil bir inson sifatida o'zining qarashlarini bildiradi. Va "Masnaviy"ning ba'zi bir baytlarini hatto tarjima qilib ham bergan.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Sharh ilmi ildizlari mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot-materiallar to'plash. Mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg'ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. "Sulton Valad, Ahmad Aflokiy, Faridun Sipohsolor, Sarvariylar kabi olimlar tomonidan sharhlangan mashhur asar qaysi?"

- A) "Sahih hadislar to'plami"
- B) "Masnaviyi ma'naviy"
- C) "Avesto"
- D) "Mahbub-ul qulub"

2. Hofiz Sheroziy devoniga ham bir necha sharhlar bo'lib, eng mashhuri kimning qalamiga mansub?

- A) Sudiy Basnaviy XVI asrda
- B) N.Komilov XVI asrda
- C) Sulton Valad XVII asrda
- D) Sham'iy XV asrda

3. Subiy Hofiz devonidan tashqari kimlarning asarlarini turk tilida sharhlagan?

- A) Shayx Sa'diy, Jomiy
- B) Jomiy, Rumiylar
- C) Rumiylar, Shayx Sa'diy
- D) Rumiylar, Navoiylar

4. Sa'diyni asarini Murodho'ja ibn Solibho'ja qanday nom bilan o'zbek tiliga o'g'irgan?

- A) "Guliston hayrati"
- B) "Shavqi Guliston"
- C) "Sharq gavhari"
- D) "Bilimlar yig'indisi"

5. Saolibiyning qaysi asarini tarixiy tafsirga misol qilib olishimiz mumkin?

- A) "Saqllovchi"
- B) "Mufassal"

- C) “Boshlang‘ich”
- D) “Qamrovli ummon”.

6. Abdulloh ibn Haddod Usmoniyning qaysi kitobi VIII va XIV asrlardagi mantiq ilmi bo‘yicha qilingan sharhlarga misol bo‘ladi?

- A) “Qarashlar muhofazasi”
- B) “Go‘zal mezon”
- C) “Shamsiya”
- D) “Ziyovuddinning foydalari”

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

2. Yo‘ldoshev B. Frazologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999.

3. Abdurahmanov H., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

4. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san’atlar. – Toshkent: TDPU, 2001.

5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

6. Yo‘ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.

7. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san’atlar. – Toshkent: TDPU, 2001.

8. N.Rahimjonov. Adabiyotshunoslikning yangi bosqichi. T.: “Sharq yulduzi”, 2011-y. 5-son.

9. Murodov A. O‘rta Osiyo xattotlik san’ati tarixidan. – T.: Fan, 1971.

10. Sodiqov Q. Turkiy matnnavislik tarixidan. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000.

11. Abduljamil Kotib. Tuhfatus-salotin. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2007.

12. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. –T.: Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959.

13. Sirojiddinov Sh. Navoiy navosidan bahra olib...– Samarqand: Zarafshon, 1996.

11- MAVZU

NAVOIY ASARLARINING SHARHLANISHI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad – “Navoiy asarlarining sharhlanishi” nazariy ma'lumotlar asosida o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni mumtoz adabiyotga, ilmga, millatga hurmat, kitobsevarlik ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mumtoz adabiy asarlarni o'qishga jalb etish, tadqiqot qilishga maylni uyg'unlashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: dars uchun maxsus adabiy albom, diqqatni jalb qiluvchi savollar – tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma'ruza

Darsning rejasi:


1. Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlar
2. “Xamsa” dostonlari sujetlari asosidagi xalq kitoblari matni. “Xamsa” dostonlarining turlicha talqinlari
3. “Xamsa” dostonlarining zamonaviy nasriy bayonlari

Tayanch so'z va asosiy tushunchalar: *Ishq, kufr, oshiq, tafsirlar, ilmiy-tanqidiy matn, shayx-oriflar, iloh jamoli, zohid xonaqosini buzmaslik, ma'shuqaga sig'inish, lug'atlar, “Xamsa” dostonlari sujetlari asosidagi xalq kitoblari matni, may – ilohiy tajalliyot, maxmur – vahdat mayidan bexudlik.*

Xalqimizning ma'naviyatini ulug' mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy ijodiyoti, ayniqsa, uning “Xamsa” - qomusiy asarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Albatta, Alisher Navoiy asarlarini asl holda o'qib, undan ma'naviy huzurlanish, ma'nolaridan, ohang va badiiy san'atlaridan zavqlanish kerak. Buning o'rmini biror tabdil, sharh bosolmaydi. Biroq bugungi o'quvchi va Navoiy yashagan zamon o'rtasida besh yarim asrlik masofa yotibdi. Qolaversa, bu masofani bartaraf etishni yanada qiyinlashtiradigan zamon bilan aloqador boshqa to'siqlar ham borki, ularni yengib o'tmay, o'quvchining Navoiy merosi, ma'naviyatiga yo'l topishi amri mahol. Shu bois “Xamsa” dostonlarini soddalashtirib o'quvchiga

yetkazish, nasriylashtirib tushuntirish, ommalashtirish, zamonaviylashtirish, bu ulug' ma'naviyat xazinasidan qisman bo'lsa-da o'quvchini bahramand qilish maqsadlarida o'tgan ikki asrlik tarix davomida ular asosida bir necha bor nasriy qissalar, nasriy bayonlar, tabdillar yaratilgan. Demak, zamonaviy tabdillar, sharhlar ko'magisiz maxsus tayyorgarligi bo'lmagan o'quvchining Navoiy asarlarini bevosita qabul qilishi qiyin. Tabdil, nasriy bayon yoki sharh o'quvchi oldida ulkan to'siq bo'lib yotgan Navoiygacha bo'lgan masofani bartaraf etib, uni asliyatga yaqinlashtiradigan muhim va foydali yo'ldir.

13-rasm (slyayd taqdimoti uchun maxsus)



Navoiy asarlari asliyati va bugungi o'quvchi imkoniyatlari orasidagi farqlar haqida gapirganda, *birinchi galda* davr bilan bog'liq tildagi o'zgarishlarni qayd etish mumkin. *Ikkinchidan*, Navoiy o'z ijodida arxaik so'zlar, arabiy va forsiy so'z va izofalardan mumtoz adabiyotga mansub boshqa shoirlarga nisbatan ham ancha keng foydalangan. *Uchinchidan*, baytlardagi ko'p ma'nolilik, ularning asosan majoz va ramzlarga qurilganligi ularni baytma-bayt sharhlashni, mutaxassisning juda ko'p izohlar bilan o'quvchiga ko'makka kelishini talab qiladi. *To'rtinchidan*, Navoiy asarlari asl

mohiyatini idrok etish uchun o'quvchi avvalo u mansub bo'lgan maslak, u e'tiqod qo'ygan haqiqatlardan xabardor bo'lishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, bularning bari Navoiy asarlari asliyatini bugungi o'quvchiga jiddiy sharhlab, nasriylashtirib taqdim etishni taqozo etadi. O'tgan ikki asr mobaynida aynan ana shu sabablarga ko'ra "Xamsa" dostonlarining turli shakl va saviyada yaratilgan bir necha nasriy tabdillari maydonga keldi. To'g'ri, XIX asrda Navoiy "Xamsa" si dostonlari asosida yaratilgan dastlabki nasriy qissalarni asliyatning to'la ma'nodagi muqobillari, tabdillari deb atash mushkul, sho'rolar davrida paydo bo'lgan eng so'nggi nasriy bayonlar ilmiyligi, mukammalligi bilan bunday muqobillikka davogar bo'la olsa-da, biroq ular ham o'sha zamon mafkurasi ta'sirida muayyan mahdudliklardan xoli emas. Shu nuqtayi nazardan bugungi kunda mazkur talqinlarni ham qayta ko'rib chiqish ehtiyojii borligi sezilmoqda.

Navoiy asarlariga tuzilgan lug'atlarni 3 turga ajratish mumkin:

1. Umumiy asarlarga tuzilgan lug'atlar
2. Muayyan asarlar materiallari qo'llanilgan lug'atlar
3. Navoiy asarlari qo'lyozmalaridagi lug'atlar

Navoiy asarlari Navoiyning hayotlik davridagi turkiy va forsiy xalqlar yashaydigan juda ko'p mamlakatlarga tarqalgan va izdoshlar paydo etgan edi. Uning vafotidan so'ng Navoiy asarlarining ixlosmandlari orta bordi, uning ajoyib ijodi va tili xalqlarni borgan sari ko'proq maftun eta bordi. Uning asarlarini ko'paytirish, uslubiga ergashish, til xususiyatlarini o'rganish davom etdi, Navoiy asarlari yuzasidan turli hajm va variantlarda lug'atchalar tuzila boshlandi. XVI asr boshida yaratilgan turkiy-forsiy "Badoe'ul lug'at", 1759-1760-yillar Mirza Mahdixon tomonidan tuzilgan turkiy-forsiy "Sangloh" lug'ati, 1862-yilda Fath Alixon tuzgan "Kitobi lug'ati atrokiya", 1849-yilda Navoiy devonidagi qiyin so'zlar izohi uchun tuzilgan "Farhangi hazrat mir Alisher mulaqqab ba al Navoiy" lug'atlarini umumiy asarlarga tuzilgan lug'atlar sirasiga kiritish mumkin. Aynan, Navoiy "Xamsa" siga tuzilgan alohida qo'lyozma lug'atlar ham uchraydi. Yoki Navoiy asarlariga she'riy lug'atlar ham tuzilganligi fakti ahamiyatga molikdir.

Navoiy asarlari materiallari foydalanilgan lug'atlarda Navoiy asarlari lug'at uchun maxsus obyekt bo'lmay, balki material bergan, xolos. Shunga qaramay, bunday lug'atlarni tuzishda ham Navoiy

asarlari, “Xamsa” materiallaridan foydalanilgan bo‘lsa-da, ularning Navoiy dostonlarini nasriylashtirishda o‘rni bor. Bunday lug‘atlarga misol qilib 1552- yilda kitobat qilingan “Abushqa”, boburiylar davrida yaratilgan turkiy-forsiy “Lug‘ati Turkiy” larni aytish mumkin.

Navoiy asarlari qo‘lyozmalaridagi lug‘atlarga Navoiy asarlari, aniqrog‘i “Xamsa”si qo‘lyozmalaridagi matni atrofiga hoshiyalarga yozilgan lug‘atlarni kiritish mumkin. Bunday lug‘atlarga matndagi bir qism so‘zlar ayni o‘rinda izohlanib ketilaveradi. Masalan, 1845-48-yillarda ko‘chirilgan qo‘lyozmada noma’lum shaxs tomonidan “Xamsa” ning uch dostoni – “Sab’ai sayyor”, “Layli va Majnun” hamda “Saddi Iskandariy”larda uchragan qiyin so‘zlarni tushuntirish uchun shunday lug‘at yaratilgan (q.: O‘zR FASHI, №7863; Xamsa bo‘halli lug‘at, 1985, - 592. -634b). Bunday lug‘atning qulayligi matndagi tushunilishi qiyin so‘zlar ma’nosini, ayni o‘rinda, hoshiyada izohlashdir. Lekin cheklanganligi ham bor: bunday lug‘at bir yoki nari borsa undan nusxa ko‘chirilgan boshqa nusxa doirasida qolib ketadi. Lekin yuqoridagi tur lug‘atlardan farqli ravishda, qo‘lyozmadagi bunday lug‘atlarda matn talqini kuchliroq aks etadi. Chunki bunda matnga yondashgan kotib yoki muayyan shaxs didi, matn va uni tashkil qilgan so‘zlarga munosabati, so‘z ma’nolari tarixi yaqqolroq ko‘zga tashlanadi.

Qo‘lyozmalardagi lug‘atlarni matn talqini nuqtayi nazaridan o‘rganishda bir necha jihatlariga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi:

Lug‘atning joylashish o‘rning o‘ziga yarasha ahamiyati mavjud bo‘lib, matn talqini bilan ko‘p jihatdan bog‘lanadi. Qo‘lyozmalardagi lug‘atlarning bir qo‘lyozma doirasida, “Xamsa” ning barcha dostonlariga birdek tuzilishi holati kam uchraydi. Hatto, “Xamsa” ning bir dostoniga boshidan oxirigacha tuzilgan lug‘atlar ham yo‘q hisobi.

Nasriy bayonchilik, tabdil, badiiy asarni nazmdan nasrga o‘tkazish an’anasi ham adabiyotimizdagi ko‘pgina boshqa hodisalar singari uzoq o‘tmishga borib taqaladi. XIX asr boshida Navoiy dostonlari nasriy bayonlarining dastlabki namunolari Xorazmda adib Umar Boqiy tomonidan yaratildi. Bu esa Navoiy dostonlarini falsafiy “murakkab” adabiyotdan – “sodda” adabiyotga janrdan janrga tarjima qilishning ilk namunasi edi.

Umar Boqiy XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning boshlarida Kiromiy, Roqim, Nishotiy, Andalib, Munis kabi shoirlarga zamondosh bo'lib Xorazmda ijod etgan. Umar Boqiy haqida bizgacha nihoyatda kam ma'lumot yetib kelgan bo'lsa-da, biroq u haqda va uning Navoiy dostonlari asosida yaratgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" qissalari olimlarimiz tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan.

"Sab'ai sayyor" ning nasriy bayoni Inoyat Maxsum tomonidan amalga oshirilib, 1977-yil asliyatsiz, alohida kitob holida chop etilgan. 1991-yili bu nasriy bayon asliyat bilan birga qayta nashr etilgan. 2006-yilda esa qisqartirilgan muqaddima boblari to'ldirilib lotin yozuvida asliyat bilan yonma-yon qayta nashr qilindi.

Qayd etganimizdek, "Saddi Iskandariy"ning nasriy ifodasi ham shoirning 500 yillik yubileyi arafasida Inoyat Maxsumov va Yunus Latif tomonidan tuzib chiqilib, 1940-1941-yillarda asliyat bilan yonma-yon nashr etilgan edi. Bu nasriy bayon 1978-yili Inoyat Maxsumov tomonidan qayta to'ldirilib, asliyatsiz, alohida kitob holida qayta chop etilgan. 1991-yili esa bu tabdil Mavjuda Hamidova tomonidan qayta to'ldirilib, muqaddima boblar ham tabdil etilib, asliyat bilan birga nashr etildi. 2006-yilda esa bu nashr lotin yozuvida asliyat bilan birga yana qayta chop etildi.

70-yillarda "Xamsa" nasriy tabdillarining bir muncha maromiga yetkazilganligi va ularning alohida kitoblar holida nashr etilishi navoiyshunoslik fanida bajarilgan nihoyatda katta bir vazifa edi. Nasriy bayonlarning o'sha yillarda katta-katta qisqartmalar bilan nashr etilishi salbiy hodisa sifatida ko'pchilikka o'sha davrda ham ma'qul bo'lmagan.

1981-yil adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov bu qusurni biroz tanqid qilib o'tgan: "Bu hol qandaydir noxush odat tusiga kirib bormoqda "Xamsa" dostonlarining nasriy nashrlarini ko'zdan kechirganimizda "Hayrat ul-abror"dan 21 bob, "Farhod va Shirin"dan 8 bob, "Layli va Majnun"dan 6 bob, "Sab'ai sayyor"dan 9 bob, "Saddi Iskandariy"dan 9 bob, xullas, jami 53 bob tushirib qoldirilganligini ko'ramiz. Demak, **yaxlit bir doston hajmidagi matn tashlab ketilgan... Agar "xudo", "din", "imon" so'zlari uchraydigan asarlarni hadeb tashlayversak yoki "qisqartirib"**

tashlasak, unda “Iliada”ni, “Shoh Edip”ni, “Ilohiy komediya”ni umuman o‘qimasligimiz kerak”⁶⁵.

Darhaqiqat, muqaddima qism, shuningdek, ba’zi o‘rinlarda boshqa boblarning qisqartirilishi bu nashrlarning eng katta kamchiligi edi. Xususan: “Hayratu-l-abror” dostoni 70-yillar nashrida XII bobdan boshlab nasriylashtirilgan va unda muqaddima qismdan boshqa qisqartirilgan boblar ham mavjud. Qisqartirilgan boblar: I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX, X, XI, XXV, XXIX, XXXIX, LI, LIII, LV, LXI boblar bo‘lib, jami 23 bobdan iborat. Dostondagi muqaddima boblar singari keyingi qisqartirilgan boblar ham asosan tasavvuf, din, ilohiyotga aloqador, shoh va shahzodalar madhidagi boblar bo‘lganligi uchun nasriylashtirilmagan.

“*Farhod va Shirin*” dostoni VI bobdan boshlab nasriylashtirilgan, I, II, III, IV, V muqaddima boblar va Husayn Bayqaro madhidagi X bob hamda shahzoda Badiuzzamon madhidagi XI boblar (jami 7 bob) qisqartirilgan. 1989-yilgi nasriy bayonning asliyat bilan birga chop etilgan nashrida ham aynan shunday. 2006-yilgi lotin yozuvidagi nashrida esa barcha qisqartirilgan boblar to‘ldirilib, nasriylashtirilgan va asliyat bilan yonma-yon bir jild ostida chop etilgan.

“*Layli va Majnun*” dostoni nasriy bayoni V bobdan boshlanadi va unda jami 6 bob qisqartirilgan bo‘lib, ular: I, II, III, IV – kirish boblar hamda sulton Husayn madhidagi VII bobdir. 1990-yil nashrida ham nasriy bayondagi qisqargan boblar, parchalar to‘ldirilmagan, biroq asliyatga muqaddima qism, ya’ni I, II, III, IV boblar ham kiritilgan. 2006-yilgi lotin yozuvidagi nashri barcha nashrlardan ko‘ra ancha mukammal bo‘lib, barcha qisqartirilgan boblar to‘ldirilib, nasriylashtirilib asliyat bilan bir jild ostida qayta nashr qilindi.

Nihoyat, 1991-yilda nashr etilgan “*Sab’ai sayyor*” oldingilardan farqli o‘laroq, asliyat ham, tabdil ham to‘liq holda chop etilgan birinchi dostonidir. Dostonni ilmiy-tanqidiy matn asosida qiyoslab Inoyat Maxsum tomonidan 70-yillarda amalga oshirilgan nasriy matnini qaytadan tahrir etib, to‘ldirib nashrga tayyorlovchi S.Hasanov. Bu nashr 2006-yili qisqartirilgan boblari ham

⁶⁵Комилов Н.. тафаккур ва нафосат хазинаси // Гулистон. - 1981.№2. – Б. 20-24.

nasriylashtirilib lotin yozuvida asliyat bilan birga qayta nashr qilingan.

“*Saddi Iskandariy*” esa asliyat ham, nasriy bayon ham birinchi marta to‘liq holda chop etilgan birinchi dostonidir. Nashr 1991-yilda amalga oshirilgan. Dostonni ilmiy-tanqidiy matn asosida qiyoslab va nasriy bayonini qaytadan to‘ldirib nashrga tayyorlovchi Mavjuda Hamidova.⁶⁶ Bu nasriy bayon bo‘yicha 2000-yilda Abduvohid Hayitov o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida nasriy tabdildagi ba’zi bir nuqsonlarni aytib o‘tgan va xato-kamchiliklarini qayta tahrir qilib chiqqan, lekin bu tahrir kitob holida chop etilmagan⁶⁷. 2006-yilgi nashri ham aynan 1991-yilgi nashri bilan bir xil.

Xullas, Navoiy dostonlari nasriy bayonlarini qisqartmasiz to‘liq holda berish an‘anasi “*Sab’ai sayyor*” va “*Saddi Iskandariy*” bayonlaridan, ya’ni 1991-yildan boshlandi, deb qayd etib qo‘yish mumkin.

Guvohi bo‘ldikki, dastlabki uch dostonning saksoninchi yillar oxiri to‘qsoninchi yillar boshidagi nasriy bayonlari yuzasidan navbatdagi to‘ldirishlar qilishga ulgurilmagan va ular zudlik bilan avvalgi holaticha nashr etilgan. Lotin yozuvidagi 2006-yilgi nashrlari esa ancha mukammal nashr bo‘lib, barcha dostonlardagi qisqartirilgan boblar to‘ldirilib, nasriylashtirilib asliyat bilan birga bir jild ostida kitobxonlarga taqdim etilgan.

Urushdan keyingi davrdan to bugungi kunimizgacha ulug‘ shoir ijodini o‘rganish, tadqiq va targ‘ib etish ishlari aslo susaymaganligini, navoiyshunoslarimiz ana shu yillar mobaynida bu yo‘nalish bo‘yicha nihoyatda samarali va muhim ishlarni amalga oshirganliklarini yuqorida guvohi bo‘ldik. Darhaqiqat, bu ilmiy jihatdan nihoyatda qimmatli faoliyat edi. Faqat bu ishlarning umumiy bir kamchiligi mafkuraviy jihatdan chegaralanganligi, kommunistik mafkura qolipiga solinganligi edi, xolos. Mustaqillik davrida qilingan ishlar esa bu kamchiliklardan xoli mukammal bir ish edi. Har qanday talqin o‘z davri va asliyat davri o‘rtasidagi bir ko‘prik, vositadir. Tabdil o‘z davri tafakkur tarzi, ehtiyoj va talablari

⁶⁶ Navoiy Алишер. Садди Искандарий. Насрий баёни билан // насрий баён муаллифлари: И.Махсумов, М.Ҳамидова; сўзбоши М.Ҳамидованики. – Т.: нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 464 б.

⁶⁷ Қ. Ҳайитов Абдувоҳид. Алишер Навоий “Ҳамса” сини насрийлаштириш: анъана, табил ва талқин // номизодлик диссертацияси. – Т.: 2000.

nuqtayi nazaridan asliyatni talqin etadi. Boshqacharoq aytganda, talqin asliyatga suyangan holda barcha xom-ashyoni o'z davridan oladi, shu bois unga davriylik nafasi urib qoladi, davr, dunyoqarash o'zgarishi munosabati bilan, germeneytik qonuniyatlar ham shuni tasdiqlaydiki, boshqa talqinga, asliyatga nisbatan o'sha davr tafakkur tarziga muvofiq keladigan munosabatga ehtiyoj seziladi.

Mustaqillik davrida “Xamsa” dostonlarining nasriy bayonlari amalga oshirilgan muhim yirik tadqiqotlardan yana biri Anvar Hojiahmedovning qisqartirilgan nasriy nashridir.

Navoiy “Xamsa”si dostonlarini osonroq tushunish uchun o'tgan asrda qilingan ishlarni yuqorida ko'rib chiqdik. “Xamsa”ning mukammal nasriy matnlari tuzilib keng tiraj (adad)da nashr qilinganligini guvohi bo'ldik. Ammo o'quvchilar, litsey va kollej talabalari hamda ulug' shoirning ko'p sonli muxlislari uchun bu mukammal nasriy nashrlar ham og'irlik qilayapdi. Har xolda yoshlarimizning ko'plari “Xamsa” dostonlari mazmunidan xabardor emaslar. Shularni hisobga olgan holda Anvar Hojiahmedov Navoiy “Xamsa”si dostonlarining asosiy mazmunlarinigina ixcham tarzda bayon qilingan kitobchalar va ularning barchasini to'plab bitta kitob holda taqdim etdi.

Nashr etilgan asarlarning kirish va xulosa qismlari tushirib qoldirilgan, asardagi cho'zilib ketgan ba'zi o'rinlar: manzaralar, monologlar ixchamlashtirilgan. Bu xil yondashish dostonlarning to'liq tushunilishiga imkon bermaydi. Ular haqida keng ma'lumot hosil qilish uchun dostonlarning to'liq nasriy bayoni, qolaversa, albatta Navoiy dostonlarining o'zi bilan mukammal tarzda tanishish lozim. Ushbu kitob esa dostonlar mazmunini osonroq tushunib olishga yordam beradi, xolos.

Bu ish buyuk mutafakkir shoir, alloma va davlat arbobi Alisher Navoiy tavalludining tabarruk 570 yilligi munosabati bilan 2010-yil lotin yozuvida nashr etilgan.

Anvar Hojiahmedov nashrining o'ziga xos xususiyati – u ham Ayniy nashridek “Xamsa”ning besh dostonini o'z ichiga qamrab oladi. Nasriylashtirish borasida unda Ayniyga, Umar Boqiyga va baytma-bayt qilingan nasriy ifodalarga xos bo'lgan xususiyatlar ham ko'zga tashlanadi. Lekin A.Hojiahmedov nashrining o'tgan asr nasriy talqinlaridan keskin farq qilib turadigan bir jihati – unda

bugungi kun nafasi ufririb turibdi, u muayyan mahdudliklardan xoli bir nasriy talqindir.

Bu nasriy talqin bugungi kun tafakkur tarzi, istiqloq davriga xos ijtimoiy mentalitet bilan bog'liq germenevtik qonuniyatlar asosida talqin etilgan.

(!) Mashg'ulot uchun mohiyat va tahlil

Qo'lyozma hoshiyasining matnshunoslik tadqiqida muhim ahamiyatga ega ekaniga birmisol: 1940-yili Sadridin Ayniy "Xamsa"ning tanlanma nusxasini tuzib chiqadi.⁶⁸ Sadridin Ayniy bu kitobni tanlanma nusxa deb ataydi va nashr xususida shunday yozadi: "AlisherNavoiyning "Xamsa"sida 50 ming misradan ortiq she'r bor. Keng o'quvchilar ommasi uchun uni bir butun holda tezda egallab olish ancha og'ir bo'ladi. Shuning uchun men bu qiyinchiliklarni nazarga olib, Navoiy yubiley komitetining topshirig'I bilan qo'lingizdagi bu tanlanma nusxani vujudga keltirdim. Bu nusxani tartibga solishda har bir doston va bo'limlardan xarakterli bo'lgan parcha va misralarni terib oldim. Ammo har bir doston va boblarning ayrim tashlangan parcha va misralarning mazmunini bayon qildim. San'atkorona ishlangan, lekin u san'at oddiy o'quvchilarning ko'ziga ilinmay qoladigan, tushinishi qiyinroq bo'lgan misra va baytlarni va shuningdek, Navoiyning shaxsiy hayotiga, yoki zamondoshlariga oid bo'lgan joylarni izohlab o'tdim. Ba'zi parcha va hikoyalarni tuzilishlari va ulardagi qahramonlar to'g'risidagi o'z fikrimni ham bet ostida bayon qildim"⁶⁹.

A.Hayitmetov ta'kidlaganidek, S.Ayniy "Xamsa" dostonlari matnlarini izohlash, ularga lug'atlar tuzish, ulardagi she'riy san'atlarni o'rganish, tushunilishi qiyin bo'lgan baytlarni soddalashtirib berish kabi masalalar ustida ko'p ilmiy izlanishlarni iolib bordi⁷⁰. Mazkur ish ilmiy qimmatini, Navoiy adabiy merosini ko'p sonli she'riyat muxlislari o'rtasida targ'ib etish yo'lidagi

⁶⁸ Навоий Алишер. Хамса. Қискартириб нашрга тайёрловчи Садриддин Айний. Масъул муҳаррир П.Шамсиев. –Т.: Ўқувпеднашр, 1940.

⁶⁹ Садриддин Айний. Алишер Навоий. Хамса. –Т.: Ўқувпеднашр, 1940. – Б.10 – 11.

⁷⁰ Қаранг: Хайитметов А. Забардаст навоийшунос/Ўзбек тили ва адабиёти, 2003. № 5. – Б.19.

ahamiyati va matnshunoslik ishlari bajarilish saviyasi nuqtayi nazaridan chinakamiga salmoqlidir.

S.Ayniy tomonidan tayyorlangan “Xamsa” asari tanlanma nusxasi xususida B.Valixo‘jayev va R.Vohidov quyidagi fikrlarni bildirishadi: “Sadriddin Ayniy bu katta va mas’uliyatli ish jarayonida “Xamsa” dostonlari mazmuni va asosiy sujet chizig‘ini saqlab qolishga harakat qilgan. Shuningdek, u obrazlar xarakterini gavdalanitirib ko‘rsatuvchi, ularning orzu-intilishlarini aks ettirgan satrlarni aynan saqlab qoladi. Sadriddin Ayniy tomonidan qo‘llangan bu usul xalq og‘zaki ijodi dostonlarini xotirga keltiradi. Eslatilgan xususiyat birinchi galda “Xamsa” tarkibidagi dostonlarning nazmunasr qorishmasida berilishida ko‘rinadi”⁷¹. “Xamsa” hoshiyalarida Sadriddin Ayniy tomonidan berilgan va buyuk shoir badiiy mahoratini ochishga xizmat qiladigan izohlar chuqur ilmiyligi bilan ham diqqatga molikdir.

14-rasm (slyayd taqdimoti uchun maxsus)



Atoqli olim Najmiddin Komilovning mazkur Alisher Navoiy ga‘zallariga bitgan sharhlari 1991-yilda “Kamalak” nashriyotida nashr etilgan “Alisher Navoiy. G‘azallar. Sharhlar” to‘plamidan joy olgan edi. Bundan avval hazrat Navoiy g‘azallariga yozilgan sharhlar

⁷¹ Валихўжаев Б., Воҳидов Р. Навоий ижоди – илҳом манбаи. – Т.: Фаң, 1981. – Б.30–31.

“Sharq yulduzi” jurnalida birin-ketin paydo bo‘la boshlagan. Alisher Navoiyning lirik asarlari jamlangan “Xazoyinul maoniy”devonida ikki yarimmingdan ortiq g‘azal bor. *Sharq adabiyotida biror shoirga bunchalik ko‘p g‘azal yozish nasib bo‘lmagan.*

Ammo gap faqat sonda emas. Navoiy qalbidan quyilib chiqqan g‘azallarning har biri daho ijodkorning benazir san‘ati va tafakkuridan guvohlik beradigan badiiy durdona mo‘jizadir.


Navoiy o‘z ijodida arxaik so‘zlar, arabiy va forsiy so‘z izofalaridan mumtoz adabiyotga mansub boshqa shoirlar so‘zlarida ko‘p foydalangan. Navoiy “Xamsa” sining birinchi dostoni “Hayratul abror” bo‘lib, u 3988 baytdan iborat, 64 bob 29 maqolatdan tashkil topgan. U aruzning sari bahrida yozilgan. Nomidan kelib chiqqan holda hamd va na‘tlar berilgan. Navoiyning dunyo haqidagi qarashlari mana shu muqaddimada o‘z aksini topgan. Uningcha, dunyoning boshi ham, oxiri ham, yaratuvchi ham, kuzatuvchi ham Ollohdir. “Farhod va Shirin” da qahramonlar sevgi sarguzashtlari orqali insonning tarix va kelajak oldidagi vazifasini belgilaydi, insonlik faqat muhabbatda emas, balki o‘sha sharafli nomning himoyasi orqali ekanini uqtiradi. Sharq tarixidagi “Xusrav va Shirin” voqeasini badiiy jihatdan qayta ishlab, Farhod orqali o‘zining komil inson haqidagi qarashlarini ifoda qilgan.

15-rasm (slyad taqdimoti uchun maxsus)

DOSTONLARI:

1. Xamsa (1483-1485):
 - “Hayrat ul-abror” (“Yaxshilar hayrati”, 1483);
 - “Farhod va Shirin” (1484);
 - “Layli va Majnun” (1484);
 - “Sab‘ayi sayyor” (“Yetti sayyora”, 1484);
 - “Saddi Iskandariy” (“Iskandar devori”, 1485).
2. “Lison ut-tayr” (1499).

(3-ilova)



“Layli va Majnun” dostonida arab ertaklari orqali ma’lum sujet o‘zining tugal shaklini topdi. Unda ishq falsafasi betakror uslubda ifoda qilindi. Keyinroq yaratilajak Fuzuliy, Andalib, Sayqaliy dostonlari uchun ma’naviy zamin bo‘ldi.

“Xamsa” tarkibidagi “Sabbayi sayyor” va “Saddi Iskandariy” shohlik bilan bog‘liq masalalarni birinchi o‘ringa olib chiqdi.

Matnshunos olim Porso Shamsiyev Navoiy “Xamsa” sining to‘la va yaxlit bir kitob holida nashrga tayyorlash borasida murakkab matnchilik tadqiqiy ishlar olib bordi. Hamid Sulaymonov Navoiyning “Xazoyinul maoniy” asari tanqidiy matnini tayyorlab nashr ettirdi. Bu asar inson bolasining murakkab va yuksak tafakkuri hamda behisob his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq minglarcha she‘r va o‘nlarcha she‘r turlarini o‘z ichiga olgan majmua bo‘lib, Sharq adabiyoti tarixida noyob hodisadir.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Navoiy asarlarining sharhlanishi mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot-materiallar to‘plash. Mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg‘ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollar:

1. 1845-1848-yillarda Navoiyning qaysi asarlari uchun qiyin so‘zlarni tushuntirish lug‘ati tuzildi?

- A) “Sabbai sayyor”, ”Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy”
- B) “Saddi Iskandariy”, “Farhod va Shirin”
- C) A, B javoblar to‘g‘ri
- D) “Sabbai sayyor”, “Hayrat ul abror”

2. Navoiy dostonlari nasriy bayonining dastlabki namunalari qayerda yaratigan?

- A) Samarqandda
- B) Hirotda
- C) Xorazmda
- D) Buxoroda

3. Navoiy dostonlarining nasriy bayonining dastlabki namunalari qachon yaratildi?

- A) XIX asrda
- B) XVI asrda
- C) XVII asrda
- D) XVIII asrda

4. Navoiy dostonlarining nasriy bayonining dastlabki namunalari kim tomonidan yaratilgan?

- A) Usmon ibn Sodiq
- B) Siddiq
- C) Siddiq ibn Ali
- D) Umar Boqiy

5. Adabiyotda kimning asarlarini tarjima qilish janrdan janrga tarjima qilishning ilk namunasi deb qaraladi?

- A) Navoiy asarlari
- B) Jomiy asarlari
- C) Rumi asarlari
- D) Hofiz asarlari

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san'atlar. – Toshkent: TDPU, 2001.

2. N.Rahimjonov. Adabiyotshunoslikning yangi bosqichi. T.: "Sharq yulduzi", 2011-y. 5-son.

3. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – T.: Fan, 1971.

4. Sodiqov Q. Turkiy matn navislik tarixidan. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000.

5. Abduljamil kotib. Tuhfatus-salotin. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2007.

6. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. –T.: Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959.

7. Sirojiddinov Sh. Navoiy navosidan bahra olib... – Samarqand: Zarafshon, 1996.

8. Yo'ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

9. Yo'ldoshev B. Frazeologik uslubiyat asoslari. – Samarqand, 1999.

10. Abdurahmanov H., Mahmudov N. So'z estetikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002.

11. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

12. Yo'ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.

12-MAVZU

GLOSS, KONYEKTURA VA INTERPOLYATSIYA

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad – “Gloss, konyektura va interpolyatsiya” nazariy ma'lumotlar asosida o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni mumtoz adabiyotga, ilmga, millatga hurmat, kitobsevarlik ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mumtoz adabiy asarlarni o'qishga jalb etish, tadqiqot qilishga maylni uyg'unlashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: diqqatni jalb qiluvchi savollar – tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma'ruza

Darsning rejasi:

1. Hoshiya, sharh va kiritma matnlarning xos xususiyatlari
2. Gloss, konyektura va interpolyatsiyaga oid Sharq va G'arbdagi ilmiy qarashlar
3. Germenevtika. Talqinlarning matn mukammalligini ta'minlashdagi o'rni.

Tayanch so'z va asosiy tushunchalar: *hoshiya, sharh va kiritma matnlar, gloss, konyektura va interpolyatsiya, germenevtika, ilmiy-tanqidiy matn, matn tarixi, Suqrot, Aflotun, Arastu, Hiraqlid, Xitoy faylasuflari Konfutsiy, Lao Tsz, Gomer, Qur'oni karim, Sitseron, Mark Avreliy, Tatsit, Tit Liviy.*

Insoniyat tarixi turli soha olimlarining tadqiqotlari, kashfiyotlaridagi ma'lumotlar asosida davrlashtirilgan. Har bir fan sohasi o'zining muayyan xususiyatlaridan kelib chiqib, bu davrlarni har xil nomlar bilan atagan. Albatta, qo'yilgan nomlar fanning muammolari bilan bog'liqlikda, inson aqlining mahsuli bo'lgan mantiq asosida dalillangan. Gap, bu o'rinda, davrlashtirishning to'g'ri yoki noto'g'riligida emas. Har bir fan sohasi, u ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, aniq fan bo'ladimi, o'zining mavjudligini insoniyat tamadduni tarixiga qandaydir shaklda konkret munosabati bilan namoyon qiladi. Muhimi, mana shu konkret munosabatning aniqlik chegarasi qay darajada ekanligida.


Ilm tabiatan aniqlikni taqozo etadi. “Ilmiy haqiqat” deb taqdim etilayotgan xulosalar taxmindan qanchalik xoli bo‘lsa, ilmiylik sifati shunchalik yuqori bo‘ladi. Ya’ni, ilmiy haqiqat taxmin tugagan joydan boshlanadi. Shunday ekan, Sharh ilmi ildizini “antik davr mutafakkirlari” deb atalmish Suqrot, Aflotun, Arastu, Hiraqlid yoki Xitoy faylasuflari Konfutsiy, Lao Tszilarga nisbat berilgan so‘zlar yoxud “Avesto”, Vedalar, Upanshidalar, shuningdek, Rim notiqlik san’ati namoyondalari Sitseron, Mark Avreliy, Tatsit, Tit Liviylarning faoliyati bilangina bog‘lab qo‘yilsa, yuqorida ta’kidlangan ilmiylik mezoni buziladi.

Gloss – qo‘lyozma nusxalarining hoshiyalarida uchraydigan izohlar, to‘ldirishlar, aniqlik kirituvchi mulohazalar, boshqa manbalarga havolalar, oyat va hadislar hoshiyasidagi tafsirlari.

Konyektura – matn konteksidan kelib chiqib matnda xato yozilgan o‘rinlar yoki o‘qib bo‘lmas darajada o‘chib ketgan so‘z va jummalarni matn mantig‘idan kelib chiqib tiklash. Konyektura beixtiyor yoki e’tiborsizlik oqibatida qo‘yilgan xatolarni tuzatishda qo‘llaniladi.

Interpolyatsiya – hoshiyadagi bitiklarning asosiy matnga qo‘shib yuborilishi. Matnshunos asosiy matnning o‘ziga xos uslubi va strukturasi jiddiy o‘rganish orqali interpolyatsiyani aniqlash mumkin. Shuningdek, qo‘lyozma matnning ilgari o‘chib ketishi, yirtilishi natijasida ma’no mavhumligiga sabab bo‘lgan o‘rinlarni va ayni shu nusxadan ko‘chirilgan keyingi nusxalardagi matn bo‘laklarini qiyoslash orqali interpolyatsiyani ajratib olish mumkin.

16-rasm (slayd taqdimoti uchun maxsus)



Ilmiy-tanqidiy matn – matn tarixining muallif matniga yaqin variantini ilmiy texnologik dalillar asosida asliyat yozuvida taqdim qilish. Ko‘p nusxaga ega manba matni ustida ishlash. Uning ilmiy tanqidiy matnini tayyorlash butun injiqliklari bilan o‘ta nozik va mas’uliyatli to‘xtovsiz aniqlik va intizom talab etuvchi zahmatlari bilan mashaqqatli ammo samarali mehnatdir.

Interpolyasiya (lot.*inter* – orasida va *polio* – tekislayman);1) matematikada – bir necha nuqtada berilgan funksiya qiymatlaridan shu nuqtalar orasidagi nuqtalarda funksiyaning taqribiy qiymatini topish. Interpolyasiyadan farqli ravishda ekstrapolyasiya da funksiyaning taqribiy qiymati berilgan nuqtalardan tashqaridagi nuqtalarda topiladi; 2) statistikada – voqealar qatoriningoraliq hadlari taxminan qiymatlarini matematik usulda hisoblab topish; qatorning noma’lum qiymatlarini topish. Qatorning noma’lum qiymatlari qatorning ma’lum hadlari orqali hisoblab topiladi yoki miqdori aniq bo‘lgan boshqa hadlar bilan o‘zaro bog‘liqligi asosida aniqlanadi.

G‘arbiy Yevropada XVIII asrda fanga kirib kelgan germenevtika metodologiyasi hozirda barcha jamiyatlarning boshqaruv bo‘g‘inlarida ham qo‘llaniladi. Bu istiloh avvalda muqaddas diniy kitoblarning matnini o‘rganar va tushuntirar edi. Ayniqsa, teolog faylasuflar Vilgelm Diltey (1833-1911) va Fridrix Shleyermaxer (1768-1834) germenevtikani (yunon asotirlariga ko‘ra, yo‘lovchi va savdogarlarning homiy xudosi “Germes” so‘zidan olingan) o‘sha davrlar G‘arb olamining konstitutsiyasiga aylangan Bibliya matnlaridagi hamd-sano va na’tlarni keng sharhlashda qo‘lladilar. Keyinchalik esa o‘rta va kenja avlod germenevtlari tomonidan bu metod universallasildi. Edmund Gusserl va Martin Xaydegger germenevtikani fenomenologiya hamda ruh haqidagi fanlarga olib kirdi.

Xaydeggerning shogirdi Xans Georg Gadamer (1900-2001) esa metod imkoniyatlarini kengaytirib interprotatsiya sferalarini ko‘rsatib berdi. Matnni tushunish hech qachon oxiriga yetmaydi, – deydi u “Haqiqat va metod” asarida. Zamondoshimiz Yurgen Xabermas esa germenevtikani sotsiologiyaga olib kirdi. G.M.Mayer, X.Volf, A.Bek, F.Ast va boshqalar bu tushuntirish amaliyotini falsafaga olib kirishga uringanlar. Shulardan, Xristian Volf (1679-17654) (Kand uni ratsionalistik dogmatizmga ayblagan) va “Aristotel sillogizmi”, “Suqrot” kabi falsafiy traktatlarning muallifi Genrix

Mayer (1867-1933) teologiyada ham, hatto teosofiyada ham matnlarni sof aqliy quvvat bilan germenevtik talqin qilishni targ'ib qilganlar. Germenevtikaning ibtidoiy shakli o'rta asrlar G'arbda teologiya, patristika, sxolastika, egzetika bag'rida yashaganini bilamiz. Lekin, har qanday ta'limotning o'zgacha shaklida bo'lsa ham o'z o'tmishi bor. Talqin masalasi bilan bog'liq dastlabki asar Gomerning "Iliada"si bo'lgan. "Iliada" va "Odisseya" asarlarini talqin etgan grammatistlar germenevtiklar rovida namoyon bo'lishgan. Keyinchalik, musulmon Sharqida ham germenevtikadan yuksak ta'limotlar paydo bo'ldi. So'zimizga dalil shuki, **Qur'oni Karimni tafsir qilmoqchi bo'lgan mufasssrga qo'yiladigan talab juda katta bo'lgan. U 8, 10, ba'zi manbaalarga ko'ra, 13 ilmni mukammal egallagan bo'lishi lozim.** Tafsir va ta'vil vazifalarini germenevtika metodiga shartli ravishda qiyoslash mumkin. So'fiylarning sharhi esa ta'vildir. Bu metod jamiyatning boshqaruv tizimida musulmon mamlakatlarida katta o'rin tutadi. Ma'lumki, shariat fiqh qoidalari asosiga qurilgan. "Fiqh" so'zining etimologiyasi esa arab lug'atlarida "anglash", "anglatish" degan ma'noni bildiradi. Bu esa interpretatsiya hodisasi bilan bog'liq "tushunish", "tushuntirish" ma'nolariga uyg'undir. Fiqhda, xususan, ahli sunna val jamoat mazhabining asosiy shoxtomirini tashkil qiluvchi Hanafiya maktabi metodlari shunday mukammal ishlanganki, mana asrlar o'tsa-da undan istifoda etib kelinmoqda. Bizning konstitutsiyamiz va boshqaruv tizimimiz nizomlari ham sof milliy, diniy manfaatlar ustiga qurilgan bo'lib, uni aholiga chiroyli yo'sinda anglatib borish lozim bo'ladi. Fiqh rukn (asos)lari 4 qismga (1. Ijmo, 2. Qihs, 3. Ra'y, 4. Urf) bo'linadi. Sunna tarmog'dagi boshqa maktablarda masolixi murosala, istexson ruknlariga ham amal qilinib fiqhiy masalalar hal qilinadi. Qadriyatlarimiz silsilasiga kiruvchi ushbu fiqh asoslari va moturidiy e'tiqod ta'limi bizda germenevtik sferaning nechog'li chuqur va kengligini bildiradi. Deylik, o'lkamizdagi urf-odat fiqhiy metodning to'rtinchi (Urf) rukniga ko'ra, diniy qadriyatdan past bo'lmasa (masalan: ko'pchilik bilan taom tanavvul qilishda sunnatga muvofiq ovqatga hamma teng qo'l ursal, bizda milliy odat bo'yicha yoshi katta kishi boshlab beradi) milliy urfimizga qarab harakat qilinadi. Tafsir va ta'vil, buyuk mutafakkirlarimizning asarlariga sharhlar bizning eng katta ma'naviy boyligimizdir. Vaholanki, G'arbda Gadamerga davriga kelib

germenevtika to‘la ratsionallashti. Gadamera kelsak, haqiqiy tushunish mahsuldor munosabatdir. Bu bilan tarixni bevosita tushunish jarayonini yengillashtiradi. Tarixshunos bir muallif asarini o‘rganar, tarixiy hodisani talqin qilar ekan, o‘rganuvchining tasavvuri, mulohazalari doimo asar mazmunini, ruhiyatini aynan aks ettira olmaydi, degan xulosaga keladi (Истина и метод. М.1988. Стр.304).

Falsafiy germenevtika Forobiyning aksidensiyalarning ko‘chish qonunida ham bor. “Rasoil ul-xukamo” ta’kidlashicha, tushunishdan avval anglash keladi. Buni zamondoshlarimiz E.Betti, Gadamer germenevtika va uning sferalari to‘g‘risidagi ta’limotlarida endigina ta’kidlashdi. Gadamerning matnlarni qismlarga bo‘lib o‘rganish to‘g‘risidagi ta’limoti to‘g‘risida ham fikrimiz shunday. Bu metodning ham tajribadan o‘tgan usuli aslida bizda mavjuddir.

Sharh ilmining fundamental asosi ilohiy kalom – Qur’oni karim nuzuli jarayonida shakllandi. Bu muqaddas Kitob qanday nozil bo‘lgan bo‘lsa, shundayligicha bitta harfi ham o‘zgarmasdan saqlanib kelayotgani Payg‘ambar zamonidan to bugungacha uzluksiz silsila bilan bog‘langan tarixiy hujjatlarda to‘la aks etgan. Tarixiy hujjatlarning ishonchliligi rad qilib bo‘lmas ilmiy dalillar bilan isbotlangan. Har bir oyatning nozil bo‘lish o‘rni, vaqti, sababi insoniyat tarixida hayotining barcha jihatlarini eng kichik nuqtalarigacha to‘la qayd etib borilgan yagona shaxs Muhammad alayhissalomning hadislarini orqali o‘ta aniqlik va butun tafsilotlari bilan o‘rganilgan.

Buyuk vatandoshimiz, muhaddislar imomi Muhammad ibn Ismoil Buxoriy 600 ming hadis to‘plagan. Hadislarni jamlashda to‘qson ming kishi huzurida bo‘lgan. Ushbu hadislar ichidan saralangan 7 mingdan ortiq sahih hadisni o‘n olti yilda yozib tugatgan mashhur الجامع الصحيح (“Sahih hadislar to‘plami”) kitobiga kiritgan. Savol tug‘iladi: nima uchun shuncha yillik mehnat bilan to‘plangan 600 ming hadis ichidan faqat 7 ming hadisgina kitobga kirdi. Sababi, qonuniy ravishda Qur’onning sharhi maqomida e’tirof etilgan manba – hadislar har qanday shubhadan, taxminlardan batamom xoli bo‘lsin. Zero, har bir fan sohasida qo‘yilgan bosh masalaning yechimlari Qur’onda va hadislarda bevosita yoki bilvosita mavjud ekan, tafsir, hadis, aqida, fiqh, usuli fiqh, siyrat ilmi bilan shug‘ullanuvchi olimlar o‘rganilayotgan mavzularga nihoyatda

mas'uliyat bilan yondashishga majburdir. Olimlar bu majburiyatni muvaffaqiyat bilan uddalaganiga tarix guvoh. Jahon fani olamida erishilgan yutuqlarga nazar solib, 1400 yillik tarixga ega islomiy ilmlar ko'plab cho'qqilarni zabt etganini ko'rish mumkin. Tibbiyot, falakiyot, matematika, geometriya, fizika, kimyo qator fan sohaslarida Yevropa uchun inqilobiy taraqqiyot yo'llarini Sharq tafakkuri ochib bergani bugun ayon haqiqat. Ammo filologiya sohasida ham yutuqlar uchun sharoit Sharqdan boshlangani tor doiradagi mutaxassislar uchun ham ma'lum emas. Sharqda ijtimoiy-gumanitar fanlarning kelib chiqishi Qur'oni karim va uni o'rganish bilan bog'liq. Statistika sohasida qo'yilgan birinchi qadamlar ham ulug' Kitob matnini yig'ib, mushaf holiga keltirish jarayonida amalga oshdi. Qur'on avval surama-sura, oyatma-oyat yig'ib tartibga solingach, so'zlar soni, hatto harflar miqdorigacha aniq hisobga olingan. *Yig'ilgan suralar matnlari va tartibini o'rganish hozirgi kunda matnshunoslik deb atalmish ilmning mukammal tamoyilini, dastavval, islom kelgan davrdayoq yuzaga chiqargan edi.* Shu jarayonning o'zida bir guruh olimlar fonetika ilmiga asos solishdi. Sharqda bu ilm hanuzgacha *ilmi tajvid* nomi bilan atalmoqda. Ilmi tajvid olimlari Qur'oni karim matni asosida arab tili fonetikasini batafsil bayon qilib berganlar. Natijada, bu ilmni o'zlashtirgan yevropalik olimlar uchun ilmi tajvidda mavjud fonetik hodisalarni tushuntiruvchi qonuniyatlarni o'z tillariga tatbiq qilish va ularni o'zlariga tushunarli atamalar bilan nomlashdan iborat vazifagina qolgan. Leksikografiya va leksikologiyaning Yevropadagi ravnaqi ham Qur'onni o'rganishdan orttirilgan bilim va tajribalarni o'zlashtirishdan boshlangan. Holbuki, lug'atlarga hozirgi kun nuqtayi nazaridan qo'yiladigan talablar arab leksikografiyasida bundan ming yil ilgari ham bor edi. Ya'ni, Qur'on uchun tuzilgan lug'atlar X asrdan boshlab izohli va ikki tilli lug'atlar uchun zamin yaratish bilan birga, hozirgi kunda, deyarli barcha tillarning lug'atlarini tuzish uchun zarur bo'lgan leksikografik usullarga asos bo'ldi.

Bu dalillarni keltirishimizdan maqsad, Qur'oni karimni ko'klarga ko'tarish va shu yo'l bilan uning qadrini oshirish emas. Zero, u insonning bunday yordamiga muhtoj ham emas. Balki aytmoqchimizki, barcha fanlar sohasidagi izlanishlar har qanday taxminu gipotezalardan mutloq xoli ekani ilm ahli tomonidan to'la tan olingan mustahkam ilmiy asosga qurilsagina, tom ma'noda

haq qaror topadi. Ilohiy Kalom shunday ishonchli manba bo'lgani uchun ham uning haqiqatidan ilhomlangan olimlar natijalar ketidan natijalarga erishdilar. Olamga, odamga munosabatda paydo bo'lgan sog'lom ilmiy mezon tufayli to bugungacha ulkan kashfiyotlar davri davom etmoqda.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Gloss, konyektura va interpolyatsiya mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot-materiallar to'plash. Mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg'ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. Qaysi asar uchun tuzilgan lug'atlar X asrdan boshlab izohli va ikki tili lug'atlar uchun zamin yaratdi?

- A) "Aveto"
- B) "Mahbub-ul qulub"
- C) "Farhod va Shirin"
- D) Qur'oni Karim

2. "Germenevtika – tushuntirish ilmi" kitobini kim yozgan?

- A) A.Abdullayev
- B) Sh.Jabborov
- C) S.Ayniy
- D) B.Jumamurodov

3. Matnshunos qo'lyozma matnini tuzishda, asosan qanday tadqiqot usullarini amalga oshirishi kerak?

- A) Asar matni tarixini o'rganish, asar matnini tuzish
- B) Asos matn yaratish uchun ma'lum bir tamoilga tayanish
- C) Asar matnini nashrga tayyorlash
- D) Barcha javob to'g'ri

4. Turon zaminning turli o'lka mahalliy tillari tovush sistemasiga mustaqil holda qachon moslashgan?

- A) Mil.avv.V-IV asrlar
- B) Mil.avv. VI-IV asrlar
- C) Mil.avv.IV-III asrlar
- D) Mil.avv. VII-V asrlar

5. Turon zaminimizda qaysi yozuv yodgorliklari keng miqyosda va uzoq vaqt iste'molda bo'lganligi bilan alohida ajralib turadi?

- A) Pahlaviy yozuvi
- B) Baxtariy yozuvi
- C) Sug'd yozuvi
- D) Xorazmiy yozuvi

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat-ul-abror. Ilmiy tanqidiy matn. (Tuzuvchi: Porso Shamsiyev), –T.: Fan, 1970.

2. Zohidov R. Sabotul o'jizin – ilmiy-adabiy manba. –T.: Muharrir, 2012.

3. Ismoilov M. Hujjatshunoslik va Markaziy Osiyo diplomatikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Akademiya nashri, 2010.

4. Ishoqov F. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. T.: “Fan”, 1976.

5. Yo'ldoshev Ibrohim. O'zbek kitobchilik terminologiyasi. – T.: Fan, 2004.

6. Komilov N. Bu qadimiy san'at... T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

7. Munirov Q. Bebaho xazina. –T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi, 2002.

8. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.

9. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – T.: Fan, 1971.

10. Navoiy asarlari lug'ati (tuzuvchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.

13- MAVZU

KO‘P NUSXALI QO‘LYOZMALAR USTIDA ISHLASH

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad – “Ko‘p nusxali qo‘lyozmalar ustida ishlash” nazariy ma’lumotlar asosida o‘rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni mumtoz adabiyotga, ilmga, millatga hurmat, kitobsevarlik ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mumtoz adabiy asarlarni o‘qishga jalb etish, tadqiqot qilishga maylni uyg‘unlashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: diqqatni jalb qiluvchi savollar – tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma’ruza

Darsning rejası:

1. Ko‘p nusxali qo‘lyozmalarni qiyoslash metodlari.
2. Tayanch manbani aniqlash.
3. Matnni muqoyasa etishning ilmiy usullari.

***Tayanch so‘z va asosiy tushunchalar:** hoshiya, jahon sivilizatsiyasi, sharh va kiritma matnlar, qadimiy yozma manbalar, ma’naviy boylik, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammadrizo Ogahiy.*

Vatanimiz qadimdan jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo‘lgan. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi mahsuli – qadimiy yozma manbalar xalqimizning buyuk ma’naviy boyligidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu yozma manbalarni tadqiq etuvchi sharqshunos va manbashunos olimlar uchun yanada keng imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Qaror bilan O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Sharqshunoslik instituti qadimiy qo‘lyozmalarni saqlash, o‘rganish, ilmiy asosda tadqiq etish va targ‘ib qilish bo‘yicha mamlakatimizdagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilandi.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qo‘lyozmalar fondi jahondagi eng nodir ma‘naviy xazinalardan biri bo‘lib, olti bo‘limda 26 ming jild qo‘lyozma, 39 ming jild toshbosma kitoblar va 10 mingga yaqin tarixiy hujjatlar, xattotlik namunalari va miniatyuralar kolleksiyasi mavjud. Ular Markaziy Osiyo, xorijiy Sharq xalqlarining tarixi, madaniyati, adabiyoti va fanlari tarixini o‘rganish uchun birlamchi manbalardir. Mazkur fond 2000-yilda noyob ilmiy va madaniy obyektlardan biri sifatida YuNESKOning Jahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Eng noyob qo‘lyozmalarimizdan biri – kufiy xati bilan yozilgan Qur‘oni karimning IX asrda ko‘chirilgan qadimiy va tabarruk nusxasi. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Mirzo Abdulqodir Bedil, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammadrizo Ogahiy va boshqa ko‘plab ulug‘ alloma va mutafakkirlarning qo‘lyozmalari saqlanmoqda. Ular tarix, adabiyot, til, falsafa, huquq, falakiyot, matematika, kimyo, tabobat, dorishunoslik, jug‘rofiya, islom ilmlari hamda boshqa sohalarga doir bo‘lib, zamonaviy ilm-fan va taraqqiyot uchun nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega. Ilmiy xodimlarining yillar davomida olib borgan samarali faoliyati natijasida fondagi qo‘lyozmalarning 11 tomli “Sobraniye vostochnix rukopisey” (“Sharq qo‘lyozmalari to‘plami”) katalogi nashr qilingan. Fanning turli sohalari bo‘yicha alohida mavzuli kataloglar chop etilgan. 2016-yilda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondining 13 ming jildan ortiq qo‘lyozmalari tavsifini o‘z ichiga olgan ingliz tilidagi elektron katalog tuzildi. Xorazmiy, Beruniy, Farg‘oniy, Ibn Sino, Roziy, Forobiy, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk qomusiy olimlarimizning qator ilmiy asarlari o‘zbek va rus tillarida ilmiy-izohli tarjima shaklida, “O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar” turkumiga kiruvchi kitob-

albomlar nashr qilingan. Bugun tarixiy manbalarni nashr qilishda ko'proq Amir Temur va temuriylar davri, nisbatan kam tadqiq etilgan XVI-XIX asrlar manbalariga e'tibor qaratilmoqda. So'nggi besh yilda 10 dan ortiq tarixiy manbalar nashrdan chiqarildi. Ularning aksariyati matnshunoslik tadqiqotlari mahsulidir. Bu – xalqimizning “Ilm bilan shug'ullanish igna bilan quduq qazish bilan barobardir” degan hikmatining hayotiy isboti. Olimlarimiz orasida qo'lyozmalar ustida 10-20-yillab, hatto umrbod ishlayotgan insonlar bor. Institut xalqaro hamkorlikda ham qator ishlarni amalga oshirmoqda. YuNESKOning Samarqanddagi Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti bilan hamkorlikda mashhur shoir va tarixnavis Muhammadrizo Ogahiyning Xiva xonligi tarixiga oid “Jome' al-voqeoti sultoniy”, “Zubdat at-tavorix” asarlari, Jumaquli Humuliyning Buxoro xonligi tarixiga doir “Tarixi Humuliy” asarining tanqidiy matnlari, Tokio universiteti bilan hamkorlikda nashr qilingan “Kokandskoye xanstvo: vlast, politika i religiya” monografiyasi shular jumlasidan.

17-rasm (slyayd taqdimoti uchun maxsus)



Dastlabki vazifa – Sharq qo'lyozmalari fondini saqlash, ta'mirlash, boyitish va muayyan tizimga keltirish, arab yozuvidagi turli mavzularga oid yozma yodgorliklar va epigrafika namunalari

tadqiq qilish, ularni asl holida, o‘zbek va xorij tillarida ilmiy izohlar, tarjimalar bilan nashr etish, ilmiy muomalaga kiritishdan iborat. Ilgari fan va Markaziy Osiyo tarixiga oid manbalar ko‘proq ishlangan bo‘lsa, endi falsafiy mazmundagi, mumtoz Sharq adabiyotiga oid qo‘lyozmalarga asosiy e‘tibor qaratamiz. Bu manbalarning maxsus kataloglarini tuzishni boshladik.

Asar ko‘p nusxalarda saqlanib qolgan bo‘lsa, matnshunos ulardan foydalanib, eng ishonchli matnni yuzaga keltirishi kerak bo‘ladi. Buning uchun mavjud nusxalarning barchasi tadqiq nazaridan o‘tkazilishi va xillanishi lozim.

Ko‘p nusxali matnlarni tadqiq etishda nusxalarni xillash jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- nusxalarni topish;
- o‘zaro aloqadorlik darajasini aniqlash;
- ko‘chirilgan nusxalarni aniqlash;
- davrini, o‘rnini aniqlash.

Avvalo, ularning o‘zaro aloqadorlik darajasi aniqlanadi. Keyin ularni xillashga o‘tamiz:

- nuqsonsiz;
- nuqsonli;
- to‘la;
- to‘la bo‘lmagan;
- o‘zgartirib ko‘chirilgan;
- o‘zgartirilmay ko‘chirilgan va hokazo.

Shundan keyin bir nusxani tayanch nusxa qilib belgilab olinadi va keyingi barcha ishlar shu nusxa atrofida olib boriladi. Tayanch nusxa uchun, odatda, qadimiy, benuqson va to‘la saqlangan qo‘lyozma mo‘tabar sanaladi.

Bundan keyingi ishlar quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- nusxani taqqoslash;
- o‘qilishdagi farqlarni aniqlash va ularni tayanch nusxaga yig‘ish;
- o‘qilishdagi farqlarni tahlil qilish;
- qistirilgan va tushib qolgan o‘rinlarni aniqlash.

Matniy farqlar faqat kotibning xatosi tufayligina yuzaga kelib qolmasdan, balki ongli ravishda qilingan bo‘lishi ham mumkin. Matnshunos olimlardan professor M.Hamidova matn tuzish jarayonida aniqlangan bunday tekstologik xarakterdagi va matniy

tafovutlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb biladi.

1. Kompozitsion o‘zgarishga olib kelgan farqlar
2. Imloviy xatolar
3. Matnning ma’noviy buzulishiga olib kelgan tafovutlar.

Lixachev rus matnshunosligi haqida yozadi: “Matniy farqlarning tahlilidan maqsad – matn tarixini yaratish, saqlanib qolgan nusxalarning aloqadorlik darajasini, geneologik munosabatlarini aniqlash”.

Turli yillarga oid yuzdan ortiq qo‘lyozma va toshbosma nusxaga ega muayyan asarning *matn tarixini* o‘rganmasdan, uning tili yoki badiyatini yoritish borasida qanchalik zahmat chekilmasin, bu tugal ish hisoblanmaydi. Ko‘p nusxali matn tarixini o‘rganish esa asarning qo‘lyozma, toshbosma nusxalarini turli tasniflar asosida guruhlash, har tomonlama qiyoslash va saralashdan boshlanib, oxiri – aniq va ishonchli dalillar bilan quvvatlangan ilmiy-tanqidiy matnni tayyorlash bilan nihoyalanaadi. Shundan so‘nggina bu asar bo‘yicha kelajakda qilinadigan tadqiqotlar, xoh adabiyotshunoslik, xoh tilshunoslik yo‘nalishida bo‘lsin, qat’iy ravishda tayyor ilmiy-tanqidiy matn asosida olib borilishi kerak.


Matnshunos olim Nafas Shodmonov ayni muammoga e’tibor qaratib, uning yechimini “matn tasarrufi” tushunchasi bilan izohlaydi: “Adabiy manba tadqiq etilib, istifodaga kiritilgach, muallif va uning merosini “tashuvchilar” tomonidan yo‘l qo‘yilgan xato hamda nuqsonlar ular zimmasidan tadqiqotchi zimmasiga o‘tadi. Shuning uchun **manba tadqiqot doirasida to‘g‘ri tasarruf etilishi, nuqsonlar bartaraf qilinishi lozim.** Tasarruf uchun, eng avvalo, matnshunoslik mafkurasi, ilmiy tafakkur shakllangan bo‘lishi kerak. U yetarli darajadagi nazariy bilimlar bilan bir qatorda psixologik, mantiqiy va estetik tahlil, tasavvur, yechim topish malakalarini o‘zlashtirish orqali hosil qilinadi”⁷².

Afsuski, ko‘p hollarda bu qoidaga amal qilinmaydi. Masalan, So‘fi Olloyor asarlari ham hali tanqidiy matn tayyorlab ulgurilmasidanoq, doktorlik, bir necha nomzodlik tadqiqotlari,

⁷²Шодмонов Н. Адабий манба ва матн тасарруфи. // Адабий манба: ўрганишнинг замонавий тамойиллари ва нашр муаммолари. Мақолалар тўплами. Қарши, “Насаф”, 2013, 15-бет.

shuningdek monografiya, risolalar uchun obyekt bo‘ldi. Qilingan ishlarning ilmiy qimmatini kamsitmagan holda ta’kidlash kerakki, So‘fi Olloyor asarlarining, xususan, “Sabotul ojizin”ning to‘la ilmiy- qiyosiy ko‘rsatkichlar bilan asoslangan tanqidiy matni tayyorlanmaguncha natijalar mukammal bo‘lmaydi.

18-rasm (slyad taqdimoti uchun maxsus)



Matn tarixini o‘rganish ishishartli ravishda to‘rt bosqichda kechadigan qiyoslash va saralash tamoyillaridan iborat bo‘ladi.

Avvalgi bosqichda qo‘lyozmaning paleografik tekshiruv natijalari (qog‘oz va xat turi, qo‘lyozmaning saqlanish holati) asosida sanalar bo‘yicha ajratildi: Masalan:

1. XVIII asr
2. XIX asr
3. XX asr.

Ikkinchi bosqichda guruhlangan qo‘lyozmalarning xati o‘zaro solishtirildi. Masalan: “Barcha qo‘lyozmalar nastaliq xatida bitilgan bo‘lib, XVIII asrga oid nusxalarida dag‘allik (ba‘zan nasxga moyillik), XIX asrga oid nusxalarda nafislik, XX asrga oid nusxalarda husnixat va badxatlik qorishiq kelgani kuzatildi”.

Uchinchi bosqichda sanalar bo‘yicha ajratilgan har bir qo‘lyozma matnining to‘liqligiga ko‘ra o‘zaro qiyoslanadi. Natijalarni shunday umumlashtirish mumkin:

– matnning boshi va oxiri bo‘lgani holda, ayrim baytlar tushib qolgan;

– boshlanishi yo‘q qo‘lyozmalar;

– oxiri yo‘q qo‘lyozmalar;

– boshlanishi ham, oxiri ham yo‘q qo‘lyozmalar.

To‘rtinchi bosqichda o‘zaro qiyos natijasida saralangan nusxalarning “matn butunligi” aniqlandi. Qadimiylik, to‘liqlik, husnixat, saqlanish sifatining yaxshiligi kabi qiyos uchun muhim jihatlarning imkon qadar bitta qo‘lyozma matnida jamlanishi – “tom butunlik”ni, bittadan ortiq qo‘lyozma matnlari asosida jamlanishi – “matnlararo butunlik”ni anglatadi. Keyin shu asosda ilmiy-tanqidiy matn uchun asos nusxalar tanlanadi. Asos nusxalar ishonchli matnni tiklash silsilasining avvalgi halqasini tashkil qiladi.

O‘zaro muqoyasa jarayonida qo‘lyozma nusxalarining bir umumiy manbadan ko‘chirilgan yo ko‘chirilmagani aniqlanadi. Ishonchli matnni tiklash silsilasining ikkinchi halqasi “faol nusxalar”, uchinchi halqasi esa “yordamchi nusxalar” deb ataladi.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Ko‘p nusxali qo‘lyozmalar ustida ishlash mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumot-materiallar to‘plash. Mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg‘ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollar:

1. Toshbosma nusxa ko‘chiruvchi kotiblarning ko‘pchiligi yana qanday bilimlarga ega bo‘lganlar?

- A) shoir, hunarmand
- B) yozuvchi, musavvir
- C) shoir, tarjimon
- D) tarjimon, hunarmand

2. “Kalila va Dimna” kimning tarjimasi?

- A) Almaiy
- B) Abduljamil
- C) A.Murodov
- D) Mirjalol

3. Toshkentda Porsev matbasida Abdummanof Xoji tomonidan tayyorlangan “Xamsa”ning toshbosma nashri nechanchi yilda ko‘chirilgan?

- A) 1323-1906-yillarda
- B) 1423-1905-yillarda
- C) 1425-1908-yillarda
- D) 1323-1905-yillarda

4. Qori Abdummanofning qaysi tillarda ko‘chirilgan qo‘lyozmalari saqlanib qolgan?

- A) arab, fors
- B) uyg‘ur, arab
- C) arab, turkiy
- D) fors, so‘g‘d.

5. “Sharq” so‘zi lug‘atlarda qanday ma’noni anglatadi?

- A) Ochmoq, bayon qilmoq
- B) Tushuntirmoq, yoritmoq
- C) Izohlamok, bo‘laklab kesmoq
- D) A, B, C javoblar to‘g‘ri.

***Ma’lumot uchun:* Toshkentda saqlanayotgan nodir qo‘lyozma manbalar O‘zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida:**

“Katta Langar” Qur’oni (VIII asr).

Qur’oni karimning hijriy 665-yili mashhur xattot Ismoil Muborak ko‘chirgan nusxasi (ma’nolarining forsiy tarjimasi bilan).

Ayyub Muhammad o‘g‘li. “Tarixi Ajam” (XVI asr).

Burhoniddin Marg‘inoniy. “Al-Hidoya”, milodiy 1773-yili ko‘chirilgan.

Abdulloh Xatib Tabriziy. “Mushkatul Masabix” (XVI asr), milodiy 1737-yili ko‘chirilgan.

Akbarxo‘ja Xoji. “Bahrul Mavvaj”, xattot Abulfaqir Rahimberdi, hijriy 1244-yili ko‘chirilgan.

Mahmud Zamaxshariy. “Tafsirul Kashshof” (XIII asr).

Abul Qosim Qushayriy. “Tafsir al Qushayriy” (XVIII asr).

Jurjoniy. “Zaxiratul Xorazmshoh” (XII asr) hattot Abdurahmon, milodiy 1685 yili ko‘chirilgan.

O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida:

Burhoniddin Margʻinoniy mashhur “Hidoya” asarining Movarounnahr, Afgʻoniston, Misr, Qoshgʻar, Hindiston va boshqa yurtlarda koʻchirilgan saksonta qadimiy nusxasi.

Avrangzeb Olamgir topshirigʻiga koʻra bir guruh salohiyatli faqihlar tuzgan toʻrt jildli “Fatovoyi Olamgiriya” kitobining bir necha nusxasi.

Xattot Mavlaviy Soqiy Muhammad Balxiy-Buxoriy 1671-yilda koʻchirgan Saʼdiddan Taftazoniyning “Sharhi aqoid”, 1683-yilda koʻchirgan Nasafiyning “Aqoid” asari qoʻlyozmalari.

Ulugʻ muhaddis Abu Iso Termiziy “Ash shamoilun nabaviya” asarining 1510- va 1533- yillari koʻchirilgan qoʻlyozmalari.

Mashhur faqih va mufassir Ishoq ibn Ibrohim Shoshiy taʼlif qilgan “Kitabul usul” asarining milodiy 1371-yili xattot Sadruddin ibn Alouddin koʻchirgan noyob qadimiy nusxasi.

Faqih Abu Lays Samarqandiyning 1467-yili koʻchirilgan “Xazonatul fikh” asari qoʻlyozmasi.

Abul Barakot Nasafiy (vafoti milodiy 1310-yil) ning “Al-Vofiy” va “Minoral usul fi fusulul fiqh” asarlari.

Sharafudsin Ali Yazdiy mashhur “Zafarnoma”sining jahonda yagona bebaho nusxasi.

Abulqosim Nosiruddin Muhammad ibn Yusuf Samarqandiy-Madaniyning (vafoti -1258) “Kitabul multaqtat

fil fatovoil hanafiyya” (“Multaqati Nosiriy”) asarining shayx Hibbatulloh milodiy 1395-yilda koʻchirgan noyob nusxasi.

Kamoluddin Abdurazzoq Koshoniy-Samarqandiyning (vafoti - milodiy 1330) “Kitabul istilohot” va “Risola fil qazo val qadar” asarlarining milodiy 1381-yili koʻchirilgan qoʻlyozmalari.

Xoja Muhammad Porso Buxoriyning (milodiy 1348-1420) “Tafsiri Qurʻon”, “Sharhi fiqhi Kaydoniy”, “Al-hadisul arbayin” kabi asarlari qoʻlyozmalari.

14- MAVZU

YAGONA NUSXALI QO‘LYOZMA USTIDA ISHLASH PRINSIPLARI

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad – “Yagona nusxali qo‘lyozma ustida ishlash prinsiplari” nazariy ma’lumotlar asosida o‘rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni mumtoz adabiyotga, ilmga, millatga hurmat, kitobsevarlik ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad – talabalarni mumtoz adabiy asarlarni o‘qishga jalb etish, tadqiqot qilishga maylni uyg‘unlashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: adabiy albom, diqqatni jalb qiluvchi savollar – tarqatma materiallar, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma’ruza

Darsning rejası:

1. Sharq va G‘arb olimlarining yagona nusxali qo‘lyozma ustida ishlash tajribalari.

2. D.S.Lixachev usuli. Bu xususda o‘zbek matnshunoslarining ilmiy qarashlari.

3. Yagona nusxali qo‘lyozmani o‘rganishda yondosh manbalarni tanlash tamoyillari.

***Tayanch so‘z va asosiy tushunchalar:** yagona nusxali qo‘lyozma ustida ishlash tajribalari, hoshiya, jahon sivilizatsiyasi, sharhva kiritma matnlar, qadimiy yozma manbalar, ma’naviy boylik, ijodkorlik mahorati, matn interpretatsiyasi, nashr tipi, matn joylashuvi, nashr yordamchi apparati.*

Matnshunoslik sohasi qo‘lga kiritgan yutuqlar badiiy asar mazmuni, g‘oyasining to‘la ochilishida ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

O‘zbek matnshunosligi taraqqiyot bosqichi bevosita Alisher Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matnlarni tuzishishlari bilan bog‘liq holda yuzaga keldi. Shoir asarlari ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda S.Mutallibov, G‘.Karimov, P.Shamsiyev, A.N.Kononov, A.Qayumov, H.Sulaymonov, S.G‘aniyeva, Sh.Eshonxo‘jayev,

L.Xalilov singari zahmatkash olimlar faol ishtirok etishdi.⁷³ Bu matnshunoslar o‘zlarining amaliy ishlari bilan o‘zbek matnshunosligida matn tuzishning eng ishonchli va maqbul yo‘llarini belgilab berdilar.

Badiiy asar muallifning yaratuvchanlik va ijodkorlik mahoratini to‘la namoyon etar ekan, bu imkoniyat og‘zaki va yozma muloqot faoliyati mahsuli bo‘lgan matnda o‘z aksini topadi.

Hozirgi zamon filologiyasida matnni tahlil etishda ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan yagona qoida yo‘q. Matn interpretatsiyasi matn ustida ishlayotgan olimning fanning qaysi yo‘nalishida ish olib borishiga bog‘liq. Masalan, D.S.Lixachev matnni ijodkor fikrining nutqiy ifodasi, qo‘lyozmada ongsiz ravishda sodir etilgan xatolar matn tushunchasiga kirmaydi, matndan tashqari holatlar muallif ixtiyorisiz vujudga kelgan bo‘ladi, deb ta‘kidlaydi.⁷⁴

Matn tahliliga tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashgan olimlar uning mohiyatini lisoniy, kommunikativ, strukturaviy, mazmuniy xususiyatlar zanjiri belgilashini e‘tirof etadi. Tilshunos olim M.Irisqulov fikricha, matnning asosiy xususiyatlaridan biri uning uzil-kesil tugal fikr anglatishidir. Matn yaratilgandan keyin tinglovchida kim? qachon? qayerda? qanday? – kabi qo‘shimcha savollarga o‘rin qolmaydi. Har qanday matn fikrlar majmuyi bo‘lib, o‘zaro uzviy bog‘langan mulohazalarni o‘z ichiga oladi. Matnning chegarasini uning yaratuvchisi (ya‘ni yozuvchi, bayon qiluvchi) belgilaydi.⁷⁵

Matnga bo‘lgan turli xil an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlar tadqiqotchida faqat cheksiz keng tasavvur emas, balki badiiy asar xususiyatlarini baholashda qiyinchiliklar ham tug‘diradi.

⁷³Қаранг: Алишер Навоий. Танланган асарлар. II жилд, III китоб. Нашрга тайёрловчи Ф. Каримов. – Т.: Ўздавнашр, 1949; Алишер Навоий. Хамса. Сабаъи сайёр. Танқидий матн. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. – Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1956; Алишер Навоий. Хамса. Фарҳод ва Ширин. Танқидий матн. Нашрга тайёрловчи П. Шамсиев. –Т.: ЎзССР ФА нашриёти, 1963. Алишер Навоий. Хамса. Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. – Т.: Ўз ССР ФА нашриёти, 1959–1960.Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. I. Ғаройиб ус-сигар.Нашрга тайёрловчи Ҳ. Сулаймонов. – Т.: ЎзФА нашриёти, 1959.Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. Илмий-танқидий матн. Нашрга тайёрловчи с. Ганиева. –Т.: Фан, 1961.Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Танқидий матн. Нашрга тайёрловчи Ш. Эшонхўжаев. –Т.: Фан, 1965. Халилов Л. Алишер Навоийнинг “Тарихи мулуки Ажам” асарининг кўлзма нусхалари. Навоийга армуғон. Тўплам. –Т.: Фан, 1968.

⁷⁴Қаранг: Д. С. Лихачев. Текстология. Краткий очерк. –М. – Л.: Наука. 1964. – Б.9.

⁷⁵Қаранг: Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – Б.142.

*Adabiyotshunos Suvon Meli fransuz tanqidchisi va ijodkori Rolan Bartning matni asarga bog'liq, asarga yuzma-yuz, hatto qarama-qarshi qo'yib o'rganish asosida bu ikki hodisaning ham bog'liq, ham farqli tomonlarini chuqur va asosli tarzda ochishga erishganligini ta'kidlaydi. Suvon Melining yozishicha, Rolan Bart "Asardan-matnga" deb nomlangan maqolasida matn – asarning parchalanib ketishi emas, aksincha, asar matn ortidan sudralib yuruvchi tasavvur shleyfi, yoki boshqachasiga matn faqat ish jarayonida, ishlab chiqarishda bilinishi, matn harakatsiz qotishi mumkin emas, u o'z tabiatiga ko'ra, nimanidir oralab, masalan, asar oralab, qator oralab harakatlanishi zarurligini, asar nari borsa, kam ramziy, uning ramziyligi tezda yo'qqa chiqadi, ya'ni u harakatsizlikda qotib turadi. Matn bo'lsa, to'liq ramziy: o'zining butun ramziy ko'lamida tushunilgan, idrok etilgan va hazm qilingan asar, ayni shu matn ekanligini, boshqacha aytganda, asar matnlashuv jarayonini boshidan kechirganda, shunga erishilgan taqdiridagina badiiy asar bo'la olishini qayd etadi.*⁷⁶

Albatta, matn tushunish, o'rganishdagi bunday mulohazalarga munosabat bildirish maxsus ilmiy tahlilni talab etadi. Lekin, lozim bo'lsa, Rolan Bartning matn haqidagi fikrlariga qo'shimcha qilardikki, birinchi holatda matn tushunilgan, idrok etilgan va hazm qilingan taqdirda ham u yaxlit bo'lmasa, asar bo'la olmaydi. "Matnshunoslik nuqtayi nazaridan mazmunan va shaklan yagona tugal yaxlitlikka ega bo'lgan matngina asar bo'la oladi"⁷⁷. Ikkinchi holatda, matnning yaratilishi maqsadiga ko'ra farq qiladigan guruhlari: og'zaki, yozma (qo'lyozma), bosma va ommaviy kommunikatsiya turlari uchun birdek ta'rif bo'la olmasligini e'tiborda tutish zarur.

Demak, matn kishi nutqiy faoliyatining mahsuli bo'lib, shakllangan ijodiy yondashuv natijasidir. Har qanday holatda matn moddiy olamning obyekti, uni tasvirlash va yaratish mumkin bo'ladi.

Matnshunos matnning to'liq tuzuvchisi, ham tuzatuvchisi, idrok etuvchisi hisoblanadi, ammo muallif fikri, g'oyasining o'zgartiruvchisi bo'lolmaydi. Qo'lyozma matnini tuzish faqat belgi

⁷⁶ Каранг: Мелиев Сувон. "Янги танкид" (Ғарб адабиётшунослигидаги бир оқим хақида) // Шарқ юлдузи, 2010, № 4. – Б.167–168.

⁷⁷ Д. С. Лихачев. Текстология. Краткий очерк. –М.–Л.: Наука, 1964. – Б.10.

yoki harflar izchilligi emas, balki kuchli yaxlit maqsadning natijasi hamdir. Matnshunos qo‘lyozma matnini tuzishda, asosan, quyidagi tadqiqot usullarini amalga oshiradi:

- asar matni tarixini o‘rganish;
- asar matnini tuzish;
- asos-matn yaratish uchun ma’lum bir tamoyilga tayanish;
- asar matnini nashrga tayyorlash.

Matnshunoslikda asar *matni tarixini* o‘rganish dastlabki muhim vazifadir. Hatto *D.S.Lixachev asar matni tarixini matnshunoslikning mustaqil tadqiqot predmeti deb biladi.*⁷⁸ A.Habibullayev: “Muayyan matn haqidagi barcha ma’lumotlar yig‘indisini matn tarixi deymiz”⁷⁹, – deb yozadi. Matn tarixi asarning shakl va mazmuni haqida aniq tasavvur beradi, matnga oid bilvosita va bevosita ma’lumotlarning barchasini qamrab oladi.

Matn tarixini o‘rganish uchun bilvosita beriladigan ma’lumotlarga muallif tomonidan qayd etilgan muqaddima yoki debocha kiradi. Ma’lumki, “Odobu tasnif”ga ko‘ra, mumtoz asarlar matni “Bismillohi rahmoni rahim” so‘zidan keyin hamd, tahmid, na’t, shoh madhi o‘rin oladi. Shundan keyin muallif o‘z asariga homiylik qilgan shaxsni ulug‘laydi. Alohida ibora “Ammo ba’d” so‘zidan so‘ng muallif o‘zi va yozmoqchi bo‘lgan asari to‘g‘risida ixcham ma’lumot yoki shu xususida ayrim tafsilotlarni zikr etadi. Buni mualliflar muqaddima yoki debocha deb ataydilar.⁸⁰ Mana shundan so‘ng asarning asosiy mazmuni bayon etiladi.

Ba’zi holatlarda boshqa tillardan qilingan tarjimalar ham matn tarixi uchun qo‘shimcha manba vazifasini bajaradi. Bunday ishlarda asar matni tarixini o‘rganish uchun bevosita manba bo‘ladigan o‘rinlar uchraydi. Shuning uchun ham asos-matn tuzishda tarjimalarga ham e’tibor qaratiladi. Jumladan, Firdavsiy “Shohnoma” asari ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda asarning al-Fotih ibn Ali al-Bundariy al-Isfaxoniy tomonidan 1218–1227-yillari yaratilgan arab tilidagi tarjimasiga murojaat etilgan.

Matn tarixini o‘rganishda tarixiy yoki adabiy yodgorlikning yaratilgan va ko‘chirilgan davrini aniqlash, manba nusxalari ko‘p

⁷⁸ Қаранг: Д.С.Лихачев. Текстология. Краткий очерк. –М.– Л.: Наука, 1964. – Б.7.

⁷⁹ Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2000. – Б.114.

⁸⁰Қаранг: Мадраимов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. – Т.: Фан, 2007. – Б. 26.

bo'lsa, ularning o'zaro bog'liqligini o'rganish muhim hisoblanadi. Matnshunos M.Hamidovanning yozishicha: "Shu sabab yodgorliklar matni ustida tekstologik tadqiqotlar olib borishdan avval shu yodgorlikning barcha mavjud qo'lyozmalarini yig'ishimiz, ko'chirilish davri va matniy to'liqligiga qarab tasniflashimiz va shundan keyingina ular tarixini kuzatishimiz lozim. Chunki har bir qo'lyozma birinchi navbatda o'z davrining tarixiy yodgorligi sifatida o'zigagina xos bo'lgan muayyan tarixga ega"⁸¹.

Adabiyotshunos Sh.Eshonxo'jayevning ta'kidlashicha, qo'lyozma nusxalar klassifikatsiyasida tarixiylik prinsipiga amal qilinsa, nusxalarning har qaysisi bir-birini to'ldiradi, aniqliklar kiritiladi, chalkashliklar ochib tashlanadi, qo'lyozma nusxalar o'rtasidagi munosabatlar aniq ko'rinib, qilingan ilmiy ishning natijasi sifatli chiqadi, qo'lyozma nusxalar harakati aniq ochilib, ilmiy-tanqidiy matn muallif tahririga yaqinlashadi.⁸²

Tadqiqotchi H.Nazarova "Zubdat ut-tavorix" asari qo'lyozmalari va ularning stemmasi" nomli maqolasida "Zubdat ut-tavorix" asarining mavjud oltita nusxasi va ularning o'zaro shajaraviy bog'liqligini aniqlashga harakat qilgan.⁸³ Bunday tadqiqot asar ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash ishini osonlashtiradi, matn ilmiy saviyasi qimmatini oshiradi.

Matn tarixini o'rganish qo'lyozmaning muallif nusxasiga yaqin matnini tiklashga yaqindan yordam beradi. Asl muallif matnini yaratishda faqat tashqi ma'lumot va hujjatlar emas, balki tadqiqotchi ixtiyorida bo'lmagan yoki muallifning "ijodiy laboratoriya"sigacha xos bo'lgan o'rinlar ham inobatga olinadi.

Qo'lyozma yoki toshbosma nusxani asl holi ya'ni muallif qalamiga eng yaqin bo'lgan variantini yaratish matnshunoslikda asos-matn tuzish hisoblanadi. Matnshunos asar asos-matnini tuzishda ishga mexanik tarzda yondashmasligi, matn rasman-shakliy o'rganish bilan cheklanmasligi zarur. Balki matn tuzuvchi ishning

⁸¹ Мавжуда Шокир кизи Ҳамидова. Алишер Навоий "Садди Искандарий" достонининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи. Ф.ф.док. ил. дар. олиш ёзил. дисс. – Т., 1994. – Б.37.

⁸² Эшонхўжаев Ш. "Лисон ут-тайр"нинг илмий-танқидий матнни тузишда фойдаланилган қўлёзма нусхаларининг тавсифи. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. Танқидий матн. – Т.: Фан, 1965. – Б. 31.

⁸³ Қаранг: НазароваХ. Огаҳийнинг "Зубдатут-таворих" асари қўлёзмалари ва уларнинг стеммаси// Шарқшунослик.Илмийўплам. 2009, № 14.

estetik qimmatini saqlovchi vositalarga ham ahamiyat qaratishi, mavjud qoidalarga amal qilish bilan birga asarning oʻziga xos xususiyatini idrok etishi ham lozim boʻladi. Masalan, Gulxaniy “Zarbulmasal”ining ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda asarning tili va adabiy uslubini saqlashga harakat qilinganligi matnshunos F.Ishoqov tomonidan taʼkidlangan. Adabiyotshunosning yozishicha, “asar badiiy nasrning XVIII asr oxiri – XIX asr boshlariga mansub boʻlib, bevosita moddiy hayot voqealari hikoya qilinganidan, uning til materiali ham oʻziga xos, rang-barang, adibning nutq uslubi ham adabiy tilimizning ogʻzaki qolipiga yaqindir. Muallif tili va uslubini saqlash maqsadida asar matnini tuzishda tayanch nusxada boʻlmasda, uning oʻxshash nusxalarida mavjud ifoda, iboralar matnga kiritilgan”⁸⁴.

Bundan koʻrinadiki, matnshunos matn tuzishda “muallif erki”ni nazarda tutgan va asar xarakteridan kelib chiqib ilmiy-tanqidiy matn tayyorlagan. Lekin biografik va yuridik mazmundagi matnlarni tuzishda bunday holatlarga aslo yoʻl qoʻyib boʻlmaydi.

Asos-matn matnshunos tomonidan amalga oshirilgan eng toʻla, mukammal ishdur. Lekin asos-matnni qayta tuzish yoki unga tuzatishlar kiritish ham mumkin. D.S.Lixachev asos-matnni “kanonicheskiy”, yaʼni “yopiq, tugallangan” matn deb bilib, quyidagicha xulosaga keladi: “Asos (kanonicheskiy) matn oshkoro boʻlmagan kelishuv, klassik asarlarni nashr etishda ommaviy muhokama va ilmiy taqrizlar natijasida vujudga keladi”⁸⁵.

Bizningcha, muayyan asar asos-matni tuzilgandan soʻng ham, qadimiy nusxalar aniqlanishi yoki muallif nusxasining topilishi kabi sabablar bilan asos-matn qayta tuzilishi mumkin. Bunday holda asos-matnni yakunlangan deb hisoblab boʻlmaydi. Masalan, Firdavsiy “Shohnoma”sining 1966-yili E.Bertel’s muharrirligida tanqidiy matni tuzilgan edi.⁸⁶ 1991-yili M.N.Osmanov asarning qadimiy qoʻlyozmalarini aniqlash asosida asarning ilmiy-tanqidiy matnini qayta yaratdi.⁸⁷

⁸⁴Исхоқов Ф. Гулханий “Зарбулмасал”ининг илмий-танкидий матни. Ф.ф.док. ил. дар. олиш ёзил. дисс. автореф. – Т., 1997. – Б.37.

⁸⁵Қаранг: Д. С. Лихачев. Текстология. Краткий очерк. –М. – Л.: Наука, 1964. – Б.82.

⁸⁶Фирдоуси. Шах-наме. Критический текст. – М.: Наука, 1966.

⁸⁷Фирдоуси. Шах-наме. Т.1. В девяти томах. Научно-критический текст. Разночтения, примечания и приложения М. -Н. Османова. – М.: Наука, 1991.

Matnshunosning asos-matn tuzish uchun tamoyil tanlashiga nashr tipi maqsadi sabab bo'ladi. Asos-matn yig'ma-tanqidiy, ilmiy-tanqidiy kabi tamoyillardan biri tanlanishi bilan amalga oshiriladi. A.S.Reyserning yozishicha, matnshunos asos-matn tuzishda matnni boshqa ma'lumotlar asosida tekshirishdan o'tkazadi va matnni asl holati darajasiga yetkazishga harakat qiladi.⁸⁸

Yig'ma-tanqidiy matn matnshunos aniqlagan, imkoniyatida bo'lgan manba nusxalari asosida amalga oshiriladi. *D.S.Lixachev qayd etishicha*, bunday matn tayyorlashda xuddi dastlabki yoki muallif qalamiga yaqin nusxa tiklanadi. Birinchi holatda, mavjud qo'lyozmalardan asos nusxa tanlanishiga ahamiyat beriladi. Ikkinchi holatda, matnshunos asos uchun eng tuzatilgan nusxani, ya'ni boshqalariga qaraganda tashqi nuqsonlari kam – so'z tushib qolmagan, xatolar, noaniq joylar oz nusxani jalb etadi. Ammo ba'zi nusxalardagi tuzatishlar soxta, xattot tomonidan kiritilgan, asl nusxaga muvofiq bo'lmasligi ham mumkin. Bu, albatta, inobatga olinadi. Uchinchi holatda esa, matnshunos manbalardan nisbatan qadimiysini tanlaydi. To'rtinchi holatda, matnshunos asos qilib nisbatan individual belgilari kam bo'lgan nusxani tanlab, yig'ma-tanqidiy matn tuzadi.⁸⁹

Bunday matn xususida A.Erkinov o'zining xulosalarini shunday bildiradi: “Yig'ma-tanqidiy matn muallif dastxati yoki muallif nazorati ostida ko'chirilgan qo'lyozma mavjud bo'lmagan taqdirda amalga oshiriladi. Bunday matn muallif yaratgan asl matnni yaratish yo'lidagi bir bosqichdir. Muallif dastxati yoki muallif nazorati ostida ko'chirilgan qo'lyozma mavjud bo'lganida ilmiy-tanqidiy, ya'ni muallif yaratgan matnga yaqin matn to'g'risida gapirish mumkin”⁹⁰. Shuning uchun ham M.N.Osmanov “Shohnoma”ning 1966-yildagi nashrini tanqidiy matn emas, balki yig'ma matn deb hisoblaydi. M.N.Osmanov fikrini ilmiy-tanqidiy matn tuzishda qo'lyozmalar bazasining kamligi, matn turli tahrirlar aralashuvidan tuzilganligi, asarning kompozitsion qurilishi to'liq ifodalanmasligi, ya'ni ba'zi

⁸⁸ Каранг: С. А. Рейсер. Палеография и текстология нового времени. – М.: Просвещение, 1970. – Б. 125.

⁸⁹ Каранг: Д. С. Лихачев. Текстология. Краткий очерк. –М.–Л.: Наука, 1964. – Б.85–86.

⁹⁰Эркинов А. Матншуносликка кириш. –Т.: Республика таълим маркази, 1997. – Б.23.

dostonlarning qo‘shilishi yoki ajratilishi kabi asosli kamchiliklarni ko‘rsatish bilan tasdiqlaydi.⁹¹

Matnshunos yig‘ma-tanqidiy matn tayyorlashda tayanch nusxani tanqidiy kuzatuvga olmaydi. Ya‘ni, tayanch nusxa matni aynan ko‘chiriladi, qolgan asos nusxalar matnidagi farqli o‘rinlar ilmiy apparatda qayd etib boriladi. Xususan, 1948-yili A.N.Kononov “Mahbub ul-qulub” asarining yig‘ma (svodniy) matnini yaratdi.⁹² So‘zboshidan ma‘lum bo‘ladiki, asar matni Leningrad hamda Toshkent qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan sakkizta qo‘lyozma nusxa asosida tiklangan. Ularning eng qadimiysi XVI asr boshlarida kitobat qilingan Leningrad nusxasi (2095) bo‘lib, matn shu qo‘lyozma asosida tuzilgan, boshqa nusxalar solishtirilib, ular orasidagi farqlar ilmiy apparatda ko‘rsatib borilgan. A.N.Kononov so‘zboshida o‘zi amal qilgan matn tuzish tamoyili xususida hech qanday ma‘lumot bermaydi. P.Shamsiyev asar nusxalari qiyosiy o‘rganilganligidan bo‘lsa kerak, “Mahbub ul-qulub”ning bu matnini chog‘ishtirma matn deydi.⁹³

Asos-matnini ilmiy-tanqidiy tamoyil bilan tuzish manbaning eng qadimiy, benuqson, to‘la deb topilgan nusxasi aniqlangandan so‘ng amalga oshiriladi. P.Shamsiyev jahon qo‘lyozma fondlarida Navoiy asarlari qadimiy qo‘lyozmalarining topilishi shoir asarlari ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish uchun katta imkoniyat berganligini qayd etadi.⁹⁴ Xususan, P.Shamsiyev Qozon davlat universiteti qo‘lyozmalar fondida saqlanayotgan “Xamsa”ning XVI asrda ko‘chirilgan deb taxmin qilingan nusxasining aniqlanishi haqida shunday yozadi: “Xamsa”ning ana shunday qadimiy nusxasining topilishi navoiyshunoslikda muhim hodisadir. Chunki u ulug‘ shoir asarining yagona ilmiy-tanqidiy matnini tuzish ishini yanada takomillashtirish yo‘lida zarur manba xizmatini o‘taydi, matn

⁹¹ М.-Н. Османов. Фирдоуси. Шах-наме. Т.1. Научно-критический текст. Разночтения, примечания и приложения. – М.: Наука, 1991. – Б.5–17.

⁹² Алишер Навоий. Возлюбленный сердце. Сводный текст подготовил А. Н. Кононов. – М.–Л., 1948.

⁹³ Каранг: Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. –Т.: Фан, 1986. – Б.23.

⁹⁴ Каранг: Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. –Т.: Фан, 1986. – Б.9.

tuzishdagi ko'pgina masalalarni, chigalliklarni hal etishga yo'l ochadi"⁹⁵.

Ilmiy-tanqidiy matn tuzishda matnshunosning asar mazmuni, g'oyasi, matn tarixini chuqur bilishi va aniq xulosaga kelishi muhimdir. Chunki tayanch deb olingan nusxa matni ham boshqa asos nusxalar singari tanqid ostida bo'ladi.

Yig'ma-tanqidiy matn matnshunos aniqlagan va bir qator ko'rib chiqqan manba nusxalari asosida amalga oshiriladi. Matnshunos yig'ma-tanqidiy matn tayyorlashda tayanch nusxani tanqidiy kuzatuvga olmaydi. Ya'ni, tayanch nusxa matni aynan ko'chiriladi, qolgan asos nusxalar matnidagi farqli o'rinlar ilmiy apparatda qayd etib boriladi. Yig'ma-tanqidiy matn asarning asosiy matni hisoblanadi, lekin ilmiy-tanqidiy matn tuzish talablariga javob bermaydi. Yig'ma-tanqidiy matn tuzishning muhim ahamiyati shundaki, asar matni tiklanadi va keyingi matnshunoslik ishlarining keng va chuqur tarzda olib borilishiga zamin yaratiladi. Ilmiy-tanqidiy matn tuzishda muallif nusxasi (avtograf) bo'lmagan taqdirda asarning qadimiy, ishonchli nusxasi asos sifatida olinib, boshqa nusxalardan yordamchi manba sifatida foydalaniladi. Matnshunos ishga jalb etilgan nusxalarni qiyosiy o'rganib, tayanch nusxadan kelib chiqqan holda barcha matniy o'zgarishlarni tagxat (ilmiy apparat)da qayd etib boradi. Tuzilgan ilmiy-tanqidiy matn yodgorlik yozilgan grafikada nashr qilinishi uning ilmiy qimmatini oshiradi.

Ko'p nusxali manba ilmiy-tanqidiy matnini tuzishda nusxalarni saralash muhim hisoblanadi. R.Zohid qayd etganidek, ko'p nusxali manba matni ustida ishlash, ayniqsa, uning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash butun "injiqlik"lari bilan o'ta nozik va mas'uliyatli, to'xtovsiz aniqlik va intizom talab etuvchi "zahmat"lari bilan o'ta mashaqqatli, ammo sermahsul mehnatdir.⁹⁶

Asl matnni tuzishda yig'ma-tanqidiy bilan ilmiy-tanqidiy yondashuv farqlanadi. Lekin ba'zan, ularni chalkashtirib yuborish hollari uchramoqda. Jumladan, Q.Ergashev Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilishi xususida so'z yuritar ekan, "Mahbub ul-qulub"ning A.N.Kononov tomonidan tayyorlangan nashrini asar ilmiy-tanqidiy matni deb hisoblaydi.⁹⁷

⁹⁵Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. –Т.: Фан, 1986. – Б.11.

⁹⁶ Қаранг: Сўфи Оллоёр. Саботул-ожизин. –Т.: Санъат журнали, 2007. – Б.6.

⁹⁷ Қаранг: Эргашев Қ. Матншунослик давр талаблари даражасидами? Давра суҳбати//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010, 2 июл, № 27 (4062).

Uchinchi bosqichda sanalar bo'yicha ajratilgan har bir qo'lyozma matning to'liqligiga ko'ra o'zaro qiyoslanadi. Natijalarni shunday umumlashtirish mumkin: matnning boshi va oxiri bo'lgani holda, ayrim baytlar tushib qolgan; boshlanishi yo'q qo'lyozmalar; oxiri yo'q qo'lyozmalar;



Asl matnni tiklash, tuzish ishida boshqayondashuvlarham mavjud. Jumladan, D.S.Lixachevning A.A.Shaxmatov haqidagi bir maqolasida shunday yoziladi: “Shaxmatovdan oldingi matnshunoslar matn tuzishda rekonstruksiya yasab, oldindan tuzilgan konsepsiyalariga matnni moslashtirishgan. A.A.Shaxmatov o'zining ilmiy tadqiqotlarida burilish qildi. U avval matnni tadqiq etdi, qo'lyozmalar bog'liqligini aniqladi, kelib chiqishini belgiladi va so'ngra nashr ettirdi”⁹⁸. Agar to'g'ri mulohaza yuritsak, bunday matn tashqi belgilar asosida tiklanadi, matn tarixini yaratish, nusxalarning aloqadorlik, bog'liqlik munosabatini aniqlash kabilar mutlaqo tadqiq doirasida bo'lmaydi. Bunday matnga “aniq bir matn, lekin asl asosmatn emas”⁹⁹ deb qaraladi.

A.Habibulayevning qayd etishicha, asarning qurama matni ham tuzilishi mumkin. Bunda mavjud qo'lyozma nusxalar matni asosida matniy tafovutlar birma-bir almashtirilib boriladi. Aniq nusxa

⁹⁸ Д. С. Лихачев. Шахматов – текстолог. – М.: Изв. АН ССР. Сер. Литература и язык. 1964, т. 23, вып. 6. – Б. 481.

⁹⁹ Қаранг: Д. С. Лихачев. Текстология. Краткий очерк. –М. –Л.: Наука, 1964. – Б. 48.

tanlanmaydi. Bunday matn rus matnshunosligida XVIII – XIX asrlarda qoʻllanilgan.¹⁰⁰

Shunday qilib, asl matnni yuqorida keltirilgan yondashuvlardan biri tanlanganidan soʻng, kitobga aylanadi. Tomashevskiyning taʼkidlashicha, “matn bilan ishlashda birinchi navbatda kitob tabiatini aniq bilish zarur”¹⁰¹.

Matn kitoblashuvida *nashr tipi, matn joylashuvi, nashr yordamchi apparati* kabilarning tayyorlanishi muhim. Bugungi kunda millionlab kitobxon talabini qondirish uchun koʻplab yirik – “Fan”, “Maʼnaviyat”, “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi”, “Choʻlpon”, “Meros”, “Sharq”, “Oʻzbekiston”, “Yangi asr avlodi”, “Tasvir”, “Oʻqituvchi”, “Adolat” singari nashriyotlar faoliyat olib borishmoqda. Nashr tiplari kitobxonning talabi va qiziqishlariga moslashtirib maxsus tayyorlanadi. “Nashrni kimga moʻljallanganini hisobga olmaslik – bu kitobni havoga sovrishdir”¹⁰².

Oʻzbek matnshunosligi nazariy va amaliy aspektlari, tadqiqot usullari xususida P. Shamsiyev, H. Sulaymonov, A. Hayitmetov, B.Valixoʻjayev, I.Abdullayev, A.Rustamov, S.Gʻaniyeva, Sh.Sirojiddinov, N.Rahmonov, V.Rahmonov, N.Jumaxoʻja, M.Hamidova, Habibullayev, I.Bekjonov kabi olimlarning ilmiy-tadqiqotlari va maqolalarida qimmatli fikr-mulohazalarni uchratish mumkin.¹⁰³

¹⁰⁰Қаранг: Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. –Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2000. – Б.131–132.

¹⁰¹ Б. В. Томашевский. Писатель и книга. Очерк текстологии. Издание второе. – М.: Искусство, 1959. – Б.18.

¹⁰² С. А. Рейсер. Палеография и текстология нового времени. – М.: Просвещение, 1970. –Б.258.

¹⁰³Ҳамид Сулаймон. Алишер Навоий куллиёти қўлёзмалари тадқиқотидан. Адабий мерос. –Т.: Фан, 1973. –Б. 83–92; Ҳайитметов А. Матншунослик муаммолари//Шарқ юлдузи, 1982, №3.–Б.167–171; Валихўжаев Б. Ўзбек классик адабиёти тарихини ўрганишнинг долзарб масалалари//Ўзбек тили ва адабиёти. 1988, №4.– Б.20–24; Ўша муаллиф. Қўлёзмаларнинг умумий рўйхати ва тавсифли каталогини яратишнинг долзарб муаммолари. Қўлёзмалар– дурдоналар. Илмий-амалий анжуманга тақдим этилган маърузалар баёни. Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси. –Тошкент, 2001. – Б.8–11; Абдуллаев И. Манбашунослик ва матншунослик муаммолари. Қўлёзмалар–дурдоналар. Илмий-амалий анжуманга тақдим этилган маърузалар баёни. Имом ал-Бухорий халқаро жамғармаси. – Тошкент, 2001. – Б.13–16. Рустамов А. Матнчилигимиздаги нуксонлар//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1982, 3 сентябр; Ўша муаллиф. Матнчилигимиздаги нуксонлар//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1982, 10 сентябр; Ғаниева С. Матн тиллари хусусида//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1982, 22 окт; Раҳмонов В. Матн ва матншунослик//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1982. 24 окт;

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Yagona nusxali qo‘lyozma ustida ishlash prinsiplari mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumot-materiallar to‘plash. Mavzuga doir lta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg‘ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. Nechanchi asrda Turkistonda tipo-litografik korxonalar ochildi?

- A) XIX asrning birinchi yarmida
- B) XIX asrning ikkinchi yarmida
- C) XX asr boshida
- D) XIX asrning birinchi choragida.

2. Markaziy Osiyoda 1868-yili ilk bor tipografiya rasman qayerda tashkil etilgan?

- A) Qo‘qon
- B) Buxoro
- C) Toshkent
- D) Xiva.

3. Qaysi olim Turkistonda kitob bosishning ikki: tipografik va litografiya usuli borligini qayt etib o‘tgan?

- A) M.Hakimov
- B) Q.Sodiqov
- C) S.A.Reyser
- D) A.Steyn.

4. Kitob bosishning litografiya (toshbosma) usulida dastlabki asosiy ishni kim bajargan?

- A) muhaqqih
- B) muharrir
- C) xattot
- D) xattot va muhaqqih

Ҳамидова М. Манбашуносликнинг баъзи масалалари//Шарқ машъали. 1999, № 1–2. – Б.31–38; Жабборов Н. Матншунослик давр талаблари даражасидами? Давра суҳбати//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010, 2 июл; Нусратулло Атоулло ўғли Жумахўжа.Истиклол ва она тилимиз. –Т.: Шарқ, 1998; Зоҳидов Р. Матншунослик давр талаблари даражасидами? Давра суҳбати//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010, 2 июл; Бекжонов И. Таклифлар жўяли, аммо...//Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2010, 16 июл. № 29 (4064). –Б. 3.

5. Toshkentda birinchi xususiy litografik matbaa ochilgan. Bu S.I.Laxtin matbaasi ekanligini qaysi adabiyotshunos aytib o‘tgan?

- A) R.Mahmudova
- B) Q.Munirov
- C) M.Hakimov
- D) Q.Sodiqov.

6. Toshkentdagi yirik matbaalardan biri bo‘lgan O.A.Porsev matbaasi qachon tashkil etilgan?

- A) 1889-yilda
- B) 1887-yilda
- C) 1886-yilda
- D) 1888-yilda

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat-ul-abror. Ilmiy tanqidiy matn. (Tuzuvchi: Porso Shamsiyev), –T.: Fan, 1970.

2. Zohidov R. Sabotulojizin – ilmiy-adabiy manba. –T.: Muharrir, 2012.

3. Zufarov T. Xat ta’limi. –T.: Meros, 2010.

4. Ismoilov M. Hujjatshunoslik va Markaziy Osiyo diplomatikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademnashr, 2010.

5. Ishoqov F. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. T.: “Fan”, 1976.

6. Yo‘ldoshev Ibrohim. O‘zbek kitobchilik terminologiyasi. – T.: Fan, 2004.

7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: Fan, 2008.

8. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. T.: Muharrir, 2011.

9. Zohidov R. So‘fi Olloyor. Sabotul-ojizin. –T.: San’at jurnali, 2007.

10. Ergashev Q. Matnshunoslik davr talablari darajasidami? // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2010, 2-iyul, № 27 (4062).

15- MAVZU

MATN TARIXINI KOMPLEKS O‘RGANISH

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad – “Matn tarixini kompleks o‘rganish” nazariy ma’lumotlar asosida o‘rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni mumtoz adabiyotga, ilmga, millatga hurmat, kitobsevarlik ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad talabalarni mumtoz adabiy asarlarni o‘qishga jalb etish, tadqiqot qilishga maylni uyg‘unlashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: adabiy albom, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma’ruza

Darsning rejasi:

1. Ijodkor konsepsiyasi, manba yo‘nalishi va matn aniqligi.
2. Matnni boshqa asarlar bilan bog‘liqlikda tekshirish usullari.
3. Birlamchi manbalarni tasniflashdagi qoidalar.

***Tayanch so‘z va asosiy tushunchalar:** ijodkor konsepsiyasi, manba yo‘nalishi, matn aniqligi, yagona nusxali qo‘lyozma ustida ishlash, qo‘lyozma nusxalar asosida nashr etish, “Devonu lug‘atit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq”, ma’naviy merosimiz, qo‘lyozma nusxaning yig‘ma matnini tiklash, “Shohnoma”ning “Boysung‘ur” matni.*

Manbashunoslik – manbalari bo‘lib turli mamlakatlarda chop etilgan qo‘lyozma fondlari kataloglari, xattotlar haqida ma’lumot beruvchi tadqiqotlar, arxiv tavsiflari, katalog to‘plamlari, ayrim shoir va adiblarning turli fondlardagi qo‘lyozmalari haqida tadqiqotlar, xattotlar faoliyati xususidagi ilmiy kuzatishlarga xizmat qilishi mumkin. Ulardagi ma’lumotlar matnshunosning aniq maqsad sari harakat qila olishi imkonini beradi. Chunki tuzilayotgan asar matni qo‘lyozma nusxalarining barcha mavjudlarini ishga jalb etish, nimani qayerdan qidirish mumkinligini bilish pirovard natijaga tezroq yetishning garovidir.

Manbashunosning muayyan asar manbalari haqidagi izlanishlari, asarning qayerdagi fondlarda saqlanib qolganligi, bu manba

nusxalarining saqlanganlik darajasi, to'liq yoki nuqsonli ekanligi, mo'tabar qo'lyozmasining qayerda saqlanishi va hokozolar haqidagi ma'lumotlari matnshunosning oxirgi maqsadga erishish yo'lini ancha qisqartiradi.

Manbashunoslik tadqiqotlari va qo'lyozmalar tavsiflarining hali talab darajasida emasligidan bunday ma'lumotlar tanqisligini doimo his qilib turamiz. Shu bois matnshunoslarni o'z izlanishlarining birinchi bosqichi sifatida o'zi izlab topishi, ya'ni, manbashunoslik izlanishlarini amalga oshirishni chetlab o'tolmasligiga to'g'ri keladi. Shuning uchun juda ko'p adabiy yodgorliklarning matnini nashrga tayyorlashda uning tadqiqot qismidagi izlanishlarni kuzatsak, olimlar avvalo, muayyan asarning manbalarini izlab topish, ularni qiyosiy o'rganish va tahlil qilishdan iborat bir talay ishlarni amalga oshirganliklarining guvohi bo'lamiz.

Manbashunoslikda har bir nusxaning topilishi haqidagi kichik bir xabar ham muhim hodisa hisoblanadi. Chunki undagi ma'lumotlar ham muayyan asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzish ishini yanada takomillashtirish yo'lida zarur manba xizmatini o'taydi. Matn tuzishdagi ko'pgina masalalarni, chigilliklarni hal etishga yo'l ochadi. Matnshunos matnning biror yerida duch kelgan muammoni turli nusxalarni qiyoslash yo'li bilan hal etishi mumkin. Shuning uchun, turli fondlardagi muayyan muallif qo'lyozmalari, muayyan mavzudagi qo'lyozmalarni turkumlashtirib tavsif qilish, muayyan asar qo'lyozmalarini *arxeografik jihatdan qiyoslash* kabi manbashunoslik izlani sharining matnshunoslik tadqiqotlaridagi o'rni beqiyosdir.

Qadimiy qo'lyozmalar ma'naviy merosimizning moddiy asosi bo'lib, ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi millatning tirikligini anglatadi. Ajdodlari tarixidan ibratlanmaydigan avlod ertaga yo'lini yo'qotishi, o'zligini unutib, halokatga yuz tutishi mumkin.

Bugun o'zbek xalqi mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlab, jahon hamjamiyatiga o'zining boy tarixi, tunganmas ma'naviy xazinasi bilan qo'shilayotgan ekan, bu jarayonda har bir soha vakilidan ixtisoslik malakasini tugal darajada egallash talab etiladi. Negaki, har bir fuqarosi yetuk mutaxassis bo'lishga intilgan jamiyatdagina mustaqillik ne'mati tom ma'noda his qilinadi, bu ne'matning qadri oshadi. Natijada har bir fuqaroda bu imkonni boy berib qo'ymaslik,

balki uni oxirigacha saqlash tuyg'usi shakllanadi. Modomiki, shunday jamiyat uchun kurashayotgan ekanmiz, barcha soha vakillari kabi filologlar oldida ham fan doirasidagi turli ixtisoslik yo'nalishlarida keng fundamental tadqiqotlar olib borish vazifasi turadi.

Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda ma'naviy merosni o'rganish, milliy qadriyatlarni tiklash ishlariga e'tibor kuchaydi. Natijada millat ruhiyatida o'z-o'zini anglash tuyg'usi yanada jonlandi, sog'lom va musaffo e'tiqodli ajdodlar qoldirgan nurli merosga voris bo'lish ishtiyoqi uyg'ondi. Albatta, bu xususiyatlar jamiyatning yangilanish va yuksalishga bo'lgan iqtidorini ko'rsatuvchi zaruriy omildir. Endilikda ayni imkoniyatlarni ishga solish, niyat xolisligini amalda sinash davri boshlandi. Shu ma'noda, bugungi holatimiz qadim adabiy manbalarni qo'lyozma nusxalar asosida nashr etish, ularning mukammal izohlar, ilmiy ko'rsatkichlar bilan ta'minlangan tanqidiy matnini tayyorlash, adabiy manbashunoslik va matnshunoslik yo'nalishida yangi ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish masalalarini kun tartibiga qo'ymoqda.

Mumtoz adabiyotimizga doir "Devonu lug'atit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibatul haqoyiq" kabi qadimgi turkiy manbalardan to XIX asr oxirigacha eski o'zbek yozuvida bitilgan asarlarning g'oyaviy-badiiy asosi izchil o'rganilsa, ularga davomli bir butun adabiy hodisa sifatida qarash zarurati seziladi. So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin" asari esa mana shu tizimning muhim halqasini tashkil qiladi.

Olim, mumtoz so'z ustasi So'fi Olloyorning "Sabotul ojizin" ("Ojizlar saboti") asari to XX asr boshlarigacha maktab va madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan, boshlang'ich ta'lim jarayonida sog'lom e'tiqodni shakllantirish dasturi o'laroq e'tirof etilgan. "Sabotul ojizin" ko'pchilik olimlarning tadqiqot obyekti bo'lganiga qaramasdan, bu ishlarda muallif va manbaning qaysidir bitta jihatiga e'tibor qaratilgan. Natijada qo'yilgan muammo yechimi juz'iy xarakterga ega bo'lib, matnning bir parchasi doirasidagina namoyon bo'lgan. Shunga ko'ra, ilmiy-ma'rifiy adabiyotimizning yetakchi vakili So'fi Olloyorning hayotiy-ijodiy biografiyasi haqidagi ma'lumotlarni sof ilmiy zaminda tanqidiy va bir butun holida qayta o'rganishni bugungi vaziyat taqozo qilyapti.

Mumtoz adabiyotimiz bilan bog'liq har bir adabiy hodisaning fundamental tadqiqi o'zaro bog'liq uchta – ijodkor konsepsiyasi,

manba yoʻnalishi va matn aniqligi kabi masalalarni kompleks oʻrganishga qaratilmas ekan, natijaning nazariy va amaliy taʼsiri tor doirada chegaralanib qoladi.

Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat bilan birga qoʻlyozma nusxalarga boʻlgan munosabatlar ancha rivoj topdi. Shohrux zamonida Hirot shahri davlatning siyosiy markaziga aylandi. Shohruxning oʻgʻliva ayni vaqtda vaziri Boysungʻurmirzo nihoyatda noziktabʼ, adabiyot va sanʼat muxlisi, hunar ahlining jonkuyar homiysi edi. “Mirzo Ulugʻbek astronomiya va handasada oʻz davrida yagona boʻlgani kabi Boysungʻurmirzo sheʼr va xatda oʻz davrining eng mashhur kishisi edi”¹⁰⁴.

Boysungʻurmirzo Hirotida ulkan kutubxona taʼsis etadi. Kutubxonada 40 nafar yetuk hunar egalari toʻplanadi. Bular: xushnavis xattotlar, kitob tuzish uchun qogʻoz tayyorlovchilar, muqovasoz, yaʼni sahifalarni toʻplab kitob holiga keltiruvchilar, kitob koʻchirilib, muqovalangach, sahifalarga surat chizuvchilar, oltinrang bilan naqshlovchilar, nodir kitoblarga charm yoki boshqa bir qimmatbaho matodan jild yasovchilar, toʻzigan kitoblarni qayta tiklovchilar, sahifalar hoshiyasi va yozuv oralariga oltin yoki kumush rang purkab bezatuvchilar kabi hunarmand kishilar edi. Boysungʻurmirzoning oʻzi ham mohir xattot boʻlib, u olti xil yozuvni mukammal bilgani, ayniqsa, suls yozuviga mohirligi haqida maʼlumotlar bor. Boysungʻurmirzo kutubxonasida kitob koʻchirish bilan birga qoʻlyozma nusxaning yigʻma matnini tiklash ishlari ham olib borilgan. Boysungʻurmirzo boshliq hunar egalari Firdavsiy “Shohnoma”sining turli qoʻlyozma nusxalarini toʻplab birinchi bor toʻliq va mukammal nusxada koʻchiradilar. Mazkur qoʻlyozma Jaʼfar Tabriziy tomonidan 1425 –1430-yillari koʻchirilib, musavvirlar uni yigirmata surat bilan tasvir etadilar. Boysungʻurmirzo “Shohnoma”ning bu nusxasiga muqaddima yozadi va u adabiyot tarixida “Boysungʻur muqaddimasi” nomi bilan mashhurdir. Mazkur “Shohnoma” va oʻsha davrda koʻchirilgan “Kalila va Dimna”ning nodir nusxasi (unda 35 surat bor, 1460-yili koʻchirilgan) ayni zamonada Tehrondagi Guliston saroyi muzeyida saqlanmoqda.¹⁰⁵

¹⁰⁴ Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Т.: Фан, 1971. – Б.51.

¹⁰⁵ Қаранг: Норкулов Н., Низомиддинов И. Миниатюра тарихидан лавҳалар.– Т.: Фағур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б.79.


“Shohnoma”ning Boysung‘ur nusxasi matnini tuzishda eng ishonchli, ko‘pchilik e‘tirofida bo‘lgan nusxalar tanlanib, ulardan yig‘ma-matn yaratilgan. Yig‘ma-matn asosan qiyosiy-solishtirma, tarixiy, mantiqiy-mazmuniy tahlil etish asosida tuzilgan. Firdavsiy “Shohnoma” asari ilmiy-tanqidiy matnini 1991-yili qayta amalga oshirgan M.N.Osmanov shularni yozadi: “Shohnoma” yaratilgandan so‘ng to‘rt asr davomida muallif matni juda ko‘p o‘zgarishlarga uchradi, poema nusxalari orasida o‘zaro farqlar kelib chiqqa boshladi. Shuning uchun XV asrda temuriylardan mirzo Boysung‘ur olimlarga asarning yagona tahrir matnini ishlashni buyurdi. Boysung‘ur tahriri nomi bilan yuritiladigan nusxa – “Shohnoma” matni rekonstruksiyasi (qayta ko‘rish)ning ishlanishida birinchi tajriba edi. Kirish qismida matn tuzish prinsiplari qayd etilmaydi. Boysung‘ur tahriri zamonaviy ilmiy nashrga tayyorlash jarayonlari talabida bo‘lmagan, chunki XV asrda Sharqda, umuman, Yevropada muallif matni tuzish metodikasi filologlar tomonidan ishlab chiqilmagan edi. Firdavsiy instituti (Eron) ilmiy xodimlarining tadqiqot tahlillaridan ma‘lum bo‘ladiki, Boysung‘ur tahririda muallif matniga sayqal berilgan baytlar ko‘p miqdorni egallaydi. Aynan “Shohnoma”ning “Boysung‘ur” matni XX asrning o‘rtalarigacha asos nusxa vazifasini bajargan”¹⁰⁶.

Umuman, temuriylar davrida yozma yodgorliklarni asrash va qo‘lyozma asarlarni qayta ko‘chirtirish kabi ishlarga katta e‘tibor qaratilgan. Jumladan, “Shohruxmirzoning o‘g‘li Sulton Ibrohim ham mohir hunarmandlarga jahon tasviriy san‘ati namunasi hisoblangan kitoblar tuzdirdi. Shunday kitoblardan biri Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoni nusxasi bo‘lib, Nyu-Yorkdagi Metropolitan muzeyida saqlanmoqda”¹⁰⁷. Temuriylar davrida olib borilgan bunday ishlar Sharq matnshunosligi tarixini o‘rganish imkoniyatini yaratib, ko‘plab ilmiy-nazariy tahlillarni to‘plash sharoitini ham beradi. Boysung‘urmirzo tahriri bilan tuzilgan “Shohnoma”ning yig‘ma-matni Sharq matnshunoslik ishlarining ahamiyatli namunasi.

¹⁰⁶ M. -H. Osmanov, Фирдоуси. Шах-наме. Т.1. Предисловие. – М.: Наука, 1991. – Б.5.

¹⁰⁷ Норкулов Н., Низомиддинов И. Миниатюра тарихидан лавҳалар. – Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б.71.

20-rasm (slayd taqdimoti uchun maxsus)



Древне-шумерские	Древне-египетские	Китайские	
	Глаз	Видеть	目 Глаз
	Лес	Вода	水 Вода
	Горы	Города	山 Гора
	Факел	Огонь	火 Огонь
	Человек	Мужчины	人 Человек
		Женщины	女 Женщина

Qadimgi Misr Yozuvida dastlab undosh tovushlar ajratilgan, bugga qadimgi Misr tilida bir tovushdan tuzilgan logogrammalar bo'lganligi yordam bergan.

Birinchi alifboni eramizdan oldingi ikkinchi ming yillikda *finikiyaliklar* yaratgan. Bu alifbo yigirma ikki xarfdai iborat bo'lgan, harflar faqat undosh tovushlarni yoki undosh va unli tovushlardan tuzilgan bo'g' inlarni ifodalagan. Chunki finikiyaliklar tili semit tillari gruppasiga mansub bo'lib, unda undosh tovushlar asosiy rol o'ynagan. So'zlarning ildizi undosh tovushlardan tuzilgan. Unli tovushlar esa asosan grammatik bog'lanishlarni va so'zning shakli (formasini) ifodalagan. SHu sababli finikiyaliklar alifbosi Yozuvning bo'g'inli va harf-tovushli sistemalari o'rtasida oraliq masofani egallagan. Fipikiyaliklar alifbosida: belgilarning shakli sodda bo'lib, yozish uchun ham, yodlab qolish uchun ham qulaydir.

Milliy adabiyotimiz tarixida XIX asr oxiri XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhitida yetishib chiqqan ijodkorlar adabiy merosi alohida o'rin tutadi. Bu adabiy muhitning zabardast namoyandasi Muhammad Aminxo'ja Muqimiy asarlari hamisha mutaxassislar diqqat markazida bo'lgan. Shoir ijod namunalari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan. Taassufki, ularda Muqimiy asarlari sho'ro davri mafkurasi talabiga ko'ra bir tomonlama talqin qilingan. Natijada shoir nazmiy merosi o'zining asosiy mohiyatidan uzoqlashtirildi. Ya'ni asarlari tahrirga uchradi, qisqartirildi, manbalarda qolib ketdi. Bu esa, o'z navbatida, shoir adabiy merosini yangicha mezonlar asosida xolis va haqqoniy o'rganish zaruratini kun tartibiga qo'yadi. Muqimiy milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida "Sayohatnoma" janrini boshlab bergan. Unda davr ziddiyatlari, chor hukumatining xalq boshiga solgan kulfatlari, zolim va adolatsiz hokim guruhlar ayovsiz tanqid qilindi, xarob va vayron qishloqlar tasvirlandi. Shoir "Sayohatnoma"si o'z vaqtida mutaxassislar tomonidan o'rganildi. "Sayohatnoma"ning joriy nashrlardagi matnini asliyat va unga yaqin variantlarga qiyoslash natijalari ularda ko'plab matniy tafovutlar borligini ko'rsatadi. Bu

esa, o‘z navbatida, asar talqiniga ham jiddiy ta‘sir ko‘rsatgan. Eng yomoni, ular Muqimiyning dunyoqarashini, muayyan voqelikka nisbatan nuqtayi nazarini to‘laqonli ifodalamaydi, ba‘zan esa teskari tasavvur uyg‘otadi. Professor G‘.Karimov: “Sayohatnoma”lar 51 band, 204 misra she‘rni o‘z ichiga oladi. Keyingi vaqtlarda topilgan “Isfara sayohatidan” nomli parcha ham qo‘shilsa ular 244 misraga yetadi”, 2–deya bahstlab fikrlar bildiradi. Izlanishlarimiz natijasida shoir “Sayohatnoma”si jami 77 band, 308 misradan iborat ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Afsuski, 16 band, 64 misra she‘r joriy nashrlardan tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari, ba‘zi bandlar sho‘ro mafkurasi talabiga ko‘ra tahrir qilingan.

“Sayohatnoma” matni faqat to‘rt qo‘lyozma bayozda uchraydi. Shundan shoirning 7521, 1325-raqamli o‘z qo‘lyozma bayozlarida “Sayohatnoma”ning “Qo‘qondan Isfaraga” qismi 21 band, 5666-raqamli qo‘lyozma bayozda asli 30 band bo‘lgan “Qo‘qondan Shohimardonga” qismi 12 band tarzida berilgan. Qolgan 18 bandi tushirib qoldirilgan. 6352-raqamli qo‘lyozma bayozda esa “Sayohatnoma”ning ikkita qismi matni to‘liq holda berilgan (“Qo‘qondan Shohimardonga” – 30 band, “Qo‘qondan Farg‘onaga” – 15 band). “Sayohatnoma”ning “Isfara sayohati” deb nomlangan qismi qo‘lyozma bayozlarda uchramaydi. Yagona nusxasi faqat Xodi Zarifov kitobida 11 band holda uchraydi. Bu haqda quyiroqda fikr bildiramiz.

Asarning qo‘lyozma manbalardagi matni ikki xil tahrirda berilgan.

a) muallif tahriri;

b) kotib tahriri.

Muallif tahriri. “Sayohatnoma”ning “Qo‘qondan Isfaraga” qismi matni 7521-raqamli bayozdan 1325-raqamli bayozga shoir tahriridan so‘ng qayta ishlanib ko‘chirilgan. Birgina misol. 7521-raqamli bayozda (24b-sahifa) “Sayohatnoma”ning

9-bandi:

Gar mevasi bir tup sotar,
Bir pulni yuz yerdin tugar,
Bersa gadoga non agar,
Ming yilda ham dushvor ekan.

Gar mevasi bir tup sotar,
Bir pulni yuz yerdin tugar,

Bersa gadoga non alar,
Ming yilda ham dushvor ekan, –
tarzida “agar” soʻzi “alar” bilan almashtirilgan. Natijada muallif ifodalamoqchi boʻlgan fikrga aniqlik kiritilgan. Shuni ham taʼkidlash joizki, barcha muqimiyshunos olimlar tadqiqotlari uchun 1325-raqamli bayoz asos qilib olingan.

Kotib tahriri. 5666-raqamli qoʻlyozma bayozda “Qoʻqondan Shohimardonga” qismidan 18 bandi qisqartirilgan va bandlar tarkibidagi misra, soʻz va jumlar tahrirga uchragan. Masalan, mazkur “Sayohatnoma”ning 13-bandi mazkur qoʻlyozma bayozda (80b-sahifa):

Ammo nazarda “Roshidon”,
Firdavs bogʻidin nishon,
Jomeʼlari obi ravon, –
shaklida bir misra qisqartirilib koʻchirilgan.

6352-raqamli qoʻlyozma bayozda esa (181b-sahifa):

Ammo nazarda “Roshidon”,
Firdavs bogʻidin nishon,
Jomeʼlari obi ravon,

Sahni gulu gulzor ekan, –tarzida toʻliq oʻqiyimiz.

Yoki mazkur “Sayohatnoma”ning 10-bandi 5666-raqamli qoʻlyozma bayozda (80b-sahifa):

Boz izdihomi voizi,
Badkayf ochilmaydur koʻzi,
Yuqori boshidin tizi,
Ermaklari gulyor ekan.

6352-raqamli bayozda (182b-sahifa) esa 4-misra “Ermaklari koʻknor ekan” shaklida uchraydi. Koʻrinadiki, birinchi banddagi bir misraning tushib qolishi kotibning eʼtiborsizligi boʻlsa, keyingi banddagi soʻz ongli ravishda oʻzgartirilgan.

Bu qoʻlyozmalarni qiyosiy tadqiq qilish natijasida 1325-va 6352-raqamli qoʻlyozma bayozlar tayanch manba sifatida olindi. Shoir asarlari jami oʻn ikki marta nashr etilgan. Shundan 3 tasi “Asarlar toʻplami”, 9 tasi “Tanlangan asarlar”dir. Ammo bu nashrlar talab darajasida emasligi hamisha mutaxassislarning eʼtiroziga sabab boʻlib kelgan. Jumladan, adabiyotshunos Abdurashid Abdugʻafurov bu xususda bunday yozgan edi: “... Muqimiyshunoslikda yana bir

kamchilik – shoir asarlarini qisqartirib, “tahrir” etib va bejab nashr qilishlarda ko‘rinadi”.

Biz faqat shoir “Sayohatnoma”si matni kiritilgan joriy nashrlar haqida fikr yuritamiz. G‘afur G‘ulom tomonidan tayyorlangan (1938, 1942, 1953-yillar) Muqimiy “Tanlanma” asarlarida, Abdulla Olimjonov (1951-yil Muqimiy “Tanlanma” asarlari) va O‘tkir Rashid maktab kutubxonasi uchun nashr ettirgan Muqimiy “Tanlanma” asarlarida (1951-yil), professor G‘.Karimov nashrga tayyorlagan “Tanlangan” asarlari va Muqimiy “Asarlar to‘plami” ikki jildligida “Sayohatnoma” matni uchraydi (1958, 1960, 1973, 1974-yillar).

Ta’kidlash joizki, bu nashrlarning barchasida ham asar matni to‘liq berilgan emas. Bundan tashqari, ularda ko‘plab matniy tafovutlar mavjud. Jumladan, G‘.Karimov xizmati bilan chop etilgan 1958-yilgi nashrdagi “Sayohatnoma”ning “Qo‘qondan Shohimardonga” deb nomlangan qismini 6352-raqamli bayozdagi matnga qiyoslaganda ko‘plab qisqarishlar, bandlar tarkibidagi misra, so‘z va jumlar o‘zgarishga uchrangani kuzatiladi. Bu hol keyingi nashrlarga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, mazkur nashrda asarning 5-bandi quyidagicha berilgan:

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bedonishi,
Bir “Qo‘shtegirmonlik kishi,
Xo‘ja Iso badkor ekan”.

№6352-bayozda esa (182a-b-sahifa):

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bir donishi,
Bir “Qo‘shtegirmonlik kishi,
Xo‘ja Iso bekor ekan”.

Bandning 2-misradagi “bir donishi” so‘zining “bedonishi”ga aylantirilishi muallif badiiy niyati butunlay teskari talqin etilishiga olib keladi. 4-misradagi “bekor” so‘zi “badkor” tarzida tahrir qilinishi misralar mazmuniga mos emas. Professor N. Jabborov mumtoz adabiyot materiallarini o‘rganishda matn tahririning alohida o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Olim bu masalani tadqiq qilish o‘zbek matnshunosligining dolzarb vazifalaridan ekanligiga e’tibor qaratib, bunday yozadi: “D.S. Lixachyovning “Tekstologiya” kitobida tahrirning quyidagi turlari ajratib ko‘rsatiladi:

- 1) g‘oyaviy tahrir;
- 2) uslubiy tahrir;
- 3) asarda faktlarni boyitish, kengaytirishga qaratilgan tahrir;
- 4) bir necha turni o‘zida mujassam etgan qorishiq tahrir.

Muallif matn tahririni bu kabi turlarga ajratar ekan, tabiiyki, rus adabiyoti materiallariga asoslanadi. Bizningcha, bu tasnifni o‘zbek adabiyoti materiallariga ham tatbiq etish mumkin”

5. Matn tahririning mazkur turlari Muqimiy she‘riy asarlarida ham keng qo‘llangan. “D.S.Lixachyov fikricha: “Matning “g‘oyaviy tahrir”dan o‘tishi asarning stilistik jihatlarini bilan bog‘liq bo‘lishi yoki bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Tahrir ba‘zan butun matn tarkibiga, ayrim hollarda uning alohida qismiga aloqador bo‘ladi. Yozma yodgorlikka butunlay teskari ma‘no yuklanishi, matnda u yoki bu xil “g‘oyaviy tozalash” o‘tkazilgan bo‘lishi mumkin. Hatto asarga unda mutlaqo bo‘lmagan g‘oya qo‘shilishi yoki matnda mavjud bo‘lgan g‘oya “qisqartirilishi” hollari ham uchraydi”.

6. Bunday holni mazkur qismning 8-bandida ham kuzatamiz. Band barcha nashrlarda quyidagicha berilgan:

Unda bo‘lus G‘ozi dedi,
Ham mufti, ham qozi dedi,
Yurt barcha norozi dedi,
Qilg‘on ishi ozor ekan.

Ba‘zi tadqiqotlarda Muqimiy asarlarining joriy nashrlariga kiritilmagan “Sayohatnoma”lar matni keltirilib talqin qilingan. Lekin manba haqida biron og‘iz fikr yuritilmagan. Ba‘zi tadqiqotlarda esa mazkur bandlar og‘zaki materiallar sifatida ta’kidlanadi. Jumladan, Sotti Husayn, Homil Yoqubov va G‘ulom Karimov tadqiqotlarida “Sayohatnoma”ning “Qo‘qondan Farg‘onaga” qismidagi yuqorida keltirilgan band o‘zgartirilib quyidagicha keladi:

Belni Muqimiy boyladim,
Shundog‘ yurushni chog‘ladim,
Dunyoni tahqiq ayladim,
Dunyo qurilgan dor ekan.

Mazkur band yuqorida ta’kidlaganimizdek, shoir asarlarining joriy nashrlaridan tushirib qoldirilgan. 6352-raqamli bayozda esa (182b-sahifa) asliyatga mos berilgan. Ko‘rinadiki, “shayladim” so‘zi “chog‘ladim” so‘ziga, “bir mahzi namunang ekan” misrasi “dunyo qurilgan dor ekan” tarzida o‘zgartirilgan. Negadir professor

G'.Karimov doktorlik dissertatsiyasida mazkur band manbasi haqida fikr bildirib: "1954-yil SAGU ekspeditsiya materiallaridan. Odamlar og'zidan yozib olindi", – deydi. Yangi topilgan "Sayohatnoma"ning "Isfara sayohati" deb nomlangan qismi faqat X.Zarifovning "Muqimiy hayoti va ijodi" nomli monografiyasida uchraydi. Olimning ta'kidlashicha, mazkur "Sayohatnoma" matni shoir Charxiy tomonidan 1953-yilda tojikistonlik G'olib Yaqubzoda degan kishi og'zidan yozib olingan. Umuman, Muqimiy "Sayohatnoma"lari matni Muqimiy asarlarining barcha joriy nashrlarida asliyatga nomuvofiq keltirilgan.Tabiiyki, noqis matn asosida xolis va haqqoniy tadqiqot yaratib bo'lmaydi. Shu jihatdan, shoir "Sayohatnoma"lari matnini matnshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilib, qayta nashr etish dolzarbdir.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Matn tarixini kompleks o'rganish mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumot-materiallar to'plash. Mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg'ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. Navoiy asarlarining nasriy bayonining qisqartirilishi hammaga ma'qul kelmagan. Bu haqida kim 1981-yilda to'xtalib tanqid qilgan?

- A) N.G'afurov
- B) N.Komilov
- C) Yunus Latif
- D) Maxsumov

2. "Xamsa" ning nasriy bayonida ba'zi joylar qisqartirilgan bo'lib jami nechta bob tushirib qoldirilgan?

- A) 51 ta bob
- B) 62 ta bob
- C) 53 ta bob
- D) 45 ta bob

3. "Hayrat-ul abror" dostonining 70-yillardagi nashrida nechanchi bobidan nasriylashtirilgan?

- A) 12
- B) 10
- C) 9
- D) 16

4. “Farhod va Shirin” dostoni nasriy bayoni tayyorlangan bo‘lib nechanchi bobdan boshlab nasriylashtirilgan?

- A) 4
- B) 5
- C) 6
- D) 7

5. “Farhod va Shirin” dostonining 10-bobi kimning madhiga bag‘ishlangan?

- A) Badiuzzamon
- B) Boysung‘ur mirzo
- C) Husayn Boyqaro
- D) Mahmud

6. “Layli va Majnun” dostonining nasriy bayoni tayyorlanganda undagi necha bob qisqartirilgan?

- A) 6ta
- B) 5 ta
- C) 7 ta
- D) 8 ta

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayratul abror. Ilmiy tanqidiy matn. (Tuzuvchi: Porso Shamsiyev), – T.: Fan, 1970.

2. Zohidov R. Sabotulojizin – ilmiy-adabiy manba. –T.: Muharrir, 2012.

3. Zufarov T. Xatta’limi. –T.: Meriyus, 2010.

4. Ismoilov M. Hujjatshunoslik va Markaziy Osiyo diplomatikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademnashr, 2010.

5. Ishoqov F. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. T.: “Fan”, 1976.

6. Yo‘ldoshev Ibrohim. O‘zbek kitobatchilik terminologiyasi. – T.: Fan, 2004.

7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: Fan, 2008.

8. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. T.: Muharrir, 2011.

9. Каталог фонда института рукописей. I-том. – T.: Фан, 1989.

10. Каюмов А., Хасанов Б. Жемчужины мудрости и тайны «Семи морей». –Т.: Издательство народного наследия им. Абдулла Кадыри, 2002.
11. Komilov N. Bu qadimiy san’at... T.: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
12. Munirov Q. Amir Xusrav Dehlaviy qo’lyozma asarlari katalogi. –T.: Fan, 1975.
13. Munirov Q. Bebaho hazina. –T.: Imom al-Buxoriy xalqaro jamgarmasi, 2002.
14. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik. –T.: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002.
15. Munirov Q. Sharq qo’lyozmalari. – T.: O’zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1962.
16. Munirov Q., Nosirov A. Alisher Navoiy qo’lyozma asarlari katalogi. –T.: Fan, 1970.
17. Murodov A. O’rta Osiyo xattotlik san’atitarixidan. – T.: Fan, 1971.
18. Navoiy asarlari lugati (tuzuvchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). –T.: G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.
19. Navoiy dastxati. (Navodirun-nihoya). Nashrga tayyorlovchi, so’zboshi muallifi S.G’aniyeva. – T.: Fan, 1991.
20. Правила подготовки к изданию памятников литературы Востока.–М.: ИВЛ, 1959.
21. Rahmonqulova M. O’zMU kutubxonasidagi Sharq qo’lyozmalari katalogi. – T.: IPTD O’zbekiston, – 2007.
22. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. –T.: Ma’naviyat, 2003.
23. Sirojiddinov Sh. XV–XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini. – Samarqand: Zarafshon, 1997.
24. Sultonov I. Navoiyning “Mezonul-avzon”i va uning kritik teksti: filol. fan. nom. diss. – T.: Asosiy kutubxona. RD/1, 1947
25. Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. T.: Cho’lpon.–2016.

16- MAVZU

QO‘LYOZMA MANBALAR

Darsning maqsadi:

ta’limiy maqsad – “Qo‘lyozma manbalar” nazariy ma’lumotlar asosida o‘rganiladi;

a) tarbiyaviy maqsad – talabalarni mumtoz adabiyotga, ilmga, millatga hurmat, kitobsevarlik ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad talabalarni mumtoz adabiy asarlarni o‘qishga jalb etish, tadqiqot qilishga maylni uyg‘unlashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: adabiy albom, kompyuter, proektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma’ruza

Darsning rejasi:

- 1.Qo‘lyozma manbalar
- 2.Bayoznavislik.


***Tayanch so‘z va asosiy tushunchalar:** Bayoz, bayoznavislik, bayoznavis shoirlar, ijodkor konsepsiyasi, arab, fors va turkiy tillar, noyob qo‘lyozma asarlarning faksimel va albomlari, qo‘lyozmalar, turli hujjatlar, rasmlar, xotiralar, fotosuratlarni to‘plovchi, saqlovchi va ko‘rgazmali materiallar, toshbosma kitoblar va arxiv hujjatlari, dunyoviy va diniy ilmlarga oid asarlar.*

O‘zbek xalqi o‘zining yozuv tarixi va boy yozma merosiga ega. Qo‘lyozma merosimizning ko‘p qismi arab yozuvida. Arab yozuvidagi manbalar qo‘lyozma, toshbosma kitoblar va arxiv hujjatlari shaklida bo‘lib, ular arab, fors va turkiy tillarda bitilgan tarix, madaniyat, dunyoviy va diniy ilmlarga oid asarlardan iborat. Bu qo‘lyozmalarda o‘z davri san’ati darajasini ifodalovchi miniatyuralar, turli bezaklar, chizmalar ham mavjud.Ular Movarounnahrda kitobatning rivoji haqida muhim ma’lumotlar beradi.Mazkur kitoblar aholining turli qatlamlari uchun mo‘ljallanganligi bilan ham e’tiborga molik. Bunday qo‘lyozma fondlar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida mavjud.

Yozuv nutq bilan bir qatorda ikkinchi aloqa vositasi hisoblanadi. Ma'lumki, yozuvlarning eng qadimiysi piktografik yozuvdir. Ular tog' qoyalarida, g'or devorlarida uchraydi. Bu yozuv belgilari maxsus tovush ifodalamay, voqeani yaxlit holda bildiradi.

Toshdan keyin bigiz, bambuk, teri, papirus, qog'oz, siyohlar kabi yozuv ashyolari yuzaga kela boshlagach, ayrim rasmlarning o'zlari ifodalagan narsaga o'xshashligi asta sekin yo'qola boradi. Nihoyat, yozuv ayrim so'zlarni bildiradigan alohida belgilardan iborat bo'lib qoldi. Bu ieroglifik yozuvdir. Bunday yozuv eng avval Xitoy bilan Misrda paydo bo'lgan. Bu yozuv alifbe yozuvining yaratilishi uchun zamin tayyorlab berdi. Uning asosida keyinroq yapon fonetik bo'g'inli (sillabik) va koreys fonetik (alifbo) yozuvi yuzaga keldi.

21-rasm (slyad taqdimoti uchun maxsus)



Qaysi yozuvning qaysi davrda paydo bo'la boshlaganini bilish uchun qo'lyozma manbalarining qaysi davrga mansubligini aniqlash kerak bo'ladi. Jumladan, kufiy (X asrgacha keng, XV asrgacha siyrak), uyg'ur (arab yozuvi tarqalguncha keng, XV asrgacha kamroq), nasx (X asrgacha keng), nastaliq (XV asrdan keng) rasm bo'lgan yozuvlarini qayerlarda va qaysi davrlarda qo'llanilganligini eslab ko'rishning o'zi kifoya.

Buning ustiga bir paytning oʻzida qoʻllanilgan turli yozuvlarning oʻziga xos vazifalari boʻlgani kuzatiladi. Jumladan, arab tilidagi ilmiy asarlarga koʻproq nasx xati, forsiydagi adabiy-tarixiy asarlarga nastaliq xati lozim koʻrilgan. Forsiy va turkiy matn ichidagi arabiy iqtiboslar uchun nasx xati maqul hisoblangan.

Istiqlol yillari xalqimizning boy qoʻlyozma merosini saqlash, boyitish, undan foydalanish, targʻib qilish, tadqiq qilish va nashr etish sohasida koʻplab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining yangi binosi qurildi. Institut fondi 28 mingga yaqin jildga joylashgan 70 mingdan ortiq asar, risola, bayozlardan iborat. Fond yillar davomida toʻldirilib, boyitib kelinmoqda. Bu yerda 6 mingdan ortiq turli qoʻlyozma hujjat, maktublar ham saqlanadi. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi koʻp asrlik oʻzbek adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodiy faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan qoʻlyozmalar, turli hujjatlar, rasmlar, xotiralar, fotosuratlarini toʻplovchi, saqlovchi va koʻrgazmali materiallar tarzida namoyish etuvchi madaniy-maʼrifiy va ilmiy maskandir.

22-rasm (slyad taqdimoti uchun maxsus)



Muzeyda alohida qo‘lyozmalar fondidan tashqari O‘zbekiston shoir va yozuvchilari arxivi ham mavjud. Qo‘lyozmalar fondida arab, fors va turkiy tillardagi turli fan sohalariga oid qo‘lyozma va toshbosma kitoblar, O‘zbekiston shoir va yozuvchilari arxivida XX – XXI asrlarda yashab ijod qilgan o‘zbek shoir va yozuvchilari hamda adabiyotshunoslarining qo‘lyozmalari saqlanadi. Bulardan tashqari, maxsus ekspeditsiyalar va ilmiy safarlar chog‘ida mamlakatimizning turli shahar va tumanlaridan topilgan, chet ellardagi ajdodlarimiz ilmiy va adabiy merosiga oid materiallar yig‘ilib, filmlar qilingan va shu asosda qo‘lyozmalar va mikrofilmlar fondi barpo etilgan. Qo‘lyozmalar fondida 2000 ga yaqin qo‘lyozma va toshbosma kitoblar hamda fotonusxalar mavjud. Mazkur fondlardagi qo‘lyozma va toshbosma kitoblarni ilmiy muomalaga kiritishning muhim bosqichi bo‘lgan tavsiflash va kataloglarini nashr qildirish sohasida ham ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Noyob qo‘lyozma asarlarning faksimel va albomlari nashr qilinayotir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz yetakchi olimlari bilan uchrashuvi, qator ilmiy-tadqiqot muassasalarini Fanlar akademiyasi tizimida qaytadan shakllantirish, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash, chet ellarda malaka oshirish, xorijlik olimlar bilan hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan farmonlari fan taraqqiyoti, xususan, ma’naviy merosimiz manbalari bo‘lgan qo‘lyozma asarlarni tadqiq etishni yangi bosqichga olib chiqdi. Ayni chog‘da mazkur uchrashuv va hujjatlar olimlarning ruhiyatini ko‘tarib yubordi. Yangicha g‘ayrat bilan qo‘lyozma merosimizni har tomonlama tadqiq va tashviq etish bo‘yicha tadbirlar tizimi ishlab chiqilmoqda. Vatanimizda qo‘lyozma merosimizni tadqiq va targ‘ib etish sohasida akademik ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim tizimlarida samarali ishlar amalga oshirilayotganligiga qaramay, e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan masalalar ham mavjud. Oliy ta’lim tizimidagi o‘zbek filologiyasi fakultetlarida mumtoz o‘zbek adabiyoti o‘qitiladi. Lekin ularda mumtoz adabiyotimizning ayrim jihatlari shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir o‘tkazgan arab va forsiy tildagi adabiyotning xususiyatlari haqida ma’lumot berilmaydi. Zero, Vatanimizdan yetishib chiqqan ko‘plab ijodkorlar o‘z davrida arab yoki forsiy tillarda ijod qilganlar va o‘sha tildagi adabiyotning rivojiga barakali ta’sir o‘tkazgan. Bir paytlar O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qo‘lyozmalar institutida qadimgi turkiy til, o‘rxun-

yenisey va sug'd yozuvlari bo'yicha tadqiqotlar olib boradigan bo'lim faoliyat olib borardi. Afsuski, ana shu bo'lim ba'zi sabablarga ko'ra tugatildi. Kelgusida Fanlar akademiyasi tizimidagi biron institutda ana shu bo'lim faoliyati qaytadan tiklansa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Sharq falsafasini qo'lyozma manbalar asosida tadqiq etadigan mutaxassislar tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Buning uchun mavjud falsafa fakultetlari qoshida Sharq falsafasi turli yo'nalishlarda bakalavriyat bosqichidan boshlab o'rgatilib, unda asosiy e'tibor talaba qaysi xalq falsafasini o'rganayotgan bo'lsa, o'sha xalq tili va qo'lyozma asarlarini o'qiy oladigan mutaxassislarni tayyorlashga qaratilmog'i kerak. Zero, har qanday xalq falsafasiga bevosita birlamchi manba asosida milliy manfaatlarimiz nuqtayi nazaridan baho bera oladigan o'z olimlarimizni tayyorlashga zarurat sezilmoqda. Adabiy va tarixiy manbashunoslik sohasida ham xuddi shunday jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Bular bilan bir qatorda, xorijiy qo'lyozma fondlar bilan yaqinroq aloqalarni o'rnatib, ularda saqlanayotgan Vatanimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlari elektron bazasini tashkil qilish ham zarur. Ma'naviy merosimizning manbalari bo'lgan qadimiy yozuvlarimiz va qo'lyozma asarlarni asrab-avaylash, jamlash, foto yoki elektron nusxalarini xorijdan olib kelish, ilmiy tadqiq qilish bilan bir qatorda kelgusida ularni yana ham chuqurroq o'rganish, tadqiqotlarning qamrovini kengaytirish va davomiyligini ta'minlash uchun malakali mutaxassislar tayyorlashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

“Bayoz” so'zining lug'aviy ma'nosi “oqlik” bo'lib, atama sifatida “she'rlar to'plami”ni anglatadi. Bayozlar odatda ikki yoki undan ortiq shoirlar she'rlaridan tashkil topadi. Bayozlar asosan mashhur shoirlarning lirik asarlaridan tuzilgan. Bayozlar ma'lum bir g'oya yoki muayyan dunyoqarashni tashviq va targ'ib qilmaydi, umuman saylab olingan asarlarda davriylik ham bo'lmaydi. Kimning she'ridan qanchalik kiritish bayoz tuzuvchining xohishiga bog'liq bo'lgan. Bayozlar sarbayoz (so'z boshi), lirik she'rlar (asosiy qism), xotima va ilovadan tashkil topadi. Ayrim bayozlarda asarlari kiritilgan shoirlar nomi mundarija sifatida beriladi. Bu xil to'plamlar mualliflarning o'zi yoki adabiyot ixlosmandlari va xattotlar tomonidan tuzilib, adabiyot targ'ibida muhim vazifa bajargan.

“Gulshani ash’or”. XX asr boshlarida tuzilgan bayozlardan biri “Gulshani ash’or” bayozidir. Mazkur bayozda O’rta Osiyo hududida yashab o‘zbek va fors-tojik tillarida ijod etgan Firdavsiy, Atoiy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Kamiy, Saryomiy, Xislat, Oxundiy, Xiloliy kabi 50 dan ortiq shoir haqida ma’lumot beriladi. Majmua matnini Mulla Shoh Islom tayyorlagan. Bayozga Saryomiyning 7 g‘azali, 1 ruboiy, 4 muxammas va 1 ta’rixii kiritilgan. G‘azallar matnlarining maqta’lari quyidagilar:

1. Jon dimog‘iga kelur, har dam gulruxsor isi,
Bulbuli sho‘rig‘a yetgan kabi, gulzor isi;
2. Man nega mahvi orazi ra’nosi bo‘lmayin,
Masti xarob, nargisi shahlosi bo‘lmayin;
3. Kecha tebrandi sabodin, ey sumanbar kokuling,
Gul yuzing atrofida chun sunbuli tar kokuling;
4. Rashki ravoqi jannat, gar bo‘lsa yor manzar,
Azbaski, dilkushodur vaqti bahor manzar;
5. Novakondozi qazoya nigohi tir verar,
Soiid fitnaya abro‘lari shamshir verar;
6. Zulfi savdosin tilarsenkim, o‘zing devona qil,
So’nma ilking sochina, dastu duodin shona qil;
7. Qaro ko‘zingni asiri mudom surmayi noz,
Zamona ko‘rmadi, bir san kabi buti tannozi.

Muxammasning 3 tasi Fuzuliy g‘azallariga bog‘langan, 1 tasi mustaqil muxammasdir. Ularning hammasi devonga kiritilgan. Chunonchi, bayozdagi “Yorab bejoh kursi arshi a’lo haqi”, “Yurding mastu g‘ofil bo‘lmayin hushyor, etmazmi”, “Sandin mudom judo ayla mehru vafu banga” misralari bilan boshlanuvchi muxammaslarning nusxasi bilan devondagi nusxasida matnlarida o‘zgarish yo‘q. Faqat bayozda keltirilgan “Muxammasi Mavlaviy Yusuf Saryomiy” sarlavhali muxammasning birinchi misrasida: Bundan tashqari ushbu bayozda shoirning “Hazrati Sulton Xo‘ja Ahmad Yassaviy marqad”iga yozgan musaddasi ham berilgan. Majmuaga kiritilgan quyidagi ruboiy ham bor:

- Lutf ila shabi ummidimi ro‘z ayla,
Iqbolimi tavfiq ila feruz ayla,
Layli kabi lafzimi dilafro‘z ayla,
Majnun kabi nazmimi jigarso‘z ayla.

“Gulshani ash’or”da “Tarixi mehmonxona az Mavlaviy Yusuf” deb nomlangan ta’rix ham o’rin olgan. Sharqona mehmonnavozlikni ko’tarinki bir ruhda tasvir etuvchi ushbu she’r shunday satrlar bilan boshlanadi:

Ayla, mehmon qudumi gardidin,

Dilg’a, yo rab, sururu diydag’a nur.

Bayozda Mutrib, Jomiy, Fazliy, Muhyi, Ado, Huvaydo, Mahzuna, Saryomiy, Kamiy singari 60 dan ziyod shoirning o’zbek va fors tilidagi g’azallaridan namunalar o’rin olgan.

Bayozi Haziniy Bayozga Haziniy, Xislat, Komil Xorazmiy, Kamiy, Fuzuliy, Amiriy, Muqimiylar asarlari, Saryomiyning ham she’rlari kiritilgan. Bayozning noshiri Mirzo Ahmad bin Maxdum Karim, kotibi Sirojiddin Maxdum mulla Mirzo Oxund Sidqiy Xondayliqiy. Toshkentdagi H.Orifjonov matbaasida chop etilgan. Muqovasi ko’k, qizil hoshiyali kartondan ishlangan. Mazkur bayoz mavjud bayozlar ichida to’laligi, kotibi, noshiri aniq bo’lganligi sababli ishonchli majmua sifatida ahamiyatlidir.

Tuzuvchisi noma’lum bayoz. Bayozning kotibi, noshiri, matbaa va yili noma’lum. Titul varag’i 1-, 2-, 3-, 4- hamda 21-, 26-, 33-, 40-sahifalari yo’q. Mazkur bayozda Jomiy, Ado, Kamiy, Saryomiy, Gulshan kabi 20 dan ortiq shoirning she’rlaridan namunalar bor. Saryomiy asarlariga ajratilgan sahifalar, g’azallarning joylanish tartibi yuqorida sharhlab o’tilgan 170 inv. raqamli “Gulshani ash’or”ga ko’p jihatdan yaqin, deyarli bir xil. Shu sababli ularni takrorlab o’tirishga hojat sezmadik.

“Armug’oni Xislat”. Ma’lum va mashhur “Armug’oni Xislat” bayozida Xislat, Miskin Toshkandiy, Akmalxon, Zokiriy, Pirimqori Andijoniy, Saryomiy kabi 30 ga yaqin shoirning asarlari berilgan. Bayoz mashhur xonanda Mulla To’ychi Hofiz iltimosiga binoan Mulla Sayyid Haybatulloh Xo’ja Xislat tuzib savti va maqom nomini yozib, tartib bilan nashrga tayyorlagan. Kitobga Sirojiddin Maxdum Sidqiy Xondayliqiy kotiblik qilgan. Majmua Toshkentdagi G.Orifjonov matbaasida hijriy 1329 (melodiy 1911)-yilda tuzilgan. “Armug’oni Xislat”ning 205-210-varaqlarida Saryomiyning “Dar marsiyai echku Yusuf Saryomiy” sarlavhali hajviyasi joy olgan. 20 band (100 misra)ni tashkil etuvchi ushbu hajviy asar devonga kiritilmagan. Ushbu bayoz kotibi, noshiri, bitilgan yili aniq

bo‘lganligi hamda shoirning bizga ma’lum bo‘lmagan katta hajmdagi asar matni to‘liq berilganligi bilan diqqatga sazovordir. Bayoz hijriy 1332-yil, melodiy 1914-yilda O.A.Porsev matbaasida chop etilgan. Bayozda Saryomiyning “Sho‘ring qursun!” radifli hajviy asari berilgan. Bu hajviya devonda yo‘q. 125 misrani tashkil qiluvchi ushbu hajviya mazkur bayoz bosmadan chiqqach, so‘nggi 4 varaqqa qo‘lda yozib kiritilgan. Sanasi yo‘q.Hijriy 1311 (1893)-yilda Abdulkarim Kamiy tomonidan kitobat etilgani bayoz Jomiy g‘azallari bilan boshlangan. Shuningdek, Xoja Ismat, Mushfiqiy, Sayyido, Amiriy, Ado, Husayniy, Tajalliy, Muhyi, Muqimiy, Furqat, Saryomiy kabi 50 dan ziyod zamondosh va o‘tmishdosh shoirlarning she’rlaridan namunalar berilgan.

“Bayozi Muhallo” 144 sahifadan iborat bo‘lib, G‘ulom Hasan Orifjonov matbaasida hijriy 1330-yilda chop etilgan. Kotibi – Mulla Maxdum binni shoh Yunus marhum.Ushbu majmuada shoirning “Novak andoz qazoya”, “Rashki ravoq jannat”, “Ko‘rdim yuzini davrida” deb boshlanuvchi g‘azallari takror uchraydi. Shu bilan bir qatorda shoirning “Man nega mahvi oraz ra’nosi bo‘lmayin” g‘azalining faqat matla’ va maqta’sigina berilgan. Shoirning Amiriy g‘azaliga bog‘lagan muxammasi“Umrlardurkim biyobon olami poyoniman” deb boshlanib, bu bayozning 36-betida takror keladi. Kitobning oxirgi sahifasida shoir Shavkat Iskandariyning Saryomiyni “Kokuling” radifli g‘azaliga bog‘lagan muxammasi “Muxammasi Shavkat Iskandariy bar g‘azali Yusuf Saryomiy” nomi bilan beriladi. Majmuada Muqimiy, Kamiy, Ozariy, Tajalliy, Saryomiy, Noqis, Rog‘ib kabi 20 dan ziyod shoirning asarlaridan namuna berilgan.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Qo‘lyozma manbalar mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot-materiallar to‘plash. Mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg‘ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollar:

1. “Bayoz” so‘zining lug‘aviy ma’nosi qanday?

- A) “oqlik”
- B) “aql”
- C) “kuch”
- D) “yengil”

2. Bayoz so‘zi atama sifatida qanday ataladi?

- A) oqlik
- B) to‘plam
- C) she‘rlar to‘plami
- D) to‘plam yig‘indisi

3. “Gulshani ash‘or” bayozi qachon tuzilgan?

- A) XX asrda
- B) XIX asrda
- C) XVII asrda
- D) XVIII asrda

4. “Gulshani ash‘or” bayozida nechtadan ortiq shoirlar haqida ma‘lumot beriladi?

- A) 60
- B) 50
- C) 55
- D) 40

5. “Gulshani ash‘or” bayozida Saryomiyning nechta g‘azal, ruboiy, muxammas va tarixi berilgan?

- A) 7 g‘azal, 1 ruboiy, 4 muxammas, 1 ta‘rix
- B) 6 g‘azal, 2 ruboiy, 3 muxammas, 1 ta‘rix
- C) 7 g‘azal, 2 ruboiy, 3 muxammas, 1 ta‘rix
- D) 5 g‘azal, 3 ruboiy, 4 muxammas, 1 ta‘rix

6. Saryomiyning 4 ta muxammasi “Gulshani ash‘or” bayoziga kiritilgan bo‘lib, ulardan 3 tasi kimning muxammasiga bog‘langan?

- A) Navoiy
- B) Bedil
- C) Fuzuliy
- D) Jomiy

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Zohidov R. Sabotulojizin – ilmiy-adabiymanba. – T.: Muharrir, 2012.

2. Zufarov T. Xatta‘limi. – T.: Meros, 2010.

3. Ismoilov M. Hujjatshunoslik va Markaziy Osiyo diplomatikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademiya nashri, 2010.

4. Ishoqov F. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. T.: “Fan”, 1976.
5. Yo‘ldoshev Ibrohim. O‘zbek kitobchilik terminologiyasi. – T.: Fan, 2004.
6. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: Fan, 2008.
7. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. T.: Muharrir, 2011.
8. Katalog fonda instituta rukopisey. 1 tom. – T.: Fan, 1989.
9. Kayumov A., Xasanov B. Jemchujini mudrosti i tayni «semi morey». –T.: Izdatel’stvo narodnogo naslediya im. Abdullı Kadıri, 2002.
10. Komilov N. Bu qadimiy san’at... T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
11. Munirov Q. Amir Xusrav Dehlaviy qo‘lyozma asarlari katalogi. –T.: Fan, 1975.

17- MAVZU

TAZKIRA, DEVON, KULLIYOT

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad – “Tazkira, devon, kulliyot” nazariy ma'lumotlar asosida o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni mumtoz adabiyotga, ilmga, millatga hurmat, kitobsevarlik ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad talabalarni mumtoz adabiy asarlarni o'qishga jalb etish, tadqiqot qilishga maylni uyg'unlashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: adabiy albom, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma'ruza

Darsning rejasi:

1. Tazkiraning tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari.

3. Devonning manba sifatidagi o'ziga xosligi.

3. Kulliyot

Tayanch so'z va asosiy tushunchalar: Tazkiraning tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari, tazkiranavislik tarixi, devonning manba sifatidagi o'ziga xosligi, kulliyot, adabiy-tanqidiy janr, mumtoz adabiyot tarixi, Sohibi devon shoirlar, tazkirachilik an'anasi, Arab, Movarounnahr, Xorazm, Xuroson adabiyoti va san'ati, san'at sohasidagi voqea va shaxslar haqida esdalik ruhidagi asar.

Tazkira – arabcha so'z bo'lib, “zikr” ya'ni eslatib o'tish”, “qayd qilish”, “yozib qo'yish” degan ma'nolarni anglatadi. Tazkira-shoirlarning hayoti va ijodi haqida ma'lumot beruvchi, asarlaridan namunalar keltirilgan antologiya- majmuadir. Ma'lumki eng qadimgi tazkira muallifi arab olimi Abu Mansur as-Saolibiy bo'lib, uning “Yatimat ud-dahr fi mahosini ahli asr” (“Zamona ahlining fazilatlarini haqida durdona”) tazkirasini XI asr Arab, Ajam, Movarounnahr, Xuroson va Xorazm adabiyoti haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Tazkira so'zining ma'nosi – esga olish, tilga olish. Tazkira sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan adabiy-tanqidiy janr. Tazkiralarda shoirlarning hayoti va ijodi haqidagi muhtasar ma'lumotlar zikr etilib, ularning asarlaridan namunalar, odatda bir

necha bayt hajmida keltiriladi va ijodiga umumiy tarzda baho beriladi. Tazkiralarda ijodkorlar haqidagi ma'lumotlar berish bilangina cheklanib qolmasdan, she'riyat va uning nazariy masalalari bilan bog'liq e'tiborga loyiq fikr-mulohazalar, ma'lum davr adabiy hayoti haqidagi muhim ma'lumotlar ham o'rin oladi. Adabiyot tarixida shoirlargina emas, balki olimlar, avliyolar haqida ham tazkiralalar yozilgan. Masalan, Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat", Sidqiyning "Tazkirayi Imom A'zam" tazkiralari kabi.

Tazkira yozish an'anasi dastlab arab va fors adabiyotida shakllangan bo'lib, keyinroq turkiy adabiyotda ham keng ommalashgan. Tazkiraning eng qadimgi namunasi Abu Mansur Saolibiyning "يتيم الدهر في محاصل اهل العصر" – "Zamona ahlining fazilatlarini haqida yakto durdona" (XI asr) asari e'tirof etiladi. Mazkur tazkiradan o'sha davr Arab, Movarounnahr, Xorazm, Xuroson adabiyoti va san'ati haqidagi qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan. Turkiy tildagi ilk tazkira Navoiyning – "Majolisun nafa'is" asaridir.

XIII asrda Muhammad Avfiy "Lubobul-albob" ("Mag'izlarning mag'izi") tazkirasini tuzadi. Hindistonda yaratilgan bu asarda 300 ga yaqin ijodkor haqida ma'lumot berilgan bo'lib, fors-tojik adabiyotining XIII asrgacha bo'lgan tarixini ushbu tazkirasiz o'rganish mumkin emas. 1486-yilda Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro" deb nomlangan tazkiranini tuzadi. Va unda 150 dan ortiq ijodkor haqida ma'lumot beradi.

A.Navoiy o'zbek adabiyotshunosligining rivojlanishiga zamin yaratgan ijodkordir. Uning 1491-1498-yillarda yaratgan "Majolisun nafa'is" va 1495-yilda yozilgan "Nasoyim ul-muhabbat" asarlari turkiy tazkiranavisligining oyoqqa turishiga turtki bo'ldi. Navoiy "Majolisun-nafa'is" tazkirasida 459 ijodkor haqida ma'lumot berdi, ularning har biriga o'z munosabatini bildirib, she'riyatidan namunalar keltiradi. Boshqa tazkiralardan farqli ravishda Navoiy ushbu asarda XV asrda yashagan zamondosh ijodkorlar haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, **Abdurahmon Jomiy va Davlatshoh Samarqandiylarning tazkiralari tanqidiy fikrlar kam, ko'pchiligi afsona va rivoyatlarga aralashtirib berilgan bo'lsa, Navoiy adiblar haqida tanqidiy fikrlar ham bayon qilib, ular haqida aniq ma'lumot berishga harakat qiladi.**

Ulug' tojik shoiri va mutafakkiri Abdurahmon Jomiyning 1486-88-yillarda Navoiy maslahati bilan yozilgan "Nafohat ul-uns" asarini

shoir 1495-yilda “Nasoim ul-muhabbat” nomi bilan tarjima qiladi. Shoir bu asarni tarjima deb atasa-da, “Nasoyim ul-muhabbat” ning mundariyasi “Nafohat ul-uns”nikidan ancha farq qiladi. Birinchidan, Jomiy muqaddimasi tarjima qilinmay, yangi muqaddima yozilgan. Ikkinchidan, “Nafohat ul-uns” ga kirmay qolgan turk mashoyihlarini “Nasoyim ul-muhabbat”ga kiritgan shoir tasavvuf ahli sonini 770 taga yetkazdi. (Jomiy asarida ularning adadi 618 ta). Uchinchidan, Navoiy tarjima jarayonida Jomiy asarlaridagi ko‘pgina mashoyixlar hayoti va faoliyatini yangi ma’lumotlar bilan boyitdi.

1566-yilda Hasanxo‘ja Nisoriy “Muzakkirul-ahbob” tazkirasini tuzib, unda 300 ga yaqin ijodkor haqida ma’lumot berdi. **Tazkirachilik an’anasini XVII asrda sermahsul tarzda davom etdi. Jumladan, Mutribiy Navoiyga xos tazkirachilik an’anasini davom ettirib, 1604-1605-yillarda 320 dan ortiq ijodkor haqida ma’lumot beruvchi “Tazkirat ul-shuaro” asarini yaratdi.** Unda nomlari qayd etilgan ijodkorlarning aksariyati XVI asr oxiri va XVII asr boshlarida yashab faoliyat ko‘rsatgan. XVII asrda Markaziy Osiyo va Erondagi adabiy jarayon haqida ma’lumot beruvchi yana bir tazkira “Muzakkir ul-ashob” nomli asardir. 1692-yilda Maleho Samarqandiy tomonidan yaratilgan ushbu tazkiraning muhim bir afzalligi shundaki, unda ijodkorlarning muayyan hunar bilan shug‘ullanganliklariga ham e’tibor qaratiladi.

Umuman olganda, bu davr madaniyati yutuqlari xalqimizning keyingi madaniy rivojlanishiga katta zamin yaratdi.

Tazkiralar mumtoz adabiyot tarixi, alohida ijodkorlar asarlarini, ular bilan bog‘liq nazariy masalalarni o‘rganishda muhim manba sanaladi.

Tazkiranavislik tarixini shunday xronologik tartibda berishimiz mumkin: Muhammad Afviy Buxoriyning “Lubobul albob” (“Bilimlar mag‘zi”, XIII asr), Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkiratush shuaro” (“Shoirilar tazkirasini”, XV asr), Navoiyning “Majolisun nafois” (“Nafis majlislar”, XV asr), Hasanxo‘ja Nisoriyning “Muzakkirul ahbob” (“Do‘stlar yodnomasi”, XVI asr), Maleho Samarqandiyning “Muzakkirul ashob” (“Do‘stlarga eslatma”, XIX asr), Rahmatulloh Vozihning “Tuhfatul ahbob” (“Suyukli do‘stlarga tuhfa”, XIX asr), Fazliy Namangoniyning “Majmuai shoiron” (“Shoirilar majmuasi”, XIX asr), Tabibiyning “Majmuatush shuaro Feruzshohiy” (“Feruzshohning shoirilar

majmuasi”, XX asr), Laffasiyning “Xiva shoirlari tarjimai holi” (XX asr), Po‘latxon Qayyumiyning “Tazkirai Qayyumiy” (XX asr), Mo‘minjon Toshqinning “Toshkent shoirlari” (XX asr).

24-rasm (slyd taqdimoti uchun maxsus)

Bevosita aloqa bog‘lash yo‘li bilan buni amalga oshirish qiyin emas edi, biroq bu holda inson xotirasining mukammal emasligi tufayli ko‘p axborotlar esdan chiqib qolgan, yo‘qolgan. Bunga fazo hamda vaqt asosiy to‘sik bo‘lib, yozilgan so‘zgina ulardan ustun kela olardi.

Buyumlardan dastlab mnemonika vositalari yoki «eslatuvchi» vositalar sifatida foydalanish zamonaviy Yozuvga olib keluvchi mashaqqatli uzoq yo‘ldagi birinchi qadam bo‘ldi. Bu vositalar fikrni uzatmas, balki uni faqat eslatardi. Biror narsani eslab qolish uchun ro‘mning uchini tugish odati shundan qolgan. So‘ngra buyumlarga konkret ma‘no berila boshlagan. Ular oldindan kelishib olingan narsalarni bildiruvchi o‘ziga xos signallar, shartli belgilar bo‘lib hisoblangan. Cho‘pxatga yoki daraxt tanasiga kertib belgi solish, tugunlar, tizimchalar, urush e‘lon qilish vaqtda esa kamon o‘qi va boshqa buyumlar Shunday shartli belgi vazifasini o‘tagan. Buyumga ma‘no birlashtirib qo‘yishning bu usuli «buyumli Yozuv» deb atalgan.

www.arkiv.uz



QARIQDAIYO QUTADOU YEASH



Tazkira (arab.*eslatmoq*, *zikr etmoq*) o‘rta asr forsiy va turkiy tillardagi adabiyotshunoslik janrlaridan biri. Keng ma‘noda – tarix, tasavvuf, san‘at sohasidagi voqea va shaxslar haqida esdalik ruhidagi asar, masalan, “Tazkiratul avliyo” (Fariddin Attor), “Tazkirayi Muqimxoniy” (Muhammad Yusuf), “Tazkirayi Xattoton” (Rudakiy), “Tazkirayi avliyoyi turkiy” (Rushdiy) va boshqa. Tor ma‘noda - shoirlar hayoti va ijodi haqida ma‘lumot, asarlaridan namunalar keltirib tuzilgan to‘plam. Tazkirada bir necha asrda yashagan yoki muayyan davr shoirining hayoti va ijodi haqida turli tarzda ma‘lumot beriladi. Shoirlarni qamrab olish jihatidan tarixiy - zamonaviy va zamonaviy tazkiralarga bo‘linadi.

Tarixiy zamonaviy tazkirada bir necha asr davomida yashab ijod etgan shoirlar haqida (“Lubobul albob” – Avfiy, “Tazkirat ush shuaro”– Davlatshoh Samarqandiy va boshqalar), zamonaviy tazkirada esa tuzuvchining zamondoshlari haqida (“Majolis un

nafois”, “Tazkirat ush shuaro”– Mutribiy va boshqalar) bahs yuritiladi.

Asarda shoirlar har xil uslubda – “abjad” tizimida, sulola va arab alifbosi asosida, geografik uslubda, tazkira tuzuvchi tomonidan shaxsan ko‘rganlik, ijodiy muloqotda bo‘lgan bo‘lmaganlik asosida joylashtiriladi. Shoirlar haqidagi ma‘lumotlar alohida kichik maqola – fiqradan iborat bo‘ladi. Unda shoirning ismi, taxallusi, qayerdanligi, ijodi, she‘rlaridan namunalari, tabiatidagi o‘ziga xos xususiyati, qay darajada shuhrat topganligi va boshqa she‘riy yoki nasriy tarzda bayon etiladi. Ba‘zan ikki tilda ma‘lumot berish hollari ham uchraydi. (“Majmuayi shoiron”). Tazkiralari tuzuvchisining adabiy estetik uslublari qaysi adabiy yo‘nalishiga mansubligi jihatidan farqlanadi. Sharq adabiyotshunosligida bizgacha yetib kelgan dastlabki tazkirani Abu Mansur Assolibiy, o‘zbek adabiyotida Alisher Navoiy yaratgan. Adabiyot tarixini o‘rganishda tazkiralarning ahamiyati katta.

Devon – sharq adabiyotida she‘riy to‘plam. Devonda biror shoir she‘rlari qofiya yoki radiflariga ko‘ra arab alifbosi tartibida (qofiyalanib keluvchi so‘zlarning oxirgi harflari asosida) joylashtiriladi. Sharqda devon tuzish shoirning yetuklik belgisi bo‘lgan, shoirlar o‘z devonlarining mazmunan va shaklan rang-barang bo‘lishiga e‘tibor berganlar. Devon tuzish X-XI asrlardan boshlangan.

Devon so‘zining lug‘aviy ma‘nosi – yozish, ro‘yxatga olish, to‘plam. Devon sharq mumtoz adabiyotidagi she‘riy to‘plamlarning asosiy turi. Devonga shoirlarning o‘zlari yoki boshqa shaxslar, masalan, kotiblar, shogirdlar, muxlislar tomonidan tartib berilgan. Sharq adabiyotida devon tartib berish an‘anasining o‘ziga xos qonuniyatlari bor. Devonga kiritilgan she‘rlar, bir tomondan, janriga ko‘ra, ikkinchi tomondan esa g‘azallarni alifbo tartibiga ko‘ra joylashtiriladi. Devonlar, asosan, g‘azal janri bilan, ba‘zan esa qasida bilan boshlanadi. Navoiyning “Xazoyinul maoniy” kulliyoti tarkibiga kiruvchi “G‘aroyib sig‘ar” devoniga g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarjiband, masnaviy, qit‘a, ruboiy tarzida tartib berilgan bo‘lsa, “Badoiul vasat” devoni g‘azal, mustazod, muxammas, musaddas, tarji‘band, qasida, qit‘a, chiston, tuyuq tarzida tartiblangan.

S.L.Volin “Xamsat ul-mutahayyirin” asaridan kelib chiqib, Navoiy bu to‘rt devonni hali Jomiy hayotlik paytida, ya‘ni 897- (m. 1491–1492) yilda tuzgan, deya xulosa chiqaradi. Biroq, bu ishni qisqa vaqt ichida amalga oshirib bo‘lmasligini o‘ylab, yana ikkilanadi. Shundan keyin u Navoiy devon tuzishni Jomiy hayotlik chog‘ida boshlagan va o‘shandayoq tuzilajak to‘rt devonga nomlar topib qo‘ygan bo‘lgan, ishni esa bir necha yildan keyin tugatgan, degan qarorga keladi va 904/1498–1499-yilda yozib tugallangan “Lison ut tayr” asarida to‘rt devon tilga olinishiga asoslanib, lirik kulliyot tuzilish davrining ikkinchi chegarasini hijriy 904, milodiy 1498–1499-yil qilib belgilaydi.

S.L.Volin yana shu “Xamsat ul-mutahayyirin” asariga suyanib, g‘oyatda ajablanarli bir xulosa chiqaradi. U asarda Navoiy nomlarini atagan 4 devonini shoir lirikasining “yangi” debochali (u “Xazoyin ul-maoniy” uchun yozilgan “Debocha”ni “Badoyi ul-bidoya” “Debocha”sidan farqlash uchun shunday ataydi) to‘rtinchi redaksiyasi, “Xazoyin ul-maoniy”ni esa ana shu to‘rt devondan tanlab olingan she‘rlardan iborat beshinchi redaksiyasidir, degan qarorga keladi.

Shubhasiz, Navoiyning “Xamsat ul-mutahayyirin”da to‘rt devon nomidan keyin lirik kulliyotning umumiy nomi – “Xazoyin ul-maoniy”ni keltirmaganligi S.L.Volinda va shuningdek Ye.E.Bertelsda ham chalkash fikr paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Kulliyot– (arab. to‘la, butun) muayyan adibning to‘la yoki asosiy asarlar to‘plami. Kulliyot adib ijodida xarakterli ayrim janrlardagi asarlardan tuzilishi ham mumkin, Masalan, “Kulliyoti qasoyidi Xoqoniy”, (“Xoqoniy qasidalari kulliyoti”). Kulliyotga shoir yoki yozuvchining hamma asarlari kiritilgan bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin.

Alisher Navoiy merosini to‘liq va mukammal o‘rganishimizda shoir asarlarining qo‘lyozma nusxalarini topish hamda ommalashtirish muhim. H.Sulaymonov Istanbuldagi To‘pqopi saroy kutubxonasida saqlanayotgan Darvesh Muhammad Toqiy tomonidan ko‘chirilgan Navoiy kulliyotining tartibini shoir o‘zi tuzib chiqqan degan so‘zlarni qayd etadi.¹⁰⁸ Mazkur kulliyotda shoirning 27 asari jamlangan.¹⁰⁹

¹⁰⁸Сулаймонов Ҳамид. Алишер навоий куллиёти қўлёзмалари тадқиқотидан. Адабий мерос. Манба ва тадқиқотлар. –Т.: Фан, 1973. – Б. 90.

¹⁰⁹Қаранг: Истанбул. Фотих кутубхонаси. Алишер Навоий Куллиёти. Инвентар рақами 4056. Микрофилм. Архив № 483.

Har bir asar yangi sahifada alohida-alohida juda chiroyli naqshlar bilan bezatilgan maxsus ramkalarda “Kitobi Lison ut-tayr”, “Kitobi Layli va Majnun”, “Kitobi chor devon” kabi nomlangan. Navoiy kulliyotining ikkinchi sahifasida “Kitobi munojotnoma” alohida sahifadan boshlanib, hamd va na’t, munojotlar qizil rangda matn ichida berilgan.

Alisher Navoiyning lirik kulliyoti – “Hazoyin ul maoniy”ning tuzilgan yilini ko’rsatishda hozirga qadar har xilliklar va chalkash fikrlar mavjud. Aksariyat o’rinlarda uni Navoiy 1492–1493-yillarda yoki shu yillar orasida tuzgan deyilsa, ba’zi o’rinlarda bu lirik kulliyotning tuzilgan yili sanasi mutlaqo boshqacha ko’rsatiladi. Chunonchi, H.S.Sulaymonovning “Alisher Navoiy kulliyoti qo’lyozmalari tadqiqotidan” nomli ilmiy maqolasiga ilova tariqasida tuzilgan “Alisher Navoiy qo’lyozma kulliyotlarining qiyosiy jadvali”da “Xazoyin ul-maoniy”ning yaratilgan yili hijriy 896, milodiy 1490–1491-yillar, deb ko’rsatilgan. V.Zohidov, Hokim Homidiylar esa yana boshqacharoq sanani ko’rsatadilar. V.Zohidov “Navoiyning yana bir hayotnomasi” nomli maqolasida: “Navoiy Astroboddagi vaqtida juda qizg’in va unumli ijodiy ish bilan ham mashg’ul bo’ladi va natijada avvalgi yaratilgan she’rlarini qo’shib, to’rt devon – “Xazoyin ul maoniy”ni yaratadi” deb yozadi. Demak, olimning fikricha, “Xazoyin”ning tuzilishi tarixi 1487–1488- yillarga to’g’ri keladi. Adabiyotshunos Hokim Homidiyning ham xulosasi shunga yaqinroq, ya’ni uning yozishicha: 1487-yilda Navoiy Astrobodga surgun qilinadi. U bu yerda o’z she’rlarini yig’ib to’rt devoni – “Xazoyin ul-maoniy”ni tuzishga kirishadi. Marhum navoiyshunos Olim Sharafuddinov ham: “Alisher “Xazoyin ul-maoniy” yoki “Chor devon” nomi bilan shuhrat qozongan mukammal “Devon”ini Astroboddalik vaqtida tuzdi”, – degan fikrni bayon etgan edi. Shu olim tomonidan 1941-yilda tuzilgan “O’zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”da ham lirik kulliyotni Navoiy Astrobodda tuzgan, deb ko’rsatiladi. N.M.Mallayevning “O’zbek adabiyoti tarixi” darsligida kulliyotning tuzilgan davri 1491–1498-yillar orasi deb ko’rsatilgan. O’zbek Sovet Ensiklopediyasining 1-tomida ham kulliyotni 1491–1498-yillar orasida tuzilgan, deyilsa, 12-tomidagi “Xazoyin ul maoniy” ga bag’ishlangan o’rinda: “Alisher Navoiy asari 1491–1496-yillarda tartib berilgan”, deb qayd etilgan.

“Xazoyin ul maoniy”ning tuzilgan yili deb 1492–1498-yillar sanasini koʻrsatuvchi mualliflar fikri xususida, avvalo bir narsani alohida qayd etish joiz koʻrinadi. Ularning baʼzilari kulliyotni Navoiy 1492–1498-yillarda tuzdi, deb yozsa, baʼzilari ana shu yillar orasida tuzdi, degan fikrni aytadilar, yana birlari esa 1492–1498-yillar oʻrtasida Navoiy “Xazoyin ul maoniy” kitobini tuzdi, deb yozadilar. Bu aytilganlardan esa turlicha xulosaga kelish mumkin, yaʼni kulliyot 1492–1498-yillarda tuzilgan deyilishiga koʻra, uni tuzish olti yil davom etgan boʻlib chiqadi; shu yillar orasida tuzilgan deyilganda devon ana shu olti yilning birida tuzilgan boʻladi, lekin u qaysi yil ekanligi nomaʼlum. “Xazoyin”ni shoir 1492–1498-yillar oʻrtasida tuzdi deyilishiga kelsak, bunda 1495-yil tushuniladi va demakki, 1492–1498-yillar oʻrtasida deyish oʻrniga 1495-yil deyilaversa boʻlar edi.

Demak, Navoiy 1491–1498-yillar mobaynida jami toʻrt devondan iborat “Xazoyin ul maoniy” lirik kulliyotini tuzdi, deyuvchilarning fikriga koʻra, bu ish 6–7 yil davom etgan, degan xulosa kelib chiqadi. Bu esa, bizningcha, haqiqatdan yiroqroq koʻrinadi. Negaki, juda qisqa bir muddatda, ikki yildan ziyodroq vaqt ichida 51 ming misradan iborat besh doston – “Xamsa” asarini yaratgan Navoiy tayyor sheʼrlardan toʻrt devon tuzishga 6–7 yil sarflamagan boʻlsa kerak. Taniqli navoiyshunolarimiz toʻgʻri qayd etganlaridek, “Navoiyning yuksak shaxsiy fazilatlaridan biri mehnatsevarligi, doim oʻz ustida, ijodiy rejalarini amalga oshirish ustida tinmay ishlashi edi. U biron asarini uzoq muddat davomida yozmagan. Qaysi asarini yozishga boshlasa, tez yozib tugallagan”. Navoiy lirik kulliyotini 1491- yoki 1492–1498-yillar orasida yaratgan desak, ana shu 6–7 yilning qaysi birida bu ish amalga oshirib boʻlingan, degan savol koʻndalang boʻladi.

“Xazoyin ul maoniy” 1491/1492–1498/1499-yillar orasida tuzilgan, degan fikrni birinchi boʻlib S.L.Volin bildirgan edi. Kulliyotning tuzilishi davri chegarasini 1491–1492-yildan belgilashda u Navoiyning “Xamsat ul mutahayyirin” asaridagi yozilganlarga asoslanadi. Bu asarda yozilganlardan maʼlumki, Jomiy oʻzining qasida hamda lirik sheʼrlaridan iborat uchta devon tuzadi va Navoiyning taklifiga binoan ularning har birini alohida nomlaydi. Shuning bilan birga uning oʻziga ham turkiy nazmlari nihoyatda koʻp yigʻilganligini taʼkidlab, shu sheʼrlardan iborat

alohida nomlar bilan ataluvchi devonlar tuzishni maslahat bergan. Shu voqeadan keyin ko‘p vaqt o‘tmay (1492-yil 8-noyabr) Jomiy shamollash tufayli vafot etadi.

Mazkur hikoya so‘ngida Navoiy ustozining amri itoatini vojib bilgani holda bu ishni amalga oshirganini yozadi.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Tazkira, devon, kulliyotmavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumot-materiallar to‘plash. Mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg‘ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. Kitobatchilik san’atining rivojlanishi nechanchi asrga borib taqaladi?

- A) VI-VII asrlarga
- B) VII-IX asrlarga
- C) VII-VII asrga
- D) X asrga.

2. Toshbosma nashrlarning vujudga kelish davri qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) XIX asrda
- B) XX asrda
- C) XVII asrda
- D) XVII asrda.

3. Navoiy asarlarining matnini o‘rganish davri qachon boshlangan?

- A) XIX asrning 40-yillari
- B) XX asrning 30-yillari
- C) XX asrning 40-yillari
- D) XX asrning 20-yillari.

4. Nechanchi asrdan boshlab arab yozma adabiyoti shakllanadi?

- A) VII asrda
- B) VIII asrda
- C) IX asrda
- D) X asrda.

5. Matn tuzish masalalarining eng asosiysi bevosita qaysi asar matni bilan bog‘liq?

- A) “Qobusnoma”

- B) Navoiy asarlari
- C) Qur'oni Karim
- D) "Avesto".

6. Kim Umar ibn Xattobdan "Qur'oni Karim"ni jam qilishga buyurishni so'raydi?

- A) Usmon
- B) Abu Bakr Siddiq
- C) Abu Bakr Sodik
- D) Umar ibn Siddiq.

Mustaqil o'qish uchun adabiyotlar:

1. Navoiy asarlari lug'ati (tuzuvchilar: P.Shamsiyev, S.Ibrohimov). –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.

2. Navoiy dastxati. (Navodirun-nihoya). Nashrgatayyorlovchi, so'zboshi muallifi S.G'aniyeva. – T.: Fan, 1991.

3. Правила подготовки к изданию памятников литературы Востока. – М.: ИВЛ, 1959.

4. Rahmonqulova M. O'zMU kutubxonasidagi Sharq qo'lyozmalari katalogi. – T.: IPTD O'zbekiston, – 2007.

5. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. –T.: Ma'naviyat, 2003.

6. Sirojiddinov Sh. XV–XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini. – Samarqand: Zarafshon, 1997.

7. Sulstonov I. Navoiyning "Mezonul-avzoni" va uning kritik teksti: filol.fan.nom.diss. – T.: Asosiy kutubxona. RD/1, 1947

8. Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. T.: Cho'lpon.–2016.

18- MAVZU

TARJIMA ASARLAR MATNINI O'RGANISHNING ILMIY ASOSLARI

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad – “Tarjima asarlar matnini o'rganishning ilmiy asoslari” nazariy ma'lumotlar asosida o'rganiladi;

b) tarbiyaviy maqsad – talabalarni adabiyotga, ilm-fanga, millatga hurmat, qardosh xalqlar adabiyoti va madaniyatiga ehtirom, kitobsevarlik ruhida tarbiyalash;

s) rivojlantiruvchi maqsad talabalarni mumtoz adabiy asarlarni, jahon adabiyoti, qardosh xalqlar adabiyotini o'qishga jalb etish, tadqiqot qilishga maylni uyg'unlashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsning jihozi: adabiy albom, kompyuter, proyektor, mavzuga oid slayd taqdimoti.

Dars turi: ma'ruza

Darsning rejasi:

1. Tarjima asarlarning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Tarjima va asliyatni qiyoslashning ilmiy usullari.
3. Tarjima matni o'rganishda zamon va makonni aniqlashning ahamiyati.

Tayanch so'z va asosiy tushunchalar: *Tarjima teng ma'nolilik muqobillik, tarjimonning interpretatsion pozitsiyasi, asl nusxani idrok etish, asl nusxa interpretatsiyasi, asl nusxani qayta ifodalash, tarjima va sharh istilohlari, badiiy so'z, so'z birikmalari, grammatik shakllar, hijjalab yoki so'zma-so'z tarjima qilish, ilmiy va ilmiy-ommaviy kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog'ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqlarning nutqlari, gazeta materiallari.*

Tarjima – bu yuksak badiiy ijoddir. Ijod bo'lganda ham ba'zan asliyat muallifiga nisbatan ko'proq izlanish va mashaqqat chekishni taqozo etadi. Tarjima lisoniy, adabiy-estetik hodisa, so'z san'atidir. Tarjimon esa ijodkordir. Millatlar o'rtasida o'zaro aloqa qilishga ehtiyoj kuchaygani sari tarjimachilik faoliyati ham kengayib boraveradi. “Tillardan tillarga tarjima qilish mumkinligini

asoslaydigan narsa shuki, jahon xalqlari garchi turli-tuman tillarda soʻzlashsalar ham, ammo ularning taffakur qonunlari bir xildir”, deb yozadi tarjimashunos olim Gʻ.Salomov. Tarjima koʻp sohali, sertarmoq va murakkab hodisa. Tarjimaning bosh xossasi uni boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat. Ijodiy jarayon soʻz sanʼati ekanligi hammaga ayon.

Maʼlumki, tarjima bevosita yoki bilvosita amalga oshiriladi. Hozirgi paytgacha qilingan tarjimalar, masalan, rus adabiyoti namoyondalarining asarlari bevosita, ingliz, nemis, fransuz yozuvchilarining asarlari esa bilvosita (vosita til) rus tili orqali tarjima qilindi. Keyingi qator yillarda bevosita chet tillardan qilingan tarjimalar ham paydo boʻldi. Hattoki ayrim adiblarimiz aslyatdan tarjima qilish maqsadida chet tillarini oʻrganishga kirishishdi. Tarjima badiiy ijodning eng mashaqqatli sohasi boʻlib, u kishidan bagʻoyat katta bilim egasi boʻlishni taqozo etadi. Tarjima teng maʼnolilik (muqobillik) ni taqozo etadi, amalga oshirilgan tarjima aslyatga mazmun jihatdan muvofiq boʻlishi kerak. Bu hodisa hamisha tarjima nazariyasi va amaliyotining asosiy muammolaridan biri boʻlib kelganligi aniq. Tarjimon faoliyatining asosiy mahsuli va sifati ham zotan shunga bogʻliqdir. Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qatʼiy nazar bir tildan boshqa bir tilga tarjima qilish uchun umumiy boʻlgan ikkita holat mavjud:

1. Dastavval tarjima qilish uchun moʻljallangan asarni tushunish, uning janrini aniqlash va tahlil qilish lozim. Bu jarayon ona tilida amalga oshiriladi.

2. Asar oʻgirilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalarini topish zarur. Bularga badiiy soʻz, soʻz birikmalari, grammatik shakllar kiradi.

Tarjima tushunchasining maʼnosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy–ommaviy kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qogʻozlar, siyosiy aroblarning maqolalari va notiqarning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda soʻzlashuvchi, tarjimonning xizmatiga muhtoj boʻlgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, kinofilmlar oʻgiriladi. Asl nusxada ifodalangan fikr boʻlak tilda ham xuddi aslyatdagiday toʻla, aniq va taʼsirchan boʻlishi lozim. Bundan tashqari, tarjima oʻsha asar oʻgirilgan tilning andozasiga mos, muvofiq boʻlishi darkor.

Tarjimon asarning ma'no-mazmunini kuchaytirishi, ba'zan susaytirishi mumkin. Tarjimonning interpretatsion pozitsiyasi ikki holatga bog'liq: tarjimaning tabiatan, tillar orasidagi, adabiyotlar orasidagi farqlar oqibati hamda kitobxon didi, ehtiyojidan kelib chiqadigan zaruriy interpretatsiya; tarjimon maqsadi, qarashlarini ifodalaydigan atayin qilingan interpretatsiya. Tarjima jarayonida ko'p ma'noli so'zlar ifoda – obrazlarning bir qirrasini aks ettirish, sinonimlar juftidan foydalanish, ayrim baytlarni qo'shimchalar bilan izohlashga zarurat bor. Bu zaruriy sharh (*interpretatsiya*) tarjima ijodi qonuniyatidir. Tarjima san'ati ijodiy jarayon ekan, unda interpretatsiya unsuri bo'lishi tabiiy.

Tarjimashunos olim G'aybulla Salomov tarjima jarayoni uch bosqichdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Bular – quyidagilar:

- 1) Asl nusxani idrok etish;
- 2) Asl nusxa interpretatsiyasi;
- 3) Asl nusxani qayta ifodalash.

1. Asl nusxani idrok etishda matn so'zma-so'z idrok etiladi. Mazkur bosqichda tarjimon oldida ba'zi bir qiyinchiliklar turadi: Bulardan: matnni noto'g'ri o'zlashtirish, yaqin tillarda soxta ekvivalentlar domiga tushib qolish, matnda ishlatilgan ayrim xos so'zlarning ma'nosiga tushunmaslik kabilar kiradi.

2. Ikkinchi bosqichda tarjimon muallif tomonidan ishlatilgan uslubiy omillarga e'tibor qilishi nazarda tutiladi.

3. Uchinchi bosqichda tarjimon muallif tomonidan yaratilgan badiiy voqelikni to'laligicha idrok etishi kerak. Agar tarjimon haqiqiy san'atkor bo'lsa, asarda ishtirok etuvchilarning o'ziga xos xarakter xususiyatlarini, tilini, to'laligicha idrok etib, keng mushohada yuritadi.

4. Tarjimon voqelikni asarda ko'rsatilgani darajasida bilsagina badiiy, haqqoniy tarjima yarata oladi.

Demak, tarjima hamma vaqt muayyan darajada interpretatsiyadir. Tarjima interpretatsiyasi to'g'ri bo'lishi uchun uning ibtido nuqtasiga asarning bosh xususiyatlarini asos qilib olmoq kerak, uning obyektiv qimmatini saqlash esa tarjimonning maqsadi bo'lishi lozim.

Tarjima va sharh istilohlari mazmunan o'zaro yaqin, kelib chiqish jihatidan o'xshash va vazifadosh so'zlardir. Arab izohli lug'atlarida o'zbek tiliga "tarjimon" shaklida o'zlashgan so'zning o'zagi (تَرْجَمَ – tarjama) bo'lib, uning bosh ma'nosi – *tushuntirmoq*,

*izohlamoq, sharhlamoq*dir. Najmiddin Komilovning aytishicha, tarjima – forscha “tarzabon” soʻzidan arabiylashib oʻzgargan. “Tarzabon”-chiroyli soʻzlovchi, notiq, tili burro kishi degan maʼnoni anglatadi. “Tarzabon” soʻzi arabcha talaffuzda “tarjumon”ga aylanadi. Keyin fleksiya qoidasiga muvofiq bu soʻzdan yangi masdar (oʻzak), feʼl va otlar hosil qilingan. Demak, olimning fikricha, tarjimon – tarzabonning arabcha tarjimasi, tarjima esa undan hosil boʻlgan yangi istilohdir. Bu soʻzlar bora-bora arabiy shaklida forsiyoʻy va turkigoʻy xalqlar tillariga kirib kelgan. Ammo tarzabon arabiylashib, tarjumon boʻlgandan keyin ham nutqni bir tildan ikkinchi tilga oʻtkazuvchi shaxsni bildirishdan tashqari, oʻtkir tilli, fikrni ravon bayon etuvchi, notiq kishilarga nisbatan ham qoʻllangan. Shu zaylda, tarjima sharh bilan maʼnodoshlikda tushunilib kelingan va ular bir-birining oʻrnida qoʻllanavergan.

Tarjimada bir-biriga zid qonunlar asosan 4 tani tashkil qiladi:

1. Tarjima nazariyasi qanday boʻlmogʻi kerak. Adabiyotshunoslik asosiga qurilishi kerakmi yoki tilshunoslik zahirida rivojlanishi kerakmi?

2. Tarjimaning hususiyati qanday boʻlmogʻi lozim: asar hijjalab, soʻzma-soʻz tarjima qilinishi kerakmi yoki erkin ijodiy tarjima boʻlmogʻi kerakmi?

3. Asl nusxada aks etgan milliy oʻziga xoslikni qanday berish lozim. Tarjimada uning oʻziga tilga xos milliy xususiyatlarini berish kerakmi yoki uni oʻz milliy andozasiga xos berish kerakmi?

4. Hamma narsani bilib boʻladi, hamma narsani tarjima qilish mumkin yoki aksincha, til fikrning qolipi emas, balki dunyoni takrorlanmas bir tarzda oʻziga xos idrok qilishdan iboratdirki, shuning uchun bir tildan boshqa tilga tarjima qilish mumkin emas.

(Shu oʻrinda talabalarga tarjimashunos olim Gʻaybulla Salomov “tarjima jarayonining uch bosqichi nazariyasi” haqidagi fikrlarini keltirib oʻtamiz)

1970-yilda Leypsigda boʻlib oʻtgan lingvistik tarjima nazariyasiga bagʻishlangan simpoziumda tarjima masalalari A.D.Shveyser qoʻygan tarzda emas, balki boshqacharoq yoʻnalishda muhokama qilindi. Bular quyidagilardan iborat:

1. Ikki yoki bir nechta tilda lisoniy va uslubiy unsurlarning ekvivalentlik (muqobil) munosabatlarini oʻrganish.

2. Tarjima jarayonining qonuniyatlari tamoyillarini ishlab chiqish.

3. Tarjimalar matnini tahlil qilish sxemalarini (andozalarini) yaratish. Tarjimashunoslik fani umumfilologik aspektda o'rganiladi. U tilshunoslik, adabiyotshunoslik, stilistika fanlari bilan uzviy bog'liq. Tarjimashunoslik fani – tarjima qonuniyatlari, tarjima qilish tamoyillarini o'rganadigan filologik fan hisoblanadi. Tarjima o'zining estetik mohiyati bilan ijodiy jarayon hisoblanar ekan, uni tushunish uchun adabiyotshunoslik nazariyasiga ehtiyoj sezamiz. Bu adabiyotshunoslik ham tilshunoslik ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq, biri ikkinchisini to'ldirib keladi demakdir. Shuning uchun tarjimashunoslik fani adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlari bilan uzviy bog'liq.

* * *

Taniqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ibrohim G'afurovning jasorati, mashaqqatli mehnati samarasi o'laroq o'zbek kitobxoni mashhur irland adibi Jeyms Joysning "Uliss" romanini ona tilida o'qishga muyassar bo'ldi. Bu asar tarjimasining madaniy hayotimizda voqe bo'lgani haqida matbuotda A.Saidov, X.Do'stmuhammedov, T.Jo'rayev singari olimlarning maqolalari ham e'lon qilindi. Shuningdek, ingliz tili mutaxassisi, O'zMU doktoranti Tohir Umrzoqovning "Jahon adabiyoti" (2010, 1-son), "Zvezda Vostoka" (2011, 1-son), "Sharq yulduzi" (2012, 1-son) jurnallarida "Uliss" romanining ruscha va o'zbekcha tarjimalariga doir kuzatishlari bosildi. Maqolalarining birida muallif shunday yozadi: "Asliymonand tarjimaga erishish uchun asliyat badiiy-estetik qimmatini, ikki til lisoniy vositalarining lug'aviy muvofiqliklari hamda asliyat mansub bo'lgan xalqning moddiy, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy hayoti bilan bog'liq omillar tarjimada to'laqonli aks ettirilishi lozim". Bu o'rinli, ayni paytda, amalga oshirilishi o'ta mushkul talab. Ayniqsa, "Uliss"dek murakkab matnli asarni hatto ingliz tilini mukammal egallagan tarjimon ham asliyatga adekvat holatda o'girishning uddasidan chiqolmasa kerak. Zotan, "Uliss" (1922) nashr etilgandan buyon bu asar haqida yuzlab tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, romanning tub mohiyati va mazmuni, uslubi va tili, muallifning mahorat qirralari haqida olimlar hanuz yakdil bir fikrga kelolganlari yo'q.

Romanni asliyati dan rus tiliga o'g'irgan V.Xinkis va S.Xorujiy ham o'z tarjimalarini "Uliss"ni tarjima qilish yo'lidagi ilk urinish, "uni asliyatga monand tarjima deyishdan yiroqmiz", deya tan olishadi. Shu bois, T.Umrzoqovning "izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, rus tarjimonlari Xinkis va Xorujiyning asliyat tili mutaxassisi emasliklari tufayli "Uliss" asarining ruscha va o'zbekcha tarjimalarining asliymonandligi haqida gapirish o'rinli bo'lmaydi", degan fikri bahsli tuyuladi. Ona tilimizga "Urush va tinchlik", "Tinch Don", "Dekameron", "Bovari xonim", "Jinoyat va jazo" va yana boshqa o'nlab durdona asarlarni yuksak mahorat bilan o'g'irgan tarjimonlar "asliyat tili mutaxassisi" emas edi. Tarjimondan tilshunos mutaxassis bo'lishni talab qilish o'rinlimikan?

Maqola muallifi rus tarjimonlarini "Uliss" matnini real anglab yetmaganlikda, "komponent tahlil metodidan foydalanmaganligi oqibatida tarjimada asliyatda mujassamlashgan ma'noni noto'g'ri talqin qilganlikda" ayblaydi. Fikrini asliyat va tarjimadan misollar keltirib isbotlashga urinadi. Hatto matnda uchrovchi birgina "fearful" so'zining izohli lug'atlardagi yetti xil ma'nosini keltirib, ulardan asliyatda qo'llanilgan "fearful Jesuit" ("buyuk Jezuit") ma'nosini tushunib yetmagan holda, rus tiliga "Jezuit neschastniy" ("razil shayton") qabilida tarjima qilib xatoga yo'l qo'rganligini tanqid qiladi. Muallif fikricha, "bevosita tarjimoni amalga oshiradigan tarjimon lingvistik tarjimashunoslik nazariyalari bilan sug'orilgan asliyat tili mutaxassisi bo'lgan filolog-olim bo'lishi maqsadga muvofiq".

Yevropada katta shov-shuvga sabab bo'lgan "Uliss" romanini fransuzlar, italyanlar, ruslar, hatto gruzinlar ham o'z tillariga tarjima qilishga urinib ko'rdilar, ammo buning uddasidan chiqish qiyin kechdi. Oradan yillar o'tib, "Uliss" tarjimasini yakunlash Xinkis va Xorujiyga nasib etdi. Romanni tilimizga o'g'irishni esa mohir tarjimon va munaqqid Ibrohim G'afurov uddaladi. Maqola muallifining tarjimonlarga bildirgan e'tirozi va talabiga qo'shilib bo'lmaydi. Asliyat tilini mukammal bilgan tilshunos olim-tarjimonlar barmoq bilan sanarli bo'lib, ular ham yuksak tarjima asari yaratishga o'zlarini qodir, deb hisoblamaydilar. Masalan, o'tgan asrning 40-yillarida Shekspirning "Hamlet" fojeasini rus tiliga Pasternak, Lozinskiy va Morozov kabi so'z ustalari o'g'irishgandi. Ular orasida professor Morozov ingliz tilini mukammal egallagan

shekspirshunos olim edi. Shunday bo‘lsa-da, u “Hamlet”ning she’riy tarjimasiga jur’at etolmadi va asarning asliyatdan nasriy tarjima matnini yaratdi. Oradan qariyb yetmish yil o‘tgan bo‘lsa-da, Pasternak va Lozinskiy tarjimalari peshma-pesh chop etilib kelinmoqda. To‘g‘risi, Pasternak ham, Lozinskiy ham ingliz tilini mukammal bilgan emas. B.Pasternak Gyote “Faust”ini tarjima qilganida, M.Lozinskiy Dante “Ilohiy komediya”sini o‘girayotganida nemis va italyan tillarining bilimdonlari bo‘lganmidilar? Yo‘q, albatta. Ular, avvalo, ijodkor, so‘z ustasi va mahorat egasi edilar.

Shunday holni o‘zbek tarjimachiligida ham ko‘rish mumkin. Masalan, Erkin Vohidov nemis tilini mukammal bilgan tilshunos-olim bo‘lmagan holda Gyotening “Faust”ini o‘zbek tiliga maromiga yetkazib tarjima qildi, Abdulla Oripov italyan tili mutaxassisi bo‘lmasa-da, Dantening “Ilohiy komediyasi”ni o‘zbek tiliga san’atkorona o‘girdi. Ayni paytda nemis tili mutaxassisi, fidoyi tarjimon va so‘zshunos Posha Ali Usmon umrini “Faust”ni asliyatdan tarjima va talqin qilishga baxsh etdi. Nihoyat, asarni bevosita o‘zbek tiliga tarjima qilib, nashr ettirdi ham. Biroq tilshunos-olim “Faust”ning o‘zbek tilida mukammal tarjimasini yaratdim, deya da’vo qilmagan holda hamon Erkin Vohidovning tarjimonlik mahorati qarshisida ta’zim etadi. Xulosa shuki, T.Umrzoqovning “Uliss” tarjimonlari Xinkis va Xorujiy hamda I.G‘afurovni asliyat tilini mukammal bilmaganlikda, ularning lingvist-olim bo‘lmaganliklari sababli asliyat matnini tushunib tarjima qilolmaganlikda ayblashi o‘rinli emas. Eng muhimi, har uchchala tarjimonning “Uliss”dek murakkab asar tarjimasiga kirishganliklarining o‘zi katta jasoratdir.

Shu o‘rinda T.Umrzoqov maqolasida keltirilgan bir misolga e’tibor qarataylik. I.G‘afurov tarjimasida:

***Do‘stlar ichaylik xola uchun,
Bordir xolasi Malliganning,
Saranjom-sarishta ro‘zg‘ori,
Xonadoni Hanniganning...***

Maqola muallifi esa bu misralarning quyidagicha tarjimasini taklif qiladi:

***Malliganning xolasi bo‘lsin salomat,
Sababin so‘rasangiz men sizga aytay:
Xola farosati va saranjomligi
Hannigan ro‘zg‘orin qildi sarishta.***

Oddiy kitobxon ham I.G'afurov tarjimasidagi badiiylik jilolarini, ayni paytda T.Umrzoqov taklif etayotgan variantning bunday jozibadan mutlaqo xoli ekanini anglaydi. Agar "Uliss"ning tarjimasida so'zma-so'z amalga oshiriladigan bo'lsa, bilmadik, roman matni qanday mazmun va shakl kasb etarkan.

Maqola muallifi fikricha "rus tiliga noto'g'ri tarjima qilingan" "Uliss" romanining Xinkis va Xorujiy tarjimasida dastlab akademik D.Lixachyov so'zboshisi bilan va atoqli adib Ch.Aytmatovning nazaridan o'tib e'lon qilingani, ularning e'tirofiga sazovor bo'lganini ham eslab o'tish joiz.

* * *

I.G'afurov, A.Abduazizov, Q.Musayev, O.Mo'minov, N.Qambarov, Sh.Sirojiddinov kabi taniqli tarjimon va tarjimashunos olimlarimizning sa'y-harakati tufayli tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid darslik hamda o'quv qo'llanmalari chop etildi. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, "Jahon adabiyoti", "Sharq yulduzi", "Zvezda Vostoka", "O'zbek tili va adabiyoti", "Tafakkur", "Filologiya masalalari" jurnallarida tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid maqolalar, bahs-munozaralar bosilmoqda. Vaholanki, o'tgan "XX asr – tarjima asri" (P.F.Kaye) tarzida tarixda muhrlangan bo'lsa, XXI asrda tarjima jahon xalqlari va sivilizatsiyasi o'rtasidagi "kommunikativ vosita" (P.M.Toper) sifatida yanada ham muhim ahamiyat kasb etishi turgan gap. Bu fikr FITning so'nggi yillarda London, Moskva, Melburn va Shanxay simpoziumlarida ham olimlar tarafidan takror-takror aytilib o'tildi. Endilikda, "o'zbek adabiyoti asta-sekinlik bilan jahon adabiyoti jarayonlari bilan tutashib borayotgan" (I.G'afurov) ekan, tarjima amaliyoti va uning nazariy jihatlariga ham jiddiy e'tibor qaratmog'imiz lozim bo'ladi.

Professor Ninel Vladimirovaning "XX asr o'zbek nasri ravnaqi va badiiy tarjima muammolari" (rus tilida) monografiyasi, atoqli adabiyotshunos, zakiy tarjimon Ibrohim G'afurovning "Tarjimashunoslik asoslari" o'quv qo'llanmasi, Zuhridin Isomiddinovning "Turkiy epos va tarjima masalalari" monografiyasi, K.Quramboyevning "Tarjima va tarjimon mas'uliyati" qo'llanmasi, J.Kamol, E.Ochilov, M.Bekbergenova (qoraqalpoq adabiyoti), K.Tashanov (o'zbek-qoraqalpoq),

F.Sapayeva (o‘zbek-turkman, o‘zbek-qoraqalpoq) kabi olimlarning ilmiy-nazariy, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va kitoblari, tarjimashunosligimiz tarixi va nazariyasini qiyoslash mezoniga xos tadqiqot namunalarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Darsni xulosalash.

Uyga vazifa. Tarjima asarlar matnini o‘rganishning ilmiy asoslari mavzusi bo‘yicha qo‘shimcha ma‘lumot-materiallar to‘plash. Mavzuga doir 1ta ilmiy maqolani tahlillash, amaliy mashg‘ulotda joriy etishga tayyorlanish.

Nazorat uchun test savollari:

1. Bizgacha yetib kelgan qaysi tildagi matnlarning eng qadimiysi IV asr boshlariga mansub bo‘lgan?

- A) Pahlaviy
- B) Baxtariy
- C) Sug‘d
- D) Xorazm

2. “Eski maktublar” ni 1906-yilda qaysi olim topgan?

- A) A.Steyn
- B) Tomashevskiy
- C) Lixachev
- D) S.A.Reyser

3. Mo‘g‘ilistonning Dunxuan degan joyidantopilgan yodgorliklar qanday nomlangan?

- A) “Qadimgi maktublar”
- B) “Antik davr maktublari”
- C) “Eski maktublar”
- D) “Dunxuan maktublari”

4. Nechanchi asrlarda turkiy xalqlar O‘rxun-Enasoy yozuvidan keng foydalangan?

- A) V-VIII asrlarda
- B) V-VI asrlarda
- C) V-VII asrlarda
- D) V-IX asrlarda

5. Yozuv turlarining keng qo‘llanishi bilan birga qaysi san‘at ham rivoj topgan?

- A) xattotlik
- B) husnixat

- C) kitobatchilik
- D) xattotlik va kitobatchilik

6. Kimning yozishicha, “turk buddaviylari orasida ancha keng tarqalgan kitob

potxidir” – degan?

- A) Tomashevskiy
- B) S.A.Reyser
- C) A.Steyn
- D) Q.Sodiqov

Mustaqil o‘qish uchun adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili.– Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

2. Yo‘ldoshev B. Frazеologik uslubiyat asoslari.–Samarqand, 1999.

3. Abdurahmanov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi.– Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

4. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san‘atlar. – Toshkent: TDPU, 2001.

5. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

6. Yo‘ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2007.

7. Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. T.: Cho‘lpon., – 2016.

8. Navoiy asarlari lug‘ati (tuzuvchilar: P. Shamsiyev, S.Ibrohimov). –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972.

9. Navoiy dastxati. (Navodirun-nihoya). Nashrgatayyorlovchi, so‘zboshi muallifi S.G‘aniyeva. – T.: Fan, 1991.

10. Правила подготовки к изданию памятников литературы Востока. – М.: ИВЛ, 1959.

11. Rahmonqulova M. O‘zMU kutubxonasidagi Sharq qo‘lyozmalari katalogi. – T.: IPTD O‘zbekiston, – 2007.

12. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. –T.: Ma’naviyat, 2003.

13. Sirojiddinov Sh. XV–XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini. – Samarqand: Zarafshon, 1997.

14. Sulstonov I. Navoiyning “Mezonul–avzoni” va uning kritik teksti: filol.fan.nom.diss. – T.: Asosiy kutubxona. RD/1, 1947

MATNSHUNOSLIK FANI BO‘YICHA NAZORAT SAVOLLAR

1. Ta'sirlar zanjiri iborasi nimani anglatadi?
2. Mumtoz adabiy matnlarni eski o'zbek yozuvidan joriy alifboga tabdili muammolari nimalardan iborat?
3. Yevropada matnshunoslik ilmi qanday nomlanadi?
4. Diyorimizda matbaachilik tarixi qachondan boshlangan?
5. Matbaachilik deganda nimani tushunasiz?
6. Toshbosma kitob jarayonida kotib ishtirok qiladimi?
7. Jadid matnshunoslardan kimlarni bilasiz?
8. Matnshunoslik muammolari nimalardan iborat?
9. Matn tahlili necha qismdan iborat?
10. Amaliy matnshunoslik nima?
11. Matn tarixi deganda nimani tushunasiz?
12. Asl matnni tiklash deganda nima nazarda tutilgan?
13. Adab ilmi necha qismdan iborat?
14. Ta'limiy she'riyat nima?
15. Xiva xonligidagi kutubxonalar.
16. Jadidlarning matnshunoslik faoliyati.
17. Turkistonda matbaachilik tarixi.
18. Xiva xonligidagi kutubxonalar.
19. Matnshunoslik muammolari.
20. Asliyat va tabdil masalasi.
21. Yig'ma va ilmiy-tanqidiy matn.
22. Ilmiy-tanqidiy matn dastxat nusxaning shartli taqdimi sifatida.
23. Tanqidiy matnda ilmiy apparatning o'rni.
24. Matngahavolaqilinganilmiyko'rsatkichlartarkibi.
25. Sakkokiy g'azallarida adab ilmi unsurlari.
26. "Hududsiz jilva" kitobida nazariy manbalar tasnifi?
27. O.Matjon she'riyatining til xususiyatlari?
28. A.Navoiy qit'alari poetikasi.
29. Adab ilmi necha qismdan iborat?
30. Ta'limiy she'riyat nima?
31. Ilhom ehtiyoji va burch mas'uliyati deganda nimani tushunasiz?
32. "Orif" deganda kimni nazarda tutgan?

33. Lutfiy gʻazallarida adab ilmi unsurlari.
34. “Sharq mumtoz poetikasi” kitobida nazariy manbalar tasnifi.
35. R.Parfi sheʻriyatining til xususiyatlari.
36. A.Navoiy qitʻalari poetikasi.
37. Amaliy matnshunoslik tarkibi?
38. Taʻlimiy sheʻriyat qoidalari?
39. Xattotning faoliyat darajasi?
40. Munis gʻazallarida adab ilmi unsurlari.
41. “Oʻzbek matnshunosligi qirralari” kitobida nazariy manbalar tasnifi.
42. E.Vohidov sheʻriyatining til xususiyatlari.
43. Maqtaʻ nimani anglatadi?
44. Atoiy gʻazallarida adab ilmi unsurlari.
45. “Sharq mumtoz poetikasi” kitobida nazariy manbalar tasnifi.
46. T.Joʻra sheʻriyatining til xususiyatlari.
47. Amiriy tuyuqlari poetikasi.
48. Bayon ilmi necha qismdan iborat?
49. Irfoniy sheʻriyat deganda nimani tushunasiz?
50. Ilhom ehtiyoji va burch masʻuliyati deganda nimani tushunasiz?
51. Matn tarixi nima?
52. Ilmiy-tanqidiy matn necha qismdan iborat?
53. Qoʻlyozmada unvon tushunchasi nima?
54. Matnni tiklash jarayoni?
55. Qoʻlyozma hoshiyasida nima aks etgan?
56. Xorazmiy gʻazallarida adab ilmi unsurlari.
57. “Sharq mumtoz poetikasi” kitobida nazariy manbalar tasnifi.
58. “Sabotul ojizin”ning til xususiyatlari.
59. Badiʻ ilmi taʻrifi?
60. Matn tarixi nima?
61. Tabdil va tarjima orasida qanday mutanosiblik mavjud?
62. Atxitep nusxa deyilganida nima nazarda tutiladi?
63. XV asr bayoznavisligi.
64. Bayozlarning turlari.
65. XX asr bayozlarining oʻziga xos xususiyatlari.
66. Qoʻlyozma va toshbosma bayozlar.
67. Bayoz tuzishdan nima maqsad qilingan?
68. Bayozlarning farqi nimalarda koʻrinadi?

69. “Bayozi Muhallo”ga nechta shoirning asari kirgan?
70. Bayozni kimlar tuzgan?
71. Tazkiraning janriy xususiyatlari.
72. XX asr tazkiranavisligi.
73. Tazkiraning eng qadimiy namunasi.
74. Navoiy devonlari.
75. Tazkira soʻzining maʼnosi?
76. “Xazoyinul maoniy” kulliyotiga kirgan devonlar?
77. “Gʻaroyibus sigʻar”dagi janrlarni sanang?
78. Tazkiralalar faqat shoirlar hayotini yoritadimi?
79. Tarjima soʻzining tarixi?
80. “Bu qadimiy sanʼat...” kitobi tahlili.
81. Tarjimonchilikning adabiyotshunoslikdagi oʻrni.
82. Gʻaybulloh as-Salomning tarjimashunoslik faoliyati.
83. Tarjimasoʻzining maʼnosi nima?
84. Tarjimaning xususiyatini madaniy borat?
85. Tarjimanazariyasi adabiyotshunoslik asosiga qurilish kerakmi?
Yokilshunoslik zamiridari vujudlanadimi?
86. Sharh ilmi haqida tushunchangiz?
87. Matnshunoslikning tarkibiy qismlari?
88. Qoraqalpogʻistonlik tarjimashunoslarning ilmiy faoliyati haqida gapiring.
89. Maxtumquli sheʼriyatining til xususiyatlari. Tarjimonlari kimlar?
90. Gloss nima?
91. Konyektura-chi?
92. Tabdil nima, tarjima nima?
93. Muhammad Rahimxon Feruzning matnshunoslikka doir faoliyati?
94. “Sabotul-ujizin” asari mohiyati?
95. Germenevtika nima?
96. Ilmiy-tanqidiy matn talqini?
97. Adekvat tarjima?
98. Xillash, tasniflash, saralash – tushuncha va mezon?
99. Alisher Navoiy asarlarini tabdilini oʻrgangan olimlar?
100. Matniy tafovutlarni oʻrganish asoslari?
101. “Masnaviyi maʼnaviy”dan olingan shohbaytlarga nazmiy sharhlar?

DARS JARAYONIGA INTERFAOL USULLARNI JORIY QILISH

FSMU texnologiyasi interfaol usulida tarjima asarining asl mazmunini ochishni o'rgatish

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

• O'qituvchi har bir talabaga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarqatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishini iltimos qiladi. Bu yerda:

F – fikringizni bayon eting;
S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
M – ko'rsatgan sababinigizni asoslovchi misol keltiring;
U – fikringizni umumlashtiring.

• o'qituvchi talabalar bilan bahs mavzusi yoki muammoni belgilab oladi;

• yakka tartibdagi ish tugagach, talabalar kichik guruhlariga ajratiladi va o'qituvchi kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlarni tarqatadi;

• kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etadi;

• o'qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi;

• mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida talabalarining o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini

boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi-talabalar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

SWOT – TAHLIL

S – strength – KUCH

W – weariness – OJIZLIK

O – opportunity – IMKONIYAT

T – threat – TAHDID


(Kuchli tomonlari – hal etilayotgan vazifaning afzalliklari;

Kuchsiz tomonlari – maqsadga erishishda ichki muhit omillarining ta'siri;


Imkoniyat – belgilangan vazifalarni hal etishdagi eng ma'qul holat;

Tahdid – faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi tashqi muhit omillari;)

“Venna diagrammasi” usuli asosida asosiy elementlarni farqlash va asoslashga o'rgatish.



**Quyidagi texnologiya (18 - ma'ruza mashg'ulot mavzusi:
 "Tarjima asarlar matnini o'rganishning ilmiy asoslari") ham
 ijodiylikka yo'naltirilgan**



(Bu chizma to yechim topilgunga qadar yana davom ettirilishi mumkin).

Xulosa: Tarjima qonuniyatlari muayyan so‘zga yopishib olishni, uni aynan tarjima tiliga o‘tkazishni talab qilavermaydi, zarur holatlarda yon berishlar, chetga chiqishlarga ham yo‘l qo‘yadi. She‘riy tarjimada vazn va qofiya talabi bilan ba‘zida so‘zlar o‘zgartiriladi, faqat ma‘noning oyog‘ini osmondan keltirmasa bas.

“Muammo” texnologiyasi

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo‘llari va sizning harakatlaringiz
Tarjima asarning saviyasi	Tarjimon (J.Sharipov, M.Kenjabek, E.Ochilov va b.)	Mahorat (taklif va mulohazalar)
Me‘yor masalasi	Yaqin tillardan tarjimada birgina qofiyani almashtirish, ya’ni uni o‘zbekchalashtirish – butun bandning tuzilishini o‘zgartirish, she’rni chin ma’nosi bilan tarjima qilish degan so‘z bo‘ladi...	Bu esa – mehnat, ijodiy izlanishni talab qiladi...

Tartibi: Talabalarga o‘quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning echimini to‘g‘ri topishlariga o‘rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo‘yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba’zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatish.

MATNSHUNOSLIK FANI BO‘YICHA GLOSSARIY

Matnshunoslik fani – ajdodlarimiz hayotini butun tafsilotlarigacha bag‘riga joylagan qo‘lyozma manbalar o‘tmish bilan bugunni bog‘lovchi ko‘prik. Insoniy tamaddun tarixida qadimiy qo‘lyozmalarning ahamiyati shu darajada ekan, bu bebaho ma‘naviy merosga chinakam voris bo‘lish uchun ularni chuqur o‘rganish, o‘rganilganda hosil bo‘lgan bilimni ommalashtirish talab qilinadi.

Adabiyot – (arabcha تاييدا – **adab** so‘zining ko‘pligi) – keng va tor ma‘nolarda ishlatiladi. Keng ma‘noda fan va amaliyotning biror sohasi yutuqlarini umulashtiruvchi asarlar majmuiga nisbatan qo‘llaniladi: *texnikaviy adabiyot, qishloq xo‘jaligi adabiyoti, siyosiy adabiyot*kabi. Tor ma‘noda inson va voqelikni badiiy so‘z orqali chizilgan obrazlar vositasida aks ettiruvchi san‘at turini anglatadi, u *badiiy adabiyot* deb ham yuritiladi. Adabiyot avval og‘zaki shaklda mavjud bo‘lgan, yozuv paydo bo‘lgach, yozma shaklga o‘tgan. Adabiyot so‘z orqali inson tuyg‘u va kechinmalarini, uni qurshab turgan ijtimoiy hayot va tabiatni butun murakkabligi bilan ifodalash imkoniyatiga egadir. Shuning uchun ham u san‘atning boshqa turlariga qaraganda ommaviyroq hisoblanadi. Adabiyotning etakchi uch turi – *epos, lirika va drama* mavjud bo‘lib, badiiy asarlar mana shu uch tur asosidagi *janrlarda* yaratiladi. Keyingi paytlarda adabiyotshunoslikda paremik tur haqida ham mulohazalar bildirilmoqda

Badiiy adabiyot san‘atning boshqa turlari kabi *milliyligi, xalqchilligi* va *zamonaviyligi* bilan xarakterlanadi. Shunga ko‘ra adabiyot har bir xalq madaniyatining tarkibiy qismi sanaladi.

Arxeografiya – yozma manbalarni qidirib topish, ilk tavsifga olish, ilmiy muomalaga kiritishni nazarda tutadi. Kutubxona, turli fondlardagi qo‘lyozmalarning turkumlashtirilgan tavsifi, arxeografik qiyosiy tahlili manba matnini tuzishda muhim hisoblanadi. Bunday ishlar natijalari matn ustida ishlashning ravon borishini ta‘minlaydi.

Germenevtika – qadimgi yozma matnlar mazmunini izohlash bilan shug‘ullanadi, matnshunoslik uchun germenevtika asarning qadimda tutgan o‘rni, asar umumiy mazmuni kabi ma‘lumotlarni beradi.

Manba – arabcha “oqib chiqmoq”, “boshlanmoq”, “otilib chiqmoq”, “kelib chiqmoq” ma‘nolarini anglatuvchi *naba‘a* (نَبَأٌ)

fe'lidan “oqib chiqish joyi”, “boshlanish nuqtasi” “buloq” ma'nosidagi *manba* (منبع) so'zi yasalgan. Har qanday harakat, voqea-hodisaning boshlang'ich nuqtasi, avvali, boshiga nisbatan qo'llangan bu so'z ma'lum soha kishilarining ixtiyoriga binoan ijod mahsuli tushunchasida qarorlashdi va “manba” deyilganida muayyan *asar* (kitob) tushunila boshladi. Mutolaa qilingan kitob o'z o'quvchilarida turli xil o'xshash va farqli fikrlarni uyg'otadi. Fikrlarning o'xshashligi *qarashlarni*, farqliligi *yondashuvlarni* yuzaga keltiradi. Bu jarayon bamisoli kitobdan kitoblar otilib chiqayotgan, asardan asarlar tarmoqlanib, toshib oqayotgan oqimga o'xshaydi.

Matn – arabcha izohli lug'atlarda bu so'z “narsaning ustki, yuza qismi” deb ta'riflangan. Masalan, yerning ustki qattiq qismi (متن الارض), yo'lning o'rtasi (متن الطريق), kitob sahifasidagi yozuvlarning hoshiya va sharhlardan xoli asosiy qismi (متن الكتاب) *matn* so'zi bilan ifodalangan. Shunindek, bu so'zning “mustahkam; pishiq” kabi sifat ma'nosida kelgan turi ham mavjud. Tilimizga o'zlashgan *matonat*, *metin* so'zlari ham *matn* bilan o'zakdoshdir. “Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati”da tekst so'zi “avtorning asl so'zi, asarning qo'lyozmasi yoki nashr etilgan nusxasi”, “Slovar-spravochnik lingvisticheskix terminov» kitobida “yozuv yoki nashrda aks ettirilgan nutqiy asar (bayon qilish)”, “Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati”da “matn – mazmunan va mantiqan o'zaro aloqador bo'lgan gaplar yoki alohida olingan gap”, “Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati”da “matn – yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasi; tekst” tarzida turlicha ifodalangan. Matn bilan teng ma'noda qo'llanadigan *tekst* so'zi lotincha *textus* so'zidan olingan bo'lib, “to'qima mato; to'qish; o'rish; chirmash; qo'shish” kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so'zning nisbatan kengroq va qamrovli izohini 2010-yil “Akademnashr” nashriyotida chop etilgan “Adabiyotshunoslik lug'ati”da ko'rish mumkin.

Matn tarixi – muayyan matnning paydo bo'lishidan to oxirigi holatigacha davom etgan jarayon matn tarixini tashkil qiladi. Aksar matnlar ma'lum vaqt mobaynida subyektiv (muallif, kotib, nashrga tayyorlovchi, muharrir) va obyektiv (ijtimoiy) omillar ta'sirida o'zgarishga uchraydi. Matnshunosning vazifasi mana shu

o‘zgarishlarni aniqlash, ularni tarixiy, ilmiy dalillar bilan asoslash va shu yo‘l bilan asl matnni tiklashdir.

Odob – “adab” so‘zining ko‘plik shakli (آداب). Mumtoz adabiyotda “adab”ning ko‘pligi sifatida qo‘llanadi. Undan tashqari “odob” so‘zi inson faoliyatining ayrim sohalariga oid qoidalar va ularga rioya qilish ma’nosida ham ishlatiladi.

Tekst – yozuvda qayd etib qo‘yilgan nutq. Termin bu ma’nosida og‘zaki nutqqa qarshi qo‘yiladi; nutqiy asar, jumladan, adabiy asarning yozma (harflar) yoki og‘zaki (tovushlar) belgilar vositasida qayd etilgan konkret-hissiy (ko‘rish yo eshitish) qabul qilinadigan tomoni. Bu ma’nodagi *tekst* matnshunoslikning obyekti sanaladi; nutqiy kommunikatsiyaning nisbiy butunlik, yaxlitlik kasb etgan va nisbiy avtonomlik, alohidalik xususiyatiga ega eng kichik birligi, ya’ni adabiy-badiiy asar. Bu ma’nodagi *tekst*ning mazmuni uni tashkil qilayotgan nutq birliklari, ularning o‘zaro aloqalari bilangina cheklanib qolmaydi. Butun sifatida u muallif tomonidan muayyan nutqiy situatsiyada tug‘ilgan, uning butun sifatidagi mazmun-mohiyati o‘zidan tashqaridagi reallik bilan bog‘liq holda voqe bo‘ladi”.

Ta’sirlar zanjiri – Ma’lum adabiy asar bo‘yicha tadqiqot olib borayotgan manbashunos o‘zi o‘rganayotgan obyektning yaxlit butunlik sifatida yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan *ta’sirlar zanjirini* tiklaydi, tadqiq etilayotgan asarning bu silsiladagi o‘rnini belgilaydi, xalqalar orasidagi munosabatlarning umumiy qonuniyatlarini aniqlaydi. Manbashunoslik tadqiqi mana shu uzluksiz jarayon ichida kechadi.

Ekzegetika – diniy matnlarni filologik jihatdan tahlil etishda matnshunoslik ishlari bilan bevosita bog‘lanadi.

Piktografik yozuv – o‘z ramziy timsoliga ega har bir so‘zning predmetni to‘g‘ridan-to‘g‘ri rasm orqali ko‘rsatishi.

Ideografik yozuv – so‘z ma’nosining tushuncha orqali ifodalanishi.

Ieroglifik yozuv – logografik yozuvning rivojlangan, mukammal ko‘rinishi.

Ilmiy apparat (nauchniy apparat – scientific apparatus) – matn tarkibini detallashtirib, har bir qismni ilmiy ko‘rsatkichlar orqali izohlash. Ilmiy apparatning konstruksiyasi va uning ichki tarkibi

jarayonning ilmiy ko‘lami haqida bir butun tasavvur uyg‘otadi, balki tadqiqotning yakuniy ko‘rgazmali maketi vazifasini o‘taydi.

Ilmiy-ommabop (akademik) matn (nauchno – populyarniy tekst – popular science text) – yagona, yangi topilgan asarni e‘lon qilish uchun yoki ilmiy-tanqidiy, shuningdek, yig‘ma-qiyosiy matn asosida matnning soddalashtirilgan variantini tuzish.

Ilmiy-tanqidiy matn (nauchno-kriticheskiy tekst – scientific-critical text) – matn tarixining muallif matniga yaqin variantini ilmiy tekstologik dalillar asosida asliyat yozuvida taqdim qilish. Ko‘p nusxaga ega manba matni ustida ishlash, uning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlash butun “injiqlik”lari bilan o‘ta nozik va mas‘uliyatli, to‘xtovsiz aniqlik va intizom talab etuvchi “zahmat”lari bilan mashaqqatli, ammo samarali mehnatdir.

Interiorizatsiya (interiorizatsiya – interiorization)–tashqi real ishdan ichki ideal ishga o‘tish jarayoni.

Interpolyatsiya (interpolyatsiya – interpolation) – hoshiyadagi bitiklarning asosiy matnga qo‘shib yuborilishi. Matnshunos asosiy matnning o‘ziga xos uslubi va strukturasi jiddiy o‘rganish orqali interpolyatsiyani aniqlash mumkin. Shuningdek, qo‘lyozma matnining ilgari o‘chib ketishi, yirtilishi natijasida ma‘no mavhumligiga sabab bo‘lgan o‘rinlarini va ayni shu nusxadan ko‘chirilgan keyingi nusxalardagi matn bo‘laklarini qiyoslash orqali interpolyatsiyani ajratib olish mumkin.

Ichki unvon (voennoe zvanie – military rank) – asosiy matnning turli rangdagi to‘q siyohlar bilan jadvalga olinishi. Matnlar turli shakllarda – sidiq‘a, ikki ustun, to‘rt ustun, zina, romb, qiya holda joylashtirilishi mumkin. Bezak vazifasini o‘tovchi bu shakllar ko‘proq she‘riy matnlarda qo‘llangan.

Kolofon (kolofon – colophon) – kotibning qo‘lyozma so‘nggida keltiradigan ma‘lumotnomasi. Unda kotib nomi, qo‘lyozmaning ko‘chirish sanasi va kotib mulohazalari beriladi.

Kommunikatsiya (kommunikatsiya – communication)– o‘zaro hamfikrlilikka boshlovchi, ikki tomonlama axborot almashinuvi jarayoni.

Gloss – qo‘lyozma nusxalarning hoshiyalarida uchraydigan izohlar, to‘ldirishlar, aniqlik kirituvchi mulohazalar, boshqa manbalarga havolalar, oyat va hadislarning hoshiyadagi tafsirlari.

Konyektura (konyektura – conjecture) – matn kontekstidan kelib chiqib, matndagi xato yozilgan o‘rinlar yoki o‘qib bo‘lmas darajada o‘chib ketgan so‘z va jummalarni matn mantig‘idan kelib chiqib tiklash. Konyektura beixtiyor yoki e‘tiborsizlik oqibatida yo‘l qo‘yilgan xatolarni tuzatishga nisbatan qo‘llanadi.

Kooperatsiya (kooperatsiya – cooperation) – hamkorlik faoliyatini tashkillashtirish, guruh maqsadlariga erishishni ta‘minlab beruvchi o‘zaro ta‘sir.

Kotib (pisar – scribe) – qo‘lyozmani ko‘chiruvchi shaxs. O‘rta Osiyo xattotlik san‘ati tarixini o‘rgangan xattot A.Murodov ta‘kidlaganidek, Sharqda kotiblik bilan nom chiqargan har bir shaxsni biz oddiy texnik vazifasini bajaruvchi kishi sifatida emas, balki o‘z zamonasining madaniy hayotida favqulodda katta rol o‘ynagan ilm-ma‘rifat ahli va yirik madaniyat arbob sifatida taniymiz.

Lug‘aviy tafsir (leksicheskoe tolkovanie – lexical interpretation) – oyatlarning til xususiyatlari, xususan, so‘zlarning sintaktik bog‘lanishlarini o‘rgatadi.

Lug‘at ilmi (znanie slovary – knowledge of dictionary)–tilning lug‘aviy birliklari haqidagi ilm bo‘lib, turli xil lug‘atlarning tuzilish qoidalaridan boxabar bo‘lgan holda u qoidalarini mumtoz matnga to‘g‘ri qo‘llashni o‘rgatadi.

Litografiya (toshbosma) – yassi chop etish, ya‘ni matn oldindan qog‘oz varag‘iga bitilgan va tosh shaklga teskarisi tushirilgan aksdan nusxa ko‘chirish usuli. Toshbosma usulda dastlabki, asosiy ishni xattot bajargan. Xattot bosiladigan kitobning matnini maxsus qog‘ozga ko‘chirgan. Bu qog‘ozdagi matn tosh qolip sirtiga o‘tkazilgan va unga kimyoviy ishlov berilgan. So‘ngra ana shu tosh qoliplardan nusxalar olingan. Xattot toshbosmaga matn ko‘chirganda asosan nasta‘liq xatidan foydalangan.

Mixbosma (tipografik) – mix shaklidagi metall harflarni qo‘lda terish orqali kitob bosilishi. Bunda arab yozuvining nasx yozuvidan keng foydalanilgan.

Epitafiya – qabrtoshga yozilgan bitik (adabiyotda to‘plamdan joy olgan mo‘jaz she‘r).

Xillash – ko‘p nusxali matnning turlarga ajratish: qo‘lyozma, toshbosma, bosma.

Tasniflash – xillangan matn turini sanalar bo‘yicha ajratish: asr, yil, oy.

Qiyoslash – qo‘lyozmalarning xati va matn to‘liqligi solishtiriladi: badxat, xushxat; matnning boshi va oxiri bo‘lgani holda, ayrim baytlarning tushib qolishi, boshlanishi yo‘q qo‘lyozmalar, oxiri yo‘q qo‘lyozmalar, boshlanishi ham, oxiri ham yo‘q qo‘lyozmalar.

Saralash – qiyos natijasida saralangan nusxalarning “matn butunligi” aniqlanadi. Ya’ni, qadimiylilik, to‘liqlik, husnixat, saqlanish sifatining yaxshiligi kabi qiyos uchun muhim jihatlarning imkon qadar bitta qo‘lyozma matnida jamlanishi – “tom butunlik”ni, bittadan ortiq qo‘lyozma matnlari asosida jamlanishi – “matnlar aro butunlik”ni anglatadi.

Adaptatsiya – soddalashtirish, moslashtirish.

Adekvat tarjima – harjihatdanmos, aynanteng, asl nusxada mazmun va shakl jihatdan muvofiq tarjima (Lotincha “adekvatus” – “tenglashtirilgan, teng, muvofiq, aynan”).

Analogiya – o‘xshashlik, bir-biriga yoki boshqasiga o‘xshashlik, ya’ni muqobil tushuncha bilan berish.

Aniqtarjima– so‘zma-so‘z aniqlikka intilish.

Antinomiya – yunoncha anti – zid, nomos – qonun degani.

Asliyat – tarjimaga asos bo‘lgan asar, original.

Badiiyuslub – badiiy adabiyot, badiiy asarlarga xos bo‘lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta’sirchanlik kuchli bo‘ladi.

Vorisiylik – bir tarjimadan ikkinchisiga meros bo‘lib o‘tadigan xususiyatlar.

Yozuvchi uslubi – yozuvchining badiiy xarakter yaratishdagi o‘ziga xos tili, tasvirlash manerasi.

Idioma – ma’nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma’nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma’no beruvchi ixcham ibora.

Ijodiy tarjima – asar g‘oyasi va badiiy o‘ziga xosligini o‘zgartirishni emas, balki unga ijodiy munosabatda bo‘lish orqali mazmuni, intonatsiyasi, uslubini yangi tilda tiklash demakdir. Ijodiy tarjima so‘zma-so‘z tarjimaga ham, o‘zgartiruvchi erkin tarjimaga ham zid tushunchadir.

Interpretatsiya – lotincha “interpretasio” so‘zidan olingan bo‘lib, tushuntirish ma’nosini bildiradi.

Interpretatsiyalash – sharhlash, izohlash, talqin qilish, tushuntirib berish, ochish demakdir.

Kolorit – lotincha “kolor”, italyanча “kolorito” soʻzidan olingan boʻlib, rang, boʻyoq, manzara maʼnosini bildiradi. Kolorit deganda tasviriy sanʼatda real hayotni haqqoniy aks ettirish uchun ishlatiladigan ranglarning oʻzaro mutanosibligi tushuniladi.

Mahalliy kolorit – biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirish.

Milliy kolorit – badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlar majmui.

Medium – lotincha “oʻrta” degani boʻlib, boshqa til orqali tarjima qilish maʼnosini beradi.

Mualliflashtirilgan tarjima – muallifning oʻzi tomonidan yoki muallif va tarjimon hamkorligida amalga oshirilgan tarjimalar.

Manbaning kompleks tadqiqi (istochniki kompleksnogo issledovaniya – sources of complex investigation) – har bir adabiy hodisani ijodkor konsepsiyasi, manba yoʻnalishi va matn aniqligi kabi masalalar mushtarakligida fundamental asosda oʻrganish.

Sinxronist – nutqni notiq bilan ketma-ket tarjima qilib boruvchi tarjimon.

Soxta ekvivalentlar – tarjimashunoslikda shaklan oʻxshagani bilan maʼnolari bir-biridan jiddiy farq qiladigan soʻzlar.

Soʻzma-soʻz tarjima – soʻzni soʻz bilan, hech narsani almashtirmasdan yoki qayta guruhlashtirmasdan qilingan tarjima.

Tabdil – muayyan tilning qadimiy shaklidan zamonaviy shakliga tarjima qilish.

Taglama – asl nusxa tilini bilmaydigan tarjimon uchun maxsus tayyorlab beriladigan soʻzma-soʻz, jumlama-jumla, satrma-satr (sheʼriy tarjimada) aynan tarjima.

Tarjima tanqidi – tarjima jarayonini kuzatib, chop etilayotgan matnga koʻmaklashadi. Tarjima tanqidi tarjimachilik ishining amaliy va tashkiliy masalalarini koʻtarib chiqadi, adabiy tanqid bilan hamkorlikda rivojlanadi.

Tarjima nazariyasi – tarjima qonuniyatlari, tarjima qilish prinsiplarini oʻrganadigan filologik fan.

Tarjima tarixi – tarjima adabiyotining vujudga kelishi va rivojlanish tarixini oʻrganish bilan shugʻullanuvchi fan.

Tarjimashunos – tarjima tarixi, nazariyasi va tanqidi bilan shugʻullanuvchi mutaxassis, olim.

Tarjimon – bir tildagi ogʻzaki nutq yoki yozma matnni ikkinchi tilga tarjima qiluvchi kishi, mutarjim, tilmoch, tarjimachi.

Tarjimonlik – tarjimaqilish, tarjimaishibilanshugʻullanish. Kasboti.

Translitratsiya – biror yozuv harflarini boshqa yozuv harflari bilan berish, koʻrsatish. Tarjimada joy va kishi nomlari, turli atamalar va milliy xos soʻzlarni boshqa til belgilari yordamida aynan ifodalash.

Hijjaviy tarjima – turli-tuman tillarning soʻzlari oʻrtasidagi nuqul tashqi, shakliy oʻxshashlikka asoslangan mexanik tarjima.

Erkin tarjima – bu asl nusxaning gʻoyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini oʻzgartiruvchi, uni har jihatdan boshqa izga solib yuboruvchi tarjima prinsipi.

Tazkira – arabcha soʻz boʻlib, “zikk” yaʼni eslatib oʻtish”, “qayd qilish”, “yozib qoʻyish” degan maʼnolarni anglatadi. Tazkira-shoirlarning hayoti va ijodi haqida maʼlumot beruvchi, asarlaridan namunalari keltirilgan antologiya-majmuadir.

Devon – sharq adabiyotida sheʼriy toʻplam. Devonda biror shoir sheʼrlari qofiya yoki radiflariga koʻra arab alifbosi tartibida (qofiyalanib keluvchi soʻzlarning oxirgi harflari asosida) joylashtiriladi.

Kulliyot – (arab. toʻla, butun) muayyan adibning toʻla yoki asosiy asarlar toʻplami. Kulliyot adib ijodida xarakterli ayrim janrlardagi asarlardan tuzilishi ham mumkin, masalan, “Kulliyoti qasoyidi Xoqoniy”, (“Xoqoniy qasidalarini kulliyoti”).

Bayoz – (arabcha ضايب – **oqlik**) sheʼrlar toʻplami. Bayozlar odatda ikki yoki undan ortiq shoirlar sheʼrlaridan tashkil topadi. Bayozlar asosan mashhur shoirlarning lirik asarlaridan tuzilgan. Bayozlar maʼlum bir gʻoya yoki muayyan dunyoqarashni tashviq va targʻib qilmaydi, umuman saylab olingan asarlarda davriylik ham boʻlmaydi. Kimning sheʼridan qanchalik kiritish bayoz tuzuvchining xohishiga bogʻliq boʻlgan. Bayozlar sarbayoz (soʻzboshi), lirik sheʼrlar (asosiy qism), xotima va ilovadan tashkil topadi. Ayrim bayozlarda asarlari kiritilgan shoirlar nomi mundarija sifatida beriladi. Bu xil toʻplamlar mualliflarning oʻzi yoki adabiyot ixlosmandlari va xattotlar tomonidan tuzilib, adabiyot targʻibida muhim vazifa bajargan.

Tahqiq – jarayonimatndagi har bir soʻz, har bir jumlaning muallif matniga muvofiqligini ilmiy dalillar bilan har tomonlama asoslashdan iborat. Bu faoliyat bilan shugʻullanuvchi olim sharqda “muhaqqiq” atamasi bilan nomlangan.

Arsh – buyuk taxt. U xuddi olam ustidagi qubbaga oʻxshash boʻlib, uni farishtalar koʻtarib yuradi.

Ayyub – Ayyub alayhissalom Allohning ikki katta imtihoniga uchradi: unga ogʻir dard berildi va butun mol-mulki qoʻlidan ketdi. Alloh taollo har bir bandasini sinaganiday suyukli paygʻambarini ham qattiq sinovga tutdi. U molidan ajraganiga ham, ogʻir dard berilganiga ham, yaralari qurtlab ketganiga ham sabr qilib, Allohga shukr aytaverdi, Undan dardiga shifo soʻradi. Duosi ijobat boʻlib, kasali tuzaldi, yoʻqolgan mollarini Alloh ortigʻI bilan qaytardi va unga birnecha farzand ato qildi. U qavmiga yana yigirma yil paygʻambarlik qildi. Qurʻoni karim oyatlarida Ayyub alayhissalom musibatlari bayon etilib, uning sabri bandalarga ibrat oʻlaroq maqtalgan. Ayyub – mumtoz sheʻriyatda sabr-qanot timsoli boʻlib keladi.

Qurama matn – Turli qoʻlyozma nusxalardagi matniy tafovutlarning birma-bir almashtirilib borilishi asosida yuzaga kelgan matn. Bu jarayonda aniq nusxa tanlanmaydi. Bunday matn rus matnshunosligida XVIII – XIX asrlarda qoʻllanilgan.

Harakat – maqsadni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan jarayon.

Hoshiya (polya – brim) – jadvalga olingan matnning tashqarisida izoh berish, parallel ravishda boshqa bir asar matnini joylashtirish, matnda belgi qoʻyilgan oʻrinlarni tafsiloti bilan yoritish, ilovalar berish.

Sharh (tolkovanie – explanation) – ochmoq; bayon qilmoq, tushuntirmoq, yoritmoq, izohlamog; boʻlaklab kesmoq.

Editsiya – hujjatli va mumtoz matnlarning ilmiy nashrini amalga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Mirziyoyev Sh. Adiblar xiyobonidagi suhbatlari // www.uza.uz. 2017- yil 4- fevral.

3. Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. –T.: O‘zbekiston, 2009. – 9b.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, “Sharq” nashriyat matbaa konserni, 1997. – 130b.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, 1997- yil, 29-avgust. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.. Toshkent, “Sharq” nashriyat-matbaa konserni, 1997. – 31 b.

6. Uzluksiz ta’lim tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi. T.: Sharq, 2002.

Ilmiy-uslubiy asarlar:

7. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 145 b.

8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. (Ta’lim muassasalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar) T.: 2008. – 84; – 125-132 b.

9. To‘xliyev B., Inog‘omova R., Abdulhatova R. Darsliklar bilan ishlash metodikasi. – T.: 2008. – 21b.

10. Yo‘ldoshev M., Isoqov M., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.

11. Abdurahmanov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi.– Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

12. Zohidov R. Sabotul ojizin – ilmiy-adabiy manba. –T.: Muharrir, 2012.

13. Zufarov T. Xatta’limi –T.: Meros, 2010.

14. Ismoilov M. Hujjatshunoslik va Markaziy Osiyo diplomatikasi. O'quv qo'llanma. – T.: Akadernashr, 2010.
15. Ishoqov F. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. T.: “Fan”, 1976.
16. Yo'ldoshev Ibrohim. O'zbek kitobchilik terminologiyasi. – T.: Fan, 2004.
17. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. T.: Fan, 2008.
18. Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. T.: Muharrir, 2011.
19. Munirov Q. Sharq qo'lyozmalari. – T.: O'zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1962.
20. Munirov Q., Nosirov A. Alisher Navoiy qo'lyozma asarlari katalogi. –T.: Fan, 1970.
21. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'atitarixidan. – T.: Fan, 1971.
22. Navoiy asarlari lug'ati (tuzuvchilar: P. Shamsiyev, S.Ibrohimov). –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.
23. Navoiy dastxati. (Navodirun-nihoya). Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi muallifi S.G'aniyeva. – T.: Fan, 1991.
24. Erkinov A. Matnshunoslikka kirish. –T.: Respublika ta'lim markazi, 1997. – B.23.
25. Sapayeva F. Tarjimashunoslik: matn va mahorat. T.: Cho'lpon., – 2016.
26. Rahmonqulova M. O'zMU kutubxonasidagi Sharq qo'lyozmalari katalogi. – T.: IPTD O'zbekiston, – 2007.
27. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. –T.: Ma'naviyat, 2003.
28. Sirojiddinov Sh. XV–XVI asrlar tarixiy va tazkira-esdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini. – Samarqand: Zarafshon, 1997.
29. Boboyev T., Boboyeva Z. Badiiy san'atlar. – Toshkent: TDPU, 2001.
30. N.Rahimjonov. Adabiyotshunoslikning yangi bosqichi. T.: “Sharq yulduzi”, 2011-y. 5-son.
31. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. – T.: Fan, 1971. – B.4.

32. SodiqovQ. Turkiy matnnavislik tarixidan. Qadimgi yozma yodgorliklar. – T.: Yozuvchi, 2000. – B.131.
33. Abduljamilkotib. Tuhfatus-salotin. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2007. – B.7.
34. HayitmetovA. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. –T.: Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1959. – B.25.
35. Sirojiddinov Sh. Navoiy navosidan bahra olib... – Samarqand: Zarafshon, 1996. – B. 5–6.

Elektron ta'lim resurslari:

www.o'zbekadabiyoti.com

<http://www.wikipedia.org>

<http://www.microsoft.com>

<http://www.tóitter.com>

<http://www.gosuslugi.uz>.

<http://www.ziyonet.uz>.

<http://www.kutubxona.uz>.

<http://www.arxiv.uz>.

e-adabiyot.uz/jahon/jahon-adabiyot...

<http://www.uza.uz>.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-mavzu. O‘zbek matnshunosligi tarixi va uning xorijiy matnshunoslikdan farqli jihatlari	6
2-mavzu. O‘zbek matnshunosligining shakllanish bosqichlari ...	17
3-mavzu. Matnshunoslik va manbashunoslikdagi mushtarak qonuniyatlar	30
4-mavzu. Matnshunoslikning nazariy asoslari	39
5-mavzu. Mumtoz adabiy muammolarga editson nuqtayi nazardan yondashuv tamoyillari	51
6-mavzu. Kitobatchilik tarixi	66
7-mavzu. Xattotlik	76
8-mavzu. Qadimiy toshbosma va bosma kitoblar	86
9-mavzu. Matniy tafovutlarni o‘rganish asoslari	95
10-mavzu. Sharh ilmi ildizlari	105
11-mavzu. Navoiy asarlarining sharhlanishi	124
12-mavzu. Gloss, konyektura va interpolyatsiya	137
13-mavzu. Ko‘p nusxali qo‘lyozmalar ustida ishlash	145
14-mavzu. Yagona nusxali qo‘lyozma ustida ishlash prinsiplari	154
15-mavzu. Matn tarixini kompleks o‘rganish	167
16-mavzu. Qo‘lyozma manbalar	180
17-mavzu. Tazkira, devon, kulliyot	190
18-mavzu. Tarjima asarlar matnini o‘rganishning ilmiy asoslari	200
Matnshunoslik fani bo‘yicha nazoratsavollar	211
Dars jarayoniga interfaol usullarni joriy qilish	214
Matnshunoslik fani bo‘yichaglossariy	218
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	227

Qaydlar uchun

O'quv nashr

SAPAYEVA FERUZA DAVLATOVNA

**MATNSHUNOSLIK FANIDAN
MA'RUZA MASHG'ULOTLARNI
TASHKIL ETISH**

(O'quv- uslubiy qo'llanma)

*«Tafakkur-bo'stoni» nashriyoti
Toshkent – 2020 yil*

Muharrir: A.Abdujalilov
Tex.muharrir: Y.O'rinov
Musahhih: A.Xo'jabekov
Sahifalovchi: U.Vohidov
Dizayner: D.O'rinova

Litsenziya AI №190, 10.05.2011-y.
15.02.2020 yil chop etishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qo'g'oz. «Times New Roman»
garnituras. Shartli bosma tabog'i 14.5. Nashr bosma
tabog'i 13, 48. Adadi 400. Buyurtma №15-2

«TAFAKKUR BO'STONI» MCHJ.
100190, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,
9-mavze, 13-uy. Telefon: +99890 000-33-93.
E-mail: yunusali_1987@mail.ru

«TAFAKKUR BO'STONI» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 1-uy.



Sapayeva Feruza Davlatovna – 1977-yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, To‘rtko‘l tumani-da tug‘ilgan, millati o‘zbek. 1999-yil Qoraqalpog‘ davlat universitetini muvaffaqiyatli tamomlagan. Mehnat faoliyatini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Beruniy tumani 13-maktabda boshlagan. 2000–2004-yillar Beruniy qurilish va kommunal xo‘jaligi kasb-hunar kollejida o‘qituvchi. 2004-yili Nukus shahar 17-sonli maktabda o‘qituvchi. 2005–2016-yillar Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining O‘zbek tili va adabiyoti

kafedrasida assistent o‘qituvchi, 2017-yildan O‘zbek adabiyoti kafedrasida katta o‘qituvchisi, 2018-yildan hozirgacha O‘zbek adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori. Pedagogik staji – 21 yil.

Ilmiy ishlari adabiyoshunoslik va tilshunoslik nazariyasi, metodika, Turkmaniston va O‘zbekiston adabiy aloqalari, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik masalalariga bag‘ishlangan.

Sapayeva Feruza Davlatovna adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik bo‘yicha institutdagi yetakchi mutaxassislardan. U hozirgacha 2 ta o‘quv qo‘llanma, 1 ta monografiya, 20 dan ortiq ilmiy-ommabop maqolalar muallifi. Shuningdek, uning ilmiy tadqiqotlari yuzasidan 60 dan ortiq ilmiy maqolalari (jami 80 dan ortiq) mamlakatimiz va chet el ilmiy jumallarida chop etilgan. Ayni damda Qoraqalpog‘iston tarixi (umumta‘lim maktablari uchun darslik) fani 7-, 8-, 9-, 10-sinflar uchun yozilgan darsliklarning tarjimoni, mas‘ul muharriri hamdir (2018–2019-yy.).

F.D.Sapayevaning tadqiqoti yuzasidan nashr etilgan maqolalari Turkiya, Turkmaniston, Ozarbayjon, Ukraina, Germaniya, Chelyabinsk, AQSH kabi mamlakatlarda chop etilayotgan adabiy nashrlarda muntazam ravishda e‘lon qilinib boriladi.

Doktorlik dissertatsiya mavzusi: “Maxtumquli she‘rlari o‘zbekcha tarjimalarining qiyosiy tahlili”. Tadqiqotning maqsadi – Maxtumquli she‘rlarining o‘zbekcha tarjimalari misolida qardosh tillardan tarjimaning ilmiy-nazariy qonuniyatlari va eng muhim tamoyillarini ochib berishdan iborat.

Oilali, 2 nafar farzandning onasi.